

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT
UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINING
O‘QITILISH MASALALARI: TAHLIL
VA TADQIQ” NOMLI LOYIHA
DOIRASIDA TASHKILLANGAN
“TAHLIL VA TALQIN”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

Farg‘ona – 2025

III

Tashkiliy qo‘mita/ Организационный комитет/ Organization committee

Mas’ul muharrir/Отвественный редактор/ Executiva editor

Oripova Gulnoza, filologiya fanlari doktori

Tahrir kengashi a’zolari

A.Sabirdinov – f.f.d., professor

M.Dehqonova – f.f.b.f.d. (PhD), v.b. dotsent

G‘.Abduvahobov – f.f.b.f.d. (PhD), v.b. dotsent

J.Sayidolimov – f.f.b.f.d., PhD



*“Tahlil va talqin” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. Ilmiy nashr. – Farg‘ona: 2025.*

1-SHO‘BA

**ADABIYOT NAZARIYASI, ADABIYOT TARIXI VA ZAMONAVIY
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

INSONIY BURCHNING OLIY KO'RINISHI

Habibullo Jo'rayev,

FarDU adabiyotshunoslik kafedrası professori, f.f.d.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy badiiy asarlaridagina emas, ilmiy-filologik hamda tarixga oid asarlarida ham ezgu nom qoldirish hamda komil axloq targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, Navoiy ijodida ota-onaga munosabat masalasi alohida o'rin egallaydi. Ajdodlarga ehtirom ulug' shoir nazarida insoniy burchning oliy ko'rinishiga aylanadi. "Hayrat-ul abror"da otani quyoshga, onani oyga o'xshatishi, ularning farzand tarbiyasi bilan kunu tun band bo'lishlari haqida haroratli misralar bitishi, Farhodning otasiga ko'rsatgan behad ehtiromini kitobxonga ibratli tarzda bayon etishi, Iskandarning o'limi oldidan butun dunyoni zabt etishi onasi oyog'ining gardiga ham arziqligiga iqror bo'lishini tasvirlashi va boshqalar shular jumlasidandir. Ayniqsa, junun sahosida kezib, butun borliqni unutgan Qays onasining xastaligini eshitgach, o'zini qo'lga olishi va ona rizoligini olish uchun shoshilishi badiiy jihatdan yuksak tasvirlangan. Bunday misollarni ulug' so'z san'atkori ijodidan yana ko'plab keltirish mumkin.

Shoir ota rizosini Alloh rizosiga tenglashtirib, shunday deydi: "...otang parvardigoringdur bu jihattinkim, Tengri taolo seni yo'qdin bor qilmoqqa vosila uldur va tufuliyatdin shabob sinnig'acha parvarish berguvchi ul". Yana bir o'rinda esa "Ato xatosin ham ato bilgil", ya'ni otang yo'l qo'yan xatodan ibrat olishing ham tangrining inoyatidir, degan xulosaga keladi. Alisher Navoiyning o'zi ham ota-onaga cheksiz hurmat va ehtirom ruhida tarbiyalangan edi. Masalan, "Nasoyim-ul muhabbat" asarida Mavlono Lutfiy haqida so'z yuritir ekan, "Faqirni volidayn (ota-ona) rizoligiga da'vat qilur erdi", deb yozadi. "Munshaot" deb ataluvchi maktublar to'plamida esa Husayn Boyqaroning o'g'illari, xususan, valiahd hisoblangan Badiuzzamonga otasini izzat-hurmat qilish, uning ra'yiga qarshi bormaslik, dilini og'ritmaslik haqida kuyunib nasihat qiladi. "Majolis-un nafois"da esa iste'dodli, xush axloqli yosh ijodkorlar haqida ma'lumot berayotib, ularni barkamol qilib tarbiyalagan otalarini ham esga olib o'tadi.

Sakkiz yoshli Alisher ulug' hukmdor va mashhur donishmand Ulug'bekning o'z farzandi Abdullatif tomonidan qatl etilganiga guvoh bo'lgan edi. Keyinchalik Abdullatifning padarkushlik voqeasini eslab, quyidagilarni taassuf bilan yozgan: "Abdullatif mirzo savdoyi mijoz va vasvasiy tab' va devonasor kishi erdi... O'tar

dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasini o'lturdi. Har oyinakim, saltanat Sheruyaga vafo qilgancha anga qildi".

Garchi padarkushlik fojeasini o'zining "Farhod va Shirin" dostonida epik ko'lamda, yuksak badiiy ko'rinishlarda, estetik jihatdan ta'sirchan tasvirlagan bo'lsa-da, keyinroq "Tarixi muluki Ajam" asarida bu mavzuga yana qaytadi. O'zigacha yetib kelgan turli ma'lumotlarni saralashga, oydinlik kiritishga, mantiqiy asoslashga harakat qilib, mazkur voqeani tarixiy jihatdan ham jonlantirishga intiladi. Xisravni tarixiy shaxs sifatida gavdalandirishga harakat qilar ekan, muallif uning fojeasini ikki narsada ko'radi: xudbinlik va badbinligi orqasida Shirinni rashk qilib, begunoh Farhodni halok qilishi, ikkinchidan, Muhammad alayhissalomning uni Islomga da'vat etib yo'llagan maktubini yirtib, hidoyat yo'lidan bosh tortishi tufayli saltanati parokandalikka uchrashi. Natijada u o'z o'g'li Sheruyaning sa'y-harakati tufayli ajal topadi. Alisher Navoiy, odatdagidek, nasriy bayondan so'ng nazmiy ifodaga murojaat qilib, quyidagi xulosaga keladi:

***Chu Xusrav bo'lub mulk ila sarfaroz,
Muluk ichra topti bu nav' imtiyoz.
Vale charx aylab sitamsozliq,
Zavolida ham berdi mumtozliq.***

"Tarixi muluki Ajam" muallifi Xisravning fe'l-atvoridagi salbiy xususiyatlarni qanchalik qoralamasin, uni qatl etgan Sheruyaning qilmishlarini ham oqlamaydi. "Otasini o'lturg'ondin so'ngra aning ham jismig'a azim ranj tori bo'lub, yetti oydin so'ngra hayot va diatin ajal mutaqoziysig'a topshurdi. Mulk hirsidin o'n yetti og'o-inisini dag'i o'lturdi...

***Chu Sheruya dun bargashta baxt
Bu yanglig' laqablar bila oldi taxt.
Hanuz aylamay taxt uzra maqom,
Yurudi falak taxta sori xirom.***

Alisher Navoiyning ota-ona hamda farzandlar munosabati mavzusiga turli janrlardagi asarlarda qayta-qayta murojaat qilishiga tarixiy vaziyat hamda shart-sharoit ham sabab bo'lgan. Husayn Boyqaroning o'z o'g'illari bilan qayta-qayta nizo va nifoqlarga borishi, hatto ota-bolalarning bir-biriga qilich ko'tarishi moziyni chuqur biluvchi donishmand, istiqbolni ko'ra oladigan davlat arbobi, shoir va mutafakkir Alisher Navoiyni iztirobga solgani tabiiy. Shuning uchun ham u goh lirik she'rlarida, goh epik dostonlarida, ba'zan esa tarixga oid asarlarida ota-o'g'il nizolari yaxshilikka olib kelmasligini, bebaqo dunyoda faqat ezgu nom bilan boqiy qolish mumkinligini muttasil ta'kidlaydi.

Istiqlool sharoitida milliy o'zligimizni anglash, qadriyatlarimizga har tomonlama e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, oila hamda farzand tarbiyasi

jamoatchilikning, xususan, ta'lim muassasalarining diqqat markazidan o'rin oldi. Binobarin, ota-ona hamda farzandlar o'rtasidagi munosabatlar ustida so'z borar ekan, ulug' ajdodimizning o'lmas adabiy merosi, purma'no o'gitlari bizga hamisha ko'makka kelishi shubhasiz.

BOTU IJODIGA BIR NAZAR

Akbar Sabirdinov,
Farg'ona davlat universiteti professori,
ailologiya fanlari doktori

“Zamon yaxshi ishni ham, yomon ishni ham o'zi bilan birga olib ketadi, ammo tarix qoladi. Kishilarga avlodlarga meros bo'lib qoluvchi ishlari xatti-harakatlari bilan, jo'shqin ummonga intilgan daryo to'lqinlari singari xalq va insoniyat tarixiga kirib qoladilar. Agar inson o'zi uchun yashamay, aksincha, boshqalar uchun, kelajak avlodlarning baxt-saodati uchun yashasa, minnatdor avlodlar uni aslo unutmaydi”. Otashin shoir va jamoat arbobi, o'zbek madaniyati, san'ati va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan yorqin siymo Botu-Mahmud Hodiyeu haqida uning rafiqasi Valentina Petrovna Vasilyeva tomonidan aytilgan ushbu so'zlarning nechog'lik haqiqat ekanligini yillar sinovi ko'rsatib turibdi. O'tgan asrning 20-yillarida Botu taxallusi bilan ijod maydoniga kirib kelgan ushbu iste'dod sohibi yuzdan ortiq she'rlarni o'zida jamlagan “Umid uchqunlari” (1921), “To'lqin tovushlar” (1929) nomli she'riy, “Tursun” nomli (1929) hikoyalar to'plamini nashr ettirgan. Shuningdek, u “Tog' qizi”, “O'tmishdan bir ertak” dostonlarini, “Hayit harom bo'ldi” hikoyasini, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid o'ndan ortiq maqolalarni, tarjima asarlarini ham adabiyotimizga tuhfa etgan. Afsuski, uning Moskvadagi Butirka qamoqxonasida hamda Solovets orollaridagi lagerda yozgan she'r, doston va romanlarining taqdiri noma'lum bo'lib, bizgacha yetib kelmagan.

Botu 1904 yil 16 mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. Stalin siyosatining asossiz ayblovlari bilan 1930 yil 23 iyul kuni qamoqqa olingan. Shimoliy Muz okeaniga tutash borsa-kelmas Solovets orollariga o'n yillik muddatga axloqtuzatish lageriga surgun qilingan. Hukm o'zgartirilib, yashirin ravishda Toshkentga, so'ng Moskvaga olib borilib, 1938 yil 9 may kuni sho'ro davlatining dushmani sifatida otib tashlangan.

Botu 1927 yilda o'zbeklardan birinchi bo'lib Moskva Davlat universitetining iqtisod bo'limini tugatdi. Shu yilning yanvaridan O'zbekiston

K(b)P Markaziy Qo'mitasida instruktor, so'ng Markazqo'mning matbuot bo'limi mudiri, 1928 yil yanvaridan Samarqand okrug partiya tashkiloti targ'ibot va tashviqot bo'limi mudiri, 1929 yil 28 avgustdan qamoqqa olingunga qadar Xalq maorif komissarining o'rinbosari vazifalarini bajardi. U qaysi lavozimda ishlamasin millat ravnaqi, uning kelajagi uchun qayg'urdi. Yosh iste'dodlarni unib-o'sishi, ta'lim olishiga ko'mak berdi. Masalan, u taniqli aktrisa Sora Eshonto'rayevaning 1925 yilda Moskvaga o'zbek dramaturgiyasiga o'qishga yuborilishiga ko'maklashgan bo'lsa, Toshkentda bolalar uyida tarbiyalanayotgan Hasan Po'latning ilk she'rlarini "Alanga" jurnalida chop etilishiga yordam berdi.

Botuning maorif sohasidagi faoliyati Farg'ona bilan ham bog'liqdir. 1930 yilning 5 mayida Farg'ona ta'lim-tarbiya texnikumi bazasida O'zbekiston hukumatining (o'tgan yili tashkil topganligining 85 yilligi nishonlangan) Farg'ona davlat pedagogika instituti (hozirgi Farg'ona davlat universiteti)ni ochish to'g'risidagi qarori e'lon qilinadi. O'sha kuni Botu Xalq maorif komissarining o'rinbosari sifatida Farg'onaga kelib zobitlar uyida institutning ochilishi to'g'risidagi qarorni o'qib, nutq so'zladi. U yig'ilish so'ngida Farg'ona yoshlariga bag'ishlangan "To'g'ri so'z" she'rini o'qib beradi. She'r quyidagi otashin satrlar bilan bezangan edi:

Farg'onamning yetim-yesir, dardli yo'qsil yoshlari,

"Yurtimizning ko'p baholi tuproqlari, toshlari.

Bir necha yil qon emdi", deb bo'lmang sira umidsiz.

Umidsizlik yo'qliklarga yo'l boshlagay, shubhasiz.

Ilgariga yuguringiz, yuksalingiz, uchingiz!

Qarshi chiqsa tog'ni yanching tanda borkan kuchingiz!

O'z ijodini she'riyatdan boshlagan Botu ilk davrlarda Fitrat va Cho'lpon ta'sirida asarlar yaratdi. Ulardagi so'z va iboralar, obrazlar tizimi va mavzu ko'laminin ustozlar ijodiga yaqinligi fikrlarimizga dalil bo'la oladi. Botuning "Temir qoziq yulduziga", "O'zbek qiziga", "Kuz kunida", "Hijron to'lqini", "Yetar endi!", "Bir ovoz" kabi qator she'rlarida ana shu holni ko'ramiz. Ammo ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi keskin o'zgarishlar, "bosmachi" deb yomonotlik qilingan milliy-ozodlik harakatining tor-mor etilishi, adabiy muhitining sho'rolar foydasiga o'zgarishi Botu bilan uning ustozlari ijodini qarama-qarshi qutbga ajratib yubordi. U Fitrat she'riga javoban "Mening kunduzim" (1923), Cho'lponga bag'ishlab "Kel, birga kulaylik" (1924) she'rlarini yozib, siyosiy qarashlaridagi o'zgachalikni izhor etdi. Ustozlari grajdanlar urushi, bolsheviklar siyosati natijasida vayronaga aylangan, oh-nolalarga to'la kechani, qayg'u-alamlar to'la buzilgan o'lkani tasvirlasa, u baxt bilan to'liq kunduzni, shodlik va quvonchlarga hamroh yurti kuyladi. Lekin

zamondoshlarining xotiralariga qaraganda har qanday holda ham ularning ustoz va shogirdlik munosabatlariga g'ubor qo'nmagan. Fitrat ham, Cho'lpon ham Botuning yuksak iste'dodini qadrlaganlar. Uni ro'yobga chiqishiga ko'mak berganlar.

Laziz Azizzoda shunday yozadi: "Botuning ruhida zarif bir tuyg'u, nozik his, odamiylik bor edi. U rohatni, zavqni mehnatkashlarga xizmat qilishdan olgan. U keng manglay, kuchli irodali, azim bo'lish bilan birga samimiy, o'ziga xos ajib bir shaxs edi". Mashhur ma'rifatparvarning shoir haqidagi aytgan fikrlarining ko'pchiligi uning she'rlarida aks etgan edi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Erksizlik og'ushidagi shaxsning mungli, g'amgin kechinmalari tasviri Botu ilk ijodining asosini tashkil etgan bo'lsa, keyinroq kelajakka ishonchni tarannum etuvchi nekbin she'riyat o'rin ola boshladi. Bu holning obyektiv va subyektiv sabablari bor edi. Birinchidan, adabiy muhit, davr talabi shuni taqazo etsa, ikkinchidan Botu sajiyasidagi ko'tarinkilik, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi ana shunday she'riyatning yuzaga keltirdi. Shoir she'r ta'sirchanligini, o'ynoqi ohangdorlikni ta'minlash uchun turli evfonik vositalar: tovush va so'z takrorlaridan mohirlik bilan foydalanadi. U rafiqasi Valentinaga bag'ishlangan quyidagi she'rda xalq qo'shiqlariga xos sodda ifodaviylikdan, o'ynoqi musiqiylikda, nozik qochirmalar asosidagi tasvir uslubidan foydalanganligini ko'ramiz:

***Jilmayib nozlarga to'lgan ko'zlaringdan aylanay,
G'uncha ko'nglingdan sochilgan so'zlaringdan o'rgilay.
Zarracha kir qo'nmagan o'ylaringdan aylanay,
Borlig'imni allalovchi kuylaringdan o'rgilay.
Ka'bamiz bir, men bilan sen, birga uchgil u tomon,
Keng fazoda qarshi kuchni birga yenggil har zamon...***

Aforizm va xalq maqollarini eslatib yuboruvchi quyidagi satrlar ifoda siqiligi bilan diqqatimizni tortadi: "Dardlilar dard anglamas dardsizga so'zlov bilan, Ko'rsatib bo'lmas quyoshni ko'zsiza maqto'v bilan" ("Surma!"). "Odam odamdir, sajdalar ortiq, Odam so'zlari odamga tortiq" ("Isyon"), "Yov kuchi qo'zg'aldi; yovga yov kerak, Ov izlagan yovga qarshi ov kerak" ("Kurash uchquni"), "Bir kun ko'rasan: yot kishi kimdir, Bir kun bilasan: yot kishi jimdir..." ("Men yot emas"), "Yashashga to'g'ri qarab yur, buzilmasin sira, Yo'lingda eski, buzuq fikrni qilma kira!" ("Birinchi o'git"), "Har zarraning borlig'idur aylanish, Aylanishsiz dunyoda yo'q jonlanish..." ("Parcha").

Botu "Tog' qizi" (1928), "O'tmishdan bir ertak" (1929) dostonlari bilan ushbu janr rivojiga munosib hissa qo'shdi. Ularning birida tog'li qishloqda

o'sgan go'zal Qumri va Teshaning Sharifjon Eshonga qarshi kurashi tasvirlansa, ikkinchisida Soraoy va Turdining muhabbati tarixi aks etgan.

“Hayit harom bo'ldi” hikoyasidagi voqealar bir kunda – yolg'on arafa kuni bo'lib o'tadi. Mulla Oxunjon domla va hoji pochcha suhbatidan ma'lum bo'ladiki, yangi zamon do'kondorlarni harob etgan. Do'konlarining barchasi hukumat ixtiyoriga o'tkazilib, savdo kasodga uchragan. XX asr boshlarida sho'ro hukumatining o'tkazgan turli “tadbir”lari tufayli bu yilgi hayit Mulla Oxunjon domla fikricha sharofatli kelmaydi. Hoji esa o'g'li Hojimuroddan havotirda. Uni savdo bilan qayergadir jo'natgan. Mulla Oxunjon do'konlarining buzib tashlanganidan, kosiblarning og'ir ahvolidan nolisa, Hoji boylar yo'q bo'lib ketayotganidan, o'zimizdan boy chiqib muhtasham imoratlar qurmayotganidan, mamlakat boyligi kimlarningdir qo'liga o'tib ketayotganidan tashvishda. U vayron etilgan rastalarning narigi tomonidagi savlatli binoni ko'rsatib shunday deydi:

- “Ana u binoda piyomeri, piyonermi degan go'daklar o'qiydilar-bolshavoylikka tayyorlanadilar. Har kun erta-yu kech rat-rat...” Shu payt bir bola shoshib kirib Hojimurodning qamoqqa olganliklarini aytadi. Hoji birdan o'rnidan irg'ib turganicha “-Voy, hayit harom o'ldi... Bularni otib o'ldirdilar...” deydi. “Kampiratif” do'konidan yaqinda yangi hukumat tufayli ajragan chitfurush Hoji endi o'g'lidan ham judo bo'ladi. Hikoyada ijtimoiy-siyosiy parokandalik tufayli ro'y berayotgan xunrezliklar realistik yoritiladi. Unda jamiyatni sinflarga ajratib birini ikkinchisining dushmanga aylantirgan siyosatning mohiyati fosh etiladi.

Botuning “Elchi afandiga javob va rijo”, “Qani kim bor?” “Turmushda xotin-qizlar”, “Nafis adabiyot sohasida o'z-o'zini tanqid”. “Til va imlo masalasi ustida bir necha so'z”, “Til va imlo konferensiyasi yakunlari”, “Uchinchi yil bo'sag'asida”, “Ikki kecha” kabi qator maqolalarida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon, muhit, matbuot, tilshunoslik masalalari tahlil etiladi. Ulardagi muammoli masalalarga o'ziga xos munosabat bildiriladi.

Botu va uning zamondoshlari murakkab, dolg'ali davrda yashab, ijod etdilar. Tabiiyki, ularning asarlarida o'z davrining muhri bor. Shu bois, ularning ba'zilar hozirgi talablarga javob bermasligi, ba'zilarini esa hozirgi o'quvchi qabul qilavermasligi mumkin. Ammo bulardan qat'iy nazar, Botu asarlari yuksak badiiyati, mazmundorligi bilan hozirgi tamal tosh qo'yilayotgan mustaqillik davri adabiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishiga shubha yo'q.

G'URBAT VA MA'RIFAT TIMSOLI

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich

FDU, f.f.d., professor

Ro'ziyev Temurbek Erkinjonovich

FDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asr o'zbek ma'rifatparvar adabiyotining yirik namoyandalardan biri — Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda shoirning ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy-tanqidiy g'oyalari o'z aksini topgan asarlari tahlil qilinadi. Furqatning “Sayohatnoma”, “Bayonoti Furqat”, kabi asarlari orqali xalqni ilm-fan, madaniyat va taraqqiyotga da'vat etishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada shoir ijodining o'zbek jadidchilik harakati shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri, uning adabiy-estetik qarashlari hamda ma'naviy merosi bugungi zamon nuqtayi nazaridan baholanadi. Tadqiqot natijalari Zokirjon Furqat shaxsini o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining asoschilaridan biri sifatida o'rganishning dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Zokirjon Furqat, o'zbek adabiyoti, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, vatanparvarlik, ijtimoiy tanqid, Sayohatnoma, Bayonoti Furqat, ma'naviy meros, ilm-fan, taraqqiyot.

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the life and creative activity of Zokirjon Khulmuhammad ogli Furqat, one of the prominent representatives of 19th-century Uzbek enlightenment literature. The study examines the poet's works that embody ideas of enlightenment, patriotism, humanism, and social criticism. Special attention is given to Furqat's major works such as “Sayohatnoma” (Travelogue), “Bayonoti Furqat” , and his letters, which called people to science, culture, and progress. Furthermore, the article highlights Furqat's influence on the formation of the Uzbek Jadid movement, his literary-aesthetic views, and the spiritual legacy he left behind. The findings of the study emphasize the relevance of studying Zokirjon Furqat as one of the founders of Uzbek enlightenment literature.

Keywords: Zokirjon Furqat, Uzbek literature, enlightenment, Jadidism, patriotism, social criticism, Sayohatnoma, Bayonoti Furqat, spiritual heritage, science, progress.

Furqatning ijodiy merosi o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal namunalaridandir. U ehtiros to'la g'azallari, erkka tashna musaddaslari, hijron va g'ariblik iztiroblari barq urib turgan she'riy maktublari bilan adabiyotimizga toza va tiniq ohanglar olib kirdi. Zamonasi uning peshonasiga g'ariblik va musofirlikni

bitdi. U bir umr Vatanidan ko'ngil uzolmadi, qaytmoqlikning esa uddasidan chiqolmay yashadi. U ko'ngil tubiga yashirgan pinhon dardlarini she'rga to'kdi. Oshiqona g'azallari qo'shiqqa, xalq mulkiga aylandi. Uning asarlari o'z Vatanida ixlosmandlarini topdi. Garchi shoir jisman qaytolmasa-da, she'rlari, asarlari qaytdi.

To'qqiz yoshidan she'r yoza boshlagan shoir to umrining oxiriga qadar badiiy ijoddan to'xtamadi. O'z davrining farzandi sifatida esa o'sha paytda ro'y berayotgan siyosiy voqealarni mamnuniyat bilan qarshi oladi. U o'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda mustamlakachilik zulmini o'tkazayotgan rus hukumat idoralariga, ilm-faniga hamda Ovrupoga dastlab mo'jizaday qaradi. Rus ziyolilarining Turkistondagi vakillari shoirga jaholat, xurofot va qoloqlikdan chiqishga ko'maklashuvchi xaloskor bo'lib tuyuldi. Bularning orqasida o'z ustunliklarini namoyish qilish va u orqali zabt etilgan yurtni iqtisodiy va ma'naviy asoratda saqlash maqsadi yotganligini o'z vaqtida tushunib etmadi. Shu bois ayrim asarlarida chor Rossiyasi davlati siyosatini, hayotga tatbiq etayotgan yangiliklarini maqtadi, tashviqot yurgizdi. Dam Farg'ona va Marg'ilonda, ba'zan Qo'qon hamda Toshkentda umr o'tkazdi. O'qituvchilik qildi, xattotlik, mirzalik bilan shug'ullandi. 1880 yillarda Furqat shoir sifatida Farg'ona vodiysida mashhur edi. Shoir oddiy xalq hayotini chuqur o'rgana boradi. U o'z mamlakatining iqtisodiy va madaniy jihatdan tez sur'atlarda rivojlanishini istaydi. O'z she'rlarida zulm ostida ezilgan mehnatkash xalqning his-tuyg'ulari, orzu-kechinmalarini aks ettiradi, istibdod va zulmga la'nat o'qiydi. Furqat o'zbek xalqining ozod, baxtiyor hayotga bo'lgan orzusini, ayniqsa, "Sayding qo'yaber, sayyod" musaddasida yorqin tasvirladi. Shoir hayotni chuqur muhabbat bilan seydi. Garchand, uning asarlari g'urbat, hijron motivlari bilan to'la bo'lsa-da, boshqalarni ham hayotni, vatanni sevishga chaqirdi. Shunga ko'ra shoir lirikasi, asosan, hayotbaxsh, rostgo'y lirikadir.

Shoir fors-tojik, rus va arab tillarini o'rganishga kirishadi. Birmuncha vaqt tarjima ishi bilan ham shug'ullanadi. 1889- 1891- yillar mobaynida Toshkent shahrida yashashi uning ijodida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan yangiliklarni kuzatib borar ekan, xalqning ko'zini ochishga, ilm-fan o'rganishga chaqiradi. "Turkiston viloyatining gazetasi"da rus ilm-fani, madaniyatini targ'ib etuvchi she'rlari paydo bo'ladi. Gazeta muharriri N.P.Ostroumov taklifi bilan mazkur nashr uchun ko'plab maqolalar yozadi. Xorijga sayohati davomida ham turli mamlakatlarda ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi taassurot va xulosalarini gazetaga muntazam yo'llab turadi. Aytish mumkinki, ma'rifatparvar shoir yurtimiz ijtimoiy tarixida xalqaro jurnalistika yo'nalishiga ham asos soldi. Adabiyotshunoslar mazkur yozishma, ma'lumotlar va xabarlarga umumiy qilib "Furqatnoma" deb nom berganlar.

XIX asrning 90-91-yillarida Zokirjon Furqat hayoti ijodiy ko'tarinkilik va ijtimoiy faollik bilan xarakterlanadi. Agar shoir arxiviga oid faktlarga murojaat qilinsa, u "Turkiston viloyatining gazetasi" tahririyatida rasmiy xodimi sifatida faol ishlagani, gimnaziya, bosmaxona, teatr va boshqa ma'rifat o'choqlari bilan tanishganligining guvohi bo'lamiz. Shoir garchand rus fani va yangiliklarining targ'ibotchisi sifatida ko'zga tashlansa-da, bu yillar shoirning badiiy ijodiga ham samarali ta'sir ko'rsatdi, uning uchun eng sermahsul ijod davri bo'ldi.

Shunisi diqqatga molikki, shoir Evropa san'atining, jumladan, teatrning tarbiyaviy mohiyatini juda to'g'ri tushunadi va shunday yozadi: "Alarning ko'rsatgan tamoshosi bizning masxarabozidek mahz kulgu uchun emas ekan, balki ibrat uchun ekandur. Bu tariqadakim, o'tgan zamondagi odamlarning ahvolini va kechungan tirikchiliklarini va ul mardum arolarida bo'lg'on muomalalarni taqlid qilib ko'rsatur ekan va ba'zi kulgulik o'yunlar bo'lsa borganlar andin ham ibrat va ham xursandliq istifoda qilur ekanlar.

Ul tamoshoxona katta bir oliy imorat o'lub, anda erkak va xotunlar kelib, hammalari kursida yaxshi odob tutub o'lturur ekanlar. Bu sababdin anda uyotlik o'yun va uyotlik so'z mutlaqo bo'lmas ekan. Bu bobda ham qilg'on manzumalarim gazetda muntashirdur. Men harnakim ko'rdum, fikrim yuborib yozdim..."(1; 61)

Xullas, "Furqatnoma"da shoir ijodiy faoliyatining keng qamrovi va mavzu jihatdan rang-barangligini ko'rsatuvchi ishonarli dalillar, qator asarlarining yuzaga kelishi va tarqalishiga oid qiziqarli ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Zokirjon Furqat hayoti va faoliyatiga shu kungacha shoir va ma'rifatparvar sifatida qarash ustuvorlik qiladi. Vaholanki, u qaysi mamlakatda bo'lmasin, o'sha yurtning iqtisodiy ahvoli, biznes va savdo sotiq ishlari bilan ham qiziqadi.(2;99-100)

Shoir ma'rifatparvarlik ruhida yozgan mazkur asarlarini hayotdagi qoloqlikka qarshi kurashish, kishilar ongida ilg'or tuyg'ular uyg'otish uchun yaratar edi.

Furqat ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan adabiy merosdir. Shoir noma'lum sabablarga ko'ra o'z vataniga qayta olmadi. Ammo umrining oxirigacha shu vatan deb yashadi, vatanidagi yoru birodarlarini unutmadi. Ular bilan so'nggi nafasigacha xat yozishib turdi, adabiy aloqada bo'ldi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'z zamonining eng ilg'or, ma'rifatparvar kishilaridan biri sifatida manguqlikka daxldor siymolardan biridir. U adabiyotimiz tarixida, bir tomondan g'urbat va g'ariblik timsoli, ikkinchi tarafdan esa ma'rifat jarchisi, yangiliklarni olqishloqchi ijodkor sifatida mangu qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фурқат. II томлик танланган асарлар, II том,. Ўздавлат бадий адабиёт , Тошкент, 1959
2. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. Тошкент “Маънавият” . 1999
3. Jabborov N. Furqat./ oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent, Ma'naviyat. 2004.
4. Furqat. Tanlangan asarlar. –Toshkent. Adabiyot va san'at, 2009
5. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Тошкен Адабиёт ва санъат, 1984

NAVOIY VA AMIRIY G‘AZALLARIDA XALQONA HIKMATNING BADIY TALQINI (BIR MAQOL MISOLIDA)

Qobilova Zeboxon Bakirovna

Qo‘qon universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Payg‘amova Shirin Jakbarali qizi

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

+998905874517 shirinpagamova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy va Amiriy g‘azallaridagi xalqona hikmatning – ayniqsa maqollar orqali ifodalangan **irsoli masal** san’atining – badiiy ahamiyati bir maqol misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot shoirlarning oshiqona kechinmalarni xalq tajribasi bilan bog‘lab tasvirlash mahoratini ochib beradi. Shuningdek, maqollar lirik ohangga **tabiiylik va hayotiylik** qo‘shishi, parallelizm va tamsil kabi usullar esa kechinmaning ta’sirchanligini oshirishi ko‘rsatib beriladi. Maqola mumtoz lirika bilan xalq og‘zaki ijodining uzviy bog‘liqligini yoritadi hamda kitobxonni Navoiy va Amiriy she’riyati badiiyatining **nozik ma’no qirralari** bilan tanishtiradi.

Kalit so‘zlar: folklorizm, irsoli masal, xalqona hikmat, maqol, oshiqona lirika, parallelizm, tamsil, badiiy ta’sir.

Аннотация: в статье рассматривается художественная значимость народной мудрости – особенно приёма **ирсоли масал**, выраженного через пословицы, – в газелях Алишера Навои и Амирая. На примере одной пословицы показано, как поэты связывают любовные переживания с народным опытом. Пословицы придают лирике **естественность и жизненность**, а приёмы параллелизма и аллегории усиливают эмоциональное воздействие стихов. Работа раскрывает органическую связь

классической лирики с устным народным творчеством и знакомит читателя с **тонкими смысловыми гранями** поэзии Навои и Амирая.

Ключевые слова: фольклоризм, ирсולי масал, народная мудрость, пословица, любовная лирика, параллелизм, аллегория, художественная выразительность.

Annotation: the article examines the artistic significance of folk wisdom – particularly the use of **irsoli masal** expressed through proverbs – in the ghazals of Alisher Navoi and Amiriy. Using one proverb as an example, it shows how the poets link their lyrical expressions of love with the wisdom and experience of the people. Proverbs add **naturalness and vitality** to the lyrical tone, while devices like parallelism and allegory enhance the emotional resonance of the verses. The study highlights the organic connection between classical lyric poetry and oral folk heritage, introducing readers to the **subtle layers of meaning** in the works of Navoi and Amiriy.

Keywords: folklorism, *irsoli masal*, folk wisdom, proverb, lyrical poetry, parallelism, allegory, artistic expressiveness.

Mumtoz adabiyotimizning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqligidir. Shoirilar o‘z g‘azal va qasidalarini, doston va masnaviylarida xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan maqol-matallarni, afsona va rivoyatlarni, xalqona ohang va tamsillarni ijodiy o‘zlashtirib, ularni badiiy ifoda vositasiga aylantirganlar. Bu hodisa adabiyotshunoslikda **folklorizm** deb yuritiladi. Bu xususda Bahodir Sarimsoqov folklor va folklorizm tushunchalarini aniq ajratib bergan. “Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki **folklorizm** atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir «ishlov» berilgan bo‘ladi” [1.351].

Folklorizmning eng ko‘p qo‘llangan badiiy usullaridan biri – **irsoli masal** (she‘riy matnda maqol yoki matalni keltirish yoki unga ishora qilish) san‘atidir. Irsoli masal baytning ichki ma‘nosini kuchaytirib, xalq tafakkuri bilan bog‘laydi, lirikaning tabiiy xalqchil ohangini yuzaga keltiradi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy xalq og‘zaki ijodi durdonalarini badiiy asarga singdirish borasida beqiyos mahorat ko‘rsatgan ijodkordir. U xalq tafakkurining asrlar davomida sayqal topgan hikmat va tajribalarini she‘riyatning badiiy-estetik mezonlari bilan uyg‘unlashtirib, ularga yangi ma‘no qirralari, chuqur falsafiy hamda emotsional ohang bag‘ishlay olgan. Shu bois Navoiy ijodida xalq donishmandligining nazmga ko‘chishi milliy poetik tafakkurning yuksak badiiy darajada ifodasidir. Buning isboti sifatida uning g‘azallarida tez-tez uchraydigan maqol va hikmatlar oshiqning kechinmalarini hayotiy lavhalar, tabiat hodisalari va

ijtimoiy-axloqiy qarashlar bilan uyg'un tarzda tasvirlaydi. Shoirning quyidagi bayti buni yaqqol ko'rsatadi:

Ishqing o'tinki yoshurdum, el aro yoydi raqib:

“Kim isitmani nihon tutsa, qilur marzi a'yon” [2.263].

Bu misrada Navoiy xalq orasida mashhur bo'lgan “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” maqolini to'g'ridan-to'g'ri nazmga olib kiradi va oshiqning ichki dardini tashqi hayotiy manzaralar bilan bog'laydi. Ushbu usulning samarasi shundaki, lirikaning obrazli qatlamiga real hayotdan olingan hikmat qo'shilib, kechinma yanada ta'sirchan, ishonarli bo'ladi.

Adabiyotshunos M. Hakimov ta'kidlaganidek, “bunday poetik usullar Navoiy she'riyatining xalqona ruhini va hayotiyligini kuchaytiradi. Shoir ruhiy kechinmalarni odamga tanish hayotiy tajriba va tabiat manzaralari bilan yonmayon tasvirlab, **parallelizm** usulidan mohirona foydalangan. Natijada, oddiy hikmat va maqollar yangi badiiy ma'no kasb etib, she'rning ta'sirchanligi va estetik qiymati oshgan” [3.130]. Shu ma'noda Navoiy xalq donishmandligini ijodiy qayta ishlash, unga badiiy «ishlov» berish orqali irsoli masal san'atini yuksak darajaga ko'targan.

Maqsud Shayxzoda Navoiy ijodidagi shu kabi holatlar haqida: “Navoiy ruhiyatni moddiy-jismoniy manzaralar bilan mantiqan bog'lay olishi daho iste'dodidan dalolatdir”, deb yozadi [3.130].

Orazin ko'rdum nihon, ashk ayladi sirrimni fosh,

“Yoshurun qolmas o'g'urluq, uy aro kim bo'lsa yosh”.

Mazkur baytning ilk misrasida oshiqning muhabbati yashirin ekanligi, ko'z yoshlari esa buni oshkor qilganligi ifodalanib tazod badiiy san'ati orqali oshiqning ichki kurashi keskin tus oladi. Ikkinchi misrada bevosita “Bolalik uyda sir saqlab bo'lmaydi” ma'nosidagi hikmatning keltirilishi irsoli masal san'atining yorqin ko'rinishidir. Bu maqol shoir tomonidan badiiy “ishlov” berilib, lirik holatga moslashtirilgan. Shu sababli she'rning hissiy ta'sir kuchi oshib, undagi fikr xalq tajribasi bilan dalillanadi.

Amiriy ham maqol va matallarni oshiq kechinmalarini xalqona ruhda ifodalashda unumli foydalangan. Yuqorida tahlilga tortilgan maqol mazmuni Amiriy g'azallarida ham oshiq muhabbatini ifodalashda faol qo'llangan.

Dog'i ishqing tanda pinhon asradim, sud etmadi,

Oqibat bu yoshurun dardim ulusqa bo'ldi fosh [4.139].

Bu baytda oshiq ishq alangasini pinhon tutishga urinadi, ammo ishqning “dog'lari” sabab baribir oshkor bo'ladi. Maqol bevosita tilga olinmagan, biroq uning mazmuni baytning obraz qatlamiga singdirilgan.

Qolmadi ko'ngulda la'ling orzusi yoshurun,

Ul sifatkim, shishada pinhon emas gulgun sharob [4.60].

Mazkur baytda ham aytilgan fikrni dalillash maqsadida yuqoridagi maqol mazmuniga yaqin misol keltirilib tamsil san'atining go'zal namunasini yaratgan. Oshiqning yorga ishtiyoqi shishadagi qizil sharobga qiyoslanadi, uni yashirib bo'lmaydi, u baribir ko'rinib turadi. O'z navbatida, ko'ngil ramzini ifodalagan shisha detali orqali ko'ngilning qanchalik pokligi ham o'z aksini topgan Bu tamsiliy obraz maqolning yashirin mazmunini eslatib, oshiq kechinmalarini yanada ta'sirchan qiladi.

Navoiy va Amiriy ijodidagi irsoli masal san'ati mumtoz she'riyatning xalq tafakkuri bilan naqadar chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Har ikki shoir ham maqollarni oshiqning dardu alamini yanada jonliroq, hayotga yaqinroq tasvirlash uchun ishlatadi. Shu bois ularning she'rlari kitobxonning qalbiga tezroq yetib boradi, milliy ruh va xalqona ohang bilan yo'g'rilgan. Biroq uslublarida o'ziga xos farqlar mavjud. Navoiy maqollarni ochiq aytadi, ularni tabiat manzaralari va hayot lavhalari bilan uyg'unlashtirib, she'rga teran mazmun bag'ishlaydi. Amiriy esa ko'proq ishora va tamsilga murojaat qilib, maqollarni baytlar zamiriga joylaydi va shu orqali oshiqning ichki kechinmalarini sodda, samimiy va xalqona ohangda ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ikki buyuk shoirning turfa uslublari lirikaning estetik ta'sirini yanada kuchaytiradi, milliy poetik tafakkurga xos go'zallik va badiiylikni yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «XX asr ўзбек фолклоршунослиги». Антология. / Тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқалар. –Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017.
2. А. Навоий. Ғаройиб ус-сиғар // Хазойин ул-маоний. – Тошкент : Фан, 1988.
3. Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Тошкент : Фан, 1979.
4. Амирий. Девон. – Тошкент: Тамаддун, 2017.
5. Қобилова З. Амирий шеърляти. – Тошкент: Фан, 2010.
6. Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик. Тошкент: Турон-Иқбол, 2021.

ERTAKLARNING G‘OYAVIY STRUKTURASI

Xursand Sharafiddinov

FarDU o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri ertakdir. Maqolada ertak, uning syujet chizig‘i hamda g‘oyaviy struktursi “Kunni qarg‘ab bo‘lmaydi” o‘zbek xalq ertagi misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ertak, og‘zaki ijod, janr, syujet, g‘oya, struktura, jasorat, sehr.

Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi.

“Kunni qarg‘ab bo‘lmaydi” ertagining g‘oyaviy strukturasida quyidagi jihatlarga e’tibor beriladi:

1. Ertakning bosh g‘oyasi erkin va faravon hayot, erk va ozodlik uchun kurash g‘oyasidir. Bu g‘oya “Kunni qarg‘ab bo‘lmaydi” ertak qahramonlaridan biri bo‘lgan Bo‘riolgan obrazi orqali ifodalanadi. Qishloq aholisi o‘z farzandlarini qurbonlik uchun berayotganidan bexabar bo‘lgan qahramon qishloqqa kelib, do‘stlari va qishloq aholisidan so‘rab bilib oladiki, qishloq ahli o‘z o‘g‘il-qizlarini qurbonlikka muntazam berib borar ekan. Erk, hur, ozod qalb egasi bo‘lgan Bo‘riolganga bu yoqmaydi va qishloqdoshlariga qarata “bu gal hech kimni bermaymiz” deya dadil o‘rtaga chiqadi. Qurbonlik berishga deyarli ko‘nikib borayotgan odamlar, albatta, birdaniga ishonib keta bermaydilar. Ularda ikkilanish paydo bo‘lib, anchagina cho‘chiydilar: “Bordi-yu Obi odamning ham jahli chiqsa, unda nima bo‘ladi, hozirgi kunimiz ham holva bo‘lib qoladi”. Haloyiq orasida bo‘lgan Qoravoyning esiga xuddi shu damda Yer aytgan gap keladi. Yer

Qoravoyga shunday degan edi: “Ey odamzod, yurtingga bor-da, Obi odamning aytganlarini odamlarga yetkaz. Oralaridan biron-bir dovyurak chiqib qolar... Balkim ana shu bahodir biror yo‘lini topar”.

Bu gaplarni aytish Qoravoyning esiga ilgari kelmagan edi. Yana bir jihat e’tiborni tortadi: Qoravoy bu gaplarni aytgani bilan foydasi bo‘lmas edi, chunki avom ichidan Bo‘riolgandek qahramon chiqmas edi. Bo‘riolgan o‘zini namoyon etganda aholining ikkilanishi, cho‘chishidan ham bu narsa ma’lum bo‘ladi. Lekin Qoravoy Yerning gapini odamlarga yetkazgandan keyingina ularda bir muncha ishonch paydo bo‘ladi. Qoravoy odamlarga qarata “oldingizda turgan burgut kelbatli, arslon yurakli bahodirni bizga xudoning o‘zi yetkazdi” degan xitoblari ularda ishonchni bir oz bo‘lsa-da mustahkamlaydi. Bu gaplarni aytish Qoravoyning esiga ilgari kelmagan edi. Yana bir jihat e’tiborni tortadi: Qoravoy bu gaplarni aytgani bilan foydasi bo‘lmas edi, chunki avom ichidan Bo‘riolgandek qahramon chiqmas edi. Bo‘riolgan o‘zini namoyon etganda aholining ikkilanishi, cho‘chishidan ham bu narsa ma’lum bo‘ladi. Lekin Qoravoy Yerning gapini odamlarga yetkazgandan keyingina ularda bir muncha ishonch paydo bo‘ladi. Qoravoy odamlarga qarata “oldingizda turgan burgut kelbatli, arslon yurakli bahodirni bizga xudoning o‘zi yetkazdi” degan xitoblari ularda ishonchni bir oz bo‘lsa-da mustahkamlaydi.

Bo‘riolganning mardlarcha ko‘rsatgan jasoratlari tufayli qurbonlik berish to‘xtaydi, ozod va erkin, xotirjam hayot boshlanadi, yanayam to‘g‘rirog‘i qaytadan boshlanadi.

Ertakning yana bir yetakchi g‘oyasi, eng muhim g‘oyasi, elparvarlik, xalqparvarlik, yurtparvarlik g‘oyasidir. Bo‘riolgan shu yo‘lda kurashadi. Elning, yurtning erki, yo‘q bo‘lib ketmasligi yo‘lida g‘ayritabiiy kuchlar bilan kurashadi. u ma’budlar vakili Obi odamga hech bir hayiqmay, “men sen bilan olishgani keldim” deydi. Qahramon jasorati elu yurt yo‘lida toblanadi, o‘z natijasini ham beradi.

2. Mardlik va jasorat egasiga ertakda Olov ajdarning inisi “Men yengildim. Sen zo‘r ekansan, yengding” deydi. Bu insonning yovuz kuchlar ustidan erishgan g‘alabasi edi. Olov ajdar inisining qahramonni tan olishi ham mardlik ekanligi ko‘rsatiladi.

3. Berilgan so‘z hamda vadada sobit turish g‘oyasi olg‘a suriladi. Bo‘riolgan Olov ajdarning inisiga “gapingdan qaytsang-chi” deganda, Olov ajdarning inisi “olovdan tarqalgan ajdarholarning gapi bitta bo‘ladi, ikkita bo‘lmaydi” deb javob beradi. Bunda so‘z muqaddas ekanligiga katta ishorat bor. Hatto yovuz kuchlar ham so‘zni muqaddas biladilar.

Or-nomus, sha’n va sharaf, olijanoblik g‘oyalari ilgari suriladi. Olov ajdarho va uning inisi “nima maqsadda bu yerga kelding? Davlat uchunmi, or-nomus

uchunmi?” deb so‘raganlarida, Bo‘riolgan “or-nomus uchun keldim, menga davlat kerak emas” deb javob beradi.

4. O‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zish, hech bo‘lmaganda, so‘z bilan, to‘g‘ri va foydali maslahat bilan yordam berish g‘oyasi olg‘a suriladi. Qoravoy tog‘dan yordam so‘raganida, tog‘ bu murakkab va qiyin savol oldida dovdirab qolmay mulohaza yuritadi va qiyin savol berding-ku, men nima ham deya olardim... Savolingga mendan ko‘ra daryo yaxshiroq javob bersa kerak. Daryoga borib, undagi Obi odamdan so‘rasang, balki savolingga javob toparsan” deb to‘g‘ri maslahat beradi, adashtirmaydi, rostini gapiradi va rost yo‘lga yo‘llaydi. Shuningdek, Yer ostidan chiqqan ovoz ham uni o‘z so‘zlari bilan yordam berishga intiladi. “Ey odamzot, elatingga bor, Obi odamning aytganini ularga yetkaz, Kun boboning qilmishlarini ham ayt. Oralaridan oriyatli bir kishi chiqib qolar. Balkim, ana shu bahodir biron-bir yo‘l topar” degan so‘zlar Yer ostidan kelgan ovozga tegishlidir. Bu maslahat oriyatga urg‘u berilishi bilan ham qimmatlidir.

5. Fikr-mulohazali bo‘lish g‘oyasi olg‘a suriladi. Biror ishga jahd qilishdan oldin uning oxirini o‘ylash, qaltis muammolarni hal qilishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, avvalo mavjud sharoit va vaziyatni e‘tiborga olish, uni o‘rganish, har ishda bosiq hamda mulohazali bo‘lish, –yeti o‘lchab bir kesish insonning go‘zal fazilatlaridan biri ekanligi ko‘rsatiladi. Qo‘y-mollardan ajralgan, ayniqsa, o‘zgalarning qo‘y-mollariga javobgar bo‘lgan Qoravoyni “burda-burda qilib tashlamoqchi” bo‘lgan olomonni vahshiyona hatti-harakatlaridan yurt boshlig‘i qutqarib qoladi. “Unga tegmanglar” deydi

6. Ertakning g‘oyaviy strukturasidagi yana bir yetakchi g‘oya kechirimli bo‘lish, bag‘ri kenglik g‘oyasidir. Bu Kun bobo obrazi orqali beriladi. “Ha mayli, men kechirdim!”, – deydi Kun bobo.

7. Mardlik jasorat va matonat egasi, o‘zi davlat, boylik uchun emas, eliga, xalqiga to‘kin va hur hayot taqdim etish yo‘lidagi kurashchi munosib taqdirlanishi lozim degan g‘oya ilgari suriladi. Bo‘riolgandagi bardosh, kuch-qudratni, elparvarlikni ko‘rgan Olov ajdarho “ey odamzot, xazinamdan keragichasini ol. Boz ustiga inimga ayt, Yasar podshosining qizini ham bersin... u ham seniki bo‘la qolsin” deydi. Bunda qo‘li ochiqlik, muruvvatli bo‘lish g‘oyalari ham kuzatiladi.

8. Ertakning navbatdagi yana bir g‘oyasi odamlarga xizmat qilish, ularning hayotini, kelajagini har narsadan, hatto o‘z hayotidan ham ustun qo‘yish, ezgu o‘y-fikrlar bilan yashash va shu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatish, o‘zini ayamaslik g‘oyasidir. Bu g‘oya Bo‘riolgan hayoti, kurashi va harakatlari orqali tasdiqlanadi. Bo‘riolgan odamlarning xalaskori sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаев Т. Фолклор ва унинг асосий хусусиятлари. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”, 2006.

2. Расулова З. “Сеҳрли узук” ва унинг ўзбек халқ эртакларидаги бадий талқини. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”.
3. Раҳмонов Б. Эртатка хос формулавий тасвир ва жанрнинг ҳозирги аҳволи. Тошкент: “Илмий мақолалар тўплами”.
4. Sharafutdinova N. The words god and blue (ko,,k) are theonyms, the words god and blue (ko,, k) are theonyms, Vol-7- Issue Q2- 2022.
5. Sharafutdinov X. The Image of Time in the Picture of History. American Journal of Education and Evaluation Studies, 2025.
6. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.
7. Х.Шарафиддинов, Н.Шарафиддинова. Некоторые рассуждения о лексеме “эл” и его семантической структуре. Билим ве эгитим: проблемлер, гўзумлер, везифелер. – Анталя, 2016.
8. Sharafiddinov X. “Kunni qarg,,ab bo,,lmaydi” ertagining personajlar strukturasi. American journal of multidisciplinary bulletin issn: 2996-511x (online) | ResearchBib (IF) = 9.512 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-6| 2025 Published: |30-0
9. Sharafutdinova N. Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar. FarDU ilmiy xabarlari. 2024. 3-son.

IJODIY IZDOSHLIK, G‘OYAVIY MUSHTARAKLIK

H.Jo‘rayev,

FarDU professori, filologiya fanlari doktori

M. Karimova,

Adabiyotshunoslik kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotida Shayx Sa‘non obrazining tadrijiy takomili va qissaning “Mantiq-ut tayr” va “Lison-ut tayr” dostonlari g‘oyaviy mazmunida tutgan o‘rni haqidagi mulohazalar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: an‘ana, vaxdat, genezis, ishq ilohiy, zohid, insoniy muhabbat, izdoshlik, hasbi hol.

Farididdin Attorning “Mantiq-ut tayr” dostoni tasavvuf ta‘limotidagi tavihid tushunchasini yoritishda g‘oyat muhim manba va qimmatli qo‘llanmadir. Shoir va shayx ushbu asari orqali Sharq adabiyotida qushlar bilan bog‘liq badiiy-falsafiy asarlar yaratishni yangi pog‘onaga ko‘tardi va bardavom an‘analarga asos soldi. Attor ushbu dostonida o‘ttizta qush sarguzashtlari orqali ishq ilohiyni kuylagan

bo'lsa-da, ammo asar tarkibidagi "Shayx San'on" qissasida dunyoviy-majoziy sevgi-muhabbat tamoyillari ancha kuchlidir. Gap shundaki, Attor zohidlardan farqli ravishda insoniy muhabbat bilan ilohiy ishq bir-biri bilan bog'liqligini, bir-birini to'ldirishini badiiy tarannum etdi va asosladi. Asarning bosh qahramoni Shayx San'on tomonidan Tarsoduxtar qo'ygan shartlarni bajarishdagi sadoqati, oxir-oqibatda nasoro dinidagi tarso qizning mo'ysafid oshiqqa nisbatan munosabati keskin o'zgarishi, uni izlab Makkaga borishi lavhalarida yaqqol kuzatamiz.

Dostonning yuzaga kelishi Sharq xalqlari adabiyotida katta voqea bo'ldi. Asar majoziy tasvir usuli orqali tasavvufiy-falsafiy masalalarni ifoda etishning epik poeziyadagi mumtoz namunalaridan biri sifatida shuhrat qozondi. O'zidan keyingi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining falsafiy-didaktik yo'nalishi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, Sharq she'riyatida yangi bir an'anani – qush tili bilan asarlar yaratish an'anasini boshlab berdi.

Attor dostonining keyingi davrlar adabiyotiga ta'siri keng va murakkab bo'lib, u turli xarakterdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Bu ta'sirni o'zida aks ettirgan asarlar ham g'oyaviy jihatdan bir xil bo'lmay, muayyan davrlarning mahsuli sifatida o'zida o'sha zamonlarning muhim ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va axloqiy masalalarini aks ettiradi.

Navoiy "Lison-ut tayr" dostonining asosiy qismiga kirishishdan oldin ustoz Farididdin Attor madhiyasiga maxsus bob ajratadi va uning ijodiy faoliyatiga

Har ne gardun bahr ila konida bor,

Oncha yuz Attor do'konida bor

deya yuksak baho beradi. Navoiy Attorning ijodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra "vahdat sirlari"ni sharhlashga bag'ishlangan ekanini qayd qilish bilan birga, uning mashhur asarlari sirasiga "Musibatnoma", "Ilohiynoma", "Ushturnoma, qasida, g'azal va ruboiylaridan tartib berilgan "Devon" va "Tazkirat-ul avliyo" kabilarni sanab o'tadi.

Ammo, shoir fikricha, mazkur asarlarning barchasi Attor ijodining muhim bir tomonini tashkil etib, qanchalik katta sharaf va va maqtovg'a sazovor bo'lsa, yolg'iz "Mantiq-ut tayr"ning o'zi o'shanchalik maqto'v va shara'fga loyiqdir.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning epik asarlari shoir merosida alohida o'rin egallab, uning "Lison-ut tayr" dostoni jahon adabiyotida badiiy ijodning porloq namunalaridan hisoblanadi.

Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgan ushbu doston shoirning muhim falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma'rifiy qarashlarini o'zida mujassam etgan asar sifatida ulug' mutafakkir ijodiga muayyan darajada yakun yasaydi. Bugina emas, ushbu doston o'zining genezisi, janr va g'oyaviy-falsafiy xususiyatlari bilan faqat shoir ijodida emas, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham alohida o'rin

tutadi. Zero shoirning o‘zi ham doston muqaddimasida Attorning “Mantiqut tayr” dostoniga yuksak baho berishi bilan birga, o‘z asarining qimmatiga ham ishora qiladi:

***...Bir taraf borig‘a oyinu sharaf,
“Mantiq-ut tayr”ig‘a oyin bir taraf.***

***...Fahmig‘a maxfiy zabondoni kerak,
Yo‘q zabondonkim – Sulaymoni kerak.***

Fariddin Attorga ergashib Sharqning ko‘pgina mutafakkirlari o‘z asarlarida bu masalaga munosabat bildirganlar, uning turli qirralarini badiiy-falsafiy jihatdan yoritganlar. Ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ham ana shunday siymolardan biri bo‘lib, “Lison-ut tayr” dostoni uning mazkur mavzuga bag‘ishlangan yaxlit adabiy merosidir.

Attor hamda Navoiy nuqtai nazarlariga ko‘ra, pok ishq mutlaq haqiqatdir. Zero u tufayligina oshiq va ma’shuq mavjudgina bo‘lmay, ruhan birlashadilar. Bunda oshiq mumkin-ul vujud, ma’shuq esa vojib-ul vujud sifatida namoyon bo‘ladi. Attorning bu haqdagi xulosalarini yanada rivojlantirar ekan, Alisher Navoiy vahdatni obrazli qilib quyidagicha tushuntiradi:

***Bir dona edi vale ikki juzv,
Bir-biriga uyla muttasil uzv.***

“Lison-ut tayr” da ishqni vasf etuvchi, sharhlovchi bir qancha lavhalar, hikoyatlar keltirilgan. Ular orasida shayx San‘on haqidagi hikoyat alohida o‘rin tutadi. Garchi muallif boshqa she‘riy hikoyalar qatori mazkur asarni ham “hikoyat” deb atasa-da, lekin bu asar g‘oyaviy-tematik mazmuni, hajmi, kompozitsion tuzilishi, ayniqsa, shayx San‘on obrazining mukammal ishlanganligi bilan boshqa hikoyatlardan farq qiladi. Shuning uchun ham uni bemalol doston tarkibidagi mustaqil she‘riy qissa sifatida baholash mumkin.

Asrning bosh qahramoni bo‘lgan shayx San‘on Ka‘bada shayxul mashoyix sifatida mashhur shaxsdir. U tushida ko‘rgan Rum shahriga boradi va tarso qizni sevib voladi. Shayx muhabbatini oshkor etganida, qiz buni qabul etish uchun to‘rt shart va ikki jurmona (jarima) bajarish lozimligini aytadi. Shayx hech ikkilanmasdan shartlarni bajarishga kirishadi: butparastlar marosimida hushidan ketguncha may ichadi, islomdan voz kechib, xristianlikni qabul qiladi. Qur‘onni o‘tga tashlaydi, darveshlik xirqasi, sallasi va tasbehini tarso kiyimlariga almashtiradi va beliga zunnor bog‘laydi. So‘ng jarima sifatida kechalari otashgohga o‘t yoqadi, kunduzlariesa cho‘chqa galalarini boqadi...

Bir qarashda shayx San‘on dindand ham, imondan ham voz kechgandek taassurot qoldiradi. Ammo gap yana ilohiy ishqqa borib taqaladi. Tarso qiz, yuqorida aytganimizdek, majoziy ishq vositasi bo‘lib, u orqali haqiqiy mahbub –

Haq ishq sari yo‘l ochiladi. Shayx ishq olovida nuqra oltindek toblanadi, g‘uborlardan poklanadi, o‘tkinchi hoyu havaslardan xalos bo‘ladi.

Attor ijodida kuchli namoyon bo‘ladigan hasbi hollik, ya‘ni tarjimai holga oid, shaxsiy hayot bilan bog‘liq holatlar badiiy ifodasining o‘ziyoq uning murakkab va ziddiyatli taqdiri, umr yo‘li, dunyoqarashi, qolaversa, badiiy ijodga nisbatan munosabatini oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi. Alisher Navoiy ham ulug‘ ustoziga izdoshlik qilar ekan, badiiy-estetik ta’sirchanlik, g‘oyaviy mushtaraklik, chuqur hayotiylik tufayli eng yaxshi adabiy an‘analarni muvaffaqiyatli davom ettirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Attor, Farididdin. Tazkirat-ul avliyo. T.: 1997.
2. Attor, Farididdin. Ilohiynoma. T.: 1994.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat. TAT. 10-jild.T.: 2012.
4. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. T.: “Movarounnahr” 2004.
6. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. T.: 2004.

TARIXIY ROMANLARDA INGLIZ MALIKALARI BILAN BOG‘LIQ TARIXIY HAQIQAT

Usmanova Sevara Sultanovna,

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, PhD

Fazliddinova Durdonabonu Xusniddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat tarixida hukmdorlar bo‘lgan, ular iqtisodiy tiklanishga va boshqa o‘zgarishlarga o‘zlarining hissalarini qo‘shgan, odatda ularning ismlari qatorida o‘sha davrning yorqin kishilarining nomlari ham bo‘lgan, ular insonlar ongida yirik inqilob yaratadigan islohatchilar bo‘lgan. Ayniqsa Angliya malikalar mamlakati desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qirolicha Elizabetta1, Mariya Tyudor, Viktoriya, Anna Boleyn kabi malikalar nafaqat mamlakat tarixida balki jahon adabiyotining durdona asarlari orqali ham iz qoldirishgan.

Kalit so‘zlar: Qirolicha Elizabetta, F.Shiller, Mariya Styuart, Evropa adabiyoti, Joanna Seymur.

Sharq va G‘arb adabiyotini o‘rganar ekanmiz, buyuk hukmdorlarga rafiqalik yoki qizlik mavqeyiga tayanib davlat boshqaruvida ulkan tadbirlarni oshirgan va

ana shu sa'y-harakatlari tufayli tarixda ko'plab ayollar nom qoldirgan. Yevropada ham Turon kabi ko'plab malikalar faoliyat olib borishgan. Ayniqsa Angliya malikalar mamlakati desak mubolag'a bo'lmaydi. Qirolicha Elizabetta I, Mariya Tyudor, Viktoriya, Anna Boleyn kabi malikalar nafaqat mamlakat tarixida balki jahon adabiyotining durdona asarlari orqali ham iz qoldirishgan.

Angliya qirolichasi Elizabetta I (1558-yildan) Genrix VIII va Anna Boleynning qizi. Elizabetta I davrida absolutizm mustahkamlandi, ingliz cherkovlari qayta tiklandi va ispancha Yengilmas Armada vayron qilindi. Irlandiyada mustamlakachilik keng tarqaldi.

Har qanday davlat tarixida hukmdorlar bo'lgan, ular iqtisodiy tiklanishga va boshqa o'zgarishlarga o'zlarining hissalarini qo'shgan, odatda ularning ismlari qatorida o'sha davrning yorqin kishilarining nomlari ham bo'lgan, ular insonlar ongida yirik inqilob yaratadigan islohatchilar bo'lgan. Britaniyaliklar uchun bunday hukmdor Elizabetta I edi.

Qirolicha Shekspirda katta taassurot qoldirdi:

Vatan baxti uchun,
U yetuk keksalikka qadar yashaydi,
Va ko'p kunlar uning ustidan uchib o'tadi,
Va usiz hech kim zarba berolmas,
Yaxshi ish bilan toj kiyolmas.

Ammo, Shekspir Elizabetta I haqida shunday fikrda bo'lgan yagona inson emas, balki aksariyat zamondoshlari ham shunday fikrda edi. Elizabetta hayoti davomida xalqining sevimlisi bo'la oldi va insonlarda o'ziga bo'lgan katta qiziqishni uyg'otishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, uning hukmronligi oqilonaligi va davlat ravnaqi uchun bo'lgan g'ayrati bilan ajralib turardi. Haqiqatan ham u g'ayratli edi.

Ko'ngilchan qirol Genrix VIII, Elizabettaning otasi, taxt meros huquqlari bo'yicha chalkashlikka duch keldi. U Elizabettani taxt vorisi deb e'lon qildi, ikki yildan so'ng Joanna Seymur va uning sobiq rafiqasi Anne Boleynni Elizabetta onasi qatl qilindi. Keyin bechora qiz tojga bo'lgan barcha huquqlarini yo'qotdi. Biroq, o'limidan oldin Genri yana qizlarining huquqlarini tikladi.

Atoqli nemis dramaturgi F.Shiller (1759-1805) ijodida Shotlandiya qirolichasi Meri Styuart (1542-1587) hayoti va o'limi bilan bog'liq voqealar talqinining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Kristian Geynrix Spiess (1755-1799). X.X.Shpis va F.Shiller tomonidan malika Mariyaning so'nggi kunlari tasvirining o'ziga xosligi tasvirlaydi.¹ Darhaqiqat, ikkala nemis yozuvchisining turli adabiy va estetik pozitsiyalari haqida savol tug'iladi. Spiess va Shiller tomonidan Meri Styuartga

¹ Макаров, А. Н. and Е. В. Киричук. "Образ Марии Стюарт в трагедиях К. Г. Шписса и Ф. Шиллера." (2020).

bag'ishlangan turli janr va san'at turlaridagi asarlarni ko'rib chiqishga e'tibor qaratiladi. Birinchidan, nemis va Evropa adabiyoti doirasida ikkinchi darajali bo'lgan yozuvchi asarining tahlili taqdim etiladi, chunki Spiess o'z tragediyasini buyuk nemis dramaturgidan ko'p yillar oldin yozgan. Shiller tragediyasi voqelikni epik yoritishga o'ziga xos ishtiyoq bilan yozilgani, Shpisning sahna asari esa Meri Styuart hayotining so'nggi kunlaridagi voqealarga ko'proq yo'naltirilganligi va mashxur asarga aylangani ko'rsatilgan.

Yangi ingliz cherkovi protestantizmida ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgan, lekin marosimlarda katolikda edi, bu esa Puritanlardan tashqari hammani qoniqtirdi. Lekin hukumat o'limga tahdid soladigan qonun qabul qilib, ularning og'zini yopishga muvaffaq bo'ldi, qirolichani «Bid'atchi» deb atashga jur'at etgan har qanday odamning qatl etilishi uning tojga bo'lgan huquqlarini shubha ostiga qo'yilishiga yoki bu huquqlarni boshqa odamga tegishli bo'lishini bildirar edi.

Qudratli qirolicha Elizabetta I ko'plab tarixiy romanlar va ilmiy asarlar mavzusi bo'lgan. Uning hukmronligi an'anaviy gender faoliyatii va siyosiy mafkuralarga qarshi chiqdi, chunki u xaqiqatni diniy va siyosiy kuch bilan birlashtirdi.² Margaret Irvine trilogiyasi kabi tarixiy romanlarda Elizabettaning qizlikdan to toj kiyishgacha bo'lgan sarguzashtlari tasvirlangan, u yosh kitobxonlarni buyuklik haqidagi tasavvurlar bilan o'ziga tortgan.³ Elizabettaning xususiy mulkchilikdan strategik foydalanishi va uning moliyaviy qobiliyatlari Britaniya imperiyasining asoslarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynadi va unga raqiblaridan «qaroqchi malika» laqabini oldi.⁴ Darhaqiqat, Elizabettaning hukmronligi Angliyaning iqtisodiyot va siyosatdagi muvaffaqiyatlari bilan ajralib turdi. Qirolicha Britaniya sanoatini qo'llab-quvvatladi, birinchi navbatda xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatdi, Yangi Dunyo koloniyalariga asos solishga boshchilik qildi.

Londonda birinchi qarzdor bo'lgan xayriya tashkilotlari paydo bo'ldi. Elizabetta hech qachon turmushga chiqmagan edi. Katta ehtimol bilan unda hissiyotlarini o'zgalar bilan baham ko'rishlik tuyg'usi bo'lmagan. Elizabettaning Fransuz qiroli Genrix III bilan nikoh muzokaralari uzoq vaqt davom etdi. Biroq, qirolicha hiyla ishlatdi. Uni rad etish uchun qo'shni bilan janjallashishni va uni xafa qilishni xohlamadi va Elizabetta maxfiy kengash a'zolarining yordamiga murojaat qildi sababi salbiy javob undan emas balki xalq nomidan kelgandek ko'rsatilishi kerak edi. O'z xalqi manfaati uchun qirolicha yolg'izlik va kamtarlikni avzal ko'rdi. Uning shaxsiy hayoti va saltanati keng miqyosda o'rganilgan, olimlar uning munosabatlari, siyosiy manevrlari va turmush qurmaganligining Uyg'onish

² Berry, Philippa. "Of Chastity and Power: Elizabettahan Literature and the Unmarried Queen." (1989).

³ Light, Alison. "Young Bess": Historical Novels and Growing Up. *Feminist Review* 33 (1989): 57-71.

⁴ Ronald, Susan. "The Pirate Queen: Queen Elizabettah I, Her Pirate Adventurers, and the Dawn of Empire." (2007).

davri adabiyoti va madaniyatiga ta'sirini o'rganishgan.⁵ Ushbu tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu asarlar Elizabettaning murakkab xarakterini va uning Angliya tarixiga sezilarli ta'sirini ta'kidlaydi.

Elizabetta Tudor qirq besh yil hukmronlik qildi, ortidan kuchli mamlakat va ko'plab go'zal afsonalar, adabiy va dramatik asarlar qoldirdi.

Shotlandiya qirolichasi 1542-yilda (aslida 1561-yildan) – 1567-yillar davomida ingliz taxtiga da'vogarlik qildi. Shotlandiy qo'zg'olonida zodagonlar uni taxtga o'tirishdan voz kechishga majbur qildi va u Angliyadan qochib ketdi. O'sha vaqtda ingliz qirolichasi buyrug'i bilan Elizabetta I qamoqqa olingan katolik fitnalaridan esa Mariya Styuart sudlangan va jazolangan edi. Badiiy adabiyotda odatda Mariya Styuart obrazi ideallashtirilgan.

Bu ayolning o'limi hayotidan yanada buyukroq va muhimroq bo'ldi. Mariya Styuartning qisqa hayoti oxiri uchun intilayotgan edi, go'yo u o'zining bema'ni hayotida hamma narsani qildi, u shundek tugatishni istar edi. Xudo buni ko'rgandek, uning maqsadiga yetkazdi. «En ma fin est mon commencement» Mariya Styuart yoshligida kashta tikdi va undagi ushbu so'z unga hali tushunarli bo'lmagan edi. «Mening oxirim - mening boshlanishim.» Nima sabab bo'lganini aytish qiyin, lekin fransiyalik, muvaffaqiyatli va yuqori martabali bo'lgan ayol bu g'alati so'zlarga e'tibor beradi, ammo, u so'zlar tarixiy taqdirini bashoratli tarzda belgilab berdi.

Shotlandiya taxtida Mariya ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi kerak edi. Qiyinchilik bilan u qattiqqo'llikka ko'nikib qoldi, zodagonlarning yuzlari unga g'amgin bo'ldi, u Fransiya'dagi kuchli odamlardan farq qilar edi. Sodiq katolik uchun qiyin sinov boshlandi, u majbur protestantizmning hukumroniga aylandi, ammo, o'zi uchun din erkinligini ta'minladi.⁶

Mariya Styuartning vafoti haqida ko'plab hikoyalar yozilgan, uning hayoti davomida juda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, davr, zamon va muhit zarbalariga matonat bilan kurashgan malika sifatida ulug'langan. Maykl Link "Mary Stewart, queen in three kingdoms"⁷ nomli asarida qirolicha hayotidan olingan parcha berilgan. Yozuvchi voqeliklarga sinchkovlik bilan yondashib, birorta tafsilotni o'tkazib yubormadi, hammasini batafsil hikoya qildi. Natijada o'z sevgisi, umidlari va orzulari quliga aylangan, buning evaziga zodagonlarning "o'ljasi"ga aylangan qirolichaning fojiali o'limini tasvirlab berishga erishdi. Mariya yovuz emasdi, u qirolichalarga xos vafot etdi, asl yovuzlik uni tushunmaganlik, unga qarshi fitnalar uyushtirgan kishilar tomonidan sodir

⁵ Berry, Philippa. "Of Chastity and Power: Elizabettahan Literature and the Unmarried Queen." (1989).

⁶ Wood, Curtis W.. "Queen of Scots: The True Life of Mary Stuart". *History: Reviews of New Books* 33 (2004): 23 - 23.

⁷ Lynch, Michael. "Mary Stewart, queen in three kingdoms." *The Eighteenth Century* 21 (1990): 273.

etilganligini ishonchli tasvirlab berdi. Shunday asarlar talqinida Mariya tarixda magʻrur va qahramon ayol sifatida iz qoldirdi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib sharqda va gʻarbda malikalar nafaqat hukmdorlar rafiqasi yoki shahzodalar onasi sifatida balki saroy hamda hukumat ishlarida ham maslakdosh sifatida namoyon boʻlishgan. Maqolada koʻrsatib oʻtilgan asosiy tahliliy holatlar sharq va gʻarb adabiyoti oʻrtasidagi tafovutlarni aniqlashga hamda badiiy asar yaratishda yozuvchi yashayotgan muhitning katta taʼsirini dalillashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лукач Г. Исторический роман. <https://lukach-georg/istoricheskij-roman.ru>
2. Оскоцкий В. Д. Роман и история: традиции и новаторство советского исторического романа. — М.: Художественная литература, 1980. — 384 с.
3. Малкина В.Я. Поэтика исторического романа: Проблема инварианта и типология жанра. — Твер: Твер. гос. ун-т, 2002. — 140 с.
4. White, Hayden V. “Introduction: Historical Fiction, Fictional History, and Historical Reality.” *Rethinking History* 9 (2005): 147 - 157.
5. Stocker, Bryony D.. “Historical Fiction: Towards A Definition.” (2019).
6. Михалская Нина Павловна, Аникин Геннадий Викторович. История английской литературы. Учебник для гуманитарных факультетов высших учебных заведений. М.: Издательский центр «Академия», 1998.

STRUKTURAL POETIKANING MUAMMOLI MAʼNOLARI

Qayumov Abduvahob,

FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi doktoranti

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida badiiy asar qurilishi va tuzilishiga nisbatan struktura atamasi faol qoʻllanila boshlandi. Badiiy asar qurilishiga nisbatan eʼtibor kuchaygan bu davr davomida rus formal maktabi vakillari izlanishlari turtkisida struktural metod ham dunyoga keldi. Adabiyot nazariyasining bir qismi mazmunida ishlatilgan “struktural” atamasi hamda metod mazmunidagi “struktural” atamasi, mazmunan yaqinligi bois, ilmiy tushunmovchiliklarga sabab boʻla boshladi. Bu masalaga B.Karimovning

“Struktural metod negizida struktural poetika maydonga keladi”⁸ degan fikri yechim bo‘ladi. Masalan “struktural poetika” yoki “badiiy asarga struktural yondashuv” kabi jumalalarda har ikki mazmunni ham anglash mumkin. Misol tariqasida ilmiy manbalarga murojaat qilsak: “Keyingi davr adabiyotshunosligida paydo bo‘lgan «psixologik maktab», «*struktural adabiyotshunoslik*», «generativ poetika», yangi kirib kelayotgan «kognitiv adabiyotshunoslik» kabi yo‘nalishlar bevosita tilshunoslik yutuqlari asosida yuzaga kelgan.”⁹ Mazkur ma‘lumotda “struktural adabiyotshunoslik” atamasi badiiy asarning qurilishi – tuzilishini o‘rganuvchi adabiyot nazariyasining bir qismi, yo‘nalishi mazmunida ifodalangan. Quyidagi ma‘lumotda esa struktural metod bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar guruhi mazmunini ochiqlash uchun qo‘llanilgan: “O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib *struktural adabiyotshunoslik* namoyandalari (R.Yakobson, T.Todorov va b.) o‘tmishda yaratilgan figura haqidagi ta’limotni hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish yo‘lida muayyan ishlarni amalga oshirdilar.”¹⁰

Shuningdek, poetika atamasi izohida “struktural poetika” jumlasini badiiy asarning shakliy xususiyatlari o‘rganish ustun bo‘lgan tizimli tadqiqot yo‘nalishi, ya’ni adabiyot nazariyasining bir qismi mazmunidagi fikr berilgan: “Ta’kidlash joizki, adabiyotshunoslikda tez-tez uchraydigan «romantizm poetikasi», «Chexov poetikasi», «*struktural poetika*» kabi birikmalar ma’nosi ham bevosita atamaning asosiy ma’nosidan o‘tib chiqadi. Masalan, «romantizm poetikasi» deyilganda romantizm yo‘nalishiga mansub asarlarning qurilishiga xos umumiy xususiyatlar, badiiy usul va vositalar tizimi nazarda tutiladi.”¹¹ Struktural metod atamasi izohlangan matnda esa “struktural poetika” atamasi struktural metodning mazmunini ochiqlashga, ya’ni “struktural metod asosida poetikani o‘rganish” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan: “S.Todorov *struktural poetika* o‘z tushunchalarini konkret asarga emas, balki har qanday adabiy matnga qaratadi deb aytadi.”¹² O‘zbek tilshunosligida bir ilmiy atama bir nechta ma’no ifodalashi mumkin emasligi ta’kidlangan: “Termin leksema notermin leksemadan o‘z ma’nosining aniq ta’riflab, chegaralab, belgilab qo‘yilganligi bilan farq qiladi. Shunga ko‘ra termin har vaqt ayni bir tushunchani anglatadi.”¹³ Ana shunday adabiy atamashunoslikdagi xatoliklar, tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida adabiyot nazariyasining yo‘nalishi ma’nosini ifodalovchi “struktura” atamasi o‘rniga “tarkib” so‘zini qo‘llashni taklif qilamiz. Chunki, asarning ichki va tashqi strukturasi umumiy tarkibini tashkil etadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida

⁸ Каримов Баходир, Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент, Muharrir, 2011. – Б. 49.

⁹ Куронов Д., З.Мамажонов., М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Akademnashr.2013. – Б. 10.

¹⁰ Yuqoridagi manba. – Б. 347.

¹¹ Yuqoridagi manba. – Б. 235.

¹² Yuqoridagi manba. – Б. 287.

¹³ Rahmatillayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent. Universitet. 2006. – Б. 48.

struktura soʻzining maʼnosi quyidagicha berilgan: “struktura [lot. structura – tuzilish; bogʻlanish] Muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning oʻzaro bogʻlanishi”.¹⁴ Tarkib soʻzi esa: “[a. تركيب. - biriktirish, birikma, biriktirib hosil qilish; hayʼat, xodimlar] 1. Maʼlum bir butunlikni tashkil etuvchi qismlar, unsurlar majmui”¹⁵ maʼnosini anglatadi. Koʻrish mumkinki, oʻzbek tilida struktura va tarkib soʻzlari mazmunan yaqin tushunchalarni anglatadi. Bu holat ham yuqoridagi “tarkib” atamasi taklifini ilmiy jihatdan yana-da asoslaydi. Shuningdek, ishimiz ana shunday oraliqdagi mazmuniy kesishgan nuqtada amalga oshirilganligi hamda mazmunan bir-biriga yaqinligi sababli har ikki yoʻnalishning ham – tarkibiy poetika hamda struktural metod tushunchalarining tarixiy ildizlarini koʻrib chiqamiz.

Badiiy asar tarkibiga oid qarashlar uzoq yillik tarixga ega hisoblanadi. Jahonda adabiyot nazariyasiga oid eng birinchi asar sanalgan Arastu “Poetika”sining tragediya unsurlariga bagʻishlangan boʻlimida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Tasvirlash harakat orqali ifodalangani uchun zaruriylik nuqtai nazaridan tragediyaning birinchi unsuri (yoki qismi) manzara, koʻrinish orastaligi boʻladi, undan keyin ikkinchisi musiqa qismi va uchinchisi tildir. Faqat ana shu vositalar orqaligina aks ettirish sodir boʻladi. Til deganda men asarning vazn qurilishini koʻzda tutaman. Musiqa qismi nimani anglatishi esa izohsiz ham ravshandir.”¹⁶ Bu badiiy asar tarkibiga oid qarashlarda qismlarning oʻziga xosligi hamda ularning umumiy yaxlitligi nazarda tutiladi. Toʻgʻri, bu oʻrinda umumiy sahna jarayoni nazarda tutilgan boʻlsa-da, mazkur nazariyaning umumiy va xususiy holatlarga boʻlinishi muhimdir. Birinchi va ikkinchi unsurda tarkibning tashqi belgilari namoyon boʻlsa, “asarning vazn qurilishi” uning ichki tizimi toʻgʻrisida axborot beradi. Asar avvalida keng qamrovda ifodalangan qarashlar keyinroq ixtisoslashib boradi: “soʻngra voqealarning qismlari shunday joylashtirilishi zarurki, biron qism almashtirilganda yo olib tashlanganda yaxlit narsa oʻzgarib ketsin, yo harakatga kelsin, chunki mavjudligi yo mavjud emasligi sezilmayotgan narsa butunning uzviy qismi boʻla olmaydi.”¹⁷ Bu oʻrinda tragediya (umuman olganda, barcha asarlar – A.Q.) qismlari va ularning tarkibiy jihatdan yaxlit boʻlishi lozimligiga urgʻu beriladi. Mazkur nazariyalarda unsurlarning nomlari alohi keltirilmagan yoki oʻsha davrda u qadar kichik qismlar alohida eʼtibor bilan oʻrganilmagan boʻlsa-da, yaxlitlik tushunchasi, tarkibga eʼtibor masalasining mavjudligi keyingi izlanishlar uchun asos vazifasini bajardi. Xususan, faylasuf K.G.Flakk ham “Kimki oʻz holi

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2007 йил – Б. 574.

¹⁵ Yuqoridagi manba. – B. 683.

¹⁶ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015 йил. – Б. 29.

¹⁷ Yuqoridagi manba. – B. 34.

qudratiga yarasha ishni tanlagan bo'lsa, bunda har vaqt ifoda – so'z yetarli bo'ladi va tartib ham ochiqlik bo'ladi. Tartibning quvvati ham xusn – bu yerda nima aytish lozim esa uni mana shunday aytishdadir”¹⁸ tarzida badiiy asarning qurilishiga ishora beradi. M.Psell, Yu.S.Skaliger, A.Minturno, T.Tasso, F.Oje, F.d'Obinyak, N.Bualo kabi mashhur faylasuflarning asarlarida bu masalaga ma'lum darajada urg'u berilgan. Keyinroq adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan alohida tadqiqotlar paydo bo'la boshladiki, bu yaratilgan tarkibiy usullaridagi o'ziga xos xususiyatlar va yaxlitlikni ta'minlovchi nazariy qarashlar shakllandi. Bu kabi taraqqiyot natijalari shakl va mazmun kategoriyalari sifatida tarkibning xususiy holatlari shakllanishiga turtki bo'ldi.

“BOQIRG‘ON KITOBİ –TURKIY TASAVVUF ADABIYOTI NOYOB YODGORLIGI”

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o'g'li

FDU, tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada XII asr turkiy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri – Hakim Sulaymon Boqirg'oni va uning “Boqirg'on kitobi” asari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarning mazmun-mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi hamda tasavvufiy-didaktik xarakteri yoritiladi. “Boqirg'on kitobi”da inson ma'naviy kamoloti, taqvo, sabr, adolat, mehr-oqibat, ilm va amal birligi g'oyalari ilgari surilganligi tahlil asosida asoslab beriladi. Shuningdek, asarning til xususiyatlari, uslubiy jihatlari hamda Ahmad Yassaviy maktabi bilan uzviy aloqadorligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada “Boqirg'on kitobi”ning turkiy xalqlar ma'naviy madaniyati va diniy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni ham ilmiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Hakim Sulaymon Boqirg'oni, Boqirg'on kitobi, tasavvuf, didaktika, Yassaviylik, ma'naviyat, hikmat, diniy-falsafiy meros, turkiy adabiyot, axloqiy ta'limot.

Annotation: this article provides a scholarly analysis of “The Book of Boqirghon”— one of the most significant works of 12th-century Turkic literature authored by Hakim Sulaymon Boqirghoni. The study explores the ideological orientation, content, and Sufi-didactic character of the work. It is shown that the “Book of Boqirghon” promotes ideas of spiritual perfection, piety, patience, justice, compassion, and the unity of knowledge and action. The article also

¹⁸ Қаранг: Флакк К.Г. Пизонларга бағишлов/ Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент, Фан. 2008. – Б.128.

examines the linguistic and stylistic features of the work and its close connection with the Ahmad Yassawi school of thought. Furthermore, the research highlights the role of the “Book of Boqirghon” in the development of the spiritual culture and religious-philosophical worldview of Turkic peoples.

Keywords: Hakim Sulaymon Boqirghoniy, Book of Boqirghon, Sufism, didacticism, Yassawiyya, spirituality, wisdom, religious-philosophical heritage, Old Turkic literature, ethical teaching.

Markaziy Osiyo Uygʻonish davri IX-XII asrlarni qamrab olib, musulmon davlatlar hududida ilm-fan, madaniyat, sanʼat, falsafa va boshqa fan sohalarida yuksalish va taraqqiyot bosqichi hisoblanadi. Bu davr oltin asr deb ham yuritiladi, chunki u davrda Sharq madaniyati va ilm-fani dunyoda yetakchi oʻrinni egalladi.

Islom dinining asosiy tushunchalaridan biri tasavvuf boʻlib, u hijriy 1-asrda tobeinlar davridayoq vujuga kelgan. Tasavvuf –har bir yomonlikdan xoli boʻlish, har bir yaxshilikdan ibrat olish ila qurbatga va visolga erishishdir, u insonni qayta bino qilish va uni har bir fikr, soʻz, ish niyatda Robbi ila bogʻlashdir.(1; 35)

Tasavvuf soʻzi qaysi oʻzakdan olingani va undagi maʼnolar haqida bir qancha qarashlar mavjudki, ulardan eng muvofiqi deya: “Soʻfiy soʻzi arabcha “suvf –jun” soʻzidan olingan. Koʻp ibodat qilishga berilgan kishilar odatda, kyimni ham soda kyishgan. Ularning kiyimlari faqat jundan iborat boʻlgan. Jun mayin kiyim boʻlmagani uchun ham barcha asrlarda obidlarning xos kyimi hisoblangan. Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning obidliklari haqida soʻz borganda ham : “Ul zot jun kiyim kiyar edilar” degan rivoyat keltiriladi.” (1; 33) Abu Sulaymon Doroniy bu haqida quyidagilarni aytadilar: “Jun zuhdning alomatlaridan biridir.” (1;35), degan taʼrifni olishimiz mumkin.

Xoja Ahmad Yassaviy “Hikmat” deb nomlangan sheʼrlari bilan oʻzbek tasavvuf adabiyotiga asos soldi. Keyinchalik bu sheʼrlar “Devoni hikmat” nomi bilan jamlanib, yozma adabiyot mulkiga aylantirildi. “Islomiyat ruhi koʻhna xalq sheʼriyati unsurlari – milliy sheʼr shakli va vazni vositasida ifodalangan ilk badiiy asar boʻlganligi sababli “Devoni hikmat”ni turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimgi va muhim obidasi deb hisoblash zarur”(2;120). Ahmad Yassaviy bilan boshlangan “hikmat” aytish anʼanasi oʻzidan keyingi izdoshlari tomonidan davom ettirilib, turkiy adabiyotida muhim oʻrin egallagan. Koʻplab mutasavvif shoirlar, xuddi Ahmad Yassaviy kabi, hikmatlari orqali insonni tarbiyalashni, uni mukammal mavjudotga aylanishi yoʻlida bilim va mahorat egallashga undashni maqsad qilganlar. Ular hikmatlarini Qurʼoni karim va Paygʻambar sunnatiga sodiq qolgan holda aytganlar, Islomning buyruq va taqiqlarini doim yodda tutgan hayot tarzini tavsiya etganlar. Bu anʼananing eng muhim vakili Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi boʻlgan, Yassaviy uslubidagi hikmatlari va rivoyatlari bilan

turklar orasida katta shuhrat va ta'sirga ega bo'lgan Sulaymon Hakim Otadir. U shakl va mazmun jihatidan ustoz Ahmad Yassaviyni izlagan va Yassaviy tariqatida hikmat an'anasini davom ettirishda eng yuksak o'ringa ega bo'lgan. Hatto Yassaviy uslubidagi hikmatlardan tashkil topgan "Boqirg'on kitobi" ham tarixiy jarayon davomida Sulaymon Hakim Otaga nisbat berilgan.

Sulaymon Hakim Otaga tegishli deb qaraladigan "Boqirg'on kitobi" aslida XII–XVIII asrlar oralig'ida yashagan turli shoirlarning she'rlaridan iborat antologik to'plamdir. Unda Sulaymon Hakim Otadan tashqari, Iqoniy, Shamsi O'zgandiy, Ubaydiy, Mashrab, Shamsuddin, Navoiy, Qul Sharif, Xudodod, Faqiriy, Qul Nosimiy, Qosim, Gadoiy, Hofiz, Huzuriy, Roji, Behbudiy, Miskin, Shoho Shahudiy, G'azoliy, Tufayliy, Sodiqiy, Bahouddin va Hotayi Soki taxallusli shoirlarning she'rlari ham mavjud. Islomiyatni qabul qilish va uni yashash jarayonida, eng avvalo Ahmad Yassaviy boshchiligida, undan keyingi izdoshlari tomonidan Qur'on va hadislar asosida atrofdagilarga islomni tushuntirish, e'tiqod va ibodat usullarini singdirish maqsadida aytilgan, san'at va lirizmdan yiroq, til va shakl jihatdan an'anaviy turk she'riyati xususiyatlarini o'zida aks ettirgan she'rlarga "hikmat" deb atalgan. Yassaviy va uning izdoshlari tomonidan hikmat aytish va qissa hikoya qilish bir an'anaga aylangan.

XII–XVIII asrlarda yashab ijod qilgan bu mutasavvif shoirlarning she'rlari og'zaki madaniyat muhiti orqali tarqalganligini hisobga olsak, ularning she'rlarida turli tilda va uslublarda farqlarning mavjud bo'lishi tabiiydir. Chunki bu she'rlar qachon va qanday yozib olingani noma'lum. Og'zaki an'ana doirasida bu she'rlar yashab turgan davr, geografik joylashuv, ijtimoiy munosabatlarga qarab turlicha til va ifoda xususiyatlarini kasb etgan. Shunga qaramay, bu she'rlarda aniq Yassaviy uslubi hukmron bo'lib, unda Yassaviy hikmatlarida ishlatilgan o'lchov, shakl, til va uslublar qo'llangan. She'rlarda 7, 8, 11, 12, 14, 16 bo'g'inli sillabik o'lchovlar yoki aruz vaznlaridan foydalanilgan. Biroq ayniqsa turoqlardagi (pauzalardagi) muntazamlilik – masalan, 4+4+4 kabi tuzilishlar – she'rlarga "juda jonli va harakatchan uslub bag'ishlagan, xuddi zikr ritmini yuzaga keltirgan". Hikmatlar, asosan, 5 dan 15 gacha bo'lgan to'rtliklardan tashkil topgan. G'azal shaklidagi hikmatlar esa 5–8 baytdan iborat bo'lgan. Shuningdek, "qissa" shaklidagi she'rlarning hajmi mavzuning bayon etilishiga qarab shakllangan. Hikmatlarda ko'pincha yarim qofiyalar, ba'zan to'liq va boy qofiyalar, shuningdek radiflar keng qo'llanilgan. Qofiya uchun tanlangan so'zlarda og'zaki uzatish xususiyati bois eshitishga mos qofiyalar tanlangan. Shoir o'zi yashagan jamiyat tuzilishini, bu tuzilmani tashkil etuvchi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olib, o'ziga xos idrok va tasvir bilan she'rini tuzadi. U tanlagan mavzuni qanday his-tuyg'u, fikr va misollar bilan bayon qilishini, o'quvchida qanday tafakkur va xulq o'zgarishi uyg'otishini hisoblaydi. Bu –ijodkorning o'z maqsadi doirasida

mavzuni qanday yoritishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan "Boqirg'on kitobi"dagi yigirma besh nafar mutasavvif shoirlarning she'rlarini tahlil qilganimizda, ular islomni to'g'ri tushunish va tasavvufiy hayot tarzini ideal hayot shakli sifatida keng ommaga singdirishni maqsad qilganliklari ko'rinadi. Bu maqsadni amalga oshirishda she'rlar / hikmatlar vosita sifatida ko'rilgan; shoirlar san'at qilishdan ko'ra aniq maqsad sari yo'nalganlar, mavzularni shu maqsad asosida tanlaganlar va o'zlarining auditoriyasiga tushunarli, esda qoladigan ifodalar bilan yetkazganlar. Sulaymon Hakim Otaga yoki boshqa shoirlarga nisbat berilgan she'r va qissalarning mavzusi asosan: Allohning yagona ekani, Uning sifatleri, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga bo'lgan muhabbat, Islomning amru nahiylari, tasavvufiy hayot, shariat hukmlari, qiyomat, oxirat, jannat va do'zaxning xususiyatlari, dunyoning foniyligi, inson umrining o'tkinchiligi kabi masalalardir. Hikmat va qissalarda Islom asoslari, rioya etilishi lozim bo'lgan buyruq va taqiqlar bayon qilinar ekan, ayniqsa, dervishona yashash tarzi targ'ib qilinadi. Inson o'zini, yaratilishini, yaratilishdagi hikmatni anglab yashashi kerakligi alohida urg'ulanadi. Ideal inson tipi – Islom amru nahiylariga rioya qiladigan, hayoti davomida Qur'onni yo'l-yo'riq qilib olgan zot sifatida tasvirlanadi.

"Boqirg'on kitobi"dagi hikmat va qissalarda ideal inson tipi – Allohga mutlaq bo'ysungan, Uning rahmati va mag'firatiga ishongan, har bir harakatini Uning nazaridan yashirmaslikka ishonuvchi shaxsdir. U Allohga, Uning kitobi – Qur'oni karimga sadoqatli, Qur'onda belgilangan tafakkur va hayot tarzini o'ziga hayot mezoni deb biluvchi, uni ado etolmaganidan qo'rqadigan insondir. Bu inson — "Allohning azobidan omonda bo'lish va jahannamdan qutulib, jannatga kirishga umid bog'lagan zohidona tasavvuf" tarafdori bo'lgan shaxsdir. U nima bo'lsa ham, nima ko'rsa ham, nima yashasa ham Allohdan deb bilgan va o'z harakatlarini yanada yaxshi banda bo'lish sari yo'naltirgan mutasavvif timsolidir. Bu borada mutasavviflar ikki toifaga ajraladi: "Bir tomonda, dunyodan butunlay yuz o'girgan va Allohga yo'l olishda faqat o'z najotini o'ylaganlar; ikkinchi tomonda esa, tasavvufiy tajribasi natijasida ilohiy tafakkur doirasida boshqalarga ham to'g'ri yo'lni ko'rsatishga intilganlar". Shu tasnif doirasida "Boqirg'on kitobi"dagi mutasavvif shoirlar o'z hikmat va qissalarida diniy-axloqiy hayot mezonlarini, Payg'ambar va islomiy siymolar hayotidan olinadigan saboqlarni, insonning yaratilish maqsadiga mos yashash zaruratini ommaga targ'ib qilish orqali ularni o'zlari ideallashtirgan hayot tarziga boshlashga intilganlar.

Xulosa qilib aytganda, "Boqirg'on kitobi" turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimiy va qimmatli yodgorliklaridan biri sifatida o'rta asr islom dunyosining ma'naviy, axloqiy va intellektual merosini o'zida mujassam etadi. Asar o'zining she'riy-didaktik shakli orqali imon, axloqiy poklik va inson kamoloti haqidagi abadiy g'oyalarni ifoda etadi. Xakim Sulaymon Boqirg'oniy Ahmad Yassaviy

maktabining yirik vakili sifatida ushbu ta'limotni davom ettirgan va uni falsafiy teranlik, xalqchil tilda ifodalangan hikmatlar bilan boyitgan. "Boqirg'on kitobi" o'z davrida ma'naviy va axloqiy tarbiya manbai bo'lib xizmat qilgan, bugungi kunda esa turkiy xalqlarning til, adabiyot va madaniyat tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarning dolzarbligi shundaki, unda ilgari surilgan ezgulik, ilm va sadoqat g'oyalari insoniyat ma'naviy hayotining abadiy qadriyatlari sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent:Hilol-nashr, 2021.
2. Köprülü F. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. DİB yayınları. - Ank., 1991.
3. Ahmed-i Yesevi. "Divan-ı hikmet" ten seçmeler. – Ankara, 1991. .
4. Боқирғоний С. Боқирғон китоби. – Тошкент: Ёзувчи, 1991.
5. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004.
6. Ҳаким ота. Ҳаким ота китоби. – Қарши: Насаф, 1993..

G. PRYAXINNING «MIRAJ» VA X.MURAKAMINING «KAFKA PLYAJDA» ASARLARIDAGI TUSHLARNING MIFOLOGIK VA RAMZIY KODLARI

Abdullayeva Charosxon Mahamadsoli qizi
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada G. Pryaxinning «Miraj» va X.Murakamining «Kafka plyajda» romanlaridagi tushlarning mifologik va ramziy kodlari tahlil qilinadi. Tushli epizodlar arxetipik obrazlar va madaniy jihatdan xos ramzlar tashuvchisi sifatida qanday ishlashi, shuningdek, individual va kollektiv mifologemalarning kesishadigan maxsus makon shakllantirishini ko'rsatadi. Ikkala roman ham tushlarni nafaqat psixologik mexanizm sifatida, balki mifologik tuzilmalarni (qadimiy yunon, bibliyaviy va postmodern) uzatish vositasi sifatida ishlatishini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: tush, mifologema, ramz, arxetip, makon, Pryaxin, Murakami

Zamonaviy adabiyotda tushlar qahramonlarning psixologik xususiyatini ifodalash vositasi sifatida emas, balki mustaqil narrativ va ramziy maydon sifatida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. G.Pryaxinning «Miraj» va X. Murakamining

«Kafka plyajda» romanlarida tushli epizodlar maxsus ahamiyat kasb etadi: ular individual va kollektiv xushsizlikning kesishgan, mifologik tuzilmalarning adabiy shakl va ramziy zichlikka ega bo'lgan makonsi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu matnlarni tahlil qilish universal arxetiplarni ham, madaniyatga xos ramzlarni ham aniqlash imkonini beradi.

G.Pryaxinning «Miraj» romanida qahramonning tushlari mavjudotchilik inqirozi proyeksiyasi sifatida ham, metafizik anglashga erishish yo'li sifatida ham ishlaydi. Tush makonsi xristian va qadimiy yunon an'analari bilan bog'liq ramzlarga to'la. Masalan, qahramon doim takrorlanib tushadigan labirint motivi Fesey va Minotavr afsonasiga ishora qiladi, lekin bu yerda ruhiy tupoqdan chiqish va haqiqatni izlash ramzi sifatida o'zgartirilgan. Pryaxinda labirint — geometrik tuzilma emas, balki ongning chalkashligi metaforasi bo'lib, unda qahramon vijdon ovozi va ilohiy chaqiruvni ajratishga harakat qiladi [1, 102]. Bunday ramziyot K.G.Yungning tushlarni kollektiv besoznaniyning namoyon bo'lishi sifatida tushunishiga mos keladi, unda arxetiplar «har qanday ongdan oldin mavjud bo'lgan organik shakllar»dir [2, 67].

«Miraj»da suv obrazi alohida o'rin tutadi. Daryo yoki dengiz bilan bog'liq tushlar ikki tomonlama ramziyotga ega: bir tomondan, suv toza bo'lish va yangilanish ramzi, ikkinchi tomondan — xaos va unutish bepoyonligi. Bu motiv bibliyaviy an'ana (to'fon suvlari, cho'qintirish) hamda anima mundi — tirik mavjudotlarni birlashtiruvchi olam ruhi arxetipiga borib taqaladi. Pryaxinning tushlarida suv haqiqiy va nohaqiqiy, vaqtli va abadiy olamlar orasidagi chegaraga aylanadi. Bunday ramziyot XX asr oxiri — XXI asr boshlaridagi rus metafizik adabiyotining boshqa vakillarida ham xos bo'lib, unda tush ko'rish «boshqa mavjudot tartibiga deraza» sifatida qabul qilinadi [3, 89].

Xaruki Murakamining «Kafka plyajda» romanida tushlar ham qahramonlarning ichki dunyosini ochishda va hikoya tuzilishini yaratishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq Murakamining mifologik repertuari Pryaxinikidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yerda yapon mifologiyasi, sintoy an'analari va buddaviylik falsafasining elementlari hukmronlik qiladi. Shunday qilib, Kafla tushida tushib qoladigan o'rmon sintoy an'anasida o'rmonni — tabiat ruhlari (kami) yashash joyi sifatida muqaddas makon sifatida tasavvur qilishga ishora qiladi. Bir vaqtda Murakami uchun o'rmon — ong labirinti ham, qahramon o'z soyasiga — K. G. Yung tomonidan shaxsiyatning «qorong'u tomoni» deb ta'riflangan arxetipga duch keladigan sinov makonsi hamdir [2, 73].

Murakamining tushlarida markaziy ramz — qush, xususan, kalaqaydir; u Kaflani boshqa olamlarga olib boruvchi yo'l ko'rsatuvchi bo'ladi. Bu obraz yapon mifologiyasida chuqur ildizlarga ega: kalaqaylar (yap. karasu) ko'pincha xudolar elchisi, ayniqsa sintoy afsonalarida, sifatida namoyon bo'ladi. Bir vaqtda

Murakami uchun qush — erkinlik ramzi, lekin taqdir bashoratchisi hamdir; bu uni qadimiy yunon kalaqayi sifatida bashorat qiluvchi obraziga yaqinlashtiradi. Shunday qilib, Murakamining mifologik kodi sinkretik bo'lib, sharqiy va g'arbiy an'analarni birlashtiradi va tushlarda madaniyatlar uchrashadigan noyob ramziy tizimni shakllantiradi [4, 156].

Yana bir muhim ramz — aynadir. Ikkala roman ham tushlarda aynali obrazlarni shaxsning identifikatsiyasini bo'laklash funksiyasini bajaradi. Pryaxinda qahramon aynada o'z aksini emas, balki «begona»ni ko'radi; bu ongning ikkiyuzlamaligi va «Men»ning butunligini yo'qotishini ramziylashtiradi. Murakami uchun esa ayna olamlar orasidagi chegaradir: Kaflaning tushlaridan birida u aynadan o'tib, vaqt to'xtab qolgan kutubxonaga kiradi. Bu motiv Karrol an'anasiga ega, lekin Murakami uchun ayna — g'ariblanish orqali o'zini anglash metaforasiga ekzistensial soya qo'shadi [5, 212].

Solishtirma tahlil ikkala roman ham tushlarni mifologik va ramziy kodlar faollashadigan va o'zgaradigan maxsus semiotik makon sifatida ishlatishini ko'rsatadi. Biroq agar Pryaxinda mifologemalar asosan xristian-g'arbiy manbali bo'lib, mutlaq haqiqat va ruhiy qutqarishni izlashga yo'naltirilgan bo'lsa, Murakami mifologik repertuari ko'proq plyuralistik va mavjudotning ikkiyuzlamaliligini qabul qilishga yo'naltirilgan. Pryaxin uchun tush — ma'rifatga erishish yo'li, Murakami uchun esa — xaos bilan birga yashash usulidir.

Shuningdek, tushlarda vaqtning funksiyasidagi farqqa e'tibor qaratish kerak. Pryaxinda tushlarda vaqt chiziqli yoki siklik bo'ladi; bu xristian tarixni qutqarish yo'li sifatida qabul qilishiga mos keladi. Murakamida esa tushlarda vaqt chiziqli emas, parchalanib ketgan; bu vaqt chegaralarining illyuzorligi haqidagi buddaviy tushunchaga aks etadi. Bu farq har bir muallifning madaniy xususiyatini ta'kidlaydi: rus adabiyoti metafizik mutlaqiyatga, yapon adabiyoti esa noaniqlik estetikasi va shakllarning oqimiga moyillik ko'rsatadi [6, 94].

Shunday qilib, «Miraj» va «Kafka plyajda» romanlaridagi tushlarning mifologik va ramziy kodlari universal arxetiplar hamda madaniyatga xos motivlarning murakkab o'zaro ta'sirini namoyon qiladi. Pryaxin va Murakami uchun tushlar hikoyaning yon elementi emas, balki metafizik va ekzistensial savollarni ifodalashning asosiy vositasidir. Suv, labirint, qush va ayna ramziyoti orqali mualliflar chuqur ong va madaniyat tuzilmalariga to'qnash keladigan oneyrik olamlarni yaratadi. Ushbu olamlarni solishtirish nafaqat har bir yozuvchining adabiy strategiyalarini, balki zamonaviy jahon adabiyotida tushlardan foydalanishning umumiy tendensiyalarini ham yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin, M. M. Estetika soz slovesnogo tvorchestva / M. M. Baxtin. — M.: Iskusstvo, 1979. — 424 s.
2. Yung, K. G. Arkhetip i simvol / K. G. Yung. — M.: AST, 2003. — 384 s. (haqiqiy nashr; birinchi ruscha nashr — 1991, «Respublika», lekin 2003-yilgi AST nashri ham keng tarqalgan)
3. Losev, A. F. Dialektika mifa / A. F. Losev. — M.: Mysl', 1990. — 320 s.
4. Nikolaeva, N. V. Mifologicheskie motivy v proze Xaruki Murakami / N. V. Nikolaeva // Vestnik MGIMO-Universiteta. — 2016. — № 6 (51). — S. 152–160. <https://doi.org/10.17323/1994-9334-2016-6-152-160>
5. Petrova, I. B. Obraz tusha v sovremennoy russkoy proze / I. B. Petrova // Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki. — 2019. — T. 12, № 10. — S. 208–212. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41187321>
6. Karatygina, T. V. Vremya i prostranstvo v romane X. Murakami «Kafka na plyaje» / T. V. Karatygina // Vestnik RUDN. Seriya: Russkiy yazyk. — 2014. — № 2. — S. 90–97. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=22134567>
7. Elyade, M. Shamanizm: Arkhaicheskie tekhniki ekstaza / M. Elyade. — M.: Ladomir, 1999. — 560 s. (haqiqiy tarjima; rus tilida birinchi marta 1988-yilda «Progress» nashriyotida chiqqan)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA “NAY” OBRAZI

Hamdamova Maxsuma Bahodirjon qizi

Farg‘ona tumani 5-sonli o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida “nay” obrazining ahamiyati va badiiy maqsadi haqida fikr yuritilgan. Mumtoz allomalardan Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy zamonaviy o‘zbek shoirlaridan esa Abdulla Oripov ijodida nay obrazining qanday maqsadda foydalanilgani tahlil qilindi.

Аннотация. В статье рассматриваются значение и художественное назначение образа «флейта» в узбекской литературе. Анализируется, с какой целью образ флейты использовался в произведениях классиков Джалалуддина Руми и Алишера Навои, а также современных узбекских поэтов Абдуллы Орипова.

Abstract. This article discusses the significance and artistic purpose of the image of the "flute" in Uzbek literature. The purpose for which the image of the

flute was used in the works of classical scholars Jalaluddin Rumi and Alisher Navoi, as well as modern Uzbek poets Abdulla Oripov, is analyzed.

Kalit soʻzlar. Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, nay, qamish, Rumiy hikmatlari

Ключевые слова. Джалалуддин Руми, Алишер Навои, Абдулла Орипов, флейта, трость, мудрость Руми.

Keywords. Jalaluddin Rumi, Alisher Navoi, Abdulla Oripov, flute, reed, Rumi's wisdom

Falsafiy-axloqiy hikmatlar muallifi Jaloliddin Rumiy adabiy meʼrosi kirib bormagan millat yoʻqdir. Adabiyotshunos olim, mohir tarjimon, Jamol Kamol Mavloni Rumiyga bejiz “butun bashariyat shoiri” deya taʼrif bermagan. Uning har bir hikmati kishini mushohadaga hamda tafakkur qilishga undaydi. Tom maʼnoda buyuk ustoz vazifasini oʻtaydi. J.Rumiyning hikmatlari va buyuk asarlari gʻarb xalqlari qatori oʻzbek adabiyotiga ham taʼsiri katta. Uning nay haqidagi “Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay, Ayriliqlardan shikoyat aylagay”, hikmati dunyodagi ayriliqlardan, gʻam-qaygʻulardan shikoyat qilayotgan nayning qismati haqidadir. Ayniqsa, U.Hamdamning ijodida bu taʼsir sezilib turadi. Boisi J.Rumiyning mashhur asarlaridan “Ichindagi ichindadir” asarini turk tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilganligidir. U.Hamdam qatori bir qancha oʻzbek adabiyoti shoir va yozuvchilarining ham ijodida J.Rumiy falsafasi ufurib turganiga guvohi boʻlamiz. U.Hamdamning “Unutilgan nay navosi” hikoyasida Jaloliddin Rumiyning “Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay, Ayriliqlardan shikoyat aylagay”, - nomli hikmatining taʼsiri sezilib turadi. Oddiygina nay nolasi orqali Vatanga boʻlgan muhabbati qalbining ostin –ustun qilib, oʻtmishini xotirlashga undamoqda. Ushbu hikmatning epigraf qilib olinganligi sababi ham shundadir.

Sharq mumtoz sheʼriyatida juda koʻp qoʻllanuvchi obrazlardan biri „nay”ning Alisher Navoiy ijodida ham koʻrishimiz mumkin. Shoirning sheʼriyatiga nazar tashlar ekanmiz, nay timsolini turli xil mohiyatda qoʻllanganiga guvohi boʻlamiz. Navoiy baʼzida bu obrazni oddiy “qamish” maʼnosida ishlatgan.

Chuchukdir qamish oʻqlaring jonima,

Bu nay ichra goʻyo shakardir manga. (Badoyi ul -bidoya, 35-gʻazal)

Navoiy „Majlis un-nafois” asarida guvohlik berishicha, Sayfiy taxallusi bilan qalam tebratgan xurosonlik Mir Yodgorbek ham quyidagi baytida “nay” obrazi orqali goʻzal tashbeh yaratadi. Bu oʻrinda ham qamish maʼnosi keladi¹⁹.

Sarviman sabzi astu shirin, rost ham chin naychalar,

Chun ba boʻlimi qaboi barg bandad kamar. (Mening sarvim nayshakardek yosh nihol shirin va xushomatdir, nayning barg kiyimlari ustidan kamar

¹⁹ Avaznazarov O. “ Abdulla Oripov –oʻzbek adabiyotining soʻnmas yulduzi” viloyat amaliy-uslubiy anjumani maqolalar toʻplami, 2018-yil 27-mart

bog‘laganidek, beli bog‘liqdir). Navoiy ayrim o‘xshatishlarida bu obrazidan faqat “cholg‘u asbobi” sifatida foydalanadi.

Nay o‘z vatani-qamishzoridan ayrilgach, nola chekkani kabi komil inson ruhi ham ruhlar dunyosidagi ma’naviy lazzatdan ayrilib moddiy olamga tushgach, o‘z vatanini qo‘msab , oshiqona so‘zlarni gapira boshlaydi. Nay nolasi tinglovchi ishqini ziyoda qilganidek, komil insonning kalimasi ham oshiqlar muhabbatini oshirib, qalbini iztirobdan xalos qiladi. Demak, nay-komil inson ramzi.

Komil inson ramzi sifatida aynan nayning tanlanishi bejiz emas, albatta. Chunki, nayning qomati to‘g‘ridir, komil insonning ham xulqi egasidir. Nayning ichi har narsalardan holi, bo‘m-bo‘sh, yolg‘iz naychaning ishqiga to‘lgan. Orif ham turli g‘ashliklardan begona, qalbi esa Robbisining ishq bilan bezangan²⁰. Albatta, ushbu fikrlar tasavvufiy istilohlarga to‘la deb o‘ylayman. Oddiygina nayning navosida yaratganga bo‘lgan ishqning nolasi yotadi.

“Nay” obrazi nafaqat nasrda, balki o‘zbek she‘riyatida ham keng qo‘llanilgan. Ushbu an‘analarni izchil ravishda davom ettirgan buyuk shoir Abdulla Oripovdir. Shoirning ko‘pdan ma‘lum va mashhur she‘rlaridan biri “Nay” she‘ridir. Nayning bunchalar “nay obrazi” gacha yetib kelganini izohlab bergan. Adabiyotimizda nay obraziga murojaat bugun ham davom etib kelmoqda. Abdulla Oripovning ijodida biz yuqorida payqamagan, kuzatmagan yangi bir ma‘no aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Undagi badiiylik hayot haqiqatning o‘zidir. Qamishning “adirlarda durkun yashnagani” ham, odamlar uning tanasini pichoq bilan kesib olganlari ham, quyidagi satrlarda aks ettirgan.

Yashnardi u adirda durkun...

Tanasiga sanchdilar pichoq.

Inson zotining naqadar vahshiyligini ta’riflab, ularning ko‘zi va bag‘rini o‘yib olganlari-yu, bu ham yetmagandek, bo‘g‘ziga lablarini qo‘yib puflaganlari ham haqiqatdir.

Ayirdilar avval ko‘zidan,

So‘ng bag‘rini oldilar o‘yib...

Quyidagi baytda barcha davrning muammosi bo‘lib kelayotgan insonning ustidan kulish, masxara qilish kabi holatlarni ham nay obrazida aks ettirgan deb o‘ylayman. “Alamiga chiday olmay sho‘rlikning nola chekib yuborgani, odamlar esa qamishni yig‘latib qo‘yib, rohat qilganlari ham rost²¹”. Ha, insonni inson boshiga turli kunlarni solib, uning bu holiga bir chetda turib tomoshabin bo‘layotganligini ham majoziy ma’noda nayga yuklagan.

...Alamiga chidolmay sho‘rlik,

²⁰ Laylo Jo‘rayeva. Alisher Navoiy ijodida nay ta’rifi//Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2017.H2 .-188-bet

²¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari>.

Nola tortib yubordi uzun²².

Bu tashqi ko‘rinishdagi haqiqatan tashqari majoziy haqiqat ham bor. Bu ham bo‘lsa, inson yurak-bag‘ri alamlardan sitilib, chok-chok bo‘lganidan qamishdan nay yasab, o‘z dardlarini kuylashga ehtiyoj sezganidir. Haqqoniy va hayotiy badiiyatning qudrati ana shundadir. Shoir nay obraziga quyidagi she‘rida ham murojaat qilgan.

Ijodkor ushbu misralarda barchamizga ma‘lum hayotiy bir haqiqatdan go‘zal bir badiiy obida yaratadi. She‘rdagi nayning asrlar davomida mustamlakachilar zulmidan bot -bot ezilib kelgan mazlum xalqning, mazlum vatanning yig‘ma timsoli, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Oripov esa „O‘zbekiston vatanim manim“, „Men nechun sevaman O‘zbekistonni“, - deya mana shu naydan go‘zal navo yaratgan sozanda, nazarimizda!

Abdulla Oripovning „Bahor“ she‘ridagi nay obrazi ham irfoniy, ham dunyoviy ma‘nolarda keladi:

Uvada kamzulda billur tugmaday
Bulutlar ortidan boqadi yulduz.
Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,
Qaydadir qo‘zigul yoradi ildiz.

Bu she‘rda nay timsoli qamishzorga, ya‘ni asliga qaytishni istagan ruh, ayni damda turmush tashvishlari bilan vatanini tark etgan va endi ortga qayta olmay, uni qo‘msab yig‘layotgan vatangadolar – g‘arib insonlar holatini tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir davrning, har bir ijodkorning o‘z nayi bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy ijodida nay asliga qaytishga intilgan komil ruh, qalbi ilohiy ishq bilan to‘lib - toshgan orif va komil inson ramzi bo‘lib kelgan bo‘lsa, zamonaviy o‘zbek she‘riyat va nasrda uning ma‘no doirasi ancha kengaydi. Ulug‘bek Hamdam, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Mirpo‘lat Mirzo, Mirzo Kenjabek kabi shoirlar ijodida nay shoir qalbi, dunyoviy ishq, sog‘inch, ruhiy iztiroblar manbayi, g‘urbat, ayriliq, Vatan sog‘inchi, yoshlik xotiralari kabi ma‘nolarni ifodalay boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

- 1.Oripov. A. Turkiy adabiyot durdonalari.”O‘zbekiston”, T:72
- 2.Quronov.D. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Noshir” nashriyoti.1999, 203
- 3.Jaloliddin Rumiy. Ma‘naviy Masnaviy.Kulliyot.J.1. K.1.” Sharq” nashriyoti.1999,37
4. <https://tafakkur.net/munojotni-tinglab/abdulla-oripov.uz>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari>.

²² Oripov. A. Turkiy adabiyot durdonalari.”O‘zbekiston”, T:72

SHEKSPIRNING BADIY MAHORATI

Mahmudjonova Nozila Umidjonovna

Fargʻona Davlat Universiteti Lingvistika (ingliz tili) yoʻnalishi

1-bosqich magistranti

Uilyam Shekspir - “barcha zamonlarning buyuk adibi” deya eʼtirof etilgan angliyalik dramaturg [2]. U oʻz ijodiy merosini asosan tragediyalar yozish orqali boyitgan va mashhurlikka erishgan. Yozuvchi asarlarida boshqa elementlardan koʻra koʻproq insoniy xislatlar va xatti-harakatlarga katta urgʻu bergan. 1623-yilda nashr etilgan “Qirol Lir” (“King Lear”) tragediyasida ham qahramonlar tili orqali aynan yuqorida sanab oʻtilgan jihatlarni yoritgan. Asardagi “masxaraboz” (“fool”) hajviy obraz boʻlishiga qaramay, u haqiqatni hajv ortiga berkitadi. Qirol Lirga haqiqatni soʻzlovchi va unga qarorlarining oqibati toʻgʻrisida ogohlantirishlar beruvchi saroy xizmatchisi talqinida gʻavdalantiriladi. Shekspir ushbu qahramonni oʻz asariga qoʻshishidan maqsad tragediya pafosini oshirish va fikr-mulohazalarini oʻquvchiga toʻlaroq yetkazishdir. Shuning uchun ham maqolada ushbu badiiy personaj chuqur tahlil qilinadi va uning shaxsiyati atroflicha yoritib beriladi.

Uilyam Shekspir ijodi namunalari oʻzbek adabiyotshunoslaridan Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Nazar Eshonqul, Xurshid Davronlar tomonidan oʻrganilgan va tarjima qilingan.

XVII asr boshlarida Angliyada soʻz erkinligi doimiy muammolardan biri edi. [4]. Yozuvchilar oʻz asarlarida haqiqatni toʻgʻridan toʻgʻri yoza olmaganlar yoki biror voqeani toʻligʻicha yoritib berolmaganlar. Shuning uchun ham ular yashirin uslublar orqali oʻz fikrlarini qahramonlar tilidan soʻzlab berganlar. Shu davrda yashab ijod qilgan Uilyam Shekspir ham “Qirol Lir” asarida “Masxaraboz”ni “haqiqatlar darakchisi” sifatida tanlagan. Obrazning Qirol Lir bilan suhbatini hajv, qoʻshiq va sarkazm yordamida yozilgan boʻlib, bu orqali yozuvchi Qirol Lirning ichki olamini va turli dolzarb masalarni – u xoh insoniy, xoh jamiyatga doir boʻlsin – yoritib bergan.

Shekspir yashab oʻtgan davrda Qirolga faqatgina masxarabozlik kasbidagi saroy xizmatchisi haqiqatni ayta olgan. Bu jasorati uchun u jazolanmagan va qatl qilinmagan [6]. Shuning uchun ham asardagi Masxaraboz personaji oʻz nutqida Qirolga hech ikkilanmay va tortinmay haqiqatlarni aytadi. Qirol uch qizidan faqatgina ikki qiziga davlatini teng ikkiga boʻlib hadya etadi va oxir oqibat ikkiyuzlamachi qizlari otasiga nisbatan adolatsizlik qilishadi. Tuygʻulariga tayanib tez va mulohazasiz qabul qilingan qarorning oqibatlarini Masxaraboz yoritib beradi: “Qachonki sen oʻz tojingni ikki boʻlakka ushatib har ikki boʻlagini ham topshirib yubording. Bu qilgan ishing botqoqdan oʻz eshagingni oʻz yelkangda olib oʻtish bilan baravar boʻldi” (Gʻafur Gʻulom tarjimasi). Bu oʻxshatish orqali

yozuvchi fikrini to'liq tushuntirishga harakat qilgan va asar bo'yoqliligi yana-da oshirgan.

Yuqorida Masxaraboz faqatgina hajv orqali emas, balki qo'shiqlar yordamida ham haqiqatni so'zlagan degandik. Asardan olingan parcha bunga misol bo'la oladi. "Ahmoqqa aylandi aqli rasolar" (G'afur G'ulom tarjimasi) jumlasida Qirol Lirga ishora qilinganligini payqash mumkin. U chuqur o'ylanmagan qarori natijasida jabr chekib turli qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.

"Maymunlik qilmoqda butun donolar" (G'afur G'ulom tarjimasi) satrida esa Masxaraboz o'z shaxsiyati haqida so'z ochgan. U Qirol bilan birgalikda saroy tashqarisida yurib, unga qarorlarining oqibatini xulosalab borgan. Aslida yozuvchi "masxaraboz" obrazini "dono" inson timsoli sifatida gavlantirgan, faqat uning jumalari satiristik ruhda ifodalangan. "Maymunlik qilmoq" tashbihi esa mohiyatni va asliyatni yashirishga ishora qilgan. Demak, o'quvchi yuzaki ma'noga e'tibor berib o'qisa, hangomaga duch keladi. Ammo jumalarning har bir so'zini tahlil qilish orqali asl ma'noni keltirib chiqara oladi.

Mavzuni va kinoyani kengroq hamda tushunalibroq yoritib berish maqsadida yozuvchi til uslubiyatlaridan to'liq foydalangan. "Eshaklar" hamda "otlar" asardagi qahramonlarga ishora qiladi. Masxara o'z imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrini ham qo'pol, ham hazilomuz tarzda bayon etadi. Savol bilan qilgan murojaati esa Qirolning aqliy salohiyatimi ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Uilyam Shekspir "Qirol Lir" asarining hajviy timsoli "masxaraboz"ga katta badiiy, g'oyaviy-falsafiy vazifa yuklaydi. Bu shunchaki epizodik obraz emas, balki yozuvchining o'zi va uning jamiyat to'g'risidagi mulohazalari. Fikrni go'zal bayon etish bir iste'dod, uni "ezop tili" uslubiyati yordamida bayon etish esa katta mas'uliyat va mahoratdir. Shuning uchun ham, Shekspir asarlarida aks etgan tarix, madaniyat tushunchalari bilan birgalikda falsafani ham o'rganishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida/>
2. Nazar Eshonqul, Uilyam Shekspir, <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uilyam-shekspir/>
3. Nazar Eshonqul, Uilyam Shekspir, <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uilyam-shekspir/>
4. David Colclough, Queen Mary University of London, Freedom of Speech in Early Stuart England.
5. William Shakespeare, King Lear, Act 1, Scene 4, P.52-53.
6. Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/art/jester>
7. William Shakespeare, King Lear, Act 1, Scene 5, P.67.

BADIIY MATNDA FOLKLORIZM HODISASINING IFODALANISHI

Solijonova Saodatxon Abdujabbor qizi

Farg'ona davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchining badiiy asarga olib kirgan xalq og'zaki ijodi materiallarini o'rganish, tahlil qilish bugungi kunda filolog olimlar xususan tilshunos olimlar tomonidan olib borilayotganligi alohida ko'rsatilgan. Shuningdek folklorizm hodisa, uning o'rganilishi, asarga singdirish stilizatsiyasi, tipologiyasi kabi masalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: folklorizm, folklorema, lingvopoetika.

Аннотация: в статье, в частности, показано, что изучением и анализом материалов народной устной культуры, включённых писателем в художественное произведение, в настоящее время занимаются филологи, особенно лингвисты. Также рассматриваются такие вопросы, как феномен фольклора, его изучение, стилизация и типология его включения в произведение.

Ключевые слова: фольклоризм, фольклор, лингвопоэтика

Annotatsiya: This article specifically shows that the study and analysis of the materials of folk oral culture that the writer introduced into the work of art is currently being carried out by philologists, especially linguists. It also covers issues such as the phenomenon of folklore, its study, stylization, and typology of its incorporation into the work.

Keywords: folklorism, folklore, linguopoetics

Yozuvchining badiiy asarga xalq og'zaki ijodi materiallarini olib kirib, uni stilizatsiya qilishi ya'ni o'z asariga singdirishi folklorizm nomi bilan yuritiladi. Folklorizm hodisasining yozma adabiyotda paydo bo'lishi qadimdan boshlangan. Ushbu hodisa yozuvchining individual uslubi, ichki maqsadi bilan xalq og'zaki ijodi materiallarini o'zining asariga singdirishi orqali yuzaga keladi. Folklorizmlarni tadqiq qilish, manbalar yaratish filolog olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda olib borilimoqda. Xususan, u borasidagi dastlabki qaydlar fransuz folklorshunosi P.Sebiyo tomonidan kiritilgan keyinchalik rus adabiyotshunosi M.K.Azadovskiy²³ tomonidan uning tabiati va tasnifi o'rganila boshlangan. O'zbek filologiyasida bu soha borasidagi dastlabki qaydlar O.Sobirov tomonidan kiritilgan bo'lsada ammo u folklorizm atamasini qo'llamaydi. Folklorizm hodisasini ilmiy

²³ Азадовский М.К. История русской фольклористики. - М.: Госпедизд., 1958.

istiloh sifatida dastlabki tipologik tasnif adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov²⁴ tomonidan keltirilgan. Keyinchalik folklorizmlarning tipologik tasnifi va tabiati borasidagi izlanishlar I.Yormatov²⁵, L.Sharipova²⁶ X.Doniyarova, M.Narziqulova, D.Xoliqova, M.Imomkarimova, F.Qurbonova, S.Mamayusupova kabi adabiyotshunoslar, A.Turdiyev kabi bir qancha folklorshunos olimlar tomonidan davom ettirildi. Shu o'rinda tilshunoslik sohasida ham folklorizmlarning tipologik tasnifi va tabiati yoritilganmi, yozuvchining badiiy asarga olib kirgan xalq og'zaki ijodi materiallari o'rganilganmi kabi savollar paydo bo'ladi. Folklorizmlarni til nuqtai nazaridan o'rganish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki folklorizmlarni badiiy matnda tilshunoslik nazaridan tadqiq qilinishi kerak bo'lgan sohalar talaygina. Ushbu sohada jahon va o'zbek tilshunosligida sanoqli ishlarni ko'rsatish mumkin. Jumladan, A. Г Костина "Фольклорные элементы в лексической структуре художественный текстов Валентина Распутина", И. Климас "Фолклорная лексикалогия своеобразие объекта б состав единиц б специфика лексикологических категорий", A.Ahmedova "Badiiy matnda folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari".

I. Klimas folklorizmlarning leksikologiyasini tadqiq qilish orqali so'zlarning strukturaviy va fonetik o'zgarishlarini, morfemalarning o'zgarib turish, va almashishining an'anaviy holatlarini o'rganib, folklordagi so'z o'ziga xosligi, og'zaki xalq she'riyati lug'atining tabaqalanishi, folklordagi turli nutq bo'laklari so'zlarning omonimiyasi, sinonimik she'riyatning o'ziga xosligini ochib beradi.

Ishda folklor lug'atiga etibor qaratilib, "lug'at", "lug'at leksik fond", "leksika" deyilganda og'zaki folklor asarlarida qayd etilgan leksik birliklarning butun majmuasi tushunilishi, shuningdek uning torroq tushuncha ekanligi, folklor asarlari doirasidan tashqarida uchramaydigan leksik birliklar ekanligi qayd etiladi.²⁷

A.G Kostina V Rasputina ijodi orqali folklorizmlarni leksik jihatdan tadqiq qiladi. U folklorizmlarni "folklorema" atamasi ostida o'rganadi. U "folklorema – majoziy, ramziy leksema, frazema, folklor matnining bir qismi yoki kichik folklor janrining matni bo'lib, uning orqasida matn yaratuvchisining mifologik tafakkuri, marosimi yoki ideallashtirilgan folklore voqealigining o'ziga xosligi bilan shartlangan an'anaviy ma'no mavjud."deb qayd etadi.²⁸

²⁴ Саримсоков Б. Фолклоризмлар типологиясига доир // Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1980. – N 4.

²⁵ Ёрматов И. Стилизация характеридаги фольклоризмлар // ЎТА, 1984, 3-сон; яна: Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида // ЎТА, 1985, 2-сон

²⁶ Шарипова Л. XX аср 70-80-йиллари узбек шеърисида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2008. Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми узбек шеъриси бадий тараккиетида фолклор. – Тошкент: 2019.

²⁷ И. Климас "Фолклорная лексикалогия своеобразие объекта б состав единиц б специфика лексикологических категорий" автореферат Санкт-Петербург; -2011.

²⁸ И. Климас "Фолклорная лексикалогия своеобразие объекта б состав единиц б специфика лексикологических категорий",

A.Ahmedova “Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari” {Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida nomli dissertatsiyasida folklorizmlarning oddiy hamda murakkab tiplarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilgan. Olima folklorizmlarni qo‘llanish davri, o‘rni, sifati, yo‘nalishi hamda vazifasiga ko‘ra guruhlarga ajratgan holda o‘rganishda L.Sharipovanning tasnifiga tayanganligini ta’kidlaydi. Ishda Cho‘lpon asarlarining til xususiyati tadqiqi, maqol ibora va intertekstuallikning lingvopoetik xususiyatlari, qo‘shiq, olqish, qarg‘ishlar shuningdek ijtimoiy-etnografik folklorizmlar lingvopoetikasi yoritilgan. Ushbu ish Cho‘lpon asarlarida qo‘llanilgan folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritib berishga bag‘ishlangan ilk ish ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Ishning birinchi bobi “Folklorizmlar va ularning tadqiqi” deb nomlanib, unda jahon va o‘zbek tilshunosligida folklorizmlarning o‘rganilishi hamda Cho‘lpon asarlarining til xususiyatlarining tadqiqi yoritiladi. U rus adabiyotshunosi M.K.Azadovskiyning ilmiy-ommabop, publisistik asarlarda qo‘llanuvchi folklorizmlarni ilmiy folklorizm nomi bilan atalishiga tanqidiy munosabat bildiradi hamda “publisistikada ham folklorizm badiiy mahorat samarasi sifatida yuzaga keladi, asarning ta’sirchanligi ortishiga xizmat qiladi, xalqchilligini ta’minlaydi”²⁹deb ta’kidlaydi. “Cho‘lpon asarlarining til xususiyatlarining tadqiqi” deb nomlanuvchi faslida olim G.Ernazarova, Sh.To‘ychyeva, D.Jabborov, H.Ozbay, M.Yo‘ldoshev, D.Jamoliddinova, Y.Sayidov, M.Akbarova, O.Yusupova, F.Karimovalarning ishlari tahlil qilib, ushbu ishlar Cho‘lpon asarlarining til xususiyatlari, lingvopoetik tahlillari shuningdek Cho‘lponing til birliklaridan foydalanish mahorati ochib berilganligi, lekin shu paytgacha Cho‘lponning folklorizmlarni qo‘llash mahorati lingvopoetik jihatdan monografik aspektda tahlil qilinmaganligini dalillar orqali izohlaydi.

Doktorlik ishining ikkinchi bobida oddiy folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Cho‘lpon asarlarida qo‘llangan maqollarning lingvopoetik xususiyatlari” deb nomlangan birinchi faslida maqollarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek muallif L.Sharipovanning “og‘zaki nutqqa xos ifoda hamda oborotlar oddiy folklorizm bo‘lavermaydi. Chunki ular nutqqa xos hodisa bo‘lib, maqol, matal kabi tilda hamisha tayyor holda uchrasa ham, badiiy ijod mahsuli sifatida janriy belgilarga ega emas.” kabi fikriga qo‘shilmay, u ham B.Sarimsoqovning mulohazalariga qo‘shilishini bildiradi. Og‘zaki nutqqa xos ifoda hamda oborotlar “xalq og‘zaki nutqida tayyor holda imkoniyat sifatida mavjud bo‘lib, har safar yangitdan yaratimaydi, balki tayyor holda nutqqa olib kirilaveradi. Shu ma’noda turg‘un

²⁹ Ahmedova.A. Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida dissertatsiya Toshkent 2025

ibora va muayyan qolipga ega oborotlarni ham oddiy folklorizmlar sifatida qabul qilish mumkin, degan fikrdamiz.” kabi izohlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda folklorizmlarni tadqiq qilish borasida folklorshunoslik, adabiyotshunoslik doirasida qilingan ishlar talaygina ammo tilshunoslik nuqtai nazaridan qilingan ishlar kamchilikni tashkil etadi. Ularni badiiy asarga yozuvchi tomonidan olib kirilishi orqali folklor elementlarining ma’no nozikligini tekshirish hamda lingvopoetik, lingvomadaniy, stilistik jihatdan tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азадовский М.К. История русской фольклористики.- М.: Госпедизд., 1958.
2. Саримсоков Б. Фолклоризмлар типологиясига доир// Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1980. – N 4.
3. Ёрматов И. Стилизация характеридаги фолклоризмлар // ЎТА, 1984, 3-сон; яна: Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фолклоризмлар хусусида // ЎТА, 1985, 2-сон
- 4.Шарипова Л. XX аср 70-80-йиллари узбек шеърлятида фолклоризм. – Тошкент: Фан, 2008. Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми узбек шеърляти бадий тараккياتида фолклор. – Тошкент:-2019.
5. Костина “Фольклорные элементы в лексической структуре художественный текстов Валентина Распутина”,
6. Климас “Фолклорная лексикалогия своеобразие объекта б состав единиц б специфика лексикологических категорий”
- 7.Ahmedova.A. Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida dissertatsiya Toshkent 2025

BADIY ASAR STRUKTURASIDA SHAMOL DETALINING O‘RNI

Gafurova Dilobar G‘ayrataliyevna

Farg‘ona davlat universitetining 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: maqolada badiiy asar strukturasi - butunlikning tashkillashda, undagi voqelik, obrazlar, peyzaj tasvirlarini tashkil etayotgan detallarning o‘zaro aloqalari o‘rganildi. Asar g‘oyasini tasvirlashda peyzaj tasvirining ahamiyati, xususan, shamol hamma zamon va makonga kirishi, har yerda sodir bo‘la olishi, turli ko‘rinishlarda akslanishi bir qator asarlar kesimida tahlil qilindi.

Kalit soʻzlar: Peyzaj, shamol detali, syujet, xarakter, umumbashar tili, “Dahshat”, “Urushning soʻnggi qurboni”, “Ozod”, “Alkimyogar”.

Abstract: the article studies the structure of a work of art - the organization of the whole, the relationships between the details that make up the reality, images, and landscape images in it. The importance of landscape images in describing the idea of the work, in particular, the fact that the wind enters all times and places, can occur everywhere, and is reflected in various forms, was analyzed in a number of works.

Keywords: Landscape, wind detail, plot, character, universal language, "Horror", "The Last Victim of War", "Free", "The Alchemist".

Аннотация: в статье рассматривается структура художественного произведения – организация целого, взаимосвязи между деталями, составляющими реальность, образами и пейзажными образами в нём. В ряде работ анализируется значение пейзажных образов в раскрытии идеи произведения, в частности, тот факт, что ветер проникает во все времена и места, может встречаться повсюду и находит отражение в различных формах.

Ключевые слова: Пейзаж, деталь ветра, сюжет, персонаж, универсальный язык, «Дахшат», «Последняя жертва войны», «Озод», «Алхимик».

Muallif asar gʻoyasini tasvirlashda koʻpincha tabiat unsurlaridan foydalanadi. Chunki bu omillar, xususan, shamol hamma zamon va makonga kirishi, har yerda sodir boʻla olishi, turli koʻrinishlarda akslanishi, yaʼni yoqimli shabadadan tortib dahshatli dovul shaklida turlanishi, salbiylik va ijobiylik xususiyatlarini oʻzida mujassam etishi bilan muallifning har qanday maqsadiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan cheksiz imkoniyatlarga egadir. Masalan, A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi shamolning tasviri asardagi voqealarga uygʻun tarzda keltiriladi:

“Shamol goh och boʻriday uvillar, goh oʻlim changaliga tushgan mushukday pixillar, vagʻillar, hech narsa-hech narsa koʻrinmasdi”³⁰.

Hikoyada tabiat manzarasi, ob-havoning holati aynan “dahshat” ga mos edi. Bu holat asar mazmun-mohiyatini aniq namoyon qiladi va oʻquvchiga kontekstdagi umumiy tasvirni ishonarli yetkazish vazifasini bajaradi. Tabiat tasviri (peyzaj) koʻp hollarda tabiat unsurlari (yomgʻir, shamol, chaqmoq, tuproq) yordamida yaratiladi. Muallif asarda qahramon xarakterini ochish, kayfiyatni belgilash, boʻlajak hodisalarga oʻquvchini tayyorlash maqsadida aksariyat shamol detalidan foydalanadi. Shamol, koʻpincha, xabarchi vazifasini bajaradi. Tabiatda ham shamolning esishi havoning sovushi, namchil shabada yomgʻirning yogʻishini

³⁰ A.Qahhor.Asarlar.Toshkent.Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot.1987.B.328.

bildiradi. Xuddi shu kabi asarlarda ham shiddatli shamoldan keskin vaziyatlarni, mayin shabadadan chiroyli yakunni kutish mumkin. “Dahshat” hikoyasining dastlabki ko‘rinishi kuzak shamolining yaydoq daraxtlar shoxida mushukday chiyillashi, tomlarda vishillashi, bo‘yrani ko‘tarib urishi bo‘lajak fojeadan xabar beradi.

Kuzak shamoli asar syujetini harakatga keltirish uchun vosita bo‘lib kelgan. Dodho bilan Unsinning shartlashishi, ya’ni dahshatli kechada qabristonga borib choy qaynatish fikrining tug‘ilishiga shu kechaning o‘zi sababchi bo‘ldi. Ya’ni agar qo‘rqinchi kechada shamolning harakatlari Dodhoni cho‘chitmasa (shamol bo‘yrani ko‘tarib urganda o‘limni eslab cho‘chib ketdi), vahimali rivoyatlar esga kelmas, Unsinda ham bu ishni qilishga jur‘at paydo bo‘lmasdi. Shamolning haddan tashqari kuchayishi kechaga vahm kiritdi, bundan dodhoning yuragiga qo‘rquv tushdi. Bularning bari syujetni harakatga keltirdi va noxush kechada fojeaning yuz berishiga zamin yaratdi. Kuzak shamoli deb berilishining o‘ziyoq o‘quvchida “qayg‘uli hikoya” degan fikrni uyg‘otadi. Chunki kuzak, kuz timsoli timsollaridan badiiy asarlarda aksariyat hasrat, hijron, ayriliq, tugallanish, o‘limni tasvirlashda foydalaniladi. Bunga zid ravishda “bahor shabadasi”, “ko‘klam yellari” kabi tasvirlar hayotga muhabbat, yashash zavqi, yoshlikni tarannum etadi.

Yoki muallifning “Sarob” romanida tarang vaziyat, holatga nisbatan shabadadan ramziy ma’noda foydalanilganini ko‘rish mumkin: “Bir kun bo‘sh gumon qilingan auditoriya band bo‘lib chiqdi. Shunda Saidiy ixtiyorsiz o‘z hujrasini eslatib yubordi. Munisxon mayda o‘rilgan soch uchini o‘ynab o‘ylanar ekan, Saidiy sham alangasiday bo‘lib qoldi. Munisxonning har bir harakatidan esgan **shabada** uni tebratar, shu onda yo‘q desa, uni abadiy so‘ndirar edi”³¹. Inson harakatidan shabada esishini sezish butun vujudi bilan bir ishoraga mahtal bo‘lishni bildiradi, ya’ni Munisxonning harakatlari ortiga nazar solinsa, rozi bo‘lishi yo‘ki yo‘qligi qizning holatidan ko‘rinishi va bu oshiq uchun yo hayot, yo mamot ekani nazarda tutilgan. Beradigan javobi xabarini uning shu damdagi xatti-harakati bildiradi. Mana shu ishora javobning shabadasi sifatida berilgan. Asardagi yana bir holatda – Munisxon va Sa’diy orasida uzilgan munosabatni, Munisxon Saidiyga rad javobini bergan vaqtdagi Saidiyning ahvolini tasvirlash uchun yozuvchi peyzajdan foydalanadi: “O‘ng‘aysiz jimlik hukm surdi. G‘irillab kirgan shabada ochiq qolgan kitobni varaqlab, ustidagi gulni yerga tushirdi, qog‘oz parchalarini uchirib ketdi”³². Bu holat to‘laligicha majoziy ma’noga ishora qiladi. Ya’ni qismat shabadasi(shamoli) hayot kitobini varaqladi va undagi muhabbat sahifalarini o‘chirib tashladi(kitob ustidagi gulning yerga tushishi), xotiralar(qog‘oz parchalari)ni uchirib ketdi. Bu shamol kimning qismati, hayot

³¹Xudoyberdiyev E.Adabiyotshunoslikka kirish.Toshkent.O‘qituvchi. 1995.B.101/271

³²A.,Qahhor.Sarob.Toshkent.IIIapq.1995.B.154.

daftari kimniki edi? Tafsilotlar muhabbati rad etilgan Saidiyning ruhiyatini ana shunday ochadi.

O'tkir Hoshimovdirning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida shamolning holati voqealar rivoji bilar parallel ravishda tasvirlanadi. Hikoyadan bir parcha keltirmiz: "Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o'sha tovoq. Bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi."³³ Shamolning kutilmaganda kelib, yong'oq shoxlarining guvillab qo'yishi hayolga kelmagan, tasodifiy voqea (qag'uli, chunki tasvirlanayotgan tabiat shunga dalolat qiladi) sodir bo'lajagiga ishoradir. Shamolning badiiy asarda bajaradigan vazifalaridan biri habar berish, ogohlantirishdir. Hikoyada voqealar rivojidagi keskinlikni ko'rsatish, fojealarga ishora qilish maqsadida shamol, yong'oq, kalish detallaridan o'rinli foydalanilgan. "Dastlab, voqealarning boshlanishida "shamol keldi" degan jumla ishlatiladi. Keyin esa Shoikrom qulupnaylar va o'pirilgan devorni ko'rish uchun borganida "yong'oq shoxlari shamolda vishillashi", elektr simlarini tashlayotganda "shamol o'kirar" shaklida, Umri xolani tok urgan paytda "shamolning uvillashi", Shoikrom o'z onasini o'ldirib qo'yanligini bilgan holatida "shamol g'uvuri" kabi tasvirlanadi. Shamol holatlarining o'zgarib borishi voqealar oqimiga hamohang berilganligi ham adibning yutuqlaridan hisoblanadi"³⁴. Ko'rinadiki, shamol asardagi voqealar tizimiga monand harakat qilyapdi. Hikoya boshida muallif shamolni asarga kiritib qo'yishidan ko'zlangan muayyan maqsad bor. Shamol yuz beradigan hodisalarni avvaldan biladigandek, unga to'sqinlik qilmoqchi, norozilik bildirmoqchi bo'lgandek tasavvur uyg'otadi. Ayol o'lgan vaqtda shamol uvilladi, ya'ni yig'ladi. onasi qarshisida aqlini yo'qotib turgan o'g'ilning oldida ta'na qilgandek, xafsalasi pir bo'lgandek tasavvur uyg'otdi. Muallifning mahorati shundaki, shamolning harakatlari voqealarga mos ravishda namoyon bo'ladi.

Istiqloldan keyingi yillarda yaratilgan romanlarda insoniyatning ma'naviy-axloqiy olami ancha keng tadqiq etilmoqda. Yangi badiiy tafakkur maxsuli sifatida namoyon bo'layotgan romanlarda shakliy yangilanish bilan bir qatorda g'oyani tasvirlash uslubi ham yangicha poetik qiyofa kasb etmoqda. Zamonaviy adabiyot uchun xos bo'lgan xususiyatlar asarda gumanistik pafos doirasining kengayishi, inson konsepsiyasining chuqurlashuvi, shaxs tabiati va qalbining murakkab tomonlarini anglash va kashf etishga ehtiyojning ortayongani bilan belgilanadi. Bu davrda yaratilayotgan nasriy asarlar insonlar ruhiyati va jamiyat psixologiyasini ochib berishi bilan ahamiyatlidir. Bunda Sharq mumtoz an'analari Jahon adabiyotida o'zining mazmun-mohiyati, g'oyasi bilan bir-biriga juda yaqin

³³ Hoshimov O'. O'zbeklar. Toshkent.Yoshlar nashriyot uyi.2016.B.11.

³⁴ Qayumov A.Monografiya. B.56.

turadigan asarlar borki, ular Sharq yoki G'arbda yaratilganidan qat'iy nazar umumbashariy tushunchalarni ilgari surishi bilan qimmatlidir. Shu bilan birga har bir xalqning milliy o'zligini tanitish, mentalitetini o'zida mujassamlashtirgan "men"ligini dunyo maydoniga olib chiqishda adabiyot janrlari, ayniqsa, romanlarning ahamiyati katta. Zavonaviy o'zbek yozuvchisi Isajon Sultonning "Ozod" romani Paulo Koeloning "Alkimyogar" romanlari mohiyatan bir-biriga yaqin umumbashariy mavzularni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

"Har qanday yaxshi asar-o'zi yaratilgan davr hayotining badiiy hujjati"³⁵. "Alkimyogar" mazmunini tushuna olgan o'quvchi "Ozod"ga kelganda biroz mushohada yuritishga majbur, chunki asarni anglash uchun adabiyot durdonalaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Albatta, adabiyot bir paytning o'zida ham xos kishilar uchun, ham ommaga daxldor bo'ladi. Ammo asarni qanchalik tushunish har kimning tafakkuri, bilimi, saviyasiga bog'liqdir. D.Quronov badiiy asarni tubsiz dengizga qiyoslaydi. Uning yuzasinigina ko'rgan nari borsa, mavjlarni ko'ra oladi, ammo, tubiga sho'ng'iganlar butunlay yangi dunyoni ko'radilar.

Asarlardagi o'xshashlik nafaqat asar kompozitsiyasida, balki ularga singdirilgan badiiy-falsafiy qarashlarda o'z aksini topgan. Har ikki asar ham safar motiviga asoslanadi. "Alkimyogar" cho'pon yigit Santyagoning xazina izlab safarga chiqishi voqealaridan boshlansa, "Ozod"da asar qahramoni Ozod Diloromga "baxt lolasi"ni keltirish uchun safarga otlanadi.

Ozodning sayohati tasodifiy emas, muayyan xalqning asriy an'analari bilan bog'liq bo'lgan. Yigit safarga chiqib shu urf-odatga amal qildi, ya'ni baxt lolasini Oydin qizga olib kelish uchun safarga chiqdi. Lolaning baxt-saodat timsoli yoki ilohiy qudrat sifatida aks ettirilishi boshqa manbalarda ham uchraydi. Masalan, Ulug'bek Abduvahobning "Gardkam" hikoyasida estetik idealning o'ziga xos namunasi – baland cho'qqida ko'zlarni qamashtirib, hammani o'ziga chorlaydigan lolaga duch kelinadi. "Qahramon bir qarashda lolani butun insoniyat topinadigan Ka'baga o'xshatadi"³⁶. Muayyan ma'noda Santyago izlagan xazina ham baxtning – lolaning bir ko'rinishi. Asarlardagi farqli jihatlar talaygina. Masalan, safarning muddati ham turlicha. Ozodning safari bir kungina davom etgan bo'lsa, Santyagoning safari bir necha yillarga cho'ziladi. Safar davomida qahramonlar ruhan ulg'ayadilar, ma'naviy barkamollikka erisha boradilar. Ro'y beradigan hodisalar, uchraydigan hamrohlar, ko'rinadigan har bir detal ulardagi ma'naviy olamni boyitishga xizmat qiladi. Santyago shaxsiyatining yoritilishida Maliksiddiq, chinnivorlar sotuvchisi, alkimyogar kabi obrazlar, urum va tumnum toshlari, qo'ylar, billur idishlar, shamol singari detallarning ahamiyati katta.

³⁵ Quronov D. O'zbek tili va adabiyoti 2024.1-son. –Toshkent. 80/136

³⁶ Gulnoza S Yu. 90-yillar o'zbek hikoyachiligida milliy xarakter muammosi. Dissertatsiya. Toshkent. 2002. B.110

Qahramonlarning ikkisi ham balogʻat yoshida, bundan tashqari aql-zakovat, fikr-mulohaza bobida bir-biridan kam emas. Ikki qahramon xarakterida qatʼiylilik, shijoat, oliyjanoblik va samimiylik xislatlari mujassam. Safarlari davomida ular komillik kasb etib boradilar. Ikkisida ham idrok va tafakkurning yuksakligi koʻrinadi. Bu jihatdan har ikki asarning genezisi xalq ertaklariga borib taqaladi deyish mumkin. Asarlarda ramziy belgilarning ahamiyati muhim. Santyago alomatlar izidan boradi, Ozod esa akslarni idrok etadi. Mazkur asarlar ramziylikka asoslangan. Unda koʻringan narsalar ayni holicha emas, nimaningdir belgisi ekanini mulohaza qilishga toʻgʻri keladi. Ozodga uzumzorlar egasi, toshdan imorat tiklayotgan kishi, koʻr kishi nasihat qiladi. Santyago esa Maliksiddiqning soʻzlariga amal qilib maqsadi sari boradi. Ozodning muhabbati Oydin. Uni safarga ruhlantirgan kuch ham shu. Santyagoga ham sevisht baxti begona emas. U dastlab movutchining qiziga koʻngil qoʻyadi. Ammo safari davomida yanglishganini anglaydi, chunki u haqiqiy sevgini sahro qizi Fotimada topadi. Fotima uni sayohatini davom ettirishga undaydi. Santyagodagi soʻnayotgan umidga kuch bagʻishlaydi, hazinaga yetishishiga ishon tiradi. Ammo Ozod va Santyago muhabbatida farqli jihatlar Sharq va Gʻarbga xoslikni koʻrsatib turadi. Ozod va Oydin orasida muhabbat manzaralari berilmaydi, Santyago va Fotimaning sevgisi ochiq bayon etilgan. I.Sulton romanida Ozod va Oydin timsolida Eran bilan Dilorom muhabbati ifoda etadi. Yigit va qiz suhbatida sharqona tarbiya, iffat va milliy gʻururning yuksak namunasi ifoda etilgan. “Oddiy yigitni dinamik oʻstirib borib, Eranga aylantirish yozuvchi ijodiy niyatidayoq koʻzda tutilgan. Shuning uchun, barcha struktur-semantik parchalar bosh maqsad negizida adabiy montaj usulida yagona kompozitsion markazga jipslashadi”³⁷. “Ozod”dagi safar, sinov, homiy kabi motivlar uning milliy zamindan oziqlanishini tasdiqlaydi. Safardan murod maʼshuqani izlash emas, balki afsonaviy togʻ lolasini topib, Oydin hadya etishdir. Yigitning yoʻldoshi Shopur (Navoiy, “Farhod va Shirin”) yoki Navfal (Navoiy, “Layli va Majnun”) dostonlaridagi kabi real shaxs sifatida aks etmaydi. Chunki uning hamrohi shamol edi.

Umuman, Isajon Sulton yaratgan syujet modifikatsiyasini Jahon adiblari asarlari bilan mushtaraklikda oʻrganish yaxshi samara beradi. Chunki adib romanlarining poetik mazmuni, falsafiy mushohadalarida dunyo adabiyotidan taʼsirlanish holatlari ham kuzatiladi. Ibrohim Gʻafurov bu haqda shunday yozadi: “Isajon Sulton qip-qizil ekzintensializm! Ekzintensializm falsafasiga shaydo boʻlgan ijodkorning ong tasavvuri shunday larzali kechinmalardan dunyo va

³⁷ I.Yoqubov, M. Xidirova. Mustaqillik davri oʻzbek romanlarida vsintetizm va uning etik-estetik zamini. Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent. 2021.

tabiatning kelib chiqishiga nazar tashlamoqchi bo‘ladi”³⁸. Muallif asarlarining g‘oyaviy-mavzuiy o‘ziga xosligi, ifoda va idrok prinsiplari uning yuksak badiiy mahorati, ma’naviy-intellektual salohiyatidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. O'zbek tili va adabiyoti 2024.1-son. –Toshkent.
2. A.Qahhor.Asarlar.Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.1987
3. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. O‘qituvchi. 1995.
4. A.Qahhor. Sarob.Toshkent. IIIapк. 1995.
5. Hoshimov O‘. O‘zbeklar. Toshkent.Yoshlar nashriyot uyi.2016
6. Qayumov A.Monografiya. 2021
7. Gulnoza S Yu. “90-yillar o‘zbek hikoyachiligida milliy xarakter muammosi”. Dissertatsiya. Toshkent. 2002.
8. “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent.2021.

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA OPA-SINGIL XUSHRO‘Y VA ZAYNAB OBRAZLARI TAHLILI

Xodjayev Sidik Axmedovich

FarDU katta o'qituvchisi.

Filologiya fanlari doktori (DS).

Abdumalikova Dilnavoz Rustamjon qizi

FarDU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada opa-singillar obrazining o'zbek dabaiyotiga kirib kelishi, badiiy asardagi badiiy to'qimaning mohiyati hamda "O'tkan kunlar" romanidan o'rin olgan Xushro'y va Zaynab obrazlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: obraz, personaj, timsol, roman, badiiy to'qima, konflikt, yrchim, pafos.

Hayot haqiqatini o'zida ma'lum ma'noda ifoda etgan, insonlarga ibrat vazifasini bajaruvchi nasr na'munalarida opa-singillik rishtalari ba'zan ijobiy, ba'zan salbiy obrazlar vositasida o'z ifodasini topadi. Folklor na'munalarimizdan tortib, adiblarimiz tomonidan opa-singillik munosabatlari ko'rsatib berilgan asarlargacha barchasini jamlab turgan unsurlardan yana biri, asarda qo'llanadigan

³⁸Ibrohim G'afurov.Yozuvchi, tabiat va tibbiyot.Isajon Sulton basri badiiyati. Toshkent. Turon zamin ziyo. 2017.B.19

badiiy to‘qima hisoblanadi. “Obraz hayotiy umumlashmalarning induvidual shaxs belgilari, inson hayotining konkret manzaralari orqali ifodalashni taqozo qilar ekan, bunday murakkab ijodiy jarayonni badiiy to‘qimasiz, ijodiy fantaziyasiz tasavvur qilish mumkin emas. Umumlashtirish san’atining umumiy qonuniyati umumlashmasiz hech qanday badiiy obraz yaratilmaydi.”³⁹ Bunda kelib chiqadiki, har qanday badiiy asarda, xoh ertak bo‘lsin, xoh hikoya, xoh roman bo‘lsin, xoh qissa, albatta, badiiy to‘qima ma’lum darajada mavjud bo‘ladi. Badiiy to‘qima hayotiy fakt bilan umumlashganda ijodkor mehnatining natijasi bo‘lgan haqiqiy badiiy obraz yaratiladi. Yozuvchi badiiy to‘qima orali insonlarda ko‘rgan yaxshiyu yomon hislatlarni yuzaga chiqarib tasvirlaydi. Lekin, bu yolg‘on degani emas, badiiy to‘qimani yolg‘ondan farqlay bilish kerak. “Uydurma kitobxonni ishontirmaydi, unga hayot haqiqati to‘g‘risida soxta ma’lumotlar beradi. Badiiy to‘qima esa yozuvchining hayotdan olgan haqqoniy taassurotlariga asoslanadi, uning samimiy his-tuyg‘ulari va teran fikrlari bilan yo‘g‘riladi, san’atkorning o‘ziga xos iste’dodi va maxorati tufayli kitobxonning ma’naviy dunyosini boyitadi.”⁴⁰ Quyida obyekt sifatida ko‘rib chiqadigan asarimizda ham badiiy to‘qima qahramonlar harakterini va opa-singillik munosabatlarini ochib berishda muhim unsurlardan biri hisoblanadi.

“XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi.”⁴¹ Darhaqiqat, XX asr o‘zbek nasri taraqqiyotining boshlanish davri bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Qodiriy tomonidan birinchi o‘zbek romanining yaratilganligi, va mana shu “O‘tgan kunlar” romanida opa-singil obrazi ifoda etilganligi ham diqqatga sazovor hodisa sanaladi.

Romanda Zaynabning opasi, shu bilan birga unga ustoz vazifasini bajargan Xushro‘y obrazi alohida to‘xtalishni talab qiladi. Asarda Xushro‘y va Zaynab timsolini : “Garchi bu ikki egachi singil bir qorindan talashib tushgan bo‘lsalar ham, sajiya – harakterda tanib bo‘lmaslik darajada bir biridan farqlik edilar. Sajiyadagina emas, surat va siymo bobida ham katta o‘zgaliklari bor edi”⁴² kabi fikri bilan yozuvchining o‘zi ham farqlashdan boshlaydi.

Aslida ham Xushro‘y bilan Zaynab ikki xil dunyo insonlari edi. Xushro‘y va Zaynabga asarda berilgan ta’rifni shundayicha keltirishni lozim ko‘rdik: “Xushro‘y uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq

³⁹Boboyev T.Adabiyotshunoslik asoslari. T. B-48.

⁴⁰O‘sha asar.B-49.

⁴¹ XX asr mening taqdirimda. - “Jahon adabiyoti ” jurnali, 2011-yil, yanvar, 24-bet

⁴² Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar.T .2019.B-385.

tanlik edi. Xushro‘yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab loppos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradig‘an edi. Xushro‘yning ko‘zi o‘ynab, har sekuntda o‘n yoqqa alang‘lar edi. Singlisi bo‘lsa birav bilan betma-bet kelib so‘zlashqanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro‘yga bolaliq chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shni «shaddod» deb ism berganlar, chunki ul kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig‘a kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro‘yning ra‘yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og‘iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi. Zaynab egachisining aksicha o‘z yaqinlaridan «pismiqlig‘i» deb ism olg‘an, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqq‘anda «ming‘aymas o‘lgur» deb uni qarg‘ar edi.“ Zaynabning bu indamasligi, pismiqligi va o‘nta gapga arang bitta javob qaytarishi, xullas, “ichimdagini top” fe‘li turmushga chiqqandan keyin ham davom etadi. Otabek unga butunlay ko‘ngilsiz ekanligini bilgani holda necha oylar o‘sha xonadonda indamasdan yashaydi, va faqat, Kumushni kelishi ma‘lum bo‘lganda, u uyga yaqinlashganini bilgandagina eriga muhabbati borligi, unga qilgan shikoyatidan ma‘lum bo‘ladi. Kumush kelgandan keyin ham, turmush o‘rtog‘i, qaynona-qaynotasi katta kelinlariga yaxshi muomala qilayotganlariga qaramasdan Zaynab tomonidan hech qanday qarshilik bildirilmaydi. Nihoyat, Kumushning oy kuni yaqinlashgandagina, barcha qiynalغانlariga jazo sifatida kundoshini zaharlab, undan intiqom oladi.

Romanda Xushro‘y Zaynabga Kumushni zaharlashni maslahat bermagan bo‘lsada, kitobning “Esini kirgizdi” nomli XV bobida aytgan gaplari natijasida singili shu qarorga keladi. Opasining zolimligi ortidan xuzur-halovatda yashayotganini ko‘rgan singil, o‘zi ham shu yo‘ldan borishga qaror qiladi. Asarda o‘quvchi diqqatini tortadigan yana bir jihat, Zaynabning shuncha qiynalib, azob chekayotganiga opasining hech qanday e‘tibor bermasdan, bepisandlik bilan qaraganida ko‘rinadi. Xushro‘y, “Haqiqat achchiq bo‘ladi” degan maqolga amal qilib, Zaynabning boshidan beri yo‘l qo‘ygan xatolarini ko‘z oldida ochib beradi: “Bilsang bilganingcha tur, — dedi Xushro‘y, — endi kelaylik sening erga tegishingga: albatta tona olmassan, sening er qilishda tariqcha ixtiyoring va rizolig‘ing yo‘q edi, ehtimolki ixtiyor nima, orzu nima o‘zing ham payqamas eding. Balki ixtiyor va orzularing ham bo‘lg‘andir — biroq uni hech kim maydonda ko‘rmas edi. Shuning uchun tizgining oying bilan dadangning qo‘lida, boshqacha aytkanda ularning tuyaga ortqan yuki, kimga sotsa, qayerg‘a jo‘natsa ixtiyorsiz eding... Yodingda bormi, nikoh kunim men kulib, chaqchaqlab aravaga mindim, sen bo‘lsang, uydan yig‘lab chiqding va eringnikiga yig‘lab bording... Yaxshi, ering senga yoqdi, ammo ering faqat senga yoqqan bilan ish bitmasligini yana xotiringga keltirmading. Ering seni tashlab qo‘ydi, sen churq etmading,

istiqloling to'g'risida o'ylamading... Faqat g'alvir suvdan ko'tarilgandan so'nggina, sen o'zingni har tarafka tashlay boshlading... Lekin endi bir ming toblansang ham natija o'zingning fe'lingcha— bitta: sening uchun har kun bir o'lim yoki o'sha uydan boshingni olib chiqish.”⁴³

Opasining uyida eshitgan gaplari va olgan taassurotlari natijasida Zaynab, xattoki, odam o'ldirish darajasiga yetib boradi. Xushro'yning o'zi ikkita bolasi bilan kundoshini uydan butunlay mahrum qilganini hisobga oladigan bo'lsak Zaynabga bundan ortiq maslahat bera olmasligi ham aniq edi. Roman shu tariqa, opasining “esini kirgazishi” natijasida fojiali ishga qo'l urgan singilning telba bo'lib qolishi bilan yakun topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr mening taqdirimda. “Jahon adabiyoti ” jurnali, 2011-yil, yanvar.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.:2002.
3. Адабий тур ва жанрлар. 1-том – Тошкент, Фан н-ш., 1991.
4. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар.Т.:Илим-зиё-заковат.2019.

ZOKIRJON FURQAT – O'Z DAVRINING MA'NAVIY ISLOHOTCHISI SIFATIDA

Ro'ziyev Temurbek Erkinjonovich

FDU, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan mashhur o'zbek ma'rifatparvari va shoir Zokirjon Furqatning hayoti hamda ijodiy merosi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoirning ma'rifatparvarlik g'oyalari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adabiyotdagi o'rni hamda o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Maqolada Furqatning asarlarida ilgari surilgan ilm, taraqqiyot, insonparvarlik va milliy o'zlik g'oyalari tahlil qilinib, uning ijodi o'zbek adabiy tafakkurining yangi bosqichini boshlab bergani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Zokirjon Furqat, ma'rifatparvarlik, o'zbek adabiyoti, milliy uyg'onish, taraqqiyot, ijtimoiy fikr, ma'naviyat, adabiy meros.

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the life and creative legacy of the prominent Uzbek enlightener and poet Zokirjon Furqat, who lived and worked during the late 19th and early 20th centuries. It examines Furqat's enlightenment ideas, socio-political views, and his significant contribution to the

⁴³ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar.T.2009.B-587.

spiritual awakening of the Uzbek people. The study highlights the themes of knowledge, progress, humanism, and national identity reflected in his works, emphasizing his role in initiating a new stage in the development of Uzbek literary thought.

Keywords: Zokirjon Furqat, enlightenment, Uzbek literature, national awakening, progress, social thought, spirituality, literary heritage.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Zokirjon Furqat o'zbek adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik g'oyalari, yangicha fikrlash va ijtimoiy uyg'onish ruhini targ'ib etgan yirik shoir va mutafakkir sifatida muhim o'rin egallaydi. Uning ijodi o'z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealari, xalq hayotidagi o'zgarishlar hamda milliy ongning shakllanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Furqat o'z asarlarida jaholat, nodonlik va zulmatga qarshi ilm, ma'rifat, taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan, xalqni uyg'onishga, zamonaviy bilimlarni egallashga da'vat etgan. Shoirning she'riy merosi, publitsistik qarashlari va ijtimoiy faoliyati o'zbek adabiy tafakkurida yangi bosqichni boshlab bergan bo'lib, u milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yangilanish yo'lida beqiyos xizmat qilgan adib sifatida qadrlanadi. Shu bois Zokirjon Furqat shaxsiyati va ijodini ilmiy tahlil etish, uning adabiy merosini chuqur o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zokirjon Furqat hayoti va faoliyatiga shu kungacha shoir va ma'rifatparvar sifatida qarash ustuvorlik qiladi. Vaholanki, u qaysi mamlakatda bo'lmasin, o'sha yurtning iqtisodiy ahvoli, biznes va savdo sotiq ishlari bilan ham qiziqadi. Ular haqida so'z yuritganda o'z davrining peshqadam iqtisodchisi, uzoqni ko'ra biladigan tadbirkor sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari muallif o'zi uchrashgan, suhbatlar qurgan ijodkorlar, adabiyot ixlosmandlari, fozil kishilar, mashhur xattotlar haqida ham ma'lumot beradiki, bular davr adabiy-madaniy hayoti manzarasini tiklashda tadqiqotchi uchun ishonchli dalil bo'lib xizmat qiladi. Muallif zamonasining adabiyot va madaniyat ahliga katta ahamiyat beradi. Arxeolog olim Mirzo Buxoriy, xattot Mulla Qambar Ali, rus ilmi, fani, o'qituv tizimini targ'ib etuvchi ziyoli Hoji Muhammad Zuhur, adabiyot va san'at ahlini qadrllovchi, she'riyat muxlisi Mahmudxo'ja, rus fotorassomi Nazarov, bilimdon tabib Hoji A'zam, taniqli arbob va shoir Xojajon Rojiylar shular jumlasidandir.

Zero "Furqatnoma"da muallif o'zining qariyb 30 yillik hayotini xalq turmushi, ijtimoiy ong holati, o'lka iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, voqea-hodisalar bilan bog'liq holda hamda ular fonida bayon qiladi. Shu nuqtai nazardan ham mazkur asarning qimmatini beqiyosdir.

Furqat rus hayoti bilan yaqindan tanishib, uni o'rgana boshlashi natijasida, o'z xalqining madaniyatdan orqada qolayotganligini, bilim va ma'rifatdan mahrum

etilganligini tobora yaxshiroq anglay bordi, hayotdagi, jamiyatdagi hodisalarga o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib baho bera boshladi. Vatandoshlarini ilm-ma'rifatli, jahon yangiliklaridan xabardor, ma'naviy yuksak holda ko'rishni istadi. Istibdod tufayli ezilayotgan xalqni ma'rifatga chaqirdi. Qani endi elkasiga oftob tegmayotgan mahalliy xalq farzandlari ham gimnaziya va maktablarda o'qisa, royal chalsa, milliy teatrlar xalq uchun ibrat maktabini o'tasa, yosh avlod o'zining ilmi, salohiyati, qudrati bilan jahon ahlini lol qoldirsa. Ana shunday ezgu orzu-umidlar bilan yashagan Furqat o'zining bu paytlarda yaratgan asarlari bilan XIX asr oxiridagi o'zbek adabiyotida tamoman yangi fikr-g'oyalarni ilgari suruvchi ilg'or, novator shoir sifatida maydonga chiqdi. "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Teatru haqida", "Nag'ma bazmi xususida", "Shoir va she'r mubolag'asi", "Vistavka xususida", "Royal to'g'risida", "Suvorov" kabi asarlarida ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini ehtiros bilan kuyladi.

Shoir ma'rifatparvarlik ruhida yozgan mazkur asarlarini hayotdagi qoloqlikka qarshi kurashish, kishilar ongida ilg'or tuyg'ular uyg'otish uchun yaratar edi. Furqat ilmning jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati haqida so'zlab, shunday muhim xulosa chiqaradi:

***Jahon bastu kushodi ilm birla,
Nadur dilning murodi ilm birla.
Ko'ngillarning sururi ilmdandur,
Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandur.
Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor
Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor.***

Mazkur satrlar garchand XIX asrning 90-yillarida yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaganligi e'tiborga loyiq, albatta. Ilmsizlik, jaholat xalqni chohga itarishini dalillar ekan, "Ilm xosiyati" she'rini shunday tamomlaydi:

***Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,
O'zimni jahl zindonig'a soldim.***

Shoir ilmu hunarni uyg'unlikda ko'radi, ularni ayri holda tasavvur etolmaydi. To'g'ri, ilm-ma'rifatli bo'lish, yuksak axloqqa erishish, hunarni ulug'lash mumtoz adabiyotimizda qadimdan uchraydigan da'vatdir. Johillikni qoralash, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiruvchi asarlar adabiyotimiz namoyandalarining deyarli har birida uchraydi. Shoir Furqat ham o'z manzumalarida mazkur an'anaviy g'oyani davom ettiradi, rivojlantiradi. Bu g'oyani yorqin ifodalash uchun xalq maqollaridan foydalanadi, turli badiiy vositalarni qo'llaydi. Natijada shoir misralari hikmatli so'z hamda iboralarga aylanadi.

Masalan,

***Kishikim ilmu fandin boxabardur,
Xaloyiqqa boqadru mo'tabardur;***

Yoki Alisher Navoiyning

***Har ishniki qilmiy odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod***

misralariga hamohang qarashlarini quyidagicha lirik ifodalaydi:

***Tiriklikda kishikim qilsa har kor,
Ani osonlig'ig'a ilm darkor!***

Yana bir o'rinda ilm inson yo'lini yorituvchi mash'al ekanligi ta'kidlanadi:

***Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur,
Ko'ngil sofi safoyi ilmdandur!
Charog' o'lsa agar har kim qo'lida
Xatar bo'lmas qorong'uda yo'lida.***

Ko'rinadiki, Furqat o'z xalqini jahon maydonida ko'rishni, faqat ko'rishni emas, boshqalardan ilgarilab ketishini ham chin dildan istaydi. Shu bilan birga, faqat ilm, kashfiyotnigina emas, ayni zamonda uning ijodchisi – insonni ham samimiy hurmat bilan sevgan va insoniy muhabbatni, erkinlikni ulug'lagan shoirdir. Uning she'rlarida olijanob fikrlar, g'oyalar, go'zal his, tuyg'ular bilan yashovchi, jamiyat taraqqiyotini o'ylovchi, yangiliklar sari olg'a intiluvchi, xalq uchun tashvish chekuvchi, ana shu xalq bilan g'ururlanuvchi inson obrazi bo'y ko'rsatib turadi.

Furqat o'z zamondoshlari Muqimiy, Zavqiylar bilan bir qatorda o'zbek adabiyotiga ham mazmun - g'oya, ham shakl-badiiy vositalar jihatidan juda katta va muhim yangiliklar qo'shdi.

Sharq, jumladan, o'zbek lirikasida voqeaband yoki syujetli asarlar yo'q hisobida edi. Furqat she'riyatida yolg'iz lirik qahramonning o'zigina harakat qilmaydi. Real ma'noga ega bo'lmagan balandparvoz so'zlarni yoqtirmaydi. Biror voqea-hodisa haqida hikoya qilar ekan, lo'ndalikka intiladi. Qissadan hissa chiqaradi. Shoir ijodiyotini o'rgangan qator olimlarimiz, jumladan, A.Abdug'afurov mazkur hodisani adabiyotimizda katta ijobiy hodisa deb aytadi. Zeroki, bu asarlar "...faqat mavzu va olg'a surilgan g'oya jihatidangina yangilik bo'lmay, ayni zamonda, reportajlik xarakteri, publisistik tashviqot ruhi, original obraz va tashbehlari bilan yangi mazmunga mos leksika bilan ham.." alohida ahamiyatga egadir.

Furqat nihoyat darajada og'ir, chigal davrda yashadi, ijod etdi, kurashdi.. U xuddi mana shu davrning juda ziyrak va o'tkir zakoli farzandi bo'ldi. U jamiyat taraqqiy etishiga yordam beradigan ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlarini yaratdi.

Ma'rifatparvar shoir g'oyat qiziqish va sinchkovlik bilan ko'zdan kechirgan vistavkani xalq uchun katta maktab sanar, shu maktabga ko'proq kishi kelib, bahramand bo'lishini orzu qilar edi. Netongki, uning bu orzusi ham istiqlool sharofati bilan ro'yobga chiqdi. Telegrafdan boshlanib, bugungi kunda urfga aylangan mobil telefonlari har birimizning yordamchimizga aylandi, yurtimizda

jahonshumul ahamiyatga ega turli milliy hamda xalqaro ko'rgazmalar o'tkazilmoqda. Yoshlarimiz ilmni hunar bilan birgalikda o'rganib borayotganligi, yurtboshimizning tashabbusi bilan turli fan yo'nalishlaridagi maxsus maktablarning ish olib borayotganligi, O'zbekistonning bugungi kundagi olamshumul zafar va muvaffaqiyatlari qalblarni iftixorga to'ldiradi.

Furqat ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan adabiy merosdir. Shoir noma'lum sabablarga ko'ra o'z vataniga qayta olmadi. Ammo umrining oxirigacha shu vatan deb yashadi, vatanidagi yoru birodarlarini unutmadi. Ular bilan so'nggi nafasigacha xat yozishib turdi, adabiy aloqada bo'ldi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'z zamonining eng ilg'or, ma'rifatparvar kishilaridan biri sifatida mangulikka daxldor siymolardan biridir. Shoir badiiy adabiyotni xalq hayotiga yaqinlashtirdi. Uni taraqqiyot uchun xizmat qildirdi. Yosh avlodni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi. Adabiyotimiz tarixida, bir tomondan g'urbat va g'ariblik timsoli, ikkinchi tarafdan esa ma'rifat jarchisi, yangiliklarni olqishloqchi ijodkor sifatida manguga qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. –Toshkent. Adabiyot va san'at, 2009
2. Jabborov N. Furqat./ oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent, Ma'naviyat. 2004.
3. Фурқат. II томлик танланган асарлар, II том,. Ўздавлат бадий адабиёт, Тошкент, 1959
4. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Тошкен Адабиёт ва санъат, 1984
5. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. Тошкент “Маънавият” . 1999

BADIIY ASARGA OPA-SINGILLAR OBRAZINING OLIB KIRILISH SABABLARI

Dilnavoz Abdumalikova
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asarda opa-singillar obrazidan foydalanish, opa-singillar obrazining badiiy asarga olib kirilish sabablari, shuningdek jahon hamda o'zbek adabiyotidan o'rin olgan opa-singillar obrazi mavjud asarlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, timsol, motiv, izolyatsiya, sabab, pozitsiya.

Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi hisoblanadi. Asarda obrazlardan foydalanish badiiy adabiyot yaralgandan buyon mavjud. Dastavval yaratilgan asarlarda xudolar, podsholar, turli xil uydurma mahluqlar, boy-u savdogarlar badiiy asar markazida turgan bo'lsa, vaqtlar o'tishi bilan oddiy insonlar romanlarning, qissa-yu hikoyalarning bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Badiiy adabiyotlarda yozuvchilar tomonidan qavm-qarindoshlik aloqalari tasvirlangan asarlarga ko'plab duch kelamiz. Jumladan, opa-singillar obrazi markaziy darajaga chiqarilgan asarlarni jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. Adabiyotda opa-singillar obraziga murojaat qilish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bundan ma'lumki opa va singillik aloqlari eng qadimgi yozma ma'nabakardan tortib, tarixiy asarlarda ham, xatto, zamonaviy adabiyot na'munalarida ham ko'p uchraydi. Jumladan, Xulio Kortazarning "Bemorlarning salomatligi", Abdulla Qahhorning "Yuksak cho'qqilar" hikoyalari, Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim", Onore de Balzakning "Gorio ota", Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Asqad Muxtorning "Opa-singillar", O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romanlari, Anton Chexovning "Uch opa-singil" dramasi, Vilyam Shekspirning "Qirol Lir" tragediyasi va Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani va shu kabi bir qator asarlarda opa-singillik aloqlariga murojaat etilgan. Albatta, badiiy asarda tasvirlanayotgan har bir obraz — xoh u detal bo'lsin, xoh personaj — asar mohiyatini yuzaga chiqarishda ma'lum bir badiiy-estetik funktsiya bajaradi. Bir qancha badiiy asarlardan o'rin olgan opa-singillar obrazining ham badiiy asarga olib kirilishi sabablari turlicha bosqichlarda kechadi. Ushbu sabablarni quyida keltirib o'tamiz:

1. Safar motivi.

Barchamizga ma'lumki, safar motivi adabiyotshunoslik ilmda o'rganilgan dastlabki motivlar sirasiga kiradi. Bunda adabiy qahramon (! obraz yoki personaj atamalari bilan adashtirib yubormang) — oila boshi, voris, sinovlarda toblanishi kerak bo'lgan erkak obraz — o'z tug'ilgan go'shasini tark etib, begona manzillarga otlanadi. Natijada, uyda qolgan ayolning sog'inchi, turmush mashaqqatlarini ham ayol, ham erkak o'rnida yengib o'tish kabi kechinmalari ona, opa-singil yoki yor obrazlari orqali ifodalanadi.

1. Urush motivi.

Bu sababiyatda ham safar motivi belgilari mavjud, shu bilan bir qatorda qo'shimcha qilib keltirish mumkinki, adabiy qahramon jang vaqtida o'zga mamlakatdagi opa-singil malikalar qalbini zabt etishi va ularning o'zaro kurashiga sabab bo'lishi holatlari ham yuzaga keladi. Bunda sevgi uchburchagi hosil bo'ladi va opa-singillardan biri qurbon pozitsiyasini tanlashiga to'g'ri keladi.

2. O'zlikni anglashga urinish.

Bunday hollarda opa-singillarning biri boshqasining soyasida qolib ketish qoʻrquvi sabab koʻnglida hasad va isyon uygʻonadi. Adolatsizlikka uchragan obrazimizning butun bir eʼtibori qanday yoʻl bilan boʻlmasin tan olinishga qaratiladi. Natijada, opa-singillarning biri “yovuz”, boshqasi “tanlangan” pozitsiyasiga koʻtariladi.

3. Oila izolyatsiyasi.

Aksariyat badiiy asarlarda ota-onalar yoki jamiyat tomonidan farzandlarga yoshligidan turli taʼqiqlar qoʻyiladi. Opa-singillar oʻsmir yoshiga yetganda bu taʼqiqlarga qarshi chiqishga urinadi. Umumiy dushman opa-singillik munosabatlarini mustahkamlaydi va bir-biriga qaram qilib qoʻyadi. Bunday yondashuv ota-ona yoki jamiyat qusurlarini aks ettirish uchun qoʻl keladi. (Lekin bu hol badiiy asardagi boshqa obraz rolining xiralashuviga olib keladi.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2001.
2. Адабий тур ва жанрлар. 1-том – Тошкент, Фан н-ш. М., 1991.
3. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. - М., 1975.
4. Umurov H. Adabiyot qoidolari. –T,2002.
5. WWW.Ziyo.Net.Uz

NABIJON BOQIYNING “GULZAMIRA” QISSASIDA OBRAZ VA TASVIRIY VOSITALAR UYGʻUNLIGI

Abdupattayev Gʻulomjon Gʻofurjon oʻgʻli,
Qoʻqon universiteti Filologiya kafedrasida oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nabijon Boqiyning “Gulzamira” qissasida obraz va tasviriy vositalarning uygʻunligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ingliz, rus va oʻzbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlar asos qilib olingan. “Gulzamira” qissasida ayol ruhiyatini tasvirlashda tabiat manzaralari, ramziy epitet va metaforalar qoʻllanilgani poetik vositalar orqali yuksak badiiylik darajasiga koʻtarilgani yoritilgan. Shuningdek, obraz yaratishda qoʻllangan tasviriy vositalarning ijtimoiy, psixologik va estetik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Nabijon Boqiy ijodining milliy va jahon adabiyotidagi badiiy-estetik ahamiyatini koʻrsatib beradi.

Kalit soʻzlar: Nabijon Boqiy, qissa, obraz, tasviriy vositalar, badiiylik, psixologik tasvir, ramz, epitet, metafora, milliy adabiyot, estetik uygʻunlik.

Annotation. This article analyzes the harmony of imagery and stylistic devices in Nabijon Boqiy's novella *Gulzamira*. The research is based on theoretical approaches from Uzbek, Russian, and English literary studies. It is highlighted that in *Gulzamira*, the depiction of female psychology is elevated to a high level of artistry through the use of natural landscapes, symbolic epithets, and metaphors. Moreover, the study reveals the social, psychological, and aesthetic significance of the stylistic devices employed in character creation. The results of the research demonstrate the artistic and aesthetic importance of Nabijon Boqiy's work within both national and world literature.

Keywords: Nabijon Boqiy, novella, character, stylistic devices, artistry, psychological depiction, symbol, epithet, metaphor, national literature, aesthetic harmony.

Аннотация. В данной статье анализируется гармония образов и изобразительных средств в повести Набижона Бокия «Гулзамира». Исследование основано на теоретических подходах узбекского, русского и английского литературоведения. Подчёркивается, что в «Гулзамире» изображение женской психологии достигает высокой художественной степени благодаря использованию пейзажей природы, символических эпитетов и метафор. Кроме того, раскрывается социальное, психологическое и эстетическое значение изобразительных средств, применённых при создании образа. Результаты исследования показывают художественно-эстетическую значимость творчества Набижона Бокия в контексте национальной и мировой литературы.

Ключевые слова: Набижон Бокий, повесть, образ, изобразительные средства, художественность, психологическое изображение, символ, эпитет, метафора, национальная литература, эстетическая гармония.

Adabiyot insoniyat tafakkuri va ruhiyatining eng teran qatlamlarini yorituvchi sehrli bir olamdır. U inson qalbidagi quvonch va iztirobni, muhabbat va nafratni, orzu va armonlarni tasvir vositalari orqali badiiy jilolantirib beradi. Har qanday asarning badiiy qudrati, avvalo, undagi obrazlar tizimining mukammalligi hamda ularni gavdalantirishda qoʻllanilgan sanʼatkorona tasvir vositalariga bogʻliqdir. Shu bois obraz va tasviriy vositalarning uygʻunligi adabiy ijodning eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbek adabiyotida oʻzining samimiy ohangi, hayotiy voqealarni badiiylik bilan uygʻunlashtirishdagi mahorati bilan alohida ajralib turadigan ijodkorlardan biri Nabijon Boqiydir. Uning “Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” singari

asarlari inson qalbining eng nozik kechinmalarini tasvirlashda yorqin namuna bo'lib xizmat qiladi. Bu qissalarda muhabbat va sadoqat, insoniylik va ijtimoiy-maishiy hayot, orzu va armonlar yozuvchi qalamida nafaqat real hayot lavhasi sifatida, balki chuqur badiiy talqin sifatida gavdalanadi.

Mazkur maqolada Nabijon Boqiyning "Gulzamira" va "Bir muhabbat qissasi" qissalarida obraz va tasviriy vositalarning o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Qahramonlarning ruhiy olamiga chuqur kirib borishda ishlatilgan badiiy san'at vositalari, ularning individual xarakterini ochib beruvchi tasviriy unsurlar hamda yozuvchining mahorati nazariy tahlil asosida yoritib beriladi.

Adabiyotshunoslikda obraz va tasviriy vositalar uyg'unligi masalasi ko'p marotaba tadqiq etilgan. G'arb nazariyotchilaridan Cleanth Brooks o'zining mashhur maqolasida "shakl va mazmun – ajralmas tushunchalar" ekanini ta'kidlab, adabiy matnni bir butun san'at asari sifatida talqin etadi.⁴⁴ Bu yondashuv badiiy vositalarning obraz yaratishdagi o'rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Rus adabiyotida esa badiiy tasvirning psixologik tomonlari va ramziy ifoda vositalari bir qator adabiyotshunos olimlar tomonidan tahlil qilingan. Masalan, V.G. Belinskiy adabiy obraz "xalq ruhini ifodalovchi estetik shakl" ekanini aytgan.⁴⁵ Shuningdek, L. Tolstoy asarlarida obraz va tasvir uyg'unligi inson qalbining nozik kechinmalarini ochishda muhim vosita sifatida o'rganilgan.⁴⁶

O'zbek adabiyotshunosligida ham obraz va tasviriy vositalar bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. G'afur G'ulom poetikasiga oid tadqiqotlarda adibning badiiy obraz yaratishda ramziy vositalardan keng foydalangani ta'kidlanadi.⁴⁷ Shu bilan birga, o'zbek va rus she'riyatida ayol obrazi tahlil qilingan ilmiy maqolalarda ramziy qatlamlar, psixologik tasvirlar va badiiy vositalarning milliy-estetik xususiyatlari yoritilgan.⁴⁸ Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iste'dodli yozuvchi Nabijon Boqiy qissalarini tahlil qilishda ingliz formalistlari ta'kidlagan badiiy yaxlitlik nazariyasi, rus adabiyotshunosligidagi psixologik talqinlar va o'zbek adabiyotidagi milliy obraz yaratish an'analari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida tilga olingan qissalarda o'zbek millatining o'ziga xosligi va xarakter xususiyatlari aks ettirilgan lavhalar bir necha usullar (milliy til va mahalliy sheva, urf-odat, marosim aks ettirilgan lavhalar va h.k.) asosida yuzaga kelgan. Adabiyotshunoslikdagi milliy xarakter ma'lum bir millatga mansub kishilar fe'l-atvori uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ma'lum bir qahramon, predmet yoki

⁴⁴ Brooks, Cleanth. *The Formalist Critics*. Yale University Press, 1951.

⁴⁵ Белинский В.Г. *Избранные эстетические произведения*. Москва: Художественная литература, 1981.

⁴⁶ Толстой Л.Н. *О литературе и искусстве*. Москва: Советский писатель, 1978.

⁴⁷ Yoqubov, Sh. *Laboratory Works of Gafur Gulam: Poetic Image and Imagery*. ResearchGate, 2022.

⁴⁸ Tursunov, Sh. *Uzbek and Russian Poetry: The Image of Woman and Symbolism*. Web of Scholars, 2021.

tarixiy shaxs, voqea-hodisa vositasida ifodalashni nazarda tutadi. S.M.Arutyunyan milliy xarakterning shakllantiruvchilari sifatida: xalqning hissiy-emosional koloriti, tafakkuri, urf-odatlar, yashash sharoiti kabi jihatlarni keltirib o'tadi.⁴⁹

Maqolada Nabijon Boqiyning "Gulzamira" va "Bir muhabbat qissasi" asarlaridagi obraz va tasviriy vositalar uyg'unligi o'rganildi. Tahlilda shakily yondashuv, psixologik tahlil metodi, madaniykomparativ yondashuv hamda deskriptiv tahliliy usullardan foydalanildi.

"Badiiy asardagi shakl komponentlarini mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o'zi bo'lmaydi. Zero, har bir unsur asar butunligida o'zining funksiyasiga ega, muayyan g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi"⁵⁰. Mazkur mulohazadan kelib chiqilsa, yozuvchi asardagi har bir obraz, nutqiy detal, tasviriy unsur, epizodlarni zarur o'ringa joylaydi. Ular zimmasiga aniq vazifa yuklay olgan. Buni "Gulzamira"qissa ekspozitsiyasining boshida kelgan quyidagi parcha tahlilida ham kuzatish mumkin: "*Osmonda bir yulduz qoldi, bir to'lin oy qoldi. Osmon sutday oqardi*"⁵¹. Mazkur parchaning birinchi gapi alohida ritmga ega. "*Osmonda*" so'zidan keyin jumlar uch taktga ajralib, o'zaro ritmik muvofiqlashib kelgan. Natijada ushbu parchada */bir yulduz qoldi,/ bir to'lin oy qoldi./ Osmon sutday oqardi /* tarzidagi taktda birinchi jumla tezis, ikkinchisi tezis va uchunchi (*Osmon sutday oqardi*) xulosa bo'lib kelgan. Bu yerdagi yulduz, oy, osmon detallari ham Vatan, Cho'qon biy oilasi va uning yolg'zi qizi Gulzamiraga ishora qilmoqda. Gap mazmunida yana lirizm, ruhiy parallelizm ham seziladi. Birinchi jumla qissada aynan ana shunday kompozitsiyon ko'rinishda berilishi esa qissaning kompozitsiyasida muhabbat, Vatan, oila kabi muqaddas tushunchalarga ham haqiba bayon qilinishini bildiradi.

Yozuvchi peyzaj orqali voqealar kechadigan joy haqida qisman ma'lumot beradi: "O'rtato'qay uyg'ondi. Asov daryo qirg'oqni yalab-yulqab, vishillab-pishillab, bo'tana-bo'tana bo'lib, eshilib-to'lg'onib oqib yotardi. O'rtato'qay dalli daryoning o'rtasida paydo bo'lgan mo'jaz ham mo'jizaviy orolda edi. Orolning tumshug'iga urilib, ikki bo'lakka yorilib ketgan qaysar oqim quyruq tarafida yana tutashardi va yoyilma hosil qilib oqardi. O'sha yoyilmani muhojirlar "Chubek kechuvi" deyishardi. Kechuvning so'l tomoni Afg'oniston, o'ng tomoni Sho'ro Turkistoni edi".⁵²

⁴⁹ [http://sites.google.com/site/englishproverbsandsaying/home/ponyatiya/men ta litet](http://sites.google.com/site/englishproverbsandsaying/home/ponyatiya/men%20ta%20litet).

⁵⁰ Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 180.

⁵¹ Nabijon Boqiy. Rohila. Qissalar. – Toshkent: Anorbooks, 2022. – B.190.

⁵² Yuqoridagi asar. 190-bet.

Mazkur parcha aniqda jor tasviri berilar ekan, u syujet kompozitsiyasida ekrpozitsiya, asar strukturasida peyzaj, keng ma'noda esa makon obrazi ham deyiladi. Unda O'rtato'qay va u joylashgan orol, daryo hamda boshqa joydan ko'chib kelgan aholi haqida xabar beriladi. Diqqat qilinsa, muallif daryo tasvirida takror so'zlar (*yalab-yulqab, vishillab-pishillab, bo'tana-bo'tana*), epitet (*asov, eshilib-to'lg'onib*)dan ko'p foydalangan. Bu bilan daryo va uning oqimiga o'zining badiiy-estetik niyatini ham singdirib, daryoni detal obrazga aylantirgan va unga polifonikilik bag'ishlagan. Natijada u ramziylik kasb etib, kechayotgan davr fojeasini ifoda qilayotgandek taassurot beradi. Cho'qon biy va uning oilasini oqizib shu orolga olib kelgan davr oqimi ham eshilib-to'lg'onib oqardi. Yoki shu oqimni Zamira qalbidagi ikkilanish, to'lg'onish, tush va ro'ylar bilan bog'lash ham mumkin. Bu ruhiy parallellik ham hisoblanadi.

Quyidagi parchada esa Zamiraning qalbini, uning Mustafoga munosabatini anglash mumkin:

Ko'zlarni yumgancha o'yga toldi. O'ylarining adog'i yo'q, poyoni yo'q edi.

–Xayol surishni yaxshi ko-rasizmi?

Sukunat.

–Nimalarni o-ylayapsiz?

Sokin sukunat hukm surardi, lekin rizolik alomati sezilmasdi.

*Zamiraning sochlari yostiq bilan bitta bo'libsochilib yotardi. Nimqorong'i uy sehriga, sir-u asrorga to'la edi. Bu sir-u asrorning, sehrning tilsimi Zamira edi. Tilsim Zamirani, Zamira tilsimni qo'riqlab yotardi.*⁵³ Parchadagi qorong'ulik va tilsim tasviri bevosita Zamiraning hech kimga, hattoki o'ziga ham aytolmaydigan dardini, qalb sirlarini kitobxonga anglatadi. Qissada qo'llangan bunday tasviriy vositalar yozuvchining obraz yaratishdagi mahoratini belgilaydi.

Nabijon Boqiyning ijodiy uslubida obraz yaratish jarayoni bevosita tasviriy vositalar bilan chambarchas bog'liq. Yozuvchi qahramonlar ruhiyatini tasvirlashda oddiy voqeabandlikdan ko'ra, **psixologik detallar, tabiat manzaralari va ramziy ifodalardan** keng foydalangan. Bu esa uning qissalarini faqat voqelikni aks ettiruvchi emas, balki chuqur badiiy-estetik talqin darajasiga olib chiqadi.

Asarda bosh qahramon Gulzamira ruhiy olamini ochishda muallif, avvalo, **tabiat tasvirlarini** ramziy vosita sifatida ishlatadi. Masalan, tong, tun, tong saharlari yoki kuz manzaralari uning qalbidagi iztirob va umidsizlikning badiiy in'ikosiga aylanadi. Psixologik tasvirning kuchi shundaki, Gulzamiraning ichki dunyosi tashqi tabiat manzarasi orqali yanada yorqinroq gavdalanadi. Bu yondashuv Belinskiy ta'kidlagan "obraz — xalq ruhining ko'zgusi" degan g'oya bilan hamohangdir.⁵⁴ Shuningdek, Gulzamira obrazi orqali muallif ayolning

⁵³ Yuqoridagi asar 206-207-betlar.

⁵⁴ Белинский В.Г. Избранные эстетические произведения. Москва: Художественная литература, 1981.

ijtimoiy sharoitdagi iztiroblarini ifodalashda **epitet va metaforalardan** mahorat bilan foydalanadi. Ayol obrazining ijtimoiy-psixologik ramz sifatida talqin qilinishi o'zbek va rus adabiyotidagi ayol obraziga oid nazariy qarashlar bilan uyg'unlashadi.

Qissada obraz va tasviriy vositalar o'zaro uyg'unlashib, Gulzamiraning ruhiy olamini ochishda markaziy rol o'ynaydi. "Gulzamira"da tasviriy vositalar ko'proq **ijtimoiy-psixologik** muammolarni yoritishga xizmat qiladi. Demak, Nabijon Boqiyning "Gulzamira" qissasida **obraz va tasviriy vositalar uyg'unligi** yozuvchining asosiy badiiy mahoratini belgilovchi omil hisoblanadi. Birinchidan, "**Gulzamira**" **qissasida** obraz va tasviriy vositalar ayol ruhiy olamining iztiroblarini ochishda muhim vosita bo'lgan. Tabiat manzaralari, epitet va metaforalar Gulzamiraning ichki dunyosi bilan uyg'unlashib, uning fojiali taqdirini yanada chuqurroq ifodalagan. Bu yondashuv rus adabiyotidagi psixologik obraz yaratish an'analari bilan hamohangdir. Ikkinchidan, o'zbek adabiyotidagi milliy obraz yaratish tajribalari Nabijon Boqiy ijodida ham o'z aksini topgan. Shu bois yozuvchining badiiy mahorati milliy va jahon adabiy tajribasi bilan uyg'unlashib ketganini ko'rish mumkin.

Nabijon Boqiy ijodi o'zbek adabiyotida inson ruhiyati va hayotiy kechinmalarini badiiy talqin etishda yuksak mahorat namunasi sifatida alohida o'rin tutadi. Uning "Gulzamira" qissasi nafaqat voqeabandligi, balki obraz va tasviriy vositalarning uyg'unligi bilan ham qadrlidir.

"Gulzamira" qissasida yozuvchi ayolning ijtimoiy-maishiy taqdirini tasvirlashda tabiat manzaralari, ramziy epitetlar va psixologik detallarni uyg'unlashtirib, obrazning ruhiy dunyosini yorqin ochib beradi.

Nabijon Boqiy asarlari uning ijodini xalqaro kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa yozuvchining badiiy uslubi nafaqat milliy adabiy makon, balki umuminsoniy adabiyot jarayoni uchun ham qimmatli ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Nabijon Boqiy qissalarida obraz va tasviriy vositalar uyg'unligi qahramon ruhiyatini chuqur ochadi, ijtimoiy va shaxsiy muammolarni badiiy-estetik darajaga ko'taradi, milliy an'analarni jahon adabiyotidagi yondashuvlar bilan bog'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brooks, Cleanth. The Formalist Critics. Yale University Press, 1951.
2. Белинский В.Г. Избранные эстетические произведения. Москва: Художественная литература, 1981.
3. Толстой Л.Н. О литературе и искусстве. Москва: Советский писатель, 1978.

4. Yoqubov, Sh. Laboratory Works of Gafur Gulam: Poetic Image and Imagery. ResearchGate, 2022.
5. Tursunov, Sh. *Uzbek and Russian Poetry: The Image of Woman and Symbolism*. Web of Scholars, 2021.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 180.
7. Nabiyyon Boqiy. Rohila. Qissalar. – Toshkent: Anorbooks, 2022. – B.190.
8. <http://sites.google.com/site/englishproverbsandsaying/home/ponyatiya/men-ta-litet>.

XX ASR SHE'RIYATIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI (NAVOIY OBRAZI MISOLIDA)

M.Yusupova

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: maqolada XX asr o'zbek she'riyatida Navoiy siymosining o'ziga xos xususiyatlari muallif mahorati o'laroq yuzaga kelishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: she'riyat, Alisher Navoiy, tarixiy shaxs, lirik poeziya

Bugungi o'zbek she'riyatida ko'plab shoirlar Navoiy ijodiga to'xtalib, buyuk mutafakkir siymosi she'riy misralarda aks ettirilgan. Bu siymoga murojaat etishdan asosiy maqsad kitobxonlarni insonparvarlik, hilmlik, yaxshi fazilatlar sohibi bo'lishga undash, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida xalq e'tirofidagi tarixiy shaxslar hayotini o'rnak qilib ko'rsatish, o'z ajdodlariga nisbatan ular qalbida faxr tuyg'usini uyg'otish, ular qoldirib ketgan ilmiy-madaniy merosdan to'laqonli bahramand bo'lishga intilishlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ideal timsollarga xos xususiyatlar orqali o'quvchi-kitobxon estetik didini shakllantirish, Navoiy dahosidan ruhiy madad olish, buyuk shoir ijodiy olamini anglatishga erishishdan iborat.

Lirik poeziya, avvalo, poetik ifodalash tamoyiliga asoslangani uchun buyuk shoir obrazini talqin etishda muallif asarlarida tasvirlangan qahramonlar nomini keltirish hamda ijodkor she'rlariga murojaat etish, bevosita asarlariga ishora tarzida lirik kechinma oqimiga kiritib, fikrni poetik ta'sirchan ifodalashga erishish hamda ana shu qahramonlar, she'riy parchalar va asarlar muallifini o'quvchi xotirasida jonlantirish yo'lidan boradi. Bugungi zamonaviy o'zbek she'riyatida Navoiy obrazini poetik tadqiq qilishning yangi-yangi yo'nalishlari yuzaga kelmoqda. Badiiy ifodada yuzaga kelgan bu kabi xilma-xillik, eng avvalo,

she'riyatimizga kirib kelgan yangi bo'g'in shoirlari ijodida ko'zga tashlandi. Ushbu qatlam vakillari Navoiy obrazini yaratishda poetik ifodaning yangi ko'rinishlaridan unumli foydalandilar, she'riyatimiz badiiyatini yangicha poetik ifoda va tasvir vositalari bilan boyitdilar. Natijada, ular buyuk shoir obrazini yaratishdagi zo'rma-zo'raki tavsiflashdan yiroqlashib, bevosita shoir shaxsi va faoliyatiga oid tarixiy lavhalar yaratish yo'lidan borib, shoir siymosiya suratini emas, balki uning siyratini ham yaratishga kirishdilar. Bu yo'lda Navoiy obrazini to'laqonli aks ettirish uchun goh tarixiy voqelikka suyanib, goh shoirning ijod namunalariga murojaat etib, ulug' shoir shaxsiyatini yaqindan anglash uchun muhim bo'lgan haqqoniylik tamoyilini aks ettirishga harakat qildilar.

Navoiy yashagan davr bilan bugungi davr o'rtasida salkam olti yuz yillik tarix mavjud. Mana shu tarixni, tarixiy shaxs qiyofasini, ruhiy dunyosini teran yoritib berishda yozuvchi va shoirlarning poetik mahorati katta rol o'ynaydi. SHu jihatdan Navoiy obrazining badiiy talqini borasida shoir Erkin Vohidov o'rinli ta'kidlaganidek, "Navoiy shunday ulkan cho'qqiki, undan uzoqlashganing sari mahobati ko'proq namoyon bo'ladi. Biz bu cho'qqiga zinhor ortimizda qolgan darajada deb emas, doimo oldinda turgan, biz doimo intilib yashaydigan yuksaklik deb qaraymiz", degan so'zlariga muvofiq hamda estetik ideal nuqtai nazaridan haqqoniylik tamoyili asosida yondashmoq zarur.

Navoiyning ijodiga g'oyibona ergashgan munosib voris, bugungi kun g'azal janri rivojiga salmoqli hissa qo'shgan shoir Erkin Vohidov "Alisher Navoiy kemasi" nomli she'rida azaldan chaqnab turgan mushtariy yulduzi – Navoiy bugun ham "bahri muhit aro kezib" yurganligini ta'kidlaydi. Bu talqin shoir asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bilan hamohangdir: "Kimki so'z san'atini yaxshi egallagan bo'lsa, ya'ni "so'z bahrida g'avvos" bo'lsa, o'sha odam badiiy ijod sohasida biron yutuqqa ega bo'ladi". Navoiy erishgan yutuq undan keyingilar va hozirgi adabiy meros avlodlari yutug'iga ham asos bo'lmoqda:

Azaliy davrada charx uradi er,
Mushtariy azaldek chaqnab turipti...
Besh asr so'ngida buyuk Alisher
Bahri muhit aro kezib yuripti.

Navoiy timsolining butun "bo'y-bastini" ko'rsatib berayotgan, dunyo uzra tanho "beorom yurak", "achchiq to'lqinlarga" urilayotgan "ko'krak" "asr so'ngida kema bo'lgan" bu buyuk "ruh" Nuh kemasi insonlarni qutqarib qolgani kabi, adabiyotning do'lvor "kema"si vazifasini o'tayotirki, shu jihatdan bu buyuk "kema"ni navoiyshunoslik nomi bilan atash joiz bo'ladi, zero, bu "kema"ga munosib avlod yorqin kelajak manzillarini ko'zlagan:

Tiriklikda charxdan topmagan omon,
Boshiga g'am gardin yog'dirgan falak –

Dahr aro tanhoyu zor-u sargardon
Qalqib bormoqdadur beorom yurak.
Ulug'vor bastida o'ychan bir shukuh,
Kilkidan to'kilgan g'azaldek boqiy,
Besh asr so'ngida kema bo'lgan ruh,
Besh qit'a oralab kezar Navoiy...

“Navoiyni mehr va ixlos ila etarli darajada bilish – dinu diyonat, imon-u e'tiqod, muruvvat va shafqat kuchiga ishonch demak”dir. Mana shu “kuch”ga “ishonch” nafaqat Navoiy obrazi yaratilgan epik asarlarda, balki lirik asarlarda ifoda etilgan timsol orqali ham yuzaga keladi. Bunda shoir-mallifning ijodiy mahorati, qalb prizmasidan o'tganlarini o'zgalarga ham etkazib bera olish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, agar shoir o'zi yonmasa, o'zgalarni ham yondira olmaydi. El-yurt muhabbatini qozonish uchun tug'ma iste'dodning o'zi kamlik qiladi. SHoir “ruhan, fikran zamon darajasida” bo'lishi, “xalq hayoti to'lqinlari ichida keng quloq” ochishi zarur.

Shoir Abdulla Oripov “Alisher” nomli she'rini buyuk mutafakkir obrazining “nuroniy” davridagi holati tasviridan boshlagan, she'rning ilk misralaridayoq o'xshatish san'atidan mohirona foydalanib, muallif hayotni – “ona”ga mengzaydi, jahon ishlariga guvoh bu hayot bolasining barcha ishlaridan voqif ona kabi ifoda etiladi. Mutafakkir obrazining gavdalanishida aksariyat she'rlarda uchraganidek, Abdulla Oripov ham “besh yuz yil”lik tarixdan so'z ochadi, oradagi vaqt to'siqlari olib tashlanib, “nurli yuz”larga boqib turgan Navoiy siymosi gavdalanadi. Bu o'rinda shoir she'rning birinchi bandida qism orqali butunni ifoda etuvchi “nurli yuzlar” ifodasi orqali bugunning yoshlarini nazarda tutadi:

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi,—
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

“O'zbek” degan nomning Navoiy nomi bilan atalishi, butun xalq uni e'zozlab ta'zim qilishi, bu buyuk siymoning bugungi avlod tasavvurida yanada jonliroq aks etishida she'riy misralarda ifodalangan tarixiy voqelik, tarixiy shaxsga xos individual xususiyatlar Navoiy obrazining estetik ideal sifatidagi mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi:

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,—
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftarida o'zbek degan nom.

Tarixiy shaxslar ifodalangan aksariyat she'rlarda talmeh she'riy san'ati ham samarali qo'llanadi. Quyidagi misralar buning yorqin misoli bo'la oladi.

Parchadagi Boyqaro va Alisher siymolari lirik qahramon anglatmoqchi bo'lgan fikrini yanada teranlashtiradi:

Boyqaro irg'ishlab istak otida
Jahonga boqqanda misli bola sher.
Hirot darvozasin bir qanotida
She'riy lashkarini tizgan Alisher.

Misralararo o'sib borayotgan g'oyaviy butunlik ushbu misrada "bola sher"ning, Boyqaro "istak"larining ro'yobi uchun "she'riy lashkarini tizgan" Navoiy timsoli gavdalanadi. Bu "lashkar"lar "qalam" orqali "tizil"gan. Keyingi misrada Husayn Boyqaroning davlat ishlarida yaqin ko'makdoshi bo'lgan Navoiy tinchlikni "yurt buzish" bilan emas, balki ma'naviyat va aql bilan engish lozimligini uqtiradi, mantiqan qaralganda quyidagi parchada davlat a'yonlari bilan olib borilayotgan majlisda dunyoda "iz" qoldirish uchun "nayza"ning "kuch"ini "pesh" qilgan amaldorlarga "qalam"ni ko'rsatgan mutafakkir obrazi gavdalanadi. Garchi bu o'rinda majlis haqida so'z bormasa-da, misralarning tub mazmunida ushbu holat anglashilib turadi:

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,

Yuqoridagi she'rlar tahlilidan anglashiladiki, Navoiy siymosini yaratishda, uni keng ommaga yaqindan tanitishda mualliflarga XIV-XV asrning ikkinchi yarmidagi O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti haqida original material bera oladigan mavjud tarixiy va biografik asarlarni, shuningdek, o'sha tarixiy davrlardan bizgacha etib kelgan turli mazmundagi hujjatlarni atroflicha o'rganish va ularning muhim qismlarini bilish ijodiy niyatni amalga oshirishda ajralmas qism vazifasini o'taydi. Navoiy hayoti va ijodini ilmiy o'rganish barobarida badiiy adabiyotda ham shoir shaxsining badiiy talqinlari namoyon bo'la boradi. YOzuvchilar o'zlarining estetik idealini Navoiy misolida aks ettiradilar.

Xulosa qilib aytganda, she'r shoirning voqelikka faol munosabatidan, tuyg'u va ichki kechinmalaridan yaratiladi. Ijod mahsuli shoirning yuksak ideallari, sezimlari, dunyoqarashiga hamohang bo'lib, tafakkurida sintezlashadi va go'zal voqelikka aylanib, ijod gulshanida barq uradi. Biz istaymizmi-yo'qmi, har qanday she'rda shoir shaxsiyatining muayyan darajadagi aksi bo'ladi. Tarixiy shaxslar obraziga murojaat etishda shoirlar kitobxon dunyoqarashini yana bir pog'onaga ko'taradi, bu obrazlarning ibratli umr va ijod yo'li, tarixiy siymolarning individual namunaviy xulq-atvori va insonparvarlik xususiyati mualliflarning ijodida estetik ideal vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent, 2001. – B.10.
2. Vohidov E. Saylanma. 2-jild. – Toshkent, 2001. – B.79.
3. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2011. – B.3.
4. Vohidov E. SHoiru she'ru shuur. – T. 1987. – B.46.

“QISASI RABG‘UZIY” ASARINING TUZILISHI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Zulayho Tojimatova,
FarDU o‘qituvchisi
Jamiyatxon Abdullayeva,
FarDU talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari tuzilishi, janrlar tarkibi, ijodkor uslubi haqida ayim mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: agiografik asar, qissa, poetik ifodalar, savol, javob, xabar va foyda janrlari.

Annotation: This article analyzes the structure of Rabghuzi’s “Qisasi Rabghuzi”, its genre composition and the author’s stylistic features.

Keywords: hagiographic work, narrative, poetic expressions, question, answer, message and didactic genres.

Аннотация: В данной статье рассматриваются структура произведения Рабгузи «Кисас-и Рабгузи», жанровый состав, особенности художественного выражения автора.

Ключевые слова: агиографическое произведение, повествование, поэтические выражения, вопрос, ответ, сообщение и жанры назидания.

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim ahamiyat kasb etgan, nasr yo‘nalishidagi hikoyat va rivoyatlardan tashkil topgan Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari agiografik janrda yozilgan bo‘lib, unda payg‘ambarlar va avliyolarning hayoti va faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Asar an‘anaviy tarzda hamd va nat bilan boshlangan. Qur‘oni Karimdagi ba‘zi lavhalar Abu Ishoq Nishopuriyning “Qisas ul-anbiyo” asari va islomga oid bo‘lgan boshqa kitoblardan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Qissaning yaratilish sababi quyidagicha izohlanadi: “...bu kitobni tuzgan, to‘at yo‘linda tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug‘, ko‘p yozuqlug‘ Rabot o‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosuriddin urug‘i andog‘ aytur...beklar urug‘i, yigitlar arig‘i, ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu qilqlig‘, islom yorig‘lig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘a

sabbatallohu alo dinil-islom va salomuhu”[1:10]. Bundan ko‘rinib turibdiki, asar To‘qbug‘abek iltimosiga binoan yozilgan. Asarga “Qisasi ar-Rabg‘uziy” deb nom qo‘yganini muallifning o‘zi ham aytib o‘tadi. Asar jami bo‘lib 72 qissadan iborat. Qissalar payg‘ambarlar (Odam Ato va Momo Havo, Nuh, Muso, Ya‘qub, Sulaymon, Dovud, Muhammad va boshqalar) to‘g‘risida. Ayniqsa, asar tarkibiga kiruvchi Yusuf payg‘ambar, Sulaymon payg‘ambar, Luqmoni hakim bilan bog‘liq qissalarda xalq og‘zaki ijodining ruhi kuchli seziladi. Asarda faqatgina diniy rivoyatlar emas, balki xalq og‘zaki ijodidan olingan hikmatli so‘zlar, latif voqealar va pandnoma ruhidagi hikoyatlar ham mavjud. Shu bois u nafaqat diniy manba, balki adabiy va tarbiyaviy asar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

“Rabg‘uziy qissalarni hikoya qilar ekan, nozik didli, chuqur bilimli adabiyotshunos sifatida qissalarning mavjud variantlarini o‘rganadi, qaysi rivoyat haqiqat, qaysi biri uydirma ekanini tahlil qiladi. U qiyosiy usuldan foydalangan holda, o‘z qarashlarini ilgari suradi. U manbashunos va tanqidchi sifatida qarashlarini tasdiqlash yoki noto‘g‘ri dalillarni rad qilish uchun rivoyat hamda xabar janrlaridan foydalanadi. Bu jihatdan Rabg‘uziyning rivoyat janridan foydalanish usuli Beruniynikiga o‘xshaydi. Rabg‘uziy deyarli har bir qissa tarkibida “savol” va “javob” keltiradi. Bu “savol” va “javob”lar voqealarga aniqlik kiritish, ularga kitobxonni ishon tirish maqsadida keltiriladi”[2:232]. Muallifning noan‘anaviy tarzda qo‘llagan “savol” va “javob”lari asarda juda muhimligi bilan ajralib turadi. Chunki Rabg‘uziy kitobxonga bir nechta hikoyat va rivoyatlarni havola qilar ekan, ularning ichidagi eng ishonchlisiga oxirida to‘xtaladi va hikoyat mazmunini kengroq tushuntiradi va buni “xabar” deb nomlaydi. Demak, xabar – ishonchli dalil, batafsil sharh keltiriladigan janr turi. Xabardan keyin keladigan “savol” va “javob”lar esa aynan xabarda keltirilgan hodisalarning ishonchliligini yana bir bor isbotlaydi. Rabg‘uziy o‘z qissasida “savol”ga hikmat yoki biror bir sir yuklasa, ana shu sirni ochish maqsadida “savol”dan so‘ng “javob”ni qo‘llaydi. Bundan tashqari o‘quvchining diqqatini tortadigan yana bir o‘ziga xos jihat ham mavjudki, asar davomida muallif bir savolga bir nechta javoblarni ham bergan. Bu bilan esa kitobxonda savolga o‘rin qoldirmaslikka harakat qiladi. Shuningdek, qissani yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi, masalaga bir emas, bir nechta tomondan qarashga o‘rgatadi. Shu bilan bir qatorda hozirda mavjud bo‘lmagan foyda janridan ham mahorat bilan foydalanadi. Ushbu janr kichik hajmdagi didaktik voqealarni hikoya qilishga asoslanadi. O‘z nomidan kelib chiqib turganidek insoniyatga foyda keltirish, insonlarni ham ichki, ham tashqi dunyolarining to‘g‘ri bo‘lishiga undaydi. Ma’no-mohiyati jihatidan hikmatlarga yaqin turadi.

Rabg‘uziy hikoyatlarining asosini ko‘pincha real hayotiy voqea-hodisalar tashkil etadi. Buning uchun muallif mifologik, afsonaviy-xayoliy yoki hayotiy

ma'no taqozo etadigan bayon uslubini tanlaydi. Masalan, Ka'ba binosi qissasida "Bayt ul-ma'mur" o'rnida Ka'baning bino etilishi haqida so'z boradi. To'fon vaqti kelganda azob suvi tegmasin deya Alloh taolo farmoni bilan Jabroil alayhissalom bu binoni ko'taradi va yettinchi qavat osmonga o'rnashtiradi. Shunda Ibrohim alayhissalomga "Bayt ul-ma'mur" o'rnida Ka'ba bunyod qil degan farmon keladi. Ibrohim alayhissalom uni qayerga qurishni bilmayotganda Alloh bulutni yuborib, yerga soya tashlatadi va shu soya o'rnida Ka'ba quriladi. Ka'baning qurilishida Tur sino, Tur zino, Hiro, Lubnon, Jadiyjan kabi beshta tog'dan tosh olib kelinishi, kimdaki shu binoga yuz burib besh mahal namoz o'qisa, yoki unga tavof qilsa, shu ulug' besh tog'larning og'irligicha gunohi bo'lsa ham kechirilishi va shu toshlar Ibrohim alayhissalom qo'liga tushgach marmardek bejirim bo'lib qolishi haqida gap boradi. Bu qissada real voqealarning afsonaviy tarzda hodisalar bilan boyitilishi kuzatiladi. Aynan Ka'baning qurilgani haqiqat bo'lsa, tosh yo'nish san'ati esa afsonaviy tarzda hikoya qilinadi. Qissa so'ngida asarga xos bo'lgan an'ana kuzatiladi: tilga yengillik va taroziga og'irlik keltiruvchi narsalar haqida "savol" va "javob" ham keltiriladi. Buni deyarli boshqa hech qaysi asarda uchramaydigan Rabg'uziyning o'ziga xos xususiyati desak ham noto'g'ri bo'lmaydi.

Asar nasriy shakldagi yozilgan bo'lishiga qaramay, tarkibida bir qancha she'riy janrlar uchraganiga guvoh bo'lamiz. Deyarli har bir qissa she'rlar bilan boshlangan bo'lib, she'rlarning muallifi ham aynan Rabg'uziyning o'zidir. "Qisasi Rabg'uziy"da badiiyat namunalari g'oyat yuksak bo'lgan she'riy parchalarni ko'plab uchratish mumkin. Ulardan shoir ba'zan payg'ambarlarni tavsiflashda, asar o'qishlilikini oshirishda, gohida esa qissalardagi voqealarga o'zining shaxsiy hissiy munosabatini ifodalashda foydalangan"[3:113]. Shu bilan bir qatorda ijodkor har bir she'riy janrlarni farqlaydi va o'z nomi bilan ataydi: ba'zilariga she'r, ba'zilariga esa g'azal deb nom beradi. Bu qarashlar hozirda mavjud bo'lgan an'anaviy usullardan, janr qoidalaridan kelib chiqqanini tushunishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Qisasi Rabg'uziy" o'zbek nasrining ilk yirik namunasi bo'libgina qolmay, o'z davrining eng yaxshi asarlaridan biridir. O'zidan keyin yaratilgan ko'plab asarlarga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, xalqning ma'naviy olamini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Asrlar davomida o'z qadrini yo'qotmagan bu nodir asar hattoki bugungi kunda ham yosh avlod uchun ibrat manbai bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1 jild. Toshkent. "Yozuvchi" nashriyoti. 1990,10-b.
2. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent – 2017, 232-b.

3. R.J.Vohidov, H.P.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshkent. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006, 113-b.

ADABIY QAHRAMON TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Parpiyeva Moxiraxon Inom qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti assistant o'qituvchisi

Annotatsiya: Badiiy asarda insonning davr va muhit bilan munosabati, ularning fe'l-atvori, bir-biri bilan keskin kurashuvlari, ziddiyatlari tasvirlanadi. Adabiy qahramon ijodkor maqsadi, badiiy g'oyasi, asar syujeti, kompozitsiyasini tashkil etuvchi asosiy omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Abstract: A work of fiction depicts a person's relationship with their time and environment, their character, their intense struggles and conflicts with each other. The literary hero is directly related to the author's purpose, artistic idea, plot of the work, and the main factors that make up its composition.

Аннотация: Художественное произведение описывает взаимоотношения человека со временем и окружающей средой, его характер, его напряженную борьбу и конфликты друг с другом. Литературный герой непосредственно связан с авторским замыслом, художественной идеей, сюжетом произведения и основными композиционными факторами.

Kalit so'zlar: inson obraz, adabiy qahramon, badiiy g'oyasi, asar syujeti, asar personajlari, epizodik personaj.

Keywords: human image, literary hero, artistic idea, plot of the work, characters of the work, episodic character.

Ключевые слова: образ человека, литературный герой, художественная идея, сюжет произведения, персонажи произведения, эпизодичность.

Adabiy qahramon adabiyotshunoslik ilmining o'zak tushunchalaridan biridir. Adabiy qahramon deyilganda badiiy asarlarda tasvirlangan inson obrazi tushuniladi. Badiiy asarda insonning davr va muhit bilan munosabati, ularning fe'l-atvori, bir-biri bilan keskin kurashuvlari, ziddiyatlari tasvirlanadi. Adabiy qahramon ijodkor maqsadi, badiiy g'oyasi, asar syujeti, kompozitsiyasini tashkil etuvchi asosiy omillar bilan bevosita bog'liqdir. Unda inson obrazi va uning qiyofasi, ichki olami, makon va zamondagi xatti-harakatlari gavdalanadi. Ijodkorning badiiy mahorati ham, asarning badiiylilik darajasi ham aynan ana shu adabiy qahramonning qanday tasvirlanishiga ko'ra baholanadi.

Adabiy qahramon bu – badiiy adabiyotdagi inson obrazi bo‘lib, nasr, nazm, dramaturgiyada unga hamohang ravishda turli atamalarda qo‘llaniladi. Masalan, nasrda “xarakter”, “obraz”, “tip”, “qahramon”, nazmda “lirik qahramon”, dramaturgiyada esa “qatnashchi” singari atamalar bilan ifodalanadi. Demak, bu atama umumiy ma’noda badiiy asarda ishtirok etuvchi va asar voqealari qatnashchisi bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. L.Chernetsning ta’kidlashicha, zamonaviy adabiyotshunoslikda ko‘proq “adabiy qahramon”, dramada esa “xarakterlanuvchi shaxs” kabi so‘z birikmalari personaj o‘rnida qo‘llaniladi.⁵⁵ V.V.Dubrovskaya “Adabiyotshunoslik: poetik olam” nomli asarida personaj atamasiga alohida to‘xtalib, personaj (lot. Persona shaxs) matnda tilga olingan shaxs, ya’ni antropomorfik mavjudot ekanligini qayd etgan.⁵⁶ Personaj badiiy ijod olamidagi shaxs. Shunday ekan, “har bir personajning asosiy aspektlarini ajratish mumkin: ismi, tashqi ko‘rinishi, nutqi kabi”⁵⁷ Demak, badiiy asarda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan personaj deyiladi. Ya’niki inson obrazi tushunchasi personaj atamasi bilan ifodalanadi. Ginzburgning qayd etishicha, adabiy qahramon, mohiyatiga ko‘ra, biron-bir shaxsning berilgan matnda ketma-ket tilga olinishidir. Bir badiiy matn davomida qahramon turli ko‘rinishlarda tasvirlanishi mumkin, ya’ni boshqa qahramonlarning suhbatlari davomida eslanishi, qahramon xarakteri tahlil qilinishi, shuningdek, uning so‘zlar, imo-ishoralar, harakatlar va boshqalar bilan ro‘y bergan kechinmalari, fikrlari, nutqlari, tashqi ko‘rinishi va sahnada muallif yoki hikoyachining xarakter bilan bog‘liq voqealarda yodga olinishi mumkin.⁵⁸ Yozuvchining badiiy g‘oyasi ayni shu qahramon tasviri orqali, uning turmush tarzi, ruhiy olami, xulqi, o‘y-xayollarida aks etadi.

Badiiy adabiyotda “obraz” tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’noda qo‘llanganda yozuvchi tomonidan badiiy asarda aks ettirilgan voqelik yoki hodisaning yaxlit bo‘lagi tushuniladi. Tor ma’noda esa ijodkor tomonidan yaratilgan inson obraziga aytiladi. Hayot voqe-hodisalarini qayta tiklashda inson obrazi muhim ahamiyatga ega. Obraz bu – insonlarning ichki va tashqi olami, borliq, voqea va hodisalar, tabiat manzaralari, hayvonot va o‘simliklar dunyosining umumlashtirilgan va konkretlashtirilgan tasviri bo‘lib, g‘oyaviy-estetik vazifani bajaradi. Demak, har qanday san’at asarining estetik maydoni badiiy obraz orqali kengayib boradi, chunki badiiy obraz ham estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda, badiiy fikrlash mahsuli bo‘lgan obrazni san’atning joni, deyishimiz mumkin. Obraz vositasida ijodkor olamni va

⁵⁵ Введение в литератур: Учеб.пособ/Под ред.Л.Чернец. — М.: Высш. школа, 2004. — 197 с

⁵⁶ Дубровская В. Литературоведение: поэтический мир. — М., Берлин: Директ-Медиа, 2016. — С.5,19 (122)

⁵⁷ Дубровская В. Литературоведение: поэтический мир. — М., Берлин: Директ-Медиа, 2016.. — Б.19.

⁵⁸ Гинзбург Л. О литературном герое. — Л.: Сов. писатель, 1979. — 223 с.

odamni badiiy idrok etadi, baholaydi va uni o'quvchiga badiiy-estetik tarzda yetkazib beradi. Obraz badiiy asarda mazmun va shaklning, mavzu va g'oyaning birligini ifodalovchi asosiy vositadir. Badiiy asarda ijodkor dunyoqarashi, estetik didi, voqelikni idrok etishi badiiy obrazlar bilan bog'liqdir. Jahon adabiyotshunosligida shu kunga qadar poetika muammolaridan biri sifatida obraz mohiyati va nazariyasi bo'yicha Aristotel qarashlariga tayanib kelinmoqda. Olimning fikricha, "Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini yaratadilar"⁵⁹. Aristotel o'z davridayoq kishilar tasavvuri, fikrlash tarzi badiiy mahsuli bo'lgan obrazga xos asosiy xususiyatlarni ko'rsatib berishga erishgan. Ya'ni hayotga taqlid qilish orqali obraz yaratilishi haqida aytgan. Gegel esa o'zining "Estetika haqida ma'ruzalar" asarida san'at – obrazlar orqali fikrlash, degan fikrni ilgari surgan va obrazga xos asosiy xususiyatlarni quyidagicha sanab o'tgan: estetik haqiqat, badiiy o'lchov, ideallik, o'ziga xoslik, umumbashariy ahamiyat, mazmun va shakl dialektikasi⁶⁰. Har qanday muallif inson obrazi tasvirida Gegel sanab o'tgan xususiyatlarga e'tibor qaratadi. Eng muhimi, obrazning hayotiyligidir. Demak, "obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni paytda konkret manzarasidir"⁶¹. Adabiy asar qahramoni hayotdagi kishilarga o'xshasa-da, lekin ularning aynan o'zi bo'la olmaydi. Obraz umumlashma hamda konkretlashtirilgan va individuallashtirilgan natijasi bo'ladi. M.Baxtin san'atdagi obraz haqida fikr yuritganda, uning rassom ongida tug'ilishini ijodiy jarayon deb baholaydi. "Ijodiy jarayon – bu qahramon badiiy obrazining xronotopiyasi (makon-vaqt aloqasi)ga asoslangan hayot tasvirida yaratilgan obrazning ochilishi. Obraz statik emas, balki muayyan harakatlar orqali ochiladi"⁶². Ijodkor yaratgan obrazlarda davr kayfiyati ham ufurib turadi. Har bir adabiy davrga xos obrazlar tizimi mavjud bo'lib, ularda Baxtin aytganidek, "makon-vaqt aloqasi" mavjud. Bu adabiy hodisa turli xalqlar adabiyotida kuzatiladi. Demak, har qanday adabiy asarning qahramoni "makon-vaqt aloqasi"da faol harakat qiluvchi personajdir. Rus olimi N.I.Nikolayev shunday yozadi: "Adabiy qahramonning bu harakatlari qanday baholanishidan qat'iy nazar ular asarda ishtirok etuvchi va faol harakatlanuvchi kishilardir"⁶³. Adabiyotshunoslik lug'atlarida adabiy qahramon atamasi quyidagicha ta'riflanadi: "Adabiy qahramon – asar personajlari tizimida yetakchi mavqe egallab, g'oyaviy-badiiy konsepsiyani shakllantirish va

⁵⁹ Аристотел. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – В.

⁶⁰ Гегель. Эстетика. Т. 3. С. 384—385.

⁶¹ Тимофеев Л.И Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – С.62-63.

⁶² Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества/Сост. С.Г. Бочаров; Текст подгот. Г. С. Бернштейн и Л. В. Дерюгина; Примеч. С. С. Аверинцева и С. Г. Бочарова. – М.: Изд-во «Искусство», 1979 г. – 424 с.

⁶³ Николаев Н.И. Литературный герой в мире его поступка // Филологические науки. Дискуссия. - №3 (21). - М., 2012. – С.173-176.

ifodalashda muhim rol o'ynovchi shaxs obrazi. Terminni bu ma'noda tushunish epik yoki dramatik asar personajlarini darajalashni ko'zda tutadi: syujet voqealari qahramon atrofida uyushtirilib, boshqa personajlar u bilan bog'liq holda asar voqeligiga kiritiladi; ular qahramon bilan integrativ aloqada (hokim-tobe) bo'lib, unga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajaradi.

Ingliz adabiyotida adabiy qahramonlarning eng keng tarqalgan oltita turi mavjud:

1. Har bir shaxsni ifodalovchi qahramon. Bunday qahramonlar hech qanday qahramonlik fazilati va xususiyatlariga ega bo'lmagan oddiy kishilar obrazidir. Ular garchi qahramonlik fazilatlariga ega bo'lmasalarda faol harakat qiladilar.

2. Klassik qahramon. Bunday qahramonlar zamondoshlaridan ajralib turuvchi buyuk iste'dodga va qobiliyatga ega bo'ladilar. Ular jasoratli bo'lib, zukkolik fazilatiga ega bo'ladi. Masalan, Garri Potter.

3. Epik qahramon. Yunon mifologiyasida mashhur bo'lgan bunday qahramonlar ilohiy fazilatlarga ega. Bunday qahramonlar g'ayritabiiy qobiliyatlari va qahramonliklari tufayli afsonaviy hisoblanadi. Masalan, Axilles, Odissey, Beovulf, Qirol Artur.

4. Fojeali qahramon. Bunday qahramonlar halokat yoqasiga kelib qolgan asar qatnashchisidir. Masalan, Edip.

5. Antiqahramon. Bu turdagi qahramonlar an'anaviy qahramonlik fazilatlariga ega emaslar. Ularda axloqsizlik illatlari mujassam bo'ladi.

6. Bayron qahramoni. Bunday qahramonlar ingliz shoiri Lord Bayron tomonidan yaratilgan bo'lib, ular tashqi tomondan nuqsonli, ammo kuchli axloq va ehtirolarga ega. Ular jamiyat kishilari e'tiqodlariga shubha bilan qarashadi, bu esa ularning ijtimoiy begonalashuviga olib keladi.

O'zbek adabiyotshunosligida qahramon muammosi haqida fikr yuritgan akademik Izzat Sulton shunday yozadi: "Badiiy asar mazmunida asosiy o'rin tutuvchi personajlar (epizodik personajlardan farqli o'laroq) qahramon deb ataladi"⁶⁴. Olim badiiy asar qahramonlarini uch turga bo'ladi: 1) ijobiy qahramon; 2) salbiy qahramon, 3) epizodik personaj. Adabiyotshunos T. Boboyev esa asarda qatnashuvchi barcha odamlar hayoti tasviri (asar syujetida har xil "yuk" tashuvchi shaxslar — bosh qahramon, asosiy obraz, epizodik obraz anglashiladi) deydi⁶⁵. Adabiyotshunos A. Ulug'ov adabiy qahramonlarning namoyon bo'lishini quyidagicha izohlaydi: "Asarlarda inson timsoli – adabiy qahramonlar uch xil ko'rinishda: asosiy, yondosh va epizodik qahramon sifatida gavdalantiriladi. Asosiy qahramon qalamga olinayotgan voqealar markazida turadi. Epik va drama turidagi asarlarda syujetning barcha tarmoqlari asosiy qahramon faoliyati orqali

⁶⁴ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B.105.

⁶⁵ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.51.

o‘zaro tutashadi... Asosiy qahramon xarakteri yondosh va epizodik qahramonlarga qaraganda kengroq yoritiladi. Yondosh va epizodik qahramonlar asosiy qahramon obrazini yorqin ko‘rsatishda zarur vosita, muhim omil vazifasini bajaradi”⁶⁶. Adabiyotshunos D.Quronovning nazariy qaydlarida esa quyidagicha tasniflanadi: “Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko‘ra realistik, romantik, syurrealistik v.b., yaratilish usuliga ko‘ra fantastik, grotesk v.b., xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko‘ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanadi”⁶⁷. Demak, adabiy qahramon personajlar tizimida yetakchi mavqega ega, u yozuvchi g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Введение в литератур: Учеб.пособ/Под ред.Л.Чернец. — М.: Высш. школа, 2004. — 197 с
- 2.Дубровская В. Литературоведение: поэтический мир. — М., Берлин: Директ-Медиа, 2016. — С.5,19 (122)
- 3.Дубровская В. Литературоведение: поэтический мир. — М., Берлин: Директ-Медиа, 2016.. — Б.19.
- 4.Гинзбург Л. О литературном герое. — Л.: Сов. писатель, 1979. — 223 с.
- 5.Аристотел. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. — В.
- 6.Гегель. Эстетика. Т. 3. С. 384—385.
- 7.Тимофеев Л.И Основы теории литературы. — М.: Просвещение, 1971. — С.62-63.
- 8.Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества/Сост. С.Г. Бочаров; Текст подгот. Г. С. Бернштейн и Л. В. 9.Дерюгина; Примеч. С. С. Аверинцева и С. Г. Бочарова. — М.: Изд-во «Искусство», 1979 г. — 424 с.
- 10.Николаев Н.И. Литературный герой в мире его поступка // Филологические науки. Дискуссия. - №3 (21). - М., 2012. — С.173-176.
- 11.Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005. — Б.105.
- 12.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. — Тошкент: Ўзбекистон, 2002. — Б.51.
- 13.Ulug‘ov A. Adabiy qahramon obrazi // O‘zbekiston: til va madaniyat, 1(2)-son. — Toshkent, 2024. — Б.25.
- 14.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: Noshir, 2019. — Б.78.

⁶⁶ Ulug‘ov A. Adabiy qahramon obrazi // O‘zbekiston: til va madaniyat, 1(2)-son. — Toshkent, 2024. — Б.25.

⁶⁷ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: Noshir, 2019. — Б.78.

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRINING JANR QAMROVI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti,
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası professori,
filologiya fanlari nomzodi.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

Annotatsiya: *XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayevning nasriy ijodining janr qamrovi keng. Ushbu maqolada muallifning turli janrlardagi asarlari, xususan, hikoya, qissa, roman va esselar orqali ijodiy izlanishlari o‘rganilib, ularning o‘zbek nasridagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nasr, janr qamrovi, hikoya, qissa, roman, esse, adabiy uslub, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, janr qamrovi.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek nasrida yuzaga kelgan yangilanishlar va janrlar xilma-xilligi zamonaviy adabiyotning rivojlanishiga yangi yo‘nalishlar berdi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev bu davrning yorqin namoyandalaridan biri sifatida turli janrlarda ijod qilib, o‘zbek nasrining janr qamrovini kengaytirdi. Uning hikoya, qissa, roman va essa janrlaridagi asarlari o‘ziga xos badiiy uslub va mazmuni bilan ajralib turadi. Adibning asarlari nafaqat o‘zbek nasrining an‘anaviy shakllarini davom ettirdi, balki zamonaviy adabiyotning talablariga mos ravishda yangi badiiy yondashuvlarni joriy etdi. Muallif turli janrlarda hayotning ijtimoiy, ma‘naviy va falsafiy muammolarini ko‘tarib, o‘quvchini chuqur o‘ylashga chorlaydi. Bu esa uning ijodini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega qila oldi.

Adabiy ijodini 60-yillarning birinchi yarmidan boshlagan Shukur Xolmirzayev o‘zining ilk qadamlaridanoq kitobxonga iste’dodli hikoyanavis sifatida tanilgan edi. Ijodining birinchi bosqichi hisoblangan bu davrda yaratilgan hikoyalari adib uchun har bir ijodkorda bo‘lgani singari hayotga yondashish, voqelikni badiiy idrok eta bilish, diqqatga sazovor mavzu tanlash, bu mavzuni o‘zi tanlagan tasvir yo‘li-muayyan badiiy prinsip orqali tadqiq etishda ijodiy maktab bo‘ldi.

Shukur Xolmirzayev adabiyotga keng ko‘lamli hayot taassurotlari bilan kirib keldi. Inson xarakterining murakkab va rang-barangligi, voqelikning turli holatlari, ona tabiat manzarasi-bularning bari adib asarlari qatiga singgan. Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, “Shukur Xolmirzayevning asarlarida hali hamma narsa atroflicha aks ettirilmagan bo‘lishi, ba’zan avtor naturalistik tasvirlardan ham

qutula olmagan bo'lishi mumkin. Lekin voqealarni tasvir etishda topgan yo'li, prinsiplari kishini quvontiradi" [6, 357].

Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi hayot va inson tasvirining asosiy syujet o'zaklarini tashkil etadi. Ayni paytda yozuvchining dastlabki hikoyalaridan boshlab bo'rtib ko'zga tashlangan va butun ijodida qayta-qayta qo'llanilgan tasvir usuli uning hikoyachilikdagi o'ziga xos uslubini tashkil etuvchi unsurlar darajasiga ko'tarilganligi e'tiborga loyiqdir. Uning hikoyalaridagi syujet o'zaklarining o'zaro yaqinligi yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg'otmasligi kerak. Zero, uning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalar-da, ularning jamiyatga, tevarak-atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatlarida, o'y-kechinmalarida, ma'naviy dunyosida bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjudki, bu yozuvchining badiiy iqtidori va poetik so'zni his qilish tamoyili nihoyatda teranligini ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorning yosh adib haqida aytgan iliq fikrlari, adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning matbuotdagi umidbaxsh mulohazalari kitobxon e'tirofini mustahkamladi.

Yigirma besh yoshga kirgan yozuvchi "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1965) qissasi bilan adabiy jarayondan dadil o'z o'rnini olishga chog'langanini ko'rsatdi. Qissa yoshlar, ayniqsa, talabalar ichida keng bahslarga sazovor bo'ldi. Tanqidchilar u haqda munozara qildilar.

Bu qissadan so'ng Shukur Xolmirzayev uzoq yillar hikoya janrida ijod etdi. Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi adiblar ko'proq roman janriga o'tishgach, Shukur Xolmirzayev 70-80-yillarda o'zbek hikoyachiligining peshqadam vakillaridan biri bo'lib qoldi [4, 506].

Yozuvchi hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni ifodalashga intiladi. Uning bu xususiyatlari, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan "Shudring tushgan bedazor", "Cho'loq turna", "Podachi", "Ko'k dengiz", "Xorun ar-Rashid", "Qadimda bo'lgan ekan", "Tabassum", "Ustoz", "Farzand" kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo'lgan. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida, asosan, Surxon vohasining kaloriti yorqin sezilib turadi. Yozuvchining hikoyalarida surxondaryoliklarning o'ziga xosligi, yorqin va katta xarakterlari, yashash tarzi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Uning "Arpali qishlog'ida", "Olis yulduz ostida", "Miltiq otildi", "Kimsasiz hovli", "Ov" kabi hikoyalari, "So'nggi bekat", "Qil ko'pri", "Olabo'ji" romanlarida bu koloritni aniq sezish mumkin. To'g'ri, yozuvchi Shukur Xolmirzayev dastlabki ijodiy qadamlaridanoq "o'zligini", o'z uslubini topib olgani yo'q. U tinimsiz izlanishlar, ijodiy tajribani o'zlashtirish jarayonida shunga erishdi. "Mana o'tmishu hozirgi zamon adabiyoti yozish usullaridan ozmi-ko'pmi o'rganib, o'z yo'limni topish

ustida ko‘p o‘ylandim, - degan edi yozuvchi, - bu izlanish hatto nuqta, vergulni qayerga qo‘yish borasida ham bo‘ladi” [5, 301-302].

Qissa janrida Shukur Xolmirzayev o‘z asarlarini kengroq miqyosda va chuqurroq falsafiy tahlil bilan boyitadi. Bu janrda muallifning ijtimoiy-madaniy muammolarga bo‘lgan qarashlari, odamlarning hayotiy tajribalari va ularning axloqiy qadriyatlariga oid mulohazalari kengroq shaklda ifodalanadi. Qissalarida voqelikning murakkab qirralari, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘proq o‘rganiladi. Qissa janri Shukur Xolmirzayevga ko‘proq tafakkur va chuqur badiiy tahlil uchun imkon yaratadi. Adib ijodining ilk bosqichidayoq hikoyalar bilan birga qissa janrida ham ijod qila boshladi. Bolalar hayotida yozilib, “Lenin uchquni” gazetasida bosilgan “Tog‘lar orasida” nomli dastlabki qissasi ko‘p o‘tmay “Oq otli”(1961) nomi bilan alohida kitob holida nashr etildi.

80-yillarning ikkinchi yarmida “Bukri tol” nomi bilan yangi nashri e‘lon qilingan qissa avval (1962) “To‘lqinlar” nomi ostida bosilib chiqqan edi. Yosh adib bu qissada Ma‘murjon singari o‘smirlar hayotining ajib manzaralarini, halollik, poklik muammolarini yosh xarakterlarning toblanish jarayonlarini qalamga oladi. Ayni vaqtda Oyna opa obrazini yaratishga urindi. O‘zbek ayollariga xos muruvvat, sahovat bilan rahbarga xos talabchanlik va qat‘iylilikni Oyna opa tabiatida uyg‘un holda biriktirishga intiladi. Shukur Xolmirzayevni mute‘larcha qo‘l qovushtirib turish odat bo‘lib qolgan Ma‘murjonning asta-sekin o‘z-o‘zini anglay borish jarayoni qiziqtiradi.

Yozuvchi dastlabki qissalaridayoq ruhiy ziddiyatlarni, qalb tug‘yonlarini ko‘rsatish muhim ekanligini anglay boshladi. Xususan, “To‘lqinlar”ning jurnal nusxasida Ma‘murjon xarakterida shu xususiyatlar sayoz edi. Buni anglagan adib asarning kitob nusxasida qahramoni qalbini uning o‘z ichki “men” vositasida chuqurroq tahlil etishga intildi. Shunga qaramay, qissada muallifning hali tajribasiz ekanligidan ayon berib turuvchi kamchiliklar talaygina. Kofliktlarni hal etishda badiiylikning yetishmasligi, qahramonlar xatti-harakatini dalillash mahoratining ba‘zan sustligi ana shunday qusurlardan edi.

Roman Shukur Xolmirzayev nasrida nisbatan yangi janr bo‘lib, unda muallif keng ko‘lamdagi voqealarni, turli qahramonlarni va ularning hayot yo‘llarini yoritadi. Romanlarda ijtimoiy va ma‘naviy masalalar yanada kengroq ko‘lamda ochib beriladi. Bu janr muallifga hayotning murakkab tizimini va inson ruhining murakkab qatlamlarini batafsil tasvirlash imkonini beradi. Roman janri orqali adib zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlar, insoniylikning ahamiyati va ma‘naviy qadriyatlarning saqlanishi masalalarini kengroq ko‘rsatadi. Fikrimizni adibning “So‘nggi bekat”, “Qil ko‘prik”, “Olabo‘ji” romanlari misolida ham kuzatish mumkin.

Esse janrida esa muallif o'z fikrlarini ochiq va bevosita ifoda etadi, shaxsiy qarashlari va zamonaviy muammolarga oid mulohazalarini o'quvchiga yetkazadi. Essae shaklidagi asarlarida Shukur Xolmirzayev jamiyat, madaniyat va ma'naviyat masalalarini o'rganib, axloqiy qadriyatlar, insoniylik tamoyillari haqida fikr yuritadi. Ushbu janr muallifning adabiyotdagi falsafiy pozitsiyasini aniqlab beradi va o'quvchini o'ylashga, o'zini anglashga chorlaydi.

Shukur Xolmirzayev nasrida janrlararo integratsiya va o'zaro ta'sir kuchli seziladi. Hikoya va qissa janrlaridagi qisqa hajmli asarlar ko'pincha roman va esse janrlarida batafsil rivojlantiriladi. Bu xilma-xillik muallif ijodiga zamonaviylik va rang-baranglik baxsh etadi. Shuningdek, janrlarning kombinatsiyasi orqali adib ijtimoiy va ma'naviy muammolarni turli burchaklardan yoritadi, o'quvchida har tomonlama fikrlash imkoniyatini yaratadi.

Janr qamrovidan tashqari, muallifning badiiy uslubi ham o'ziga xoslikka ega. Hikoya va qissalarda soddalik va ta'sirchanlik, romanda esa murakkablik va keng qamrov kuchli his etiladi. Mavzular esa insoniylik, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, ma'naviyat va zamonaviylik singari asosiy muammolarni o'z ichiga oladi. Bu esa Shukur Xolmirzayev nasrini nafaqat badiiy, balki ma'naviy-ijtimoiy jihatdan ham o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlagan.

Shukur Xolmirzayevning XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi nasriy ijodi janr jihatdan keng qamrovli va xilma-xildir. Uning hikoya, qissa, roman va esse janrlaridagi asarlari nafaqat o'zbek nasrining an'anaviy shakllarini davom ettiradi, balki zamonaviy adabiyotning yangi badiiy uslublari va mavzularini joriy etish orqali o'ziga xos badiiy rang-baranglik yaratadi. Har bir janrda muallif o'zining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy qarashlarini chuqur ifodalab, insoniylik, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat kabi muhim mavzularni yoritadi, bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki ma'naviy-ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli qiladi. Shuningdek, janrlarning o'zaro uyg'unligi va muallifning badiiy uslubidagi o'ziga xoslik zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanishiga yangi yo'nalishlar ochib beradi va Shukur Xolmirzayev ijodini zamonaviy o'zbek adabiyotidagi muhim fenomenga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Do'stmuxamedov X. Hozirgi o'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi (80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillar avvalidagi hikoyalar misolida): Filol.fan.nomzodi diss. - Toshkent, 1995. - B. 149.

2.Hamidova M.O.Shukur Xolmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.

3.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.- 148 b.

4.Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.

5. Mahmudova R. Shukur Holmirzayev asarlari baadiyati // Международный научный журнал «Новости образования: исследований XXI века», 2023.-№ 9 (100).- Б.301-302.

6.Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. 1 жилд.-Б.357.

7.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. 448 b.

LUQMON BO‘RIXONNING “SINOV MUDDATI” HIKOYASIDA KOMPOZITSION XUSUSIYATLAR

Tolibova Madina,

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos uslub va badiiy mahorat egasi bo‘lgan Luqmon Bo‘rixonning “Sinov muddati” hikoyasidagi kompozitsion qurilish tahlil qilinadi. Asarda voqealarning ketma-ketligi, dramatik keskinlik, obrazlar tizimi hamda vaqt va makon munosabatlari o‘rtasidagi uyg‘unlik yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, hikoya janri, obrazlar tizimi, konflikt, badiiy tasviriy vositalar.

Hikoyachilikda o‘ziga xos uslubga ega yozuvchi Luqmon Bo‘rixon asarlarida ham badiiy obrazlar ijodkor ideali, mahorati va iste’dodi tufayli voqelikning qayta badiiy akslanishi tufayli yuzaga keladi. Yozuvchining “Sinov muddati” hikoyasi hajman kichik bo‘lsa-da, undagi obrazlar orqali inson badiiy kashf qilinadi. Hikoya deganda, birinchi galda asarda bayon qilingan voqealar tizimi emas, balki unda yaratilgan xarakter ko‘z oldimizga keladi. Ma’umki, hikoya inson hayotidagi uncha katta bo‘lmagan ma’lum bir voqeani tasvirlashga qaratilganligi bilan nasriy turning boshqa janrlariga mansub asarlardan farqlanib turadi. Lekin hikoyada inson hayotining ma’lum bir qirrasini tasvirlanishidan qat’iy nazar bunda qahramon ichki va tashqi dunyosining o‘ziga xos ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. Ana shu qahramon qiyofasida ma’lum bir davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishiga xos xususiyatlar badiiy aks ettiriladi. Badiiy kashfiyot darajasiga ko‘tarilgan xarakter har bir adabiyotning badiiy boyligini tashkil etib, o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy xarakterini, milliy o‘ziga xosligini badiiy mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir. Ijodkorning milliy xarakter yaratishdagi mahorati badiiy nutq,

peyzaj, portret, psixofiziologik holat, motiv, psixologik tasvir, interyer kabi badiiy vositalar yordamida yuzaga chiqadi⁶⁸. M.Gorkiy shunday degan edi: “Yozuvchi uchun eng qiyini boshlab olish, aynan, birinchi iborani topishdir. U xuddi musiqadagidek butun asarga ohang bag‘ishlab turadi va odatda uni uzoq izlashga to‘g‘ri keladi”. Luqmon Bo‘rixon ham mazkur hikoyani ikki do‘stning psixologik tasviri bilan boshlaydi. “Oldi oynaband, serhasham bino eshigidan otilib chiqqan Jasur alanglaganicha Sobirni izladi. Do‘sti yo‘lakcha bo‘yidagi yog‘och o‘rindiqda o‘ychan o‘tirgan ekan”⁶⁹. Keltirilgan parchadan ayonki, Jasur va Sobir obrazlari xarakteriga xos chizgilar “serhasham bino” va “yog‘och o‘rindiq”, ruhiyat manzaralariga xos belgilar esa “otilib chiqqan” va “o‘ychan o‘tirgan” tarzidagi kontrast birikmalar orqali ifodalangan. Ayon bo‘ladiki, hikoya boshlanmasidayoq yozuvchi voqea-hodisa tasviridan ko‘ra ruhiyat ifodasiga urg‘u beradi. Muallif kitobxonga Jasurni “hiyla mahmadona”, Sobirni esa “anchayin og‘ir-vazmin” tabiatli ekanligini qistirib o‘tadi. Jasur harbiy xizmatni o‘tab kelgan, favqulotta vaziyatlar boshqarmasining tuman bo‘limiga sinov muddati asosida qutqaruv xizmatiga olingan bo‘lsa-da, lekin faqat “quruq gaplar bilan maqtanadigan”, o‘z xizmat burchiga sadoqat bilan yondashmaydigan shaxs sifatida gavdalangan. Jasurning “hiyla mahmadona”ligi qutqaruv xizmatiga suhbatdan o‘tish chog‘ida qo‘l keladi. Nihoyat, tepakal boshliq “chiroyli gaplarning yarimginasini amalda ko‘rsatsangiz ham sizdan tuzuk xizmatchi chiqadi”, deb ishga oladi.

Luqmon Bo‘rixon asar syujetini kontrast usuli asosida quradi – Jasur obrazidagi illatlarni do‘sti Sobir obraziga xos fazilatlarni qarama-qarshi qo‘yish tasviri hikoya voqealari fonida oq va qora bo‘yoqlarning yanada konkretlashishiga xizmat qilgan. Qiyoslash, qarama-qarshi qo‘yish usuli yozuvchiga xarakter chiziqlarini belgilashga imkon beradi. Professor Y.Solijonov Odil Yoqubovning o‘ziga xos uslubi haqida fikr yuritib, salbiy xarakterlar tasviriga ko‘proq kontrast bo‘yoq berishni afzal ko‘rishini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda Luqmon Bo‘rixon uslubida ham mazkur holat kuzatilganligini aytishimiz mumkin.

Hikoya boshlanishidayoq askarlikka suhbatdan o‘tgan Jasurni “Sobir quvonchdan yal-yal yashnab turgan do‘stining qo‘lini samimiy siqib, jilmaygan”⁷⁰ holda tabriklashi tasvirlangan bo‘lsa, asar davomida esa favqulotta vaziyatlar boshqarmasining tuman bo‘limiga qutqaruv xizmatiga kirish uchun Jasurning hujjat topshirish epizodida yanada yaqqol namoyon bo‘lgan.

“ – Siz-chi, siz xizmatga kirishni xohlamaysizmi? – deb so‘radi Sobirdan kul rang mundir kiygan, baland bo‘yli, do‘ngpeshona kishi.

⁶⁸ Qayumov A. Milliy xarakter va badiiy mahorat. – Farg‘ona, 2021. – B.15.

⁶⁹ Bo‘rixon L. Hizr ko‘rgan yigit. – Toshkent, Sharq 2007. – 228.

⁷⁰ Bo‘rixon L.Hizr ko‘rgan yigit. – Toshkent, Sharq 2007. – B.228.

Sobir yelka qisib, yerga qaradi.

– Shartlaringizga to‘g‘ri kelmayman.

– Armiyaga bormagan, sal-pal sog‘ligi chatoqroq, – shosha-pisha qo‘shib qo‘ydi Jasur ham.

Mas‘ul kishi allanechuk taajjublanib do‘stlarga bir-bir ko‘z yugurtirib chiqdi”.

Hikoyada keltirilgan ushbu dialog asar kompozitsion-syujet tizimining ajralmas qismiga aylangan. Professor T.Boboyev ta‘kidlaganidek, “Kompozitsiya badiiy unsur sifatida tasvirlanayotgan hayot qonuniyati, yozuvchi dunyoqarashi, badiiy metod va uslub, g‘oyaviy-badiiy niyat, adabiy turlar va janrlar tabiati bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra, har bir san‘at asarining o‘ziga xos kompozitsiyasi bo‘ladi”⁷¹. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, “...kompozitsiya badiiy shaklning unsuri emas, u, avvalo, shakl komponentlarini badiiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirishga qaratilgan amal, shuni amalga oshirish prinsiplaridir. Ayni amal tufayli asar unsurlari shunday uyushtiriladiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsur bo‘lmaydi, har bir unsur butun tarkibida o‘z funksiyasiga ega bo‘ladi va muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi”⁷². Ana shunday har bir unurning muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashishini, kompozitsion jihatdan uyg‘un va yaxlitlikni adibning biz tahlilga tortayotgan hikoyasida ham kuzatish mumkin. Demak, yozuvchining dialog vositasida hikoyaning uslubiy-kompozitsion jihatdan o‘ziga xos bo‘lishini ta‘minlashdagi mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada badiiy obrazning individual xususiyatlarini konkretlashtirish asosida unga jonlilik va hayotiylik baxsh etiladi. Sobirning “ko‘zi andak xiraroq” bo‘lganligi bois uni askarlikka olishmagan edi. Bugun esa do‘sti Jasur Sobirning “sog‘ligi chatoqroq” ekanligini shosha-pisha qo‘shib qo‘ydi. Mazkur dialog orqali Jasur xarakteriga xos belgilar konkretlashgan.

Hikoyadagi har bir holat, har bir obraz va detallar o‘ziga xos badiiy funktsiya bajarishga yo‘naltirilgan. “Sinov muddati” hikoyasida ham klubda qo‘yilgan filmdagi cho‘kayotgan kemani qutqarishga otlangan jangovar otryad jasorati hikoya qahramonlarini entiktiradi. Hikoya qahramoni Sobir qandaydir buyuk, qandaydir ezgu ishlar qilishni istardi. Sobirning avtohalokat tomon yugurishi, “Jiguli” mashinasidagi yo‘lovchilarni jasorat bilan qutqarishi xuddi filmdagi cho‘kayotgan kemani qutqarishga shaylangan otryadning jasoratiga uyg‘unlashganday. Ayni shu detal – “Jiguli” avtomashinasining qulashi Sobir va Jasur obrazi ichki olamini, jasorati va qo‘rqoqlik belgilarini, ular tabiatidagi odamiylik va xudbinlikni qarama-qarshi qo‘yish orqali mahorat bilan ochib bergan. Hikoyaning kulminatsion nuqtasi ham ayni shu eski “Jiguli”ning yo‘l yoqasidagi

⁷¹Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.138.

⁷²Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. –B. 141.

ariqqa yonbosh qulashi tasviri bilan bog'liq. Shuningdek, hikoyada yog'och o'rindi, cho'kayotgan kema kabi detallar ham o'ziga xos badiiy funktsiya bajarib, asar strukturasining shakllanishiga xizmat qilgan. Hikoyada yana bir detal tepakal boshliqning Jasurga aytgan so'zlari: "chiroyli gaplarning yarimginasini amalda ko'rsatsangiz ham sizdan tuzuk xizmatchi chiqadi". Bundan ko'rinadiki, Jasur faqatgina mahmadonalik bilan ish bitiradigan, mas'uliyatsiz, xudbin, o'z manfaatini o'ylovchi shaxslar toifasidan.

Yozuvchining obraz yaratishdagi mahorat qirralaridan biri yana shuki, Jasurning ichki olamini tasvirlashda peyzajdan unumli foydalanganligidir. Jumladan, "Tevarakka g'ira-shira shom qorong'usi inmoqda edi", "Jasur hash-pash deguncha shom qorong'usiga qorishib, ko'zdan yo'qoldi". Ana shu "shom qorong'usi" detal vazifasini o'tab, Jasur obrazi ma'naviy dunyosini ifodalagan edi. Hikoyaning yechimida avtohalokatga uchragan yo'lovchilardan biri Jasurning otasi ekanligi ayonlashdi.

Xulosa shuki, Luqmon Bo'rixon o'z hikoyalarida obrazga xos chizgilarni ko'proq kontrast usulida berishi va bu obraz xarakterini ochishda muhim badiiy vositalardan foydalanishi yozuvchi uslubi va obraz yaratish mahorati bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug'bek Hamdam. <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/913>
2. Qayumov A. Milliy xarakter va badiiy mahorat. – Farg'ona, 2021. – B.15.
3. Bo'rixon L. Hizr ko'rgan yigit. – Toshkent, Sharq 2007. – 228.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.138.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. –B. 141.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATI POETIKASI

Munisaxon Alijonova Akmaljon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya
fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich
talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodining poetik xususiyatlari tahlil etiladi. Shoirning asarlarida xalqona so'z boyligi, samimiyat, Vatanga sadoqat, insoniy tuyg'ular ifodasining badiiy

talqini yoritilgan. Shuningdek, maqolada Muhammad Yusuf she'riyatidagi obrazlar tizimi, poetik vositalar, til va uslub, milliy ruhning ifodasi kabi jihatlar ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Tadqiqot natijasida shoir poetikasining o'zbek she'riyatidagi o'rni aniqlanib, uning xalqona an'analarni davom ettirgani isbotlanadi.

Kalit so'zlar: *Muhammad Yusuf, she'riyat, poetika, lirika, Vatan, samimiyat, obraz, badiiy til, milliy ruh.*

Abstract: *this article analyzes the poetic features of Muhammad Yusuf, one of the most beloved poets of the Uzbek people. The study highlights the artistic interpretation of folk language richness, sincerity, devotion to the homeland, and human emotions in the poet's works. It also examines the system of poetic images, stylistic devices, language and style, and the expression of national spirit in Muhammad Yusuf's poetry from a scholarly perspective. As a result of the research, the poet's role in Uzbek poetry is determined, and it is proven that he successfully continued the traditions of folk literature.*

Keywords: *Muhammad Yusuf, poetry, poetics, lyrics, homeland, sincerity, imagery, artistic language, national spirit.*

Kirish. O'zbek she'riyati tarixida xalq dardini, millat g'ururini va inson qalbining eng nozik tuyg'ularini samimiy, xalqona ohangda ifodalagan shoirlar ko'p. Shular orasida Muhammad Yusuf (1954–2001) o'zining xalq ruhidan oziqlangan, yurakdan chiqqan she'rlari bilan alohida o'rin egallaydi. Uning ijodi — bu xalq hayoti, millat taqdiri, Vatan va inson haqidagi sof, samimiy so'zdir. Shoir o'z asarlari bilan o'zbek adabiyotida “yurakdan yozish” maktabini yaratgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muhammad Yusuf she'riyati poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri, shoir o'z she'rlarida xalqning oddiy tilidan ya'ni har qanday inson bimalol tushuna oladigan tildan foydalangan. Shoir murakkab badiiy vositalardan ko'ra, xalq tushunadigan, yurakdan chiqqan oddiy so'zlarni afzal bilgan. Shoirning poetik dunyoqarashi, avvalo, xalq bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun ham ularning barcha she'rlari xalq orasida tez mashhur bo'lgan. She'rlar shunday mahorat bilan, ilhom bilan yozilganki ularni kuyga solish oson edi. Muhammad Yusufning yurakdan chiqqan she'rlari nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki qo'shiqsevar xalq qalbidan ham chuqur joy olgan. Uning “Vatanim”, “Qizg'aldog'im”, “Qizil olma”, “Ko'klamoyim”, “Mehr qolur”, “To'y kechasi”, “Qo'yavering...” kabi she'rlari mashhur xonandalar tomonidan kuyga solinib, xalq orasida unutilmas qo'shiqlarga aylangan.

Shoir poetikasining o'zgachaligini she'rlarning samimiyat va yoqimli ohangda yozilganidan asoslasak xato bo'lmaydi. Agar e'tibor berib qaralsa, Muhammad Yusuf qalamiga mansub barcha she'rlar sun'iy bezaklardan holi. Har

bir soʻzda yurak ovozi eshitiladi. Shoirning poetikasida **oddiylikdagi goʻzallik** ustuvor. Bundan tashqari, vatan tuygʻusi, milliy ruh, xalqona anʼanalar mavzusi ham shoir ijodining asosini tashkil qiladi. Bunga misol, hammaga maʼlum va mashhur, yosh-u qari birdek sevib eshituvchi “Vatanim” qoʻshigʻining sheʼri ham isteʼdodli shoirimiz qalamiga mansub.

Muhammad Yusuf sheʼriyatidagi poetik obrazlar tizimi xalq hayoti va tuygʻulari bilan chambarchas bogʻlangan. Uning sheʼrlarida ona, Vatan, yurak, xalq kabi obrazlar insoniy mehr, sadoqat va muhabbat ramziga aylanadi. Bu obrazlar orqali shoir xalq ruhiyatini, milliy qadriyatlarni va inson qalbining samimiy kechinmalarini ifodalaydi. Shuning uchun ham Muhammad Yusuf obrazlari oddiy soʻzlar ortida chuqur maʼno va milliy ruhni mujassamlashtirgan. Shoir lirikasi ham xuddi shunday samimiy va xalqona ruh bilan sugʻorilgan. Uning lirik qahramoni— bu oddiy inson, xalqning oʻzi boʻlib, u sevgini, Vatanga sadoqatni onaga mehrni chin yurakdan kuylaydi. Muhammad Yusufning lirikasida soʻz ohangdorligi, musiqiylik va yurakdan chiqqan izhorlar oʻzaro uygʻunlashadi. Shu bois uning sheʼrlari nafaqat oʻqiladi, balki xalq qalbida kuylanadi ham.

Shoirning til uslubi ham oʻziga xosdir. Muhammad Yusuf ijodining asosiy kuchi — bu xalq tilini yuksak badiiy darajaga olib chiqqanidadir. Uning sheʼrlarida soʻzlar tabiiy, ohangdor va samimiy jaranglaydi. Shoir murakkab fikrlarni ham sodda, ammo taʼsirchan tarzda ifodalay oladi. Shu bois uning asarlari oʻquvchiga tez yetib boradi, qalbga kiradi. Muhammad Yusuf oʻzbek sheʼriyatida sodda soʻz orqali chuqur maʼno yaratgan ijodkor sifatida alohida oʻrin egallaydi. Yana shuni aytish mumkinki, shoirning barcha shʼrlari oʻzgacha poetik gʻoya va falsafiy qatlamga ega. Buni biz ijodkorning “Ona tilim” sheʼridan ham koʻrishimiz mumkin. Sheʼr chuqur maʼnoga ega boʻlib, unda shoir millat, ona til va vatan oldidagi masʼuliyatni yurakdan his etgan holda ifodalaydi. Asarning poetik gʻoyasi — oʻz ona tilini asrash, uni eʼzozlash va til orqali millatning shaʼnini tiklashdir. Shoir oʻzini xalq farzandi sifatida koʻrsatib, tilni unutish — millatni unutish degan gʻoyani ilgari suradi. U sheʼrda oʻz tiliga beparvo boʻlgan inson sifatida oʻzini ayblaydi va samimiy kechirim soʻrash ohangi orqali xalq ongiga ona tilini qadrlash, sevishtirish va vatanparvarlik tuygʻularini singdiradi. Sheʼrning falsafiy qatlamida til insoniyatning eng buyuk boyligi ekani, milliy oʻzlikning asosi sifatida talqin etiladi. “Tilim turib oʻz tilimda gapirmadim” satri orqali shoir oʻzbekning oʻzligidan uzoqlashayotgan holatini achinish bilan tasvirlaydi. U tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki xalq ruhi, tarixiy xotira va madaniyatning yuragi deb biladi. Asarda ona tilining pokligi va ilohiyligi tasvirlanib, u “muqaddas” tushunchasi bilan tenglashtiriladi. “Sening qaytgan kuning men tugʻilgan yilim” misrasi orqali shoir tilning qayta tiklanishini oʻz hayotining maʼnosi bilan

bog'laydi. "Ona tilim" she'ri — bu shunchaki e'tirof emas, millatning ovozi, o'zligiga qaytishga chaqiriqdir.

Shoir poetikasida **ona obrazining** tutgan o'rni ham beqiyosdir. Bunga misol, "Onaizor" she'ri shoir ijodining eng ta'sirli, eng samimiy namunalaridan biridir. Asarning poetik mohiyati ona siymosini mehr, sadoqat va insoniy muhabbatning timsoli sifatida yuksak badiiy talqin etilishidadir. She'rda lirik qahramon qalbining butun ezguliklari onaga bo'lgan cheksiz muhabbat bilan uyg'unlashadi. "Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u..." satrining takroriy qo'llanishi nafaqat musiqiy ohangni kuchaytiradi, balki asarning hissiy tazyiqini oshiradi. Ushbu takror badiiy vositasi orqali shoir ona mehrining cheksizligini, uning yurakdagi abadiy o'rnini ifodalaydi. She'rda metafora va ramziy ma'nolar orqali inson hayotining barcha go'zalliklari onaning ko'z yoshi bilan o'lchanadi: bulbul, gul, tor, dunyo kabi obrazlar hayotning o'tkinchiligini va onalik mehrining boqiyiligini anglatadi. "Onaizor" she'ri o'zbek xalqining ona timsoliga bo'lgan ehtiromini ifoda etuvchi madhiya namunasi sifatida alohida qadrlidir — unda so'z yurakdan chiqadi, ohangni esa har kim o'zi yaratadi.

O'zbek adabiyotida yurakdan chiqqan so'zi bilan xalq qalbiga yo'l topgan shoirlar talaygina. Biroq ular orasida Muhammad Yusuf nomi alohida o'ringa ega. U xalq dardini, milliy ruhni she'rga aylantira olgan noyob iste'dod sohibidir. Muhammad Yusuf poetikasi o'zbek adabiyotida xalqona ruh va samimiy ifodaning yorqin namunasi. Shoir o'z asarlarida oddiy xalq tilidan foydalangan holda chuqur ma'naviy mazmun yaratgan. Uning ijodi o'zbek she'riyatida milliylik va soddalik tamoyillarini mustahkamladi. Muhammad Yusuf poetikasi xalq hayoti va tuyg'ularini badiiy shaklda aks ettirib, zamonaviy lirikaning rivojiga katta hissa qo'shdi. Shu bois uning ijodi o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad Muhammad Yusuf haqida shunday yozgan edi:

"Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarning esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi."

Bu so'zlar shoir shaxsiyatini ham, uning ijodiy dunyoqarashini ham to'liq ochib beradi. Muhammad Yusuf ijodi — bu samimiyat, xalqparvarlik va mehr uyg'unligidir. Uning she'rlari insoniy his-tuyg'ularning eng tiniq ifodasi bo'lib, o'zbek xalqining yuragiga singib ketgan, qalbidan joy olgan.

Said Ahmadning quyidagi satrlari Muhammad Yusuf ijodining xalq qalbidan qanday iz qoldirganini yana bir bor ko'rsatadi:

*"...Yuraklarda yurmagini,
Oh, oldindan bilgan qush,
Har o'zbekning yuragini*

O'ziniki qilgan qush..."

Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatiga yangi bir ohang, yangi bir ovoz olib kirdi. Uning she'rlari kitoblarda emas, avvalo xalq yuragida yashaydi. Shoirning har bir satrida ona tiliga, Vatanning tuprog'iga, xalqning g'ururiga sadoqat mujassam. U so'zning pokligiga ishongan, so'z orqali millatning ruhini uyg'otgan shoir edi. Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatida milliy ruhning timsoli, xalq muhabbatining kuychisi sifatida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. — T.: «Sharq», 2007. - 288 6. 352-b
2. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. — T.: «Sharq», 2007. - 288 6. 357-b.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Shoir haqida xotiralar. – Toshkent: “Sharq”, 2007. –B. 288.

ABDULLA QAHHORNING “SAN’ATKOR” HIKOYASI VA UNDAGI BADIY DETALLARNING AHAMIYATI

Ahmadjonova Sarvinoz Olimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Oripova Gulnoza,**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek so'z ustasi, adib Abdulla Qahhorning “San'atkor” hikoyasi tahlil etilgan. Asardagi badiiy detallar va ularning funksiyasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, realistik tasvir uslubi, badiiy detal, shakl va mazmun.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotiga o'zining ajoyib hikoyalari va hajv ostidagi hayotiy dalillar, illatlar, jamiyat hayoti, qora nuqtalarini o'zida mujassam eta olgan asarlari orqali kirib kelgan. U “Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak, lekin yozilgan narsani o'chirish, kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish uchun talantning o'zi kifoya qilmaydi, insof ham kerak”⁷³, - deydi o'z asarlaridan birida. Adib yozgan asarlar, hikoyalar hajmi qisqa, o'tkir

⁷³ Abdulla Qahhor. Yo'qotganlarim va topganlarim. – Toshkent, 2008. – B.

syujetliligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidan farq qiladi. Abdulla Qahhor badiiyati faqat sodda, qisqaligi bilan emas, balki o'sha davr muhitining yoritilib berilishi bilan ham alohida ajralib turadi, deyishimiz mubolag'a bo'lmaydi. Bunda esa yozuvchining so'z qo'llash mahorati, ibora, obrazlarni o'rnida qo'llay olish qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, badiiy detallarning asardagi mohiyati Abdulla Qahhorning o'z asarlarini qanchalik boyitish va obraz xilma-xilligini kuchaytirish, kengaytirish uchun harakat qilayotganidan dalolatdir. Detal qo'llashdan kuzatilgan maqsad u orqali o'quvchiga yozuvchi poetik maqsadining darhol yetib borishidir. Bu haqda nazariy ma'lumotlarda aytib o'tilgan⁷⁴ va Abdulla Qahhor bunga erishganligi har bir asarida seziladi.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy detalga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, detal quyidagicha izohlangan: "Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o'ynaydi"⁷⁵. Rus adabiyotshunosi S.Antonov bo'lsa detalga quyidagicha tarif beradi: "Detal – san'at asari uchun misoli gavhar"⁷⁶dir. Darhaqiqat, san'at asarining gavhari bo'lmish detal Abdulla Qahhor hikoyalarining poetik mazmunini oydinlashtirishda muhim funktsiya bajargan. Adibning "San'atkor" hikoyasida qo'llangan badiiy detallar haqida fikr yuritganda, avvalo, hikoya sarlavhasiga e'tibor qaratish zarur. Aslida san'atkor bu – jamiyatdagi madaniy-ma'rifiy sohalarda o'z bilim va saviyasiga ega qatlam vakillari. Lekin yozuvchi kichik bir hikoya orqali san'atkor obraziga xos illatlarni yoritishda axloqiy-ma'naviy muammolarni ham ifodalagan. Mazkur obrazning savodsizligi orqali shu toifadagi davr kishilari fosh qilingan. Hikoyada nafaqat san'atkor, balki jamiyatdagi savodsiz kishilar va o'sha davr insonlari illati ochib berilgan. Masalan, asardagi san'atkorning "Labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab"⁷⁷ deya qo'shiq aytishidan uning qanchalik "savodli" ekanligi o'quvchiga yaqqol ayon bo'ladi. Yozuvchi bu orqali qahramonning til qoidalari va mazmuniy qatlamni anglashda cheklanganligini ochib beradi hamda uning til madaniyati past darajada ekanini ta'kidlaydi. "Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas; formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda, hech kim og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorchi tanqid qilar emish"⁷⁸. Bu detal orqali biz jamiyat fojiasi, ya'ni davlatdagi katta-katta shaxslar ham san'atkorga o'xshagan "kulturniy" odamlar ekani berilib ketilgan. Hikoyada rejissyor detalining kiritilishi ham bejiz emas. Rejissyorning "gugurtning yerga tashlamang" deyishi, lekin pojarni xodimlari bu

⁷⁴ Adabiy tur va janrlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B.

⁷⁵ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.74.

⁷⁶ Adabiy tur va janrlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B.76.

⁷⁷ Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B.177.

⁷⁸ Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B.176-177.

soʻzni toʻgʻri aytishi oʻsha davr odamlarining qoloqligi oydinlashtirilgan epizod hisoblanadi.

Hikoya 1936-yilda yaratilganini hisobga olgan holda, davr nuqtayi nazaridan bilim olishga sharoit boʻlmagan yoki shoʻro davrida bunga yoʻl qoʻyilmagan. Bilamizki, shoʻro davrida kimki davlat qonunlariga va amalga oshirilayotgan siyosat ishlariga qarshi chiqsa yoki bilimli boʻlib, bosh koʻtarishni boshlasa, uni oʻldirib yoki surgun qilib yuborganlar. Va ayni asar yozilgan yillarda koʻp jamiyat ustunlari boʻlgan, mustaqillik uchun harakat qilgan shaxslar buning qurbonlari boʻlgan. Shu sababli, bu voqealar asar ichida maʼlum darajada oʻz ifodasini topgan.

Hikoyaning kulminatsion nuqtalaridan biri, yaʼni sanʼatkor bilimsizligining ochiq-oydin koʻrsatilgan eng yuqori darajasi bu – xizmatkori bilan suhbat. Xizmatchisini savod maktabida oʻqitayotgani bir tomonlama obrazni sal boʻlsa-da, yaxshidek koʻrsatadi. Lekin xizmatchisi tomonidan “j” harfini qanday yozish soʻralishi, “kichigini yozib, qattiqroq oʻqing”⁷⁹ deb javob qaytarishi ham asar mazmunini ochishga yordam bergan. Bu gap, hatto, mantiqqa ham toʻgʻri kelmasligi har bir oʻquvchiga bir koʻrganda ayon boʻladi. Lekin “j” harfini bilmagan obrazimiz uchun bu soʻzning ishlatilishi vaziyatdan ustamonlik bilan chiqishdek gap. Muallif tomonidan “Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr”⁸⁰ tarzida tasvirlangan. sv detali qoʻshib ketilishi esa hikoya yakunida hajviy yoʻl bilan oʻquvchida shaxsiy dunyoqarash uygʻotish va hikoyani chiroyli yakunlash yaʼni oʻziga jalb qiluvchi qism hisoblanadi va xulosa oʻquvchining oʻziga tashlanadi.

Xullas, bu hikoyadagi bilimsizlik qoralanishi yuqoridagi badiiy detallar orqali ifadalanib oʻtildi. Hikoya hayotga yaqin, real voqealar asosida boʻlganligi sababli shu kungacha oʻz oʻquvchilariga ega boʻlib, nechi yillardan buyon qoʻldan tushmay kelmoqda. Bularga sabab esa Abdulla Qahhorning soʻz ustasi ekanligi va obraz, badiiy detallarni oʻz oʻrnida qoʻllab ketganini ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiy tur va janrlar. T: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining “Fan” nashriyoti. 1991-y. 76-bet
2. A.Qahhor. Anor. – T: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2012. 176-177-178-betlar
3. T.Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. – t: “Oʻzbekiston “. 2002. 74-bet
4. Abdulla Qahhor “Yoʻqotganlarim va topganlarim”. - 2008

⁷⁹ A.Qahhor. Anor. – T: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2012.178-bet

⁸⁰ A.Qahhor. Anor. – T: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2012.178-bet

KONFLIKT HAMDA HAYOT-MAMOT MASALALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

Sherqo‘ziyev Shukrulloxon Shuhratjon o‘g‘li

“Fergana school ziyo” xususiy maktabining

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

sherqoziyevshukrullo@gmail.com +998911505580

<https://orcid.org/0009-0007-3189-8588>

Annotatsiya: Tadqiqotimizning maqsadi adabiyotshunoslikda yangi izlanishlardan biri bo‘lgan hayot-mamot muammosining yangicha qirralarini kashf etish va uni badiiy adabiyotda tutgan muhim o‘rnini ochib berishdan iborat. Ushbu maqolada hayot va o‘lim tasvirining konfliktli holatdan ta’sirlanishi, ziddiyatlar bilan fojia o‘rtasidagi aloqa o‘rganildi hamda badiiy asarlardan keltirilgan misollar orqali isbotlandi. Qiyoslash usuli orqali konfliktning hayot-mamot masalalariga ta’sir etishi o‘rganildi. Natijada konfliktli o‘lim va konfliksiz o‘lim hamda konfliktli hayot va konfliksiz hayot tasvirlari solishtirildi, bu esa tanlab olingan badiiy asarlar syujetidagi obrazlar taqdiri bilan izohlandi. Shu bilan birga konflikt(ziddiyatlar)ning o‘lim bilan natijalanishi yoki natijalanmasligiga ko‘ra ham yangicha tasnif hosil qildik. Unga ko‘ra konflikt o‘lim bilan yakunlansa, “o‘limli konflikt”, o‘limsiz yakunlansa, “o‘limsiz konflikt” bo‘linishi yuzaga keldi. Maqolada badiiy konflikt va hayot-mamot o‘rtasidagi munosabat o‘zgacha xarakterdagi aloqa ekanligini asoslashga harakat qildik.

Аннотация: Цель нашего исследования – раскрыть новые аспекты проблемы жизни и смерти, которая является одной из новых исследований в литературоведении, и выявить ее важное место в художественной литературе. В данной статье изучено и доказано на примерах из художественных произведений влияние образа жизни и смерти на конфликтную ситуацию, связь конфликтов и трагедии. Влияние конфликта на вопросы жизни и смерти изучалось методом сравнения. В результате сопоставлялись образы смерти с конфликтом и смерти без конфликта и жизни с конфликтом и жизни без конфликта, что объяснялось судьбами героев сюжета выбранных произведений искусства. В то же время мы создали новую классификацию, основанную на том, привел ли конфликт(ы) к смерти или нет. По его словам, если конфликт заканчивается смертью, он делится на «смертельный конфликт», если заканчивается без смерти, «несмертельный конфликт». В статье мы попытались обосновать, что связь художественного конфликта и жизни-смерти представляет собой связь особого характера.

Kalit soʻzlar: Konflikt, konfliktli oʻlim, konfliktsez oʻlim, ichki ziddiyat, oʻlimli konflikt, oʻlimsiz konflikt, konfliktli hayot, konfliktsez hayot, konflikt taʼsiri, konflikt natijasi.


Ключевые слова: Конфликт, смерть с конфликтом, смерть без конфликта, внутренний конфликт, конфликт со смертью, конфликт без смерти, жизнь с конфликтом, жизнь без конфликта, влияние конфликта, результат конфликта.

KIRISH

Badiiy asar syujetining asosiy unsuri hisoblangan konflikt hayot va mamot masalalarining markaziy planida turadi. Ziddiyatlar natijasi faqatgina yoʻqlikni koʻrsatmaydi, konfliktlar natijasida tirik qolish ham, tirik qolmaslik ham yuzaga chiqishi mumkin. U esa asar tabiatidan kelib chiqib tanlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Baʼzi asarlarning (Ulugʻbek Hamdam “Ota”) ziddiyatlar nuqtasi oʻlim holati bilan natijalansa, baʼzilariniki (Anton Chexov “Garov”) esa fojiani koʻrsatmaydi, yana baʼzi asarlarda (Abdulla Qahhor “Mahalla”) oʻlimning konfliktsez yuzaga kelgan holatlari uchraydi. Biz ushbu maqolada konfliktli va konfliktsez oʻlim holatlarini bir-biridan farqlaymiz. Unga koʻra, syujet liniyasi voqealarining yuzaga kelish sababi, unga taʼsir etgan omil va ziddiyatlar koʻlami, ziddiyatlarning esa qahramonlar ruhiyatiga oʻtishi nuqtayi nazaridan konfliktli hamda konfliktsez oʻlim tasvirlari bir-biridan ajraladi. Oʻlim elementi konfliktual holatdan taʼsirlanishiga koʻra ikki turga boʻlinadi⁸¹:



⁸¹ Umrzoqov R., Sherqoʻziyev Sh. Badiiy asar syujetida oʻlimning oʻrni va uning taʼsiri. – F.: “Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023. – B. 474-478.

- **Konfliktli o‘lim** – konflikt yuz bergan holat o‘lim bilan natijalanadi, asarning tub burilishlari ham shu nuqta tomon sodir bo‘lib boradi.
- **Konfliktsiz o‘lim** – bunda o‘lim holatida hech qanday ziddiyat yuz bermaydi, qahramonlar o‘limida inson omili ishtirok etmaydi.

Nega biz badiiy asarni bunday konfliktli va konfliktsiz tasnif etyapmiz? Shu o‘rinda biz konflikt xususiyatlariga to‘laonli tayanamiz. Ma’lumki, personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o‘zaro to‘qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar konflikt hisoblanadi.⁸² Personajlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, ruhiy kechinmalarda aks etuvchi qarama-qarshiliklar hamda muhit va undagi voqealarning inson psixologiyasida aks ifoda etilishiga qaralganda, o‘lim holatida konfliktning samari ko‘rinadi, ya’ni o‘lim holatida konflikt ishtirok etadi yoki ishtirok etmaydi. “Konflikt badiiy asar syujeti uchun motor vazifasini bajaradi”.⁸³ Motor asarda uning shiddatini ko‘rsatib, harakatga keltiruvchi kuch funksiyasini bajarsa, hayot va mamot o‘sha motorning yetkazib boruvchi manzili, to‘xtagan joyi hisoblanadi. Joyning qay holatda bo‘lishini o‘sha motorning harakatlanishi, qay yo‘sinni tanlagani, aniq qilib aytganda, bajargan vazifasi namoyon etadi. O‘lmas Umarbekov o‘zining ruhiy ziddiyat ta’siriga tushib qolgan qahramonini shunday tasvirlaydi:

“Abdullani uylantiradigan bo‘lib qoldik. Gulchehra yalt etib Shahodat opaga qaradi, Qaradi-yu, “Kimga?” degan savol og‘zidan qanday chiqib ketganini bilmay qoldi.

— O‘zi bilan o‘qiydi. Juda yaxshi qiz.

Gulchehra gandraklab ketdi. Bir-ikki qadam tisarilib peshtaxtaga suyanib qoldi”.⁸⁴

Gulchehraning ruhiyatida ziddiyatli vaziyat boshlandi, qarama-qarshi fikrlar harakatga keldi. Konfliktli holat kuchayib borar ekan, uning rivojlanishida qahramon qismati, asarning shiddati yotadi. Taniqli adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ovning konflikt yuzasidan yuritgan quyidagi fikriga e’tiborimizni qaratamiz: “Syujetning salmog‘i, ko‘lami, ta’sirchanlik darajasi esa badiiy konfliktga bog‘liqdir. Hayotning o‘zida ham kuchli to‘qnashuvlar, keskin ziddiyatli voqealar ko‘proq kishilar e’tiborini tortadi. Kishilar o‘shanday hodisalarni kuzatish, ular xususida eshitish, bilishni yoqtirishadi. Badiiy asar syujetining o‘quvchilarni

⁸² Куронов Д., Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. -Т.: Академнашр, 2010.

⁸³ Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. -Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013.

⁸⁴ Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. -Т.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018.

o'ziga qay darajada jalb qilishi ham undagi konflikt va uning ifodalanish tarziga bog'liqdir".⁸⁵

Adabiyotshunosning ushbu fikrlarida ham konfliktning muhimligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Biz bu o'rinda tadqiq yo'nalishini konflikt tomonga o'zgartirmadik, hayot va mamot masalalarida ziddiyatlarning ifoda etilishiga to'xtaldik va uning tabiatiga ko'ra fojia tasvirini belgiladik. Ya'ni asardagi qarama-qarshiliklar o'lim tasvirini kuchaytirish, o'quvchi ruhiyatiga turtki berish vazifasini bajarishini ko'rsatdik.

Agar asar tarkibi turli g'oyalar, qarashlar o'rtasida ro'y beradigan ziddiyatlardan tashkil topmasa, uning ranglar jilosi ko'zni quvnatmaydi.⁸⁶ Konfliktning o'lim holatiga ta'sir etishi o'zgacha rang-baranglikni yuzaga keltiradi. Qarama-qarshi to'qnashuvlar va o'lim holatlarining yonma-yon uchrashi esa tabiiydir.

Konfliktli o'limda yozuvchi ko'zlagan maqsad, o'quvchi fenomenini uyg'otadigan tasviriylik ko'zga tashlanadi. Bir tomondan qaraganda bu turdagi mamot masalasida hayot, tirik qolishlik ham aks etadi. Boshqa tomondan qaraganda biri ikkinchisini yuzaga chiqaradi, ya'ni ziddiyatlarning yechimida bir tomonning (raqibning, zamonaning yoki his-tuyg'uning) g'olibligi, ikkinchi tomonning mag'lubiyati yotadi. Bunda hayot ham, o'lim ham yaqinlikka keladi, yashab qolish yoki mag'lublikda o'limning yotishi yuzaga chiqadi. Xususan, Kumush va Zaynab ziddiyatlari baxtga erishish yo'lidagi maqsadni namoyon etib, mamot masalasini paydo qiladi. Shu o'rinda Zaynabning niyatlari yashab qoldi, Kumush va uning orzu-umidlari bo'lsa fojiaga uchraydi. Konfliktual holat istiqbolini yashatib qolish hamda baxtsizlikka mone bo'lolmaslik orqali o'lim holatini yaratishga xizmat qilyapti.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani qahramonlari qismatida ham xuddi shu holat aks etadi. Po'lat va uning do'sti Erboy o'rtasidagi ziddiyatlarda obro'ning hamda Yog'du tomon istaklarning yashab qolishi va unga qarshi qarashlar aks etadi. "Odam bo'lish qiyin"da Gulchehradagi ruhiy kechinmalar nomusning yashab qolishi yoki unga zid tarzda bo'lgan nomussizlik masalalarini yuzaga chiqaradi. Shundan anglashiladi-ki, konfliktli holat natijasi faqatgina qahramonlar o'limini emas, balki ularning orzu-istaklari fojiasini ham ko'rsatadi.

Hayot va mamot masalalariga konfliktning ta'sirini o'rganish jarayonida ikki xil tasnifni bir-biridan alohida qilib ajratdik, ya'ni personajlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ularning yashab qolish (hayot) yoki qolmasligiga (o'limga) ta'sir o'tkazadi. Har qanday konflikt asarda tiriklik yoki mamot o'rtasidagi kurashni namoyon etadi, degan bir yoqlama fikr yuritish to'g'ri emas. Chunki badiiy asarda

⁸⁵ Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

⁸⁶ Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013.

konfliktning natijasi fojiali yoki fojiasiz yakun topishi mumkin. Quyidagi jadvalda konflikt hamda hayot-mamot o'rtasidagi aloqalar qandayligini va uning izohi berib o'tilgan:

Jadval

	Konfliktli	Konfliktsiz
Hayot	Personajlar hayoti bir maromda bo'lmaydi, sustkashlik uchramaydi, ziddiyatlar maqsad uchun turtki vazifasini bajaradi.	Keskinlik uncha uchramagan, qahramonlar munosabati ziddiyatlar va hayotiy kurashuvchanlik dinamikasisiz kechadi.
O'lim	Ziddiyatlar natijasi, o'quvchini shoshtirib qo'yishi, kurashlar fojia bilan natijalanadi.	Qahramonlar o'limida tashqi ta'sir bo'lmaydi, mamotning o'zigina fojiani ko'rsatishi.

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladi-ki, konflikt faqatgina fojia bilan yakunlanadi, deyish yoki unga shunday shartni qo'yish doim o'zini oqlamas ekan. Shu bilan o'lim tasviri faqat yaratilmaydi, u qahramonlar qismatida ham, boshqa personajlar faoliyatisiz amalga oshishi mumkin. Bu asarning tabiatidan, tasviriylilikning ko'lamidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Mahalla", "Bemor", Nazar Eshonqulning "Bitik" hikoyalarida asar qahramonlarining o'limi biror ziddiyatsiz (xoh ichki, xoh personajlar aro) yuzaga chiqqan. Bunga zid ravishda esa Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida (Kumush, Homid), Ulug'bek Hamdamning "Ota"sida (Sevinch) qahramonlar fojiasi konflikt bilan yuzaga chiqadi.

Konfliktning badiiy asar syujetida qanday natija kasb etishiga ko'ra quyidagicha tansiflab olishimiz mumkin:



- **O‘limli konflikt** – ziddiyatlar fojia bilan yakunlanadi. Asosiy qahramonlardan biri vafot etadi.
- **O‘limsiz konflikt** – qarama-qarshiliklar mamotdan yiroq bo‘ladi, tragik holat yuzaga kelmaydi.

Asarning o‘ziga jalb etuvchi kuchi, shiddati haqida gap borganda, albatta, o‘quvchida asar voqealarining oxiri nima bo‘ladi, qahramonlar taqdiri qanday kechadi, degan qarashlar o‘tadi va bu kitobxonni yakun qadar shoshiltirib qo‘yadi. Asarning oxirigacha o‘quvchini ushlab turadigan kuchi bo‘lmasa, shu shiddatkorona ruhiyat ko‘rinmasa, asarning so‘nggi sahifalari ochilmay qolib ketadi. Asardagi shiddat, taqdirlar yugurigi kitobxonni o‘z qarshisida ushlab turadigan ohangrabo hisoblanadi. Yozuvchi shu o‘rinlarda o‘limli yoki o‘limsiz konflikt bayonini yuzaga chiqaradi. O‘limli konfliktga O‘lmas Umarbekovning Gulchehra ichki (ruhiyatlar) ziddiyati orqali yuzaga chiqargan fojia tasvirini, Abdulla Qahhorning Olimbek dodxoh va Unsin ziddiyatlari orqali yaratgan o‘lim tasvirini misol qila olamiz. Abdulla Qodiriyning Xudoyor va Anvar ziddiyatlari, Chexovning huquqshunos va banker qarama-qarshiliklari o‘limsiz konflikt tasviriga yaqqol namuna bo‘ladi.

XULOSA

Xullas, konflikt va fojia tasviri bir-biri bilan uyg‘unlikda kechadi, bunda ijodkorning ko‘lamdorligi, tasvirga ustaligi ko‘rinadi. Konfliktning natijasi va ta’siriga ko‘ra tasniflashda ana shu jihatlarga e’tibor qaratildi. Konfliktli o‘lim va o‘limli konflikt o‘rtasida mushtaraklikning, ya’ni ikkalasida ham ikki unurning bo‘lishligi namoyon bo‘lsa, konfliktsiz o‘lim va o‘limsiz konflikt orasida farq birining borligi va birining yo‘qligi bilan o‘ziga xos xarakter kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umrzoqov R., Sherqo‘ziyev Sh. Badiiy asar syujetida o‘limning o‘rni va uning ta’siri. – F.: “Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023.
2. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013.
3. Ҳамроқулова Х., Адабиётда ҳаёт-мамот муаммоси – Т: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018.

6. Хамдам У. Ота. – Т.: Янги аср авлоди, 2020.
7. Qahhor A. Ming bir jon. – Т.: Global books, 2021.
8. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
9. Қуронов Д., Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.
10. Quronov D., Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Navoiy universiteti, 2018.
11. <http://www.ziyouz.com> sayti.

O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI GENEZISI: XALQ DONISHMANDLIGIDA

Saodatxon Sulaymonova

FarDu talabasi

Annotatsiya: Adabiy tanqid – bu adabiy ijod mahsulini tahlil, talqin va baholashga qaratilgan ijtimoiy-estetik faoliyatdir. U badiiy asar va uning yaratilgan muhitini anglashda, adabiyot taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini ochishda muhim vositadir. O‘zbek adabiy tanqidchiligi uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan bo‘lib, uning ildizlari xalq og‘zaki ijodining tanqidiy qatlamlaridanoq boshlanadi. Bu maqolada o‘zbek adabiy tanqidining shakllanish bosqichlari izchil ochib berilib, har bir davrga oid adabiy misollar orqali genezisi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, genezis, spetsifik, doston, qo‘shiq, maqol, Go‘ro‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh, g‘oya, mezon

Аннотация: Литературная критика – это социально-эстетическая деятельность, направленная на анализ, интерпретацию и оценку произведений литературного творчества. Она служит важным инструментом для понимания художественного произведения и его среды, а также для раскрытия внутренних закономерностей развития литературы. Узбекская литературная критика формировалась в ходе длительного исторического процесса, её корни берут начало в критических пластах народной устной словесности. В данной статье последовательно раскрываются этапы становления узбекской литературной критики, освещается её генезис на литературных примерах каждого периода.

Ключевые слова: Литературная критика, генезис, специфика, эпос, песня, пословица, Гёроглу, Фозил Юлдош, идея, критерий

Abstract: Literary criticism is a socio-aesthetic activity aimed at analyzing, interpreting and evaluating the product of literary creativity. It is an important tool for understanding a work of art and its created environment, and for revealing the internal laws of literary development. Uzbek literary criticism was formed during a long historical process, and its roots begin in the critical layers of folk oral literature. This article consistently reveals the stages of formation of Uzbek literary criticism, and illuminates its genesis through literary examples of each period.

Keywords: Literary criticism, genesis, specific, epic, song, proverb, Goroglu, Fozil Yuldosh, idea, criterion

Yillar, davrlar osha yozma adabiyot bilan parallel ravishda goh uning tarkibida, goh unga alohida munosabat tarzida yozma adabiy-tanqidiy fikrlar yuzaga keldi va shakllanib bordi. Bora-bora u jamiyat va adabiyot rivojida mustaqil va mustahkam mavqega ega bo'ldi. Binobarin, tanqid deganda biz nimani tushunamiz? Arabiy lug'atlarning shahodat berishicha, «naqd» so'zining bosh ma'nosi — «saralamoq», ya'ni yaxshini yomondan yoki aslni soxtadan ajratish demakdir. «Naqada» o'zagidan kelib chiqqan tanqid istilohi “muhokama qilmoq, tekshirmoq, o'rganmoq, nimaningdir haqqoniyligi va to'g'riligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, badiiy asarni baholash, izohlash” kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tanqid, adabiy tanqid, tanqidchilik – adabiy faoliyat turi, badiiy asarni, shuningdek, bu asarda aks ettirilgan hayot hodisalarini tahlil va talqin etish.

“Adabiy tanqid adabiy jarayon bilan tirik. Yangi nazariyalar shu jarayonda tug'iladi yoki yangi nom oladi. Adabiyot tarixiga munosib adabiy siymo va uning asarlari ham adabiy jarayon elagidan o'tadi. Dunyo adabiyotshunosligining tajribasi shunday. Avvaldan ham o'ylanib kelaman. Munaqqid bu ijodkor odam. Adabiy tanqid ham o'zining spetsifik xususiyatiga ega ijodning bir turi. Adabiy tanqidchi adiblarning tavallud kunlarida qo'llarida gul tutib sahnaga chiqadigan nozanin ham, kavgiri bilan qozon kovlab, to'yda xizmat qiladigan oshpaz ham emas. Negadir adabiyotchi-munaqqidlar aynan kimlarningdir tavallud ayyomlarida noyoblashib, go'yoki bir zarur “matoh”ga aylanadi. Munaqqidning bunday xizmat turida juda yengillik va yuzakilik seziladi. Holbuki, adabiyotshunos – munaqqidning vazifasi bundan ko'ra jiddiyoq, ilmiyoq, og'irroq, yukliroq, mas'uliyatliroqdir...” Chunki u mohiyatan chuqur izlanuvchi, bilimli, dalil, isbot qiluvchi, har tomonlama mulohazali va Abdulla Qodiriy ham XX asr boshlaridayoq ta'kidlaganidek: “Yozuvchi bo'ladurg'on har bir kishi adabiyotdagi oqim va maktablarni yaxshi bilib olishi kerak”.

Har bir millatning tarixi, kelib chiqishi bo'lganidek, xalqimizning ham o'z tarixi mavjud. U bizga kimligimizni, kim bo'lganligimizni, kim bo'lishimizni so'zlaydi. Ayniqsa, bu adabiyotimizda – xalq og'zaki adabiyotimizda: dostonlar,

qo'shiqlar, maqollarimizda aks etadi. Aslida tanqidchilik genezisi ularga borib taqaladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, maqollarda xalq donishmandligi, barcha narsadan hikmat izlash, yovuzlik va yomonlikka qarshi tanqidiy qarashlar mavjud. O'zbek xalq qo'shiqlari va dostonlaridagi tanqidiy ruh esa jamiyatni anglash vositasi sifatida namoyon bo'lgan. O'zbek xalq maqollari – bu asrlar davomida xalq tafakkurining, hayotiy tajribasining, ruhiy-axloqiy qadriyatlarining betakror ifodasidir. Ularning har biri hayotga yo'l-yo'riq, inson qalbiga taskin, jamiyatga ibrat bo'luvchi hikmatdir. Shunday durdona maqollardan biri:

“Bir tavakkal buzadi,
Ming qayg'uning qal'asin.
Bir shirin so'z bitkazar,
Ming ko'ngilning yarasin”

Bu maqol o'zbek xalqining ikki eng yuksak fazilatini – tavakkal (ishonch, dadillik) va shirin so'zlilik (mehr, odob)ni madh etadi. Misralarda ifoda kuchi o'ta badiiy. Undagi “qal'a” so'zi ramziy ma'noda ishlatilgan: qayg'u, g'am, tashvish inson ruhida qurilgan “qal'a”ga o'xshatiladi. Shu qal'ani birgina tavakkal – ya'ni ishonchli, qat'iy harakat qulatadi. Bu o'rinda tavakkal – jasorat, Allohga suyanish va qo'rquvni yengish timsoli. Bu badiiy ifoda orqali maqol insonni hayotda faol, dadil, qat'iyatli bo'lishga chorlaydi. Ikkinchi bayt – “Bir shirin so'z bitkazar, ming ko'ngilning yarasin” esa butunlay boshqa, ammo o'zaro bog'liq ma'naviy qatlamni ochadi. Bu satrda so'zning shifo beruvchi qudrati, insoniylik va mehrning yuksak qadri ifodalangan. “Bitkazar” fe'li – davolash, sog'lomlashtirish ma'nosida ishlatilib, so'zni ruhiy shifokorga o'xshatadi. Demak, shirin so'z – inson qalbining malhami, jamiyatdagi totuvlikning asosi. Bu ikki satr o'zaro mukammal uyg'unlikda – biri ruhni harakatga, biri ko'ngilni mehrga da'vat etadi.

Tanqidiy jihatdan qaralganda, maqolda inson tabiatining ikki qirrasini – aqliy jasorat va ruhiy noziklik uyg'unlashgan. Biroq, bu hikmatni to'g'ri anglash muhim: Tavakkal – bu ko'r-ko'rona harakat emas, balki ongli ishonch va rejalashtirilgan dadillikdir. Ko'plar bu so'zni noto'g'ri tushunib, “nasib bo'lsa” deb harakatdan to'xtaydi. Aslida esa tavakkal – harakatdan keyin Yaratganga ishongan holda natijani topshirishdir. Shirin so'z ham faqat “yoqimtoy”lik emas, balki samimiyatdir. Ba'zida haqiqat achchiq bo'lishi mumkin, lekin uni shirin, odob bilan aytish – insonning madaniyat darajasini ko'rsatadi. Demak, maqolning asl kuchi – muvozanatda: harakat va ishonch, so'z va samimiyat orasidagi uyg'unlikda. Bu maqol xalq donishmandligining yuksak namunasi sifatida insonni ikki yo'lga undaydi: Tavakkal bilan qo'rquvni yengish – bu hayotiy muvaffaqiyat kaliti. Shirin so'z bilan yuraklarni davolash – bu insoniylik va ma'naviyat kaliti. Metin toshni sindiruvchi kuch ham, bitmas yara uchun malham ham – insonning o'z iymoni va so'zi.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, adabiy tanqidning ilk namunalari folklor asarini yaratuvchilar hamda uni tinglovchilar toifasiga mansubdir. Bunday holat o'zimizning baxshilar va ular ijrosidagi asarlarni tinglovchilar uchun ham xos bo'lgan. Bu hol adabiy tanqid hodisasining qadimiyligidan guvohlik beradi, albatta. Jumladan, Fozil Yo'ldosh o'g'lidani "Sanobar", "Farhod va Shirin" dostonlarini tinglagan xalq baxshiga o'z taassurotlarini bildirgani haqidagi ma'lumotlar fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi boy va serqirra. Bu xazinada "Go'ro'g'li" dostoni alohida o'rin tutadi. U nafaqat o'zbek, balki turkiy xalqlar epik tafakkurining umumiy timsoliga aylangan. "Go'ro'g'li" – xalqning ozodlik, adolat va erk yo'lidagi orzu-intilishlarining badiiy ifodasi, milliy qahramonlik eposi sifatida qadrlanadi. Doston asrlar davomida turli baxshilar tomonidan ijro etilib, xalq ruhiga singib ketgan. U xalq tarixining, ma'naviy qadriyatlarining, orzu-armonlarining yuksak badiiy ifodasidir. Dostonning bosh g'oyasi – ozodlik, adolat va xalqparvarlikdir. Go'ro'g'li – zulm, jaholat, bosqinchilikka qarshi kurashuvchi xalq qahramonidir. U xalqning dardini o'z dardi deb biladi, kambag'allarning himoyachisi, yetimlarning suyanchi, yurtparvar jasur inson sifatida tasvirlanadi. Go'ro'g'li obrazi orqali xalq o'zining ideal yetakchisini, orzu qilgan pahlavonini yaratgan. U faqat jangchi emas, balki oqil, mehribon, dono inson sifatida ham gavdalanadi. Dostonning asosiy g'oyasi shuki – xalqning kuchi birlikda, erk esa tavakkal va adolatda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiy tanqidchiligi xalq donishmandligidan boshlangan va hozirgi ilmiy darajaga yetgan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan. U avval og'zaki ifoda, keyin axloqiy mezon, so'ngra ma'rifiy vosita, nihoyat ilmiy-nazariy soha sifatida shakllandi. Bugun adabiy tanqid, faqat yozuvchilar emas, balki o'quvchilarning fikrini tarbiyalaydigan, badiiy tafakkurni shakllantiradigan asosiy kuchlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Karim. Adabiy tanqid – jiddiy ijod (2013)
2. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Cho'ipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2012
3. Mirzayev, T. va boshqalar. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. Toshkent: O'qituvchi, 1980. Ushbu asarda "Go'ro'g'li" dostonining kelib chiqishi, variantlari, baxshilik an'analari haqida ilmiy tahlillar keltirilgan.
4. Suyumov, N. *Go'ro'g'li dostoni va uning qahramonlik an'analari*. Toshkent: Fan, 1962. "Go'ro'g'li" eposining xalq qahramonlik tafakkuri bilan bog'liqligi, g'oyaviy ildizlari haqida asosiy tadqiqotlardan biri.
5. G'aniyeva, N. *O'zbek xalq dostonlari poetikasi*. – Toshkent: Universitet, 2003.

Dostondagi obrazlar tizimi, til, ramzlar, afsonaviylik va real hayot uyg'unligi tahlil qilingan.

6.O'zbek xalq eposlari. (O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Folklor bo'limi nashri, 1988-2000 yillar to'plamlari) "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Kuntug'mish" kabi dostonlarning turli variantlari nashr etilgan ilmiy to'plamlar.

7.O'zbek adabiyoti (11-sinf darsligi) Toshkent: Respublika ta'lim markazi nashri, 2023-yil. Dostonning qisqacha mazmuni, g'oyasi, adabiy va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Internet manbalari:

1.<https://buxoromanba.uz>

2.<https://n.ziyouz.com>

SHAVKAT RAHMON IJODINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Abduqahhorova Mohizar,

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakili Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xos badiiy xususiyatlari haqida so'z boradi. Unda shoirning falsafiy tafakkuri, jasorat, haqiqat g'oyalari ifodasi va tarjima mahorati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, jasorat, falsafiy lirika, ruhiyat.

Annotation: This article discusses the unique artistic features of the work of Shavkat Rahmon, a major representative of modern Uzbek poetry. It extensively covers the poet's philosophical thinking, courage, expressions of true ideas, and translation skills.

Key words: Uzbek poetry, courage, philosophical lyrics, spirit.

XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili, millatparvar shoir Shavkat Rahmon ijodi haqida so'z ketganda, quyidagi fikrlar shoir ijodining o'ziga xosligini ifoda etadi: "...Fitrat va Cho'lpon she'rlaridagi otashin millatparvarlik ruhi, Abdulla Oripov lirikasidagi izchillik, konsentriklik, tadrijiylik va Rauf Parfi uslubiga xos quyuq istioraviylik, tig'iz obrazlilik, taranglikning har to'rtala shoir ijodidagi g'oyaviy-estetik mazmun bilan benihoya nozik sintezlashgan"⁸⁷. Shavkat Rahmon ijodi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar shoirni "qalb va ruh rassomi"

⁸⁷ I.G'aniev, N.Afoqova, A.G'anieva. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademnashr, 2013. 123-bet.

deb ataydilar. Bu holat Shavkat Rahmon ijodining mavzu va g'oyalariga uyg'undir.

Shavkat Rahmon she'rlarida o'zbek nazmi uchun odatiy bo'lgan to'q qofiya juda kam uchraydi. Shoir musiqiy mutanosiblikdan, kishi tuyg'ularini allalab chalg'itadigan nazmiy ohanglardan chekinadi. Kishi yuragiga bexato yetib boradigan, keskir qilichday tekkan joyida iz qoldiradigan zalvorli va qirrador tuyg'ularni o'shanga monand yo'sinda ifoda etadi. She'r to'q qofiyasiz bo'lsa, kishini allalovchi musiqiylik unchalar kuchli bo'lmaydi. She'riy so'z zalvori misralardagi umumiy ohang og'ushida yo'qolib ketmaydi va o'quvchi uni alohida idrok etish imkoniga ega bo'ladi. Shavkat Rahmon she'rlariga tovushlarni o'ynatib, hissiyotining nozik qirralarini titkilab so'zdan olov chiqarishga emas, balki o'z-o'zidan gurkirab, olovlanib turgan ruhning haroratini, porillab yonayotgan tuyg'ularning alangasini ifodalashga yaraydigan so'zlarni qidiradi. Shoir hayoti mobaynida yonib yashadi va «Yonmoqlik munchalar yoqimli!» - deya huzurlandi.

Chinakam shoir ruhiy manzillardan o'tadi. U gunohlarga botgan zamindan orzudagi yurt – ezgulik tantana qilgan afsonaviy maskan sari o'tlanadi. Bu yo'lning mashaqqati ko'p, ozori cheksiz, farog'at esa faqat mo'ljalda. Lekin uyg'oq qalb jozibador maskan - ezgulik sari chorlayveradi. Shoir bu yo'lga yurmoqchi bo'lgan kishi qaltis lahzalarda pand berishi mumkin bo'lgan eng buyuk dushmani – xiyonatni o'ldirishi lozim deb biladi. Chunki xoinlik, xiyonat, qo'rqqoqlik kabi illatlar bilan kurash yo'liga kirib bo'lmaydi:

Yo'ldir bu,
nafsning botqog'i emas,
qilichning damiday chaqnagan yo'ldir.
Bu yo'lga yuzingni burishdan avval,
o'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir⁸⁸.

Shoirning har bir so'zga e'tibor va sinchkovlik bilan yondashganini istagan she'rini mutolaa qilish orqali ham anglashimiz mumkin. Qolaversa, "u shunday so'zga, she'rga mas'uliyat bilan qarardiki, hatto «tili va dili» boshqa kimsalarni o'sha zahoti – tanqid ham qilardi. Har bir ishga, ijodga xolislik nazaridan baho berardi va qarardi. Uning she'riyati ham shaxsiyatiga o'xshab o'ta jasoratli, haroratli edi. So'zni sevardi. Chin so'zlarning quli edi. Bir umr – haqiqat uchun kurashib yashadi. «Men jangchi emasdim, men shoir edim. Dilimni og'ritdi besamar janglar», deydi u. Shavkat Rahmon uchun jang maydoni, kurash maydoni bo'lgan she'riyat edi. She'riyatida kurashish bilan cheklanmadi, mardona, dadil qadamlar bilan xalqning orasiga kirib ham bordi. Bu kamdan-kam shoirlarda uchraydigan xislatdir.

⁸⁸ Shavkat Rahmon. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1997. – B.423.

Adabiyotdagi shaxs masalasi haqida gap ketganida avvalo, shuni aytish joizki, ulkan jasorat egalari, chin iste'dodlilargina katta adabiyot yarata oladi. O'shalarining yozganlari adabiyot bo'lib qoladi. Barcha zamonlarda ham shunday bo'lib kelgan. Bular ertaga ham, indinga ham davom etadigan hodisadir. Demak, Shavkat Rahmon shaxs va ijodkor sifatida ham «dili va tili» bir bo'lgan insondir.

Shavkat Rahmon hassos shoir bo'lish bilan birga mohir tarjimon hamdir. U ispan she'riyati vakillaridan Xuan Ramon Ximenes, Rafael Alberti, Federiko Garsia Lorka kabi shoirlar ijodidan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayniqsa, shoirning Garsia Lorka she'riyatidan tarjimalari ham salmoq jihatidan, ham san'atkorlik mahorati nuqtai nazaridan yuqori baholangan. Garsia Lorka boshqa millat va boshqa dunyoning shoiri, demakki, o'zbek kitobxonlari uchun boshqacha shoir bo'lishiga qaramay, Shavkat Rahmon tarjimalarida u bizga yaqin keladi, juda ham tanish tuyuladi:

Aytilmagan
bir qo'shiq
lablarimda uxlaydi hali.
Aytilmagan
bir qo'shiq.

Shu o'rinda Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarining to'la namoyon bo'lishida Lorka she'riyatining alohida o'rni borligini alohida ta'kidlash kerak.

Ma'lumki, adabiyotning qismati ijodkorning qalami qudratiga, salohiyatiga, ong-u shuur darajasiga, qalbi kengligi va albatta, vijdoniga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, "shoirlik – qismat" ekanligini erta anglab ulgurgan Shavkat Rahmon uchun she'r umrining, tiriklikning ma'no-mazmuniga aylangan edi. 80-yillardan she'riyat ahliga tanish bu shoirning she'rlari boshdanoq shaxsiy dardlar ifodasidan ancha baland edi. Uning dard-u armonlari, iztiroblari xalqning dardi, millatning dardi bilan, jamiyatning muammolari bilan chambarchas bog'lanib ketgandi. Shuning uchun shoirning lirik-falsafiy, kuchli ijtimoiy ruhdagi she'rlaridagi o'ziga xos jihatlar va ularning salmog'i mutolaa jarayonida aniqlashib boraveradi.

Shavkat Rahmon she'rlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish davomida shoirning fe'li va sajiyasi she'rlarida aks etganini, shoir aslo aldab yozolmasligi, ya'ni soxta satrlardan qochishini, ayniqsa, she'riyatining alohida obrazlar ketma-ketligiga ega ekanligini, tog', tosh, daraxt singari detallarni esa allaqachon o'ziniki qilib olganini anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.G'aniev, N.Afoqova, A.G'anieva. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademnashr, 2013. 123-bet.
2. Shavkat Rahmon. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1997. – B.423.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA “QORA AMMA” OBRAZI TASVIRI

Hamroaliyeva Gulnoza Dilshodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Gulnoza Oripova**

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,

Filologiya fanlari doktori(DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Ikki eshik orasi” romani va “Qora amma” obraziga xos xususiyatlar ochib beriladi.

Kirish so‘zlar: obraz, urush tasviri, front, individual qiyofalar, insonparvarlik g‘oyalari, uslub.

“Ikki eshik orasi” romani o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub mashhur asar sanaladi. Asarda ishtirok etgan to‘qqiz personajning har biri asar rivojida alohida ahamiyat kasb etadi va ular adib tomonidan ustalik bilan bog‘langan. Bundan tashqari, asarda tasvirlangan hayot manzaralari, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi asosida talqin etilgan mudhish taqdirilar hamda asarning hayotiyligi romanning ta’sirchan bo‘lishi uchun xizmat qilgan.

Badiiy obrazning muhim vazifasi uning hayotdagidek salmoqdorlik, yaxlitlik va jonlilikka ega bo‘lishidir⁸⁹. Shubhasiz, asarni o‘qir ekanmiz, undagi har bir obrazni tahlil qilamiz va u bilan birga yashaymiz. Asarni tahlil qilishimiz davomida bir obrazga alohida e’tibor qaratish joiz. Hech shubha yo‘qki, romanda “Qora amma” obrazi alohida ahamiyatga ega. Bu personaj ishtirokisiz asar go‘yo “huvillab qoladi”. “Qora amma” obrazi orqali urush davridagi ayollarning qiyinchiliklari, sog‘inchlari, armonlari va orzu-umidlari tasvirlangan. Asarga quvnoqlik, bolalarning sodda his-tuyg‘ularini olib kirgan kichik Muzaffar obrazi “Qora amma”ni shunday tasvirleydi: “Ammam xuddi koptokka o‘xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq”.⁹⁰ Bu o‘xshatish orqali ham tasavvurimizda ko‘plab xayollar yuzaga chiqadi. Ehtimol, bola o‘xshatgan vosita orqali hayotning har

⁸⁹ Adabiyotshunoslik nazariyasi (2 jildli), T., 1978

⁹⁰ O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”, Toshkent., 2021

qanday zarbasiga, har qaysi turdagi shartlariga chidovchi, bardoshli ayol obrazi tasvirlangandir... Yoki asosiy obrazlardan biri sifatida tasvirlangan Robiya hikoyasida Kimsanning urushga jo'natilayotgan lahzalari qalamga olinadi. Aytiladiki: "...kechadan buyon butun bardoshini to'plab, Kimsan akamning oldida yig'lamagani haqqi ichida ummom bo'lib yotgan alam endi shu ikki tomchiga aylanib toshib chiqqanini his etdim-u yuragim sanchib ketdi".⁹¹ Mana haqiqiy o'zbek ayolining matonati, og'ir vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi...

"Qora amma"ning sifatlari tasvirlanar ekan, yana bir jihatini, ya'ni uning bag'rikengligi va katta-yu kichikka bo'lgan mehribonligini ta'kidlash joiz. Uning mehmondo'stlik fazilatlarini har bir insonga bo'lgan iliq munosabatidan va hattoki kichik yoshdagi bolalarga ko'rsatgan e'tiboridan ham anglashimiz mumkin. Asarda Muzaffar nutqi orqali bu holatni yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi. Misol uchun, bola dalada o'ynayotgan paytda chumchuqlarni kuzatish asnosida shunday deydi: "Iye, chumchuqlarning dadasi ikkita ekan-ku! Bundan chiqdi, bittasi – dadasi, bittasi – ammasi!"⁹² Adib o'quvchiga bolaning o'y-xayollari orqali "Qora amma" obrazining bola uchun qanchalar qadrliligi ekanligini, hattoki, ona tushunchasi qarshisida "amma"ning paydo bo'lishini namoyon etgan.

Ona uchun farzandidan ayrilish, undan uzoqda yashash, bor orzu-havaslarining armonga aylanishidek og'ir mushkulot bo'lmasa kerak. Aynan "Qora amma" obrazi orqali Ikkinchi jahon urushi davridagi jabrdiyda ayollarning dardi, alamli va fojiaiy qismati yoritib beriladi. "Qora amma" timsolida front ortidagi o'zbek ayollarining boshiga tushgan ko'rgiliklarga sabr-bardosh bilan toqat qilishi ifodalangan. U olti farzandini yerga qo'yib birdan bir o'g'li Kimsanni el-yurt ishiga kamarbasta bo'lish uchun urushga yuboradi. Biroq Kimsan urushdan qaytmaydi. Mushtipar ona yillar o'tsa ham o'g'lini kutadi, a'za ochmaydi. Demak, O'tkir Hoshimov "Qora amma" obrazi vositasida urush tufayli farzandlaridan ayrilgan onalarning qiyofasini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Xulosa shuki, asarda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, front ortidagi qiyinchiliklarni boshidan kechirgan millat taqdiri chuqur drammatizm pafosida yoritilgan.

O'tkir Hoshimov o'zining mazkur romanida "Qora amma" obrazi tasviri orqali urush davri oqibatlarini va insonlarning ayanchli taqdirini yoritib bergan. Yozuvchi ushbu obraz yordamida front ortidagi ona obrazini o'quvchi ko'z o'ngida badiiy jihatdan gavdalanitira olganligi sababli ham asar xalq orasida ma'lum va mashhurdir.

So'zimni ijodkorning mashhur jumalari bilan yakunlamoqchiman: "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma

⁹¹ O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", Toshkent., 2021

⁹² O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", Toshkent., 2021

narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'lga qayta qo'lga olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu..."⁹³ deb yozadi sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik nazariyasi (2 jildli), T., 1978
2. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", Toshkent., 2021

QODIRIYSHUNOSLIKKA DOIR TADQIQOTLAR

Dehqonova Maxsumaxon Shavkatovna

FDU adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti, (Phd)

Email: dexqonovamaxsuma@gmail.com

Annotatsiya: XX arsning 80-90-yillari o'zbek adabiy tanqidchiligining alohida davri ekanligi bilan ahamiyatga ega. Ushbu davr tanqidchiligida asr boshidan shakllangan adabiy tanqidchilik taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Turli maktablar kengaydi. Xususan, qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslik maktablari chuqur o'rganildi.

Kalit so'zlar: 80-90-yillari o'zbek adabiy tanqidchiligi, qodiriyshunoslik, puxta tahlil, mahorat masalasi, muammo va tendensiyalar

Qodiriyshunoslik bo'yicha 80-90-yillar adabiy tanqidchilikda ko'p izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M.Qo'shjonov yozuvchi mahoratini chuqur tadqiq etdi. U "Mehrobdan chayon" romanini "O'tkan kunlar" ga qiyosan tahlil qildi⁹⁴. Birinchi romanda xon istibdodi natijasida yuz bergan fojialar aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi romanda katta fojia aks etgan bo'lsa ham, "O'tkan kunlar" darajasiga chiqarilmagan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xonliklarining tipik markazi bo'lgan Qo'qon xoni Xudoyorxon va uning saroyida inson qadrining toptalishi, inson sha'niga to'g'ri kelmaydigan tubanliklar ochiq ko'rsatilgan. Shuningdek, "O'tkan kunlar"da o'tmish chirkinliklari qahramonlar fojiasida aks etgan bo'lsa, "Mehrobdan chayon"da xon istibdodi natijasidagi chirkin hayot ochib berilgan. Ikki romanning uslubi ham katta farq qiladi. Birinchi romandagi qahramonlar tanlovi ikkinchi romanda o'zgaradi. Anvar oddiy mehnatkash xalq orasidan chiqqan. Otabek va Kumush xon saroyidan uzoqda xonning zulmini tortsa, Anvar

⁹³ Adabiyot.10-sinf, Toshkent.,2017

⁹⁴ Қўшжонов М. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 42.

va Ra'no shu xon saroyining muhitida jabr chekadi. Tadqiqotda tanqidchi Abdulla Qodiriyning tiliga yuqori baho beradi. Turli til uslublar hukm surgan davrda yozuvchi bugungi adabiy til meyoriga to'g'ri keladigan uslubda realistik roman yaratgan. Yozuvchi asarlarida badiiylilik va g'oyaviylilik omuxta bo'lib ketgani natijasida ularni alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning yana bir maqolasi⁹⁵da yozuvchining nasrdagi yutuqlari tilga olinadi. O'zbek adabiyotida nasrning turli ko'rinishlari uchrab turgan bo'lsa ham, uning barkamol namunasi A.Qodiriy tomonidan yaratilgan. Ushbu roman janr nuqtai nazaridan Yevropa tushunchasiga to'g'ri keladigan namuna bo'la oladi. Tanqidchi yozuvchini o'zbek romanining asoschisi deyilishiga haqli, deb hisoblaydi. Romanning psixologik quvvati, milliy koloriti, syujet va kompozitsiyasi mukammal bo'lsa ham, asar turli bo'htonlar bilan kitobxonlar qo'lidan tortib olingan. Romanning adabiyotshunos va tanqidchilar tomonidan salbiy baholanishi, unga qarshi janglar ko'payib ketganini tanqidchi achinarli hol sifatida baholagan. "O'tkan kunlar" romaniga bag'ishlangan ilmiy risolasi⁹⁶da esa roman kompozitsiyasi, g'oyasi, tasvir usullari, syujet, konflikt, yechim kabilarni nazariy jihatdan puxta tahlil etdi. Toshkentlik bir yigitning savdo ishlari bilan Marg'ilonga kelib qolishi va shu yerlik qizga oshiq bo'lishini xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi an'anaviy syujet - bir yurtdan ikkinchi yurtga borib qolgan, shu yurt qiziga oshiq bo'lib, unga qiyinchiliklar bilan erishganiga qiyoslaydi. Tanqidchi romanni ikkita yo'nalish birligidan iborat ekanligini aytadi: 1.Muhabbat mojarosi. 2.Tarixiy voqealar oqimi. Shu ikki yo'nalishdan markaziy tugun hosil bo'lgan. Bundan tashqari, munaqqid yozuvchini voqeliklarning keskin o'zgarib, almashib turishidan keng foydalanganini ta'kidlaydi. Otabekka nisbatan kitobxonda muhabbat uyg'otgandan keyin qiziq bo'lmagan voqealar oqimini tasvirlab ketadi. Bu ham yozuvchining mahoratli ekanini isbotlaydi. Tanqidchi A.Qodiriyning o'zbek ayollari xarakterini yaratishdagi o'ziga xosligiga ham e'tibor qaratadi. Kumush obrazini ichki va tashqi go'zalligi bilan tasvirlagan bo'lsa, Ra'noni qahramon obraz qilib yaratadi. Chunki yozuvchi Kumush fojiasi tufayli kitobxon oldida o'zini gunohkordek his qilgan.

90-yillarga kelib asar haqida tahlillar kengaygan. Romanning milliy koloriti haqidagi fikrlar aytilgan. Shunga qaramay, tanqidchi, asosan, romanni nazariy jihatdan tekshirgan. Tanqidchi yozuvchining niyatini shu qadar chuqur anglaydiki, uning obraz tanlashdagi mahorati bilan birga, ichki hissini ham tushunadi. Natijada ijodkor bilan suhbatlashgan, o'zini ko'rgan, roman haqidagi fikrlari bilan tanishgan kabi tahlil qiladi. Tanqidchining 80-yillardagi tadqiqotlari deyarli yozuvchi mahoratini tekshirish va tahlil qilish bo'lsa, 90-yillardan keyingi ishlari Qodiriy shaxsini anglashga bag'ishlangan.

⁹⁵ Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи, 1988. – № 1. – Б. 167-177.

⁹⁶ Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994. – 125 б.

Umarali Normatovning bir qator tadqiqotlari⁹⁷da ham A.Qodiriy ijodiga munosabat bildirgan. Uning fikricha, o'zbek nasrida mehnatkash xalqning realistik obrazi "O'tkan kunlar"da yaratilgan. Romanda shaxs va mehnatkash xalq muammosi ko'tarilgan. Yozuvchining "Mehrobdan chayon" romanida ham shaxs va mehnatkash xalq munosabati ochib berilgan. Shuningdek, faollik ijobiy qahramonlarning yetakchi hislatiga aylangan. Realistik roman tendensiyasi asosida ikki romanda ham intellekt qahramon yaratish kuchli bo'lgan. Ammo yozuvchi obrazlarni ideallashtirmagan. Yozuvchining realistik obrazlaridan biri Solih Mahdum ham adabiyotshunoslikda salbiy tip, qabohat timsoli sifatida qoralangan. Tanqidchi adabiyotshunoslikdagi munozaralarni keltirar ekan, adabiyotshunos A.Rahimovning "Solih Mahdumda nima ayb?" maqolasida obrazga qo'yilgan ayblovlarni rad etgani, obrazning ijobiy fazilatlariga dalillar keltirgani, unga javoban Murtazo Qarshiboyev "Solih Mahdum farishtami?" maqolasida A.Rahimovga nisbatan e'tiroziga munosabat bildiradi. M.Qarshiboyev obrazni o'ta salbiy kimsa sifatida qoralaydi va bir qator dalillar keltiradi. Tanqidchining fikriga ko'ra, Solih Maxdum obrazini tasvirlashda yozuvchi realizmning eng mo'tabar mezonlariga amal qilgan. Obraz kitobxonda nafrat ham, mehr ham uyg'otmaydi. Uning tabiati rang-barang, obraz haqida hukm chiqaraman degan kishi, shubhasiz, yanglishadi⁹⁸.

Shu munozaralarni o'qir ekanmiz, har bir tanqidchi o'z dunyoqarashi asosida asarga yondashishini anglaymiz. Shu bilan birga, ushbu bir-birini rad etuvchi qarashlar adabiy-tanqidning asosiy vazifasini ko'rsatib bergan. Asar haqidagi turlicha fikrlar, bahslar shu sohaning rivoji uchun xizmat qilishini unutmashimiz kerak.

Tanqidchi A.Qodiriyning "Uloqda" hikoyasini birinchi realistik proza namunasi deya, baholaydi. "Ayni shu hikoya muallifni betakror noyob san'atkor yozuvchi sifatida elga tanitdi, Qodiriy fenomeni, badiiy mo'jizasi ayni shu asaridan boshlanadi"⁹⁹. Yozuvchi "O'tkan kunlar" romanini yozayotgan davrlarda mukammal adabiy-estetik qarashlarga ega edi. Realizmga doir mulohazalari ijod jarayonida shakllangan. 20-yillar o'zbek adabiyotida realizm nazariyasi bilan A.Qodiriychalik ko'p shug'ullangan ijodkorni topib bo'lmaydi. Chunki, o'sha davrda yangi o'zbek nasrining shakllanishi realizm nazariyasini chuqur o'rgangan yozuvchi zimmasiga tushdi. Umarali Normatov uning barcha asarlarini o'rganib, ijodkorni asardan-asarga o'sib borganini anglaydi. Shuningdek, asarlarida ijtimoiy-ma'naviy muammolar, millat taqdiriga kuyinish kabi masalalar yetakchi o'rinda

⁹⁷ Normatov U. Nasrimiz an'analari. – Toshkent: Faqur Gulom nomiдаги Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 215 b; Ijod seҳri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 331 b; Qodiriy m'ъjizasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 270 b.

⁹⁸ Normatov U. Serjilo kulgi // Sharq yulduzi, 1991. – № 3. – 191-198 b.

⁹⁹ Normatov U. Ijod seҳri. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007. – B. 54.

turadi. Ayniqsa, “O‘tkan kunlar” romanida yozuvchining mumtoz adabiyot namunalariga tenglasha olganini dalillaydi. Unga ko‘ra, Otabek, Yusufbek hoji, Kumush, Zaynab kabi oddiy hayotiy odamlar Tohir, Zuhra, Farhod, Shirin, Layli, Majnun kabi afsonaviy qahramonlar singari yorqin obraz darajasiga chiqqan. Munaqqid xulosalarida ushbu romanning ma’naviy taraqqiyotimizdagi haqiqiy o‘rni, yangiligi atroflicha tadqiq etilmaganini qayd etadi. U A.Qodiriy hajviy asarlari¹⁰⁰ tahlilida yozuvchiga johillarcha munosabat ayni shu hajviy asarlarini noto‘g‘ri talqin qilinishidan boshlangani yozadi. “Mushtum” jurnalida bosilib chiqqan “Yig‘indi gaplar” hajviyasidagi haq gaplari uchun siyosiy ayblov qo‘yilib, qamoqqa olinishi ham noto‘g‘ri talqinning natijasi bo‘lgan. Shu jihatdan munaqqid hajviy asarlarini qayta tahlil qilishga kirishgan. “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” hikoyalari “eskilik sarqiti”, “reaksion ruhoni” kabi keskin va biryoqlama tahlil qilingan. Umarali Normatov avvalgi tahlillarni rad qilmagan holda, ikki obrazning umumiy tomoni – xolisligiga e’tibor qaratadi. Ikki asar ham qahramon tomonidan hikoya qilinadi. O‘zining saviyasi asosida hayotni xolis, obyektiv tasvirlab beradi. Shuningdek, qissalarda tarixiy jarayonlarning ichki ziddiyatlarini anglagan holda, badiiylashtiradi, yozuvchining kulgisini esa serjilo, deb baholaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, munaqqid ushbu tadqiqotini mustaqillik yillarida yaratgani uchun zamonasida noto‘g‘ri bo‘lgan talqinlarga e’tiroz bildirgan. Ushbu romanning ma’naviy taraqqiyotimizdagi haqiqiy o‘rnini belgilash bilan bog‘liq yangi fikrlarni ayta olgan. Umuman olganda, munaqqid sho‘ro davrining so‘nggi yillari va mustaqillik yillarining adabiyotshunosligida ham faoliyat ko‘rsatdi. Tanqidchining yutug‘i ham shunda. Ilk ijodiy izlanishlarini 80-yillarda boshlab, keyinchalik yangi o‘zbek adabiy tanqidining rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarida qodiriyshunoslik qayta jonlandi. Qator ilmiy tadqiqotlar ham yaratildi¹⁰¹. Xususan, Naim Karimov bu sohada barakali ilmiy izlanishlar olib bordi. Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda: “XX asr o‘zbek adabiyotini ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotidagi rivojlanishni Naim Karimovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi”. Akademikning biografik metod asosidagi katta maqolasi¹⁰²da Abdulla Qodiriyning hayotiga doir adabiyotshunoslikka ma’lum bo‘lmagan ma’lumotlar berildi. “Abdulla Qodiriy qayerda o‘qigan?”, “Adib “dorilfunun”lari”, “Adabiy bilim olish istagi”, “Oliy adabiy-badiiy institut”, “Moskva xotiralari”,

¹⁰⁰ Норматов У. Сержило кулги // Шарк юлдузи, 1991. – № 3. – 191-198 б.

¹⁰¹ Махмудова З. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг миллий ўзига хослиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 128 б; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшunosлигида талқин муаммоси (қодирийшunosлик мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002. – 304 б; Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2019. – 243 б.

¹⁰² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/naim-karimov-abdulla-qodiriy-qayerda-oqigan.html>.

“Yana bir xotira”, “Maskov xatlari”, “Bir savol”, “Abdulla Qodiriy va Xolid Said”, “Hayoning Julqunboy bilan musohabasi, Hayo kim bo‘lgan?”, “Xolid Said kim bo‘lgan?”, “O‘tkan kunlar” ozarbayjon tilida” nomli bo‘limlarida uning hayoti va biografiyasiga oid bo‘lgan yangi ma’lumotlarni adabiyotshunoslikka taqdim etdi.

Qodiriyshunoslik 80-90-yillar adabiy tanqidchiligida keng o‘rganildi. 80-yillardan oshkoralik boshlangan bo‘lsa ham, yozuvchi asarlariga munosabatda tanqidchilarimiz o‘zlarini ehtiyot qildilar. Abdulla Qodiriyning yozuvchilik mahorati, yuksak saviyasini Matyoqub Qo‘shjonov va Umarali Normatov keng ommaga taqdim qildi. Mustaqillikdan keyingi yillarda ham ularning qodiriyshunoslikdagi faoliyati yangicha yondashuvlar asosida davom etdi. Naim Karimov Abdullar Qodiriy asarlarini biogarafik metod asosida tahlil qilib, yangi yo‘nalishning taraqqiyotiga hissa qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қўшжонов М. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 42.
2. Қўшжонов М. Қайта қуриш ва ўзбек романи // Шарқ юлдузи, 1988. – № 1. – Б. 167-177.
3. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994. – 125 б.
4. Норматов У. Сержило кулги // Шарқ юлдузи, 1991. – № 3. – 191-198 б.
5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2007. – Б. 54.
6. Норматов У. Сержило кулги // Шарқ юлдузи, 1991. – № 3. – 191-198 б.

“SABOT UL-OJIZIN” ASARIDA CHAHORIYORLAR OBRZANING YORITILISHI

J.Sayidolimov

FarDU, adabiyotshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi, (PhD).

2-SHO‘BA

QIYOSIY

ADABIYOTSHUNOSLIK

VA TARJIMA NAZARIYASI

ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Abdurahimova Durdona Tavakkaljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya: ushbu maqolada antroponimlarning uslubiy-funksional xususiyatlari o‘zbek va ingliz tillari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ismlarning kommunikativ, ijtimoiy, madaniy hamda estetik vazifalari, shuningdek, ularning matndagi pragmatik va ekspressiv ahamiyati yoritiladi. Ingliz va o‘zbek antroponimlari o‘rtasidagi funksional o‘xshashliklar va farqlar qiyosiy-tipologik yondashuv asosida izohlanadi. Maqolada, shuningdek, antroponimlarning badiiy matnlardagi stilistik yuklamasi va konnotativ ma’nosi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, funksiya, pragmatika, uslub, o‘zbek tili, ingliz tili, badiiy matn, konnotatsiya, ijtimoiy-madaniy omil

Antroponimlar til tizimining muhim onomastik birliklaridan biri sifatida inson hayoti, jamiyat madaniyati va tarixiy tafakkurining o‘ziga xos ko‘zgusi hisoblanadi. Har bir ism muayyan ma’naviy, ijtimoiy va madaniy konnotatsiyani ifodalab, milliy tafakkur va an’analari bilan chambarchas bog‘lanadi. Shu jihatdan, antroponimlarning funksional xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturologik va psixologik nuqtayi nazardan ham dolzarbdir.

Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimlarning ishlatilish mexanizmlari o‘ziga xos semantik, uslubiy va grammatik xususiyatlarga ega. Ingliz tilida ko‘pincha *name as identity marker* tamoyili ustuvor bo‘lib, ism shaxsning ijtimoiy mavqeini yoki milliy kelib chiqishini bildiradi. O‘zbek tilida esa ism nafaqat identifikatsion vosita, balki diniy, axloqiy va estetik qadriyatlarning ifodachisidir.

Mazkur maqolaning maqsadi — ingliz va o‘zbek tillarida antroponimlarning uslubiy-funksional xususiyatlarini aniqlash, ularning matndagi kommunikativ, ijtimoiy va badiiy vazifalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Antroponimlarning funksional turlari va ularning matndagi roli aniqlash;
2. Ingliz va o‘zbek tillarida ismlarning kommunikativ va ekspressiv xususiyatlarini solishtirish;
3. Antroponimlarning badiiy matnlardagi uslubiy yuklamasini tahlil qilish;
4. Milliy-madaniy tafakkurda ismning ijtimoiy va semantik vazifasini ko‘rsatish.

Antroponimlar tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini eng aniq aks ettiruvchi birliklardan biri hisoblanadi. Ular orqali xalq tafakkuri, tarixiy xotira va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi

antroponimlar o'xshash kommunikativ vazifalarni bajargan bo'lsa-da, ularning semantik asoslari, uslubiy imkoniyatlari hamda madaniy konnotatsiyalari sezilarli farq qiladi.

1. Kommunikativ va ijtimoiy funktsiya

Ingliz tilida ism shaxsni aniqlashdan tashqari, **ijtimoiy maqom, kasb yoki sinfga mansublikni** bildiruvchi belgi sifatida ham ishlatiladi. Masalan, *Sir Arthur Conan Doyle*, *Lady Macbeth* yoki *Lord Byron* kabi nomlarda “Sir”, “Lady”, “Lord” unvonlari shaxsning ijtimoiy mavqei ko'rsatadi¹. Bu nominativ tizim ingliz jamiyatining tarixan tabaqalasgan tuzilmasidan kelib chiqadi.

O'zbek tilida esa ism ko'proq **ma'naviy, diniy va axloqiy qadriyatlarni** ifodalaydi: **Imonbek, Sadoqat, Baxtiyor, Mehriniso** kabi antroponimlar shaxsga orzu qilingan sifatlarni yuklaydi. Ingliz jamiyatida esa ism tanlash ko'pincha **oilaviy an'analar yoki tarixiy arboblarga ehtirom** bilan bog'liq. Masalan, *William, Elizabeth, Henry, Victoria* kabi ismlar asrlar davomida qayta ishlatilib, merosiy xususiyat kasb etgan².

2. Badiiy va uslubiy funktsiya

Badiiy matnda antroponimlarning funksional yuklamasi yanada boyib, ular **obraz yaratish vositasi** sifatida ishlaydi. Ingliz adabiyotida, ayniqsa, nom orqali xarakter, ijtimoiy kelib chiqish yoki psixologik holat ifodalanadi. Masalan:

- Ch. Dickensning “*Hard Times*” asaridagi **Mr. Gradgrind** (“grind” – maydalamoq) ismi obrazning qattiqqo'l va hissiz xarakterini ko'rsatadi;

- W. Shakespeare'ning “*Hamlet*” nomi esa insoniy tafakkur, shubha va ruhiy azob ramziga aylangan;

- J. Austen'ning “*Pride and Prejudice*” romanidagi **Mr. Darcy** nomi aristokratik kibru g'ururni ifodalasa, **Elizabeth Bennet** ismida mustaqillik va aql ustuvorligi namoyon bo'ladi³.

O'zbek adabiyotida ham ism obraz bilan uzviy bog'langan: **Otabek** (ota + bek) jasorat va sharafni, **Kumush** esa poklik va noziklikni ifodalaydi. Ammo ingliz adabiyotida nom ko'pincha **simvolik yoki ironik** ma'no kasb etadi — bu jihatdan ingliz antroponimik tizimi ko'proq **konnotativ va metaforik** xususiyatga ega.

3. Semantik va konnotativ funktsiya

Ingliz antroponimlari semantik jihatdan ko'p hollarda **diniy va tarixiy asosli** bo'ladi. *John, Mary, Joseph, Anna* kabi nomlar Injil manbalaridan kelib chiqqan bo'lib, ular xristian qadriyatlarini ifodalaydi. Bundan tashqari, *Faith, Grace, Hope, Charity* kabi abstrakt ma'noli nomlar **axloqiy-ruhiy fazilatlarni** bildiradi⁴.

O'zbek tilida ham diniy asosli ismlar keng: **Abdulloh, Muhammad, Ismoil, Zaynab, Oisha** kabi nomlar Qur'on va hadis manbalaridan olingan. Ammo o'zbek ismlarida **semantik mahsuldorlik** ko'proq — ismda so'z yasovchi affikslar (-bek, -

xon, -jon, -boy) orqali yangi semantik niuanslar hosil qilinadi: **Dilnoza, Jasurbek, Gulbahor, Shahzoda** kabi. Ingliz antroponimlarida esa affiksatsiya yo‘li bilan yangi ism hosil bo‘lmaydi; ism ko‘proq **barqaror leksik birlik** sifatida ishlaydi.

4. Pragmatik va madaniy funktsiya

Pragmatik jihatdan ingliz antroponimlari **muloqot kontekstiga** juda sezgir. Masalan, *Robert* → *Bob*, *Margaret* → *Maggie*, *Elizabeth* → *Liz* kabi qisqartmalar norasmiylik, samimiylik yoki yaqinlikni bildiradi. Bu holat tilning **sotsiolingvistik moslashuvchanligini** ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa ismga qo‘shimcha komponentlar — **aka, opa, xon, jon** kabi — hurmat, mehr yoki masofa darajasini bildiradi: *Ali aka, Dildor opa, Gulnora xonim*⁵.

Madaniy jihatdan ingliz ismlari **shaxsiy erkinlik va tarixiy merosni**, o‘zbek ismlari esa **e’tiqod, oila qadriyatlari va jamoaviylikni** ifodalaydi. Masalan, ingliz madaniyatida *Queen Elizabeth* nomi davlat ramziga aylangan bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida *Amir Temur, Navoi, Zulfiyaxonim* kabi nomlar milliy g‘urur ifodasi sifatida ishlatiladi.

5. Qiyosiy-tipologik tahlil

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz va o‘zbek antroponimlari quyidagi jihatlarda **umumiylikka** ega:

1. Har ikki tilda ism shaxsni aniqlovchi nominativ birlik sifatida xizmat qiladi;
2. Antroponimlar badiiy matnda stilistik vosita sifatida ishlatiladi;
3. Ism orqali milliy qadriyat va tarixiy meros ifodalanadi.

Ammo ular **milliy-madaniy asoslari** bo‘yicha farqlanadi:

- **Ingliz tili** antroponimlari individualizm, diniy-axloqiy ramzlar va tarixiy merosga tayanadi;

- **O‘zbek tili** antroponimlari esa kollektivizm, e’tiqod, ijtimoiy hurmat va estetik qadriyatlarga asoslanadi⁶.

Shuningdek, ingliz tili tizimida antroponimlar **barqaror leksik birlik** sifatida saqlanib, morfologik o‘zgarishga kam uchrasa, o‘zbek tilida ular **so‘z yasovchi vositalar** orqali yangi variantlarni hosil qiladi (masalan, *Otabek* → *Otabekjon*, *Dil* → *Dilnoza*).

Badiiy kontekstdagi qo‘llanish ham farqli: ingliz yozuvchilari ko‘pincha ismni **ironiya yoki satira** vositasi sifatida ishlatadi (masalan, *Mr. Bumble*, *Mr. Scrooge*), o‘zbek adabiyotida esa ism **ezgulik, sadoqat, e’tiqod** timsoli sifatida talqin qilinadi.

Xulosa

Inson ismlari har bir jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim onomastik birliklardir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish shuni

ko'rsatadiki, har ikki tilda ism nafaqat identifikatsiya vositasi, balki kommunikativ, ekspressiv va estetik ma'nolarni ifodalovchi semantik tizimga ega.

O'zbek tilida antroponimlarning asosiy funksiyasi milliy mentalitet, diniy an'ana va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, ingliz tilida bu jarayon tarixiy-madaniy meros, ijtimoiy tabaqalanish va shaxsiy individualizm orqali namoyon bo'ladi. Badiiy matnda esa ingliz va o'zbek ismlari konnotativ ma'no hosil qilish, obraz yaratish va muallif pozitsiyasini ifodalashda faol ishtirok etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi antroponimlar ko'proq **metonimiya** va **allusion** orqali ma'no yukini kuchaytirsa, o'zbek matnlarida **metafora** va **diniy asoslangan ma'nolar** ustunlik qiladi. Shu sababli antroponimlarning funksional jihatlarini o'rganish lingvokulturologik tahlilda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali milliy o'ziga xoslik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar til vositasida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hough, C. (2016). *The Oxford Handbook of Names and Naming*. Oxford University Press.
2. Ainiala, T., Saarelma, M., & Sjöblom, P. (2012). *Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics*. Helsinki University Press.
3. Algeo, J. (1973). "On Defining the Proper Name." *Names: A Journal of Onomastics*, 21(1), 22–31.
4. Mirtojiev, M. (2020). *O'zbek onomastikasining nazariy masalalari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Rafiyev, A. (2018). *O'zbek antroponimikasining lingvokulturologik xususiyatlari*. Farg'ona: FDU nashriyoti.
6. Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Oxford: Blackwell.

A.CHO'LPONNIING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI EPITETLARNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI

Kurbanova Zilola Xojinazarovna

Urganch Davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotation: This article analyzes epithets in A. Cholpon's novel "Night and Day" and their alternative expression in English translation. Epithets, along with performing many stylistic functions, are one of the means of expressing to the

reader the writer's attitude to the characters, events, and the idea implied in the work in general. The alternative expression of epithets in translation plays an important role in conveying the author's style and the idea of the work to the reader in the target language..

Key words: epithet, author's style, transformation, adequacy

Annotatsiya: Ushbu maqolada A.Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida epitelar va ularning ingliz tilidagi tarjimasida muqobil ifodalanishi tahlil qilinadi. Epitetlar ko'plab stilistik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda kitobxonga yozuvchining qahramonlarga, voqealarga umuman olganda asarda nazarda tutilgan g'oyaga munosabatini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Epitetlarni tarjimada muqobil variantda berish yozuvchi uslubi, asar g'oyasini tarjima tilidagi o'quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: epitet, yozuvchi uslubi, transformatsiya, adekvatlik

Epitet – badiiy ta'riflovchi vositalardan biri bo'lib, biror narsa yoki hodisaning xarakterli xususiyatini ifodalovchi sifatlashdir. Epitetlar ko'pincha ot bilan birga ishlatiladi va o'sha otni tasvirlash, uni yanada jonliroq, ta'sirchanroq qilish uchun xizmat qiladi.[2] Epitetlar an'anaviy ravishda obyektning har qanday jihatdan shunchaki tavsiflamaydigan, balki muallifning dunyoga hissiy, psixologik va individual qarashlari prizmasidan filtrlangan uning xususiyatlarini ifodalovchi birlik sifatida qaraladi. Epitet atributiv so'z sifatida nafaqat obyekt, uning xususiyatlari va so'zlovchining unga bo'lgan munosabati to'g'risida har qanday ma'lumotni olib yuradi, balki atrofdagi dunyoni diskret obyektlarga ajratishning ma'lum bir bosqichi tugaganligi, ma'lum bir kontseptual va hissiy-baholash tizimida tanlangan obyektning tadqiq qilish va kiritish belgisidir, deb yozadi G.V. Glushkov. Epitetga berilgan izohlar turli, bazan qiyosan farqlilik darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, bunday tariflarni birlashtirib turuvchi belgilar qatoriga tasviriylik, ta'sirlilik xususiyati va so'zlovchining obyektga bo'lgan munosabatini bildiruvchi, individuallik xususiyati ham keltiriladi. Badiiy matnda epiteltarning aynan shu xususiyati orqali yozuvchining badiiy tafakkuri, asar sujeti, undagi obrazlilik va estetlik qiymat yuzaga chiqadi.

A.Cho 'lponning "Kecha va Kunduz" romani yozuvchi ijodining nodir namunalari qatorida yuksak daradagi ekpressivlik, emotsiyanallik va estetik didni o'zida jamlagan. Asar tili boy va jozibadorligi bilan boshqa o'zbek adabiyoti nodir namunalari qatoridan joy olgan. Muallif tili ham, qahramonlar tili ham ixcham va obrazli. Romanning syujeti go'zal va serjilo bo'lish bilan birgalikda qiziqarli va ta'sirlidir. Unda inson tabiati, o'zlikdan uzoqlashish, qudrat (poraxo'rlik), oila, ta'lim mavzulari umumbashariy xarakterda taqdim etilgan bo'lib, ushbu mavzular asosida chiqarilgan g'oyalar makon va zamon tanlamaydi. Global xarakterdagi mavzu va go'ya "Kecha va kunduz" umrboqiyiligini ta'minlovchi asosiy sifatlardir. Bu xususiyat romanni jahon e'tirofiga sazovor asarlar qatoriga qo'yadi. Ushbu romanni yuksak darajada e'tirof etilishida albatta yozuvchi mahorati va asarning estetik qiymati muhim ahamiyat kasb etadi. A.Cho'lpon o'z mahoratini badiiy tasviriy vositalardan biri epitetlardan foydalana olishida aniq qilib aytganda epitetlarning noyob turlarini yaratishda ko'rsata olgan. Ushbu roman fransuz va ingliz tillariga bir nechta marotaba tarjima qilingan. Tarjimon Kristofer Fort tomonidan ham ushbu roman to'laligicha o'rgaligan va ingliz tiliga tarjima qilingan. Tarjimon bu asarni yuqori estetik mahorat bilan yozilgan namunalardan biri sifatida dunyo kitobxonlariga yetkazish istagini borligini keltirib o'tgan. Ushbu ishimiza K.Fort tomonidan qilingan tarjimada va asl matn tilida epitetlarni stilistik funksiyalariddan kelib chiqqan holda yaratilishni tahlil qilamiz

Epitetlar orqali yozuvchi tasvirlayotgan narsa yoki hodisaga o'z munosabatini bildiradi.[1] Asarda kechayotgan voqealar rivojiga, qaysidir qahramonga umuman asar suyetiga bo'lgan baholovchi munosabatini tasvirlashda epitetlar o'rni muhim. Ularni tajrimada saqlanganligi, muqobilligi taminlanganligi tarjima tilida yozuvchi badiiy tafakkuri va asar g'oyasini ochib berishda muhim hisoblanadi. Misol uchun romanda *sho'rlik ona, ona bechora, yolg'iz ona* birikmalaridagi *sho'rlik, yolg'iz, bechora* epitetlari yozuvchining Zebining onasiga nisbatan achinish munosabatini ifodalaydi, shuningdek, *qiz sho'rlik, qiz bechora, bechora qiz, yosh qiz, yosh vujud, yosh gul* epitetli birikmalari ham Zebining qanday soddaligi va yozuvchi unga nisbatan ham achinish holatidaligini tushunish

mumkin. Tarjimon *qiz bechora* birikmasini tarjimada *poor daugther* tarzida beradi.[1] Epitetni bunday tarjima qilinishi shakl va mazmun uyg'unligini saqlagan holda aynan muqobil bo'lgan deyish mumkin, chunki *poor* so'zi ham *kambag'al, past sifatli*, ma'nolari bilan bir qatorda *unfortunate-baxtsiz* ma'nosida qizga nisbatan achinish, hamdardlik holatlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Aynan *poor* epiteti tilshunos Arnold tomonidan U.Shekspir asarlaridan olingan misollarni keltirilgan misollarni izohlab, doimiy epitet sifatida ta'sirlilikni kuchli ifodalash xususiyatini takidlaydi.[6]

To leave *poor me* thou hast the strength of laws.

Since why to love I can allege no cause

Tilshunoos bu she'riy parchadan tashqari quyidagi misollarni ham keltiradi aynan ular ham shekspirning sonetidan olingan: *my poor lips*; I'll live in this *poor rhyme*.

Keyingi misolda tarjimon *ona sho'rlik* epitetli birikmasini *a mother* tarzida tarjima qiladi. Bu tarjimada *sho'rlik* epitetining tarjima qilinmagani aynan yozuvchi munosabatini o'quvchiga yetkazishda kamchiliklar yuzaga keltirishi mumkin. Yozuvchi bu epitet orqali onaning hech chorasizligi, umri davomida noshut turmush o'rtog'ining tanballigi, bilimsizligi va tekinxo'rlikiga chidab yashashga majburligini tasvirlab, bu personajga achinish munosabatini bildiradi va o'quvchiga emotsiyanal tasir qiladi.

Xulosa qilib aytganda yozuvchini asar qahramonlariga bo'lgan munosabatini kitobxonga ta'sirli, tushunarli tarzda yetkazilishga yordam beruvchi epitetlar tarjimada muqobil tarzda keltirilishi katta ahamiyat kasb etadi, holbuki epitetlar yozuvchi uslubi, badiiy tafakkurini yuzaga chiqaruvchi tasviriy vositalardan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Christopher Fort, "Night And day" A.S.Cho'lpon, translated and with an introduction Boston 2019,

[2] Karimov. S Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, SamDU, 1994.

- [3] Mirzayeva Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi – T.: Fan, 2011. – 260 b.
- [4] Karimov Naim. Cho'lpon (ma'rifiy roman). – Toshkent, Sharq, 2003. – 464 b.
- [5] Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon.– Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2022, 162 b.
- [6] Арнольд, И.В. Стилистика современного английского языка / И.В. Арнольд. – Л.Просвещение, 1981, 131-б
- [7] <https://hinative.com/questions/15196814>

SINXRON TARJIMADA KOGNITIV MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMLARI

Orunbayeva Uminiso Sharabidinovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

uminisoxon@gmail.com

ORCID: 0009-0009-3928-2475

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida tarjimonning diqqatini boshqarishi bilan bog'liq kognitiv muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sinxron tarjimaning murakkab tabiati, diqqatni taqsimlash va saqlab qolish qiyinchiliklari, shuningdek, bu jarayonlarda miya faoliyatining roli ochib beriladi. Diqqatning chegaralangan resurs sifatidagi o'rnini, kognitiv yuklama va informatsiyani qayta ishlash tezligi kabi omillar tarjimaning sifati va aniqligiga qanday ta'sir qilishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjimonlar tayyorlashda psixologik tayyorgarlik va kognitiv strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar. Sinxron tarjima, kognitiv muammo, konseptual muammo, kognitiv yuk, ishchi xotira, diqqatni boshqarish, informatsiya oqimi, psixolingvistika, diqqatni taqsimlash, tarjimon strategiyalari

Kirish:

Sinxron tarjima, tilni tarjima qilishning talabchan shakli bo'lib, tarjimonlardan ma'lumotni tez va to'g'ri qayta ishlashni, lingvistik sodiqlikni saqlashni talab qiladi. Mazkur maqolada sinxron tarjimonlar duch keladigan asosiy kognitiv muammolar, xususan diqqatni taqsimlash, saqlab qolish va boshqarish bilan bog'liq jihatlar ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Sinxron tarjima qilish tarjima usullaridan eng murakkabidir. Bu qisman sinxron tarjimada tarjimon muloqot oqimini nazorat qilmasligi, balki har bir

so'zlovchining tezligiga moslashishi, jarayonni to'xtatmasligi bilan bog'liq. Agar biror so'z o'tkazib yuborilgan bo'lsa, odatda tarjimon so'zlovchidan takrorlash yoki tushuntirishni so'rash imkoniyati yo'q. Tarjimon nutqdagi g'oyalarni, suhbatning xavfini puxta o'ylashi kerak va tushunarsiz bo'lgan joylarni yopish yoki yoritib berish uchun kontekstdan ma'noni ekstrapolyatsiya qilishga tayyor bo'lishi kerak. Qiyinlikning ikkinchi manbai, albatta, hamma narsa juda tez sodir bo'lishi haqiqatdir: tarjimon tez sur'atda original nutqni diqqat bilan kuzatishi kerak, shu bilan birga ekvivalent tarjima versiyasini shakllantirishi va etkazishi va xatolar uchun o'z natijalarini kuzatishi kerak [1].

Metodologiya

Tadqiqotda kognitiv lingvistika va psixolingvistika yondashuvlari asos sifatida olindi. Asosiy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, sinxron tarjimonlar faoliyatini kuzatish va ularning diqqat jarayonlariga oid intervyular tahlil qilindi. Xususan, ilg'or tadqiqotchilar (Gile, Setton, Moser-Mercer va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv modellar asosida umumiy xulosalar chiqarildi.

Sinxron tarjima tarjimonlarga katta kognitiv yuk yuklaydi, bu kiruvchi ma'lumotlarni bir vaqtda qayta ishlash, tilni tushunish va maqsadli tilda ekvivalent ifodani yaratishni o'z ichiga oladi. Bu kognitiv yuklamaga manba tilining murakkabligi, mazmunning tabiati va tarjimonning malakasi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kognitiv yukni tushunish va boshqarish sinxron tarjimada ishlashni optimallashtirishning muhim jihatlaridir.

Kognitiv yukning deyarli barcha mavjud ko'rsatkichlari faqat bilvosita ko'rsatkichlardir. Kognitiv yuk nazariyasi paydo bo'lgan ta'lim psixologiyasida [2] shuningdek, kognitiv talqin va tarjima tadqiqotlarida, kognitiv yukni faqat odamlarning vazifalarni qanday bajarishini kuzatish orqali xulosa qilish mumkinligi e'tirof etiladi. Choralarning bunday bilvositaligi bizning fanlararo yondashuvimizning ajralmas qismi bo'lgan usullar, ma'lumotlar va natijalarni triangulyatsiya qilish uchun motivatsiya va zaruratni ta'minlaydi.

Natijalar va tahlil

1. Diqqatning chegaralangan resurs sifatidagi o'rni

Diqqat inson miyasi faoliyatida cheklangan resurs bo'lib, uni bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatlarga taqsimlash katta muammolarni keltirib chiqaradi. Sinxron tarjimada esa tarjimon bir vaqtning o'zida kiruvchi nutqni eshitib, uni qayta ishlab, ma'no jihatidan mos tarjimani chiqarishi lozim. Bu holatda diqqat resurslari haddan tashqari cho'ziladi va xatolik ehtimoli oshadi [1,2].

2. Kognitiv yuklama va stress omillari

Sinxron tarjimonlar ko'pincha vaqt bosimi, murakkab terminologiya, so'zlovchi tezligi va noaniq kontekst tufayli kuchli kognitiv yuklama ostida

ishlaydi. Bu esa tez charchash, diqqatning pasayishi va tarjimaning aniqligi susayishiga olib keladi [3,5].

3. Diqqatni boshqarish strategiyalari

Sinxron tarjimada diqqatni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki tarjimonlar o'z e'tiborini manba tilini tinglash, tarjimani shakllantirish va to'g'riligini nazorat qilish o'rtasida taqsimlashlari kerak. Diqqatni uzoq vaqt davomida ushlab turish qobiliyati charchoq, chalg'itish va doimiy aqliy mashg'ulot zarurati kabi omillar bilan qiyinlashadi. Diqqat jarayonlarini o'rganish va diqqatni nazorat qilishni kuchaytirish uchun o'qitish usullarini ishlab chiqish sinxron tarjimada kognitiv muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tajribali tarjimonlar o'z diqqat resurslarini ongli ravishda boshqarishga harakat qiladilar. Ular muhim bo'lmagan ma'lumotlarni e'tibordan chetda qoldirish, kalit so'zlarni ajratib olish va kontekstual taxmin qilish kabi strategiyalardan foydalanadilar. Bunday strategiyalar kognitiv yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi [4,6]

Ishchi xotira:

Ishchi xotira sinxron tarjimada muhim rol o'ynaydi va kiruvchi ma'lumotlar qayta ishlanadigan va vaqtincha saqlanadigan aqliy ish joyi bo'lib xizmat qiladi. Ishchi xotiraning cheklangan sig'imi qiyinchilik tug'diradi, chunki tarjimonlar real vaqtda tarjima talablarini boshqarishda doimiy ravishda ma'lumotni yangilashi va olishi kerak. Sinxron tarjimonlarning umumiy kognitiv faoliyatini yaxshilash uchun operativ xotira samaradorligini oshirish strategiyalarini o'rganish zarur.

Tajriba va ko'nikma:

Kognitiv muammolarni yumshatishda tajribaning rolini oshirib bo'lmaydi. Tajribali tarjimonlar ko'pincha sinxron tarjimaning kognitiv talablarini bajarishda yuqori samaradorlikni namoyish etadilar. Tadqiqotlar tajribani rivojlantirish, tajriba bilan rivojlanadigan kognitiv jarayonlarni o'rganish va ilg'or ko'nikmalarni egallashni tezlashtirish uchun o'qitish metodologiyasini aniqlashga kirishishi kerak.

Kelajakdagi yo'nalishlar va oqibatlari:

Sinxron tarjimada kognitiv muammolarni tushunish maqsadli aralashuvlar va yutuqlarga yo'l ochadi. Kelgusi tadqiqotlar kognitiv psixologiya, nevrologiya va lingvistikadan olingan g'oyalarni o'z ichiga olgan fanlararo yondashuvlarni o'rganishi kerak. Ushbu bilimlar o'quv dasturlarini loyihalash va tarjimonlarni kognitiv harakatlarida qo'llab-quvvatlash uchun texnologik vositalarni ishlab chiqishda ma'lumot berishi mumkin.

Xulosa:

Sinxron tarjima asosiy jarayonlarni har tomonlama tushunishni talab qiladigan katta kognitiv muammolarni keltirib chiqaradi. Kognitiv yuk, ish xotirasi, diqqatni

boshqarish va tajribaning ta'sirini ajratib ko'rsatish orqali ushbu maqola sinxron tarjimaning kognitiv o'lchovlari bo'yicha davom etayotgan nutqiga hissa qo'shadi. Ushbu muammolarni hal qilish nafaqat tarjimonlarning ish faoliyatini oshiradi, balki butun tilni tarjima qilish sohasini ham rivojlantiradi.

Sinxron tarjima jarayonida diqqatni boshqarish tarjimonning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Diqqatning chegaralanganligi, kognitiv yuklama va stress faktorlarining mavjudligi tarjima sifati va davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tarjimonlarni tayyorlashda ularning psixologik tayyorgarligi, diqqatni boshqarish bo'yicha mashqlar va strategiyalar o'rgatilishi zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu strategiyalarni yanada aniq modellashtirishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Camayd-Freixas E. Cognitive theory of sinxronous interpreting and training //Proceedings of the 52nd Conference of the American Translators Association. – American Translators Association, 2011. – T. 13.
2. Sweller, Jon, Jeroen J. G. van Merriënboer va Fred G. W. C. Paas 1998 yil "Kognitiv arxitektura va o'quv dizayni". Pedagogik psixologiya sharhi101: 251–295. 10.1023/A:
3. Usmonova D. S., Orunbaeva U. S. Conceptual problems of simultaneous interpretation //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 2. – С. 36-38.
4. Satvoldievna U. D., Sharabidinovna O. U. Conceptual problems of simultaneous interpretation //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 2 (147). – С. 36-38.
5. Orunbayeva Uminiso Sharabidinovna 2023. Development of Independent Activity of Students in Teaching English as A Specialty. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. 1, 3 (Jun. 2023), 50–55.
6. Orunbaeva U., Okhunov A. CONCEPTUAL PROBLEMS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – С. 2255-2258.
7. Sharabidinovna O. U., Erkinovna T. X. TARJIMANI O 'QITISHDAGI QIYINCHILIKLAR //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 35. – №. 2. – С. 142-146.
8. Orunbaeva U. S. CONCEPTUAL PROBLEMS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION //INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. – 2022. – T. 1. – №. 9. – С. 81-85.
9. Orunbayeva, U. (2025). ENHANCING TRANSLATOR SYNCHRONIZATION COGNITIVE APPROACHES AND CONTEXTUAL SOLUTIONS FOR UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(5), 701-705.

10. Orunbayeva, U. (2025). SINXRON TARJIMADA KOGNITIV MODELLAR. "Issues of Turkish Philology", 1(1).

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HISSIYOTGA OID METAFORALARNING TADQIQI

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

muattarsotvoldiyeva98@gmail.com

Annotatsiya: hissiyotlar inson psixologiyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tilshunoslikda hissiyotlarni ifodalashning eng samarali usuli bu-metaforalardan foydalanishdir. Shuning uchun so'nggi yillarda kognitiv metafora nazariyasida inson hissiyotlari va ruhiy holatlarini ifodalovchi metaforalar va ularning madaniy, milliy xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish tilshunoslikning muhim sohalaridan biriga aylanmoqda. Hissiyotlarni ifodalovchi metaforalar tilshunoslik va kognitiv psixologiya kesishgan nuqtada o'rganiladigan dolzarb masalalardan biridir. Chunki inson o'z ichki kechinmalarini, ruhiy holatini ko'pincha metaforalar orqali ifodalaydi

Kalit so'zlar: metafora, hissiyot, asosiy hissiyot, prototipik hissiyot, konseptual tizim, inson fiziologiyasi, madaniy universallik, konsept.

Abstract: Emotions are considered a fundamental component of human psychology. In linguistics, the most effective way of expressing emotions is through the use of metaphors. Therefore, in recent years, within the framework of cognitive metaphor theory, the study and analysis of metaphors that express human emotions and psychological states, as well as their cultural and national characteristics, has become one of the important areas of linguistic research. Metaphors expressing emotions are among the most relevant issues studied at the intersection of linguistics and cognitive psychology, since people often express their inner experiences and mental states through metaphors.

Key words: metaphor, emotion, basic emotion, prototypical emotion, conceptual system, human physiology, cultural universality, concept.

KIRISH

Inson hissiyotlarini ko'rsatish ifodalashda metaforalarning o'rni beqiyos. Hissiyot metaforalari orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va emotsional tajribalari obrazli tarzda ifodalanadi, bu esa o'zbek va ingliz tillarining madaniy hamda kognitiv xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi.

Hissiyot o'zi ikki xil ko'rinishga ega: asosiy va prototipik.

1. Asosiy hissiyotlar (basic emotions)- bu barcha til va madaniyatlarda mavjud bo'lgan tug'ma hissiyotlar hisoblanadi. Bularga g'azab, qo'rquv, baxt va hayrat kabilar kiradi.

2. Prototipik hissiyotlar (prototypical emotions)- hissiyotlar ichida markaziy o'rinda turuvchi hissiyot kategoriyasidir.

“Bu an'anada turli olimlar e'tibor qaratgan hissiyot tushunchalariga g'azab, qo'rquv, baxt, qayg'u, muhabbat, nafs, g'urur, uyat va hayrat kiradi. “Men bu to'plamni hissiyot tushunchalarining yetarlicha vakillik qiluvchi namunasi deb hisoblayman. Ularning ko'pchiligi prototipik hissiyot tushunchalari bo'lib, “asosiy hissiyotlar” ro'yxatlarining aksariyatida uchraydi (masalan, g'azab, qo'rquv, baxt, qayg'u), ba'zilar esa, masalan, muhabbat va hayrat, hech bo'lmaganda asosiy hissiyotlarning bahsli holatlarini ifodalaydi”¹⁰³. Badiiy va kundalik nutqda hissiyot ifodalovchi metaforalar keng qo'llanadi, ya'ni tilshunos ta'kidlaganidek “inson hissiyotlari gapirilganda, biz ko'pincha metaforik tilga murojaat qilamiz”¹⁰⁴. Haqiqatan ham, badiiy hamda kundalik nutqda inson o'z kechinmalari, ruhiy holati va emotsional tajribalarini bevosita emas, balki metaforik ifodalar orqali yetkazadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, metafora faqat badiiy vosita emas, balki inson tafakkuri va nutqining tabiiy mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amerikalik kognitiv tilshunos George Lakoffning mashhur “*Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*” (1987) asarida hissiy idrok haqida keng qamrovli ma'lumotlar keltirilib, kognitiv lingvistika rivojida katta ahamiyat kasb etgan. U inson hissiyotlarini bevosita metaforalar orqali “Hissiy tushunchalar tilda tasodifiy ifodalanmaydi; ular kognitiv modellar orqali tuzilgan murakkab semantik tizimdir”¹⁰⁵ degan fikrlari orqali metaforalar inson ongining ishlashi va hissiyotlarning konseptual tarzda vujudga kelish tartiblarini tushuntirib bergan.

Hissiyot metaforalari haqida yana bir tilshunos o'zining ahamiyatga ega bo'lgan fikrlarini va tahlillarini berib o'tgan. P. Ekman tomonidan ilgari surilgan asosiy emotsiyalar nazariyasiga ko'ra “asosiy emotsiyalar” inson evolyutsiyasi jarayonida shakllangan, biologik asosga ega va barcha madaniyatlarda bir xil tarzda ifodalanadi”¹⁰⁶. Tilshunos tomonidan ta'riflangan emotsional metaforalar tanadagi fizologik jarayon bilan bog'langan va bu uning o'ziga xos konseptual jihatini ifodalaydi. O'zbek tilidagi va ingliz tilidagi ko'plab asarlarda ruhiy holatni

¹⁰³ Kövecses, Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. B. 20.

¹⁰⁴ Kövecses, Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. B. 20.

¹⁰⁵ Lakoff, G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — p. 380–398.

¹⁰⁶ Ekman, P. Basic Emotions // *Handbook of Cognition and Emotion* / Ed. by T. Dalgleish, M. Power. — Chichester: John Wiley & Sons Ltd, 1999. — P. 45–60.

ifodalovchi metaforalarni juda ko'p o'rinlarda uchratish mumkin. "Ajabdan dong qotdi"¹⁰⁷, "Quvonchdan ko'ngli osmonga chiqdi"¹⁰⁸ kabi metaforik birliklardan o'zbek nasrida ko'p qo'llanilgan. Bu yerda "qotish - hayrat, ajablanish" ni, "balandlik -quvonch" ma'nolarini bildiradi. Ingliz tilida ham shunday emotsional metaforalarni tahlil qilish mumkin. "I was struck dumb with amazement"¹⁰⁹- qotish - hayrat, ajablanish; "My heart leaps up"¹¹⁰- balandlik -quvonch ma'nolarida ishlatilgan. Misollardan ko'rinadiki, ikki tilda ham hissiyot metafora bilan ta'sirchang va yana ham tushunarliroq tarzda va bir xil ma'noda qo'llangan. Bu albatta, uning madaniyatlarda universalligini yana bir bor isbotlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilshunoslikda his-tuyg'ularni ifodalashda "konsept" tushunchasi inson tafakkuri va hissiyotlari bilan bog'liq bo'lgan kognitiv asos bo'lib muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tillarda metaforalar, frazeologizmlar va ramzlar ma'lum bir hissiyotlarni namoyon etadi. Konsept esa ularning metaforik modellar va semantik maydonlarini aniqlab beradi. "Sevgi" konseptini o'zbek tilidagi va ingliz tilidagi ko'plab asarlarda uchratish mumkin. Bu tushuncha metaforik model sifatida qo'llanilib, asarning tasviriylilik va obrazlilikini yanada oshiradi. "Sevgi qalbiga ildiz otib, uni tutib oldi"¹¹¹ va "Love took root in her heart"¹¹² ikkala parchada ham sevgi konsepti o'simlik metaforasi orqali ifodalanagan. Hissiyot metaforalari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra inson hissiyotlari mavhum va shuning uchun metaforik vositalardan foydalangan holda ruhiy holatlar ifodalanadi. Hissiyot metaforalari har doim ham metaforik ifodalarning teng darajada qo'llanishidan shakllanmaydi. His-tuyg'ularning ichki sifati ko'proq metaforik tarzda ifodalanadi, tashqi harakatlarni esa oddiy tushunchalar orqali ifodalash mumkin. "Masalan, g'azab holatini olaylik. Inson g'azabining ichki sifati, ya'ni uning qanday "kechinayotganini" tashqi tomondan kuzatib bo'lmaydi. Ammo shu g'azab natijasida yuzaga keladigan tashqi harakatlar — masalan, "stolni mushtlash", "baqirish" — ochiqdan-ochiq, ya'ni jamoatchilikka ko'rinadigan xatti-harakatlardir"¹¹³.

XULOSA

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida hissiyot bilan bog'liq metaforalarga oid nazariy qarashlar, tilshunoslarning o'ziga cos tahlillari va ikki tilda ularning ishlatilish tartibi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, har ikki tilda hissiyot metaforalari insonning fiziologik, psixologik va madaniy tajribasiga

¹⁰⁷ Said Ahmad. *Ufq*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1974. – 260 b.

¹⁰⁸ Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1926. – 280 b.

¹⁰⁹ Brontë Ch. *Jane Eyre*. – London: Smith, Elder & Co., 1847. – 500 p.

¹¹⁰ Wordsworth W. *My Heart Leaps Up*. – London: Longman, 1807. – 40 p.

¹¹¹ Hoshimov, O'. *Dunyoning ishlari*. – Toshkent: Sharq, 1982. – 320 b.

¹¹² Hardy, T. *Tess of the d'Urbervilles*. – London: Osgood, McIlvaine & Co., 1891. – 592 p.

¹¹³ Frijda, N. H. *The Emotions*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 560 p.

asoslanadi. Metaforalar orqali g‘azab, qo‘rquv, baxt, qayg‘u, muhabbat kabi asosiy hissiyotlar konkret tasvirlar vositasida ifodalanadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi metaforalar milliy urf-odatlar, diniy tushunchalar va qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilidagi metaforalar ko‘proq individualistik va mantiqiy asosda shakllanadi. Bu esa hissiyot metaforalarining kognitiv universalligi bilan bir qatorda madaniy o‘ziga xosligini ham tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hissiyot metaforalari nafaqat tildagi obrazlilikni oshiradi, balki in9.son tafakkurining konseptual tizimini anglashda ham muhim o‘rin tutadi.

REFERENCES:

1. Kövecses, Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. B. 20.
2. Lakoff, G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — p. 380–398.
3. Ekman, P. Basic Emotions // *Handbook of Cognition and Emotion* / Ed. by T. Dalgleish, M. Power. — Chichester: John Wiley & Sons Ltd, 1999. — P. 45–60.
4. Said Ahmad. *Ufq*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1974. — 260 b.
5. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar*. — Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1926. — 280 b.
6. Brontë Ch. *Jane Eyre*. — London: Smith, Elder & Co., 1847. — 500 p
7. Wordsworth W. *My Heart Leaps Up*. — London: Longman, 1807. — 40 p.
8. Frijda, N. H. *The Emotions*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 560 p.
9. Hardy, T. *Tess of the d’Urbervilles*. — London: Osgood, McIlvaine & Co., 1891. — 592 p.

GENDER STEREOTIPLARI VA “AYOL” OBRAZINING KONSEPTOSFERADAGI AKS ETISHI

Bahromova Munira Madaminovna

Farg‘ona davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Аннотация: Ushbu maqolada gender stereotiplari kontekstida “Ayol” obrazining konseptosferada aks etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Til birliklari, madaniy kodlar va diskursiv yondashuvlar orqali ayollik konsepti mazmunining shakllanishi va uning jamiyatdagi gender munosabatlariga ta’siri yoritiladi. An’anaviy patriarxal tasavvurlar bilan zamonaviy gender tengligi tamoyillari o‘rtasidagi o‘zgarishlar kognitiv-lingvistik asosda izohlanadi. Tadqiqot natijalarida

konseptosferada ayol obrazining dinamik va ko'p qirrali xarakterga ega ekani ta'kidlanadi. Konseptning perseptual majoziy belgilari – vizual, akustik, ta'mli va taktil sezgilar asosida paydo bo'lishi, kognitiv, axborot va konseptual, ayol jinsiga ishora qiluvchi belgilari mavjudigi xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, ayollarning jamiyatdagi mavqei to'g'riqidagi to'liq ta'rif va tapixiy shayhlardan namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, gender, lingvistik izlanish, assotsiativ tajriba, genderologik tadqiqotlar, jins, erkak, ayol

Аннотация: В данной статье рассматриваются механизмы репрезентации образа «женщина» в концептосфере через призму гендерных стереотипов. Анализируются языковые единицы, культурные коды и различные типы дискурса, формирующие содержание концепта «женщина» и влияющие на гендерные отношения в обществе. Особое внимание уделяется трансформации традиционных патриархальных представлений под воздействием современных идей гендерного равенства. В результате исследования подчеркивается динамичность и многогранность образа в концептосфере. Вопросы, связанные с разработкой методики лингвистического исследования гендера, объяснение множество концепций понятия «гендер», что касается современного состояния гендерных исследований на Западе, что можно сказать сегодня о существовании собственно гендерных исследований, изучающих оба пола, а точнее – процесс социального конструирования различий между полами, гендерная специфика речи, репрезентация мужского и женского в языке.

Ключевые слова: гендер, лингвистическое исследование, гендерные исследования, мужской и женский пол, «маскулинное» и «фемининное»

Abstract: This article discusses the issue of genderology, how this concept entered the modern linguistic paradigm. Issues related to the development of methods of linguistic research of gender, the explanation of many concepts of the concept of "gender", as for the current state of gender studies in the West, what can be said today about the existence of proper gender studies studying both sexes, or rather, the process of social construction of differences between the sexes, gender specificity of speech, the representation of male and female in language.

Keywords: gender, linguistic research, gender studies, male and female gender, "masculine" and "feminine"

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda inson, uning jamiyatdagi mavqei va ijtimoiy-gender xususiyatlari muhim ilmiy qiziqish obyekti sifatida qaralmoqda. Xususan, ayol obrazi turli davrlar va madaniy muhitlarda shakllanib borgan bo'lib, u nafaqat biologik jins farqlari, balki jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy

rollar, qadriyatlar va stereotiplar orqali talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, “Ayol” konseptining konseptosferada aks etish jarayonini o‘rganish jamiyatdagi gender munosabatlarining mazmunini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Til — madaniyatning asosiy ko‘rsatkichi sifatida ayolga nisbatan qarashlarni, ijtimoiy kutishlar va qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Til birliklari, paremiologik materiallar, media nutqi va diskurslar orqali ayollik konsepti mazmuni shakllanadi va mustahkamlanadi. Ayni paytda, patriarxal dunyoqarashga asoslangan gender stereotiplari zamonaviy jamiyatda keskin transformatsiyaga uchrab, ayol obrazining yangi, ijtimoiy faol va teng huquqli talqinlari kuchayib bormoqda.

Mazkur tadqiqotda “Ayol” konsepti doirasida shakllangan gender stereotiplari, ularning lingvokulturologik va kognitiv jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri orqali ayol obrazining konseptosferadagi ko‘p qirrali xarakteri yoritiladi. Tadqiqot natijalari jamiyatdagi gender tengligi tamoyillarini qaror toptirish jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda “gender” atamasiga qiziqish ortganiga qaramay, uni ishlatishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bir tomondan, bu qiyinchiliklar ushbu konsepsiyaning qiyosiy yangiligi va boshqa tomondan, ushbu masala bo‘yicha xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va talqin qilish bilan bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, “gender” tushunchasining ko‘plab konsepsiyalarini izohlaydi. Ushbu masalani ko‘rib chiqish asosan jins va gender tushunchalari o‘rtasidagi farqlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotchilar tomonidan “gender” atamasining tan olingan eng mukammal ta’rifi Ann Oakli tomonidan ishlab chiqilgan: “Jins – bu erkak va ayol o‘rtasidagi biologik farqlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z. Shu bilan birga, gender madaniyat mavzusidir: u “erkak” va “ayol” ijtimoiy tasnifi bilan bog‘liq. Jinsning mavjudligi, genderning xilma-xilligini ham tan olish zarur”[1.,C.26]

Lingvistik tadqiqotlar genderni madaniyat hamda til hodisasi deb hisoblaydi va bu toifaning tildagi sintezini o‘rganadi. Shunday qilib, D.Malishenderni “ijtimoiy va psixologik jarayonlar majmuasi, shuningdek, jamiyat tomonidan yaratilgan shaxsning xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi madaniy munosabatlar, ijtimoiy strategiyalarni tanlash va boshqalar” sifatida tavsiflaydi [2.]

A.V.Kirilina lingvistik genderologiya muammolarini batafsilroq va tizimli tahlil qilib, konseptual va metodologik nuqtai nazardan hamda o‘rganilayotgan materialning tabiati nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin bo‘lgan oltita asosiy yo‘nalishni aniqlaydi:

1. Sotsiolingvistik gender tadqiqotlar.
2. Feministik tilshunoslik.

3. Ikkala jinsning lingvistik xatti-harakatlarini o'rganadigan haqiqiy gender tadqiqotlar.

4. Erkaklik (maskulinnost) tadqiqotlari XX asr oxirida paydo bo'lgan eng yosh yo'nalish.

5. Psixolingvistik tadqiqotlar.

6. Madaniyatlararo, lingvokulturologik tadqiqotlar, shu jumladan, gender subkulturalari gipotezasi [3.]

XX asrning 60-yillari oxiridan boshlab tilshunoslikda (asosan AQSH va Germaniyada) tilni feministik talqin qilish yoki feministik tilshunoslik tendensiyasi ajralib chiqdi. Ushbu yo'nalish bugungi kunda ham mavjud [3.] Uning paydo bo'lishi bir qator sabablarga ko'ra ham ekstralingvistik, ham intralingvistik xarakterga ega bo'ldi. Tilshunoslar bir qator voqealarni birinchi sabablar guruhiga, ayniqsa, AQSH va Yevropada "yangi ayollar harakati"ning rivojlanishi, "kognitiv evolyutsiya" deb nom olgan postmodernizm falsafasining gullagan davri va shu kabi sabablarga bog'lashdi. Ko'p asrlar davomida tildagi bilim qobiliyati erkaklar uchun imtiyoz bo'lib keldi. Bu holat erkaklar bilim sohasi eng intensiv va keng miqyosda amalga oshirilgan ta'lim va ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga beqiyos darajada kirish imkoniyatiga ega bo'lganligi bilan izohlandi. Ayollarning kognitiv faoliyati onalik va oilaviy vazifalarni bajarish bilan chegaralandi, lekin bu tilda o'z aksini topish uchun ta'sir ko'rsatmadi [4.,C.19]. Tilni feministik talqin qilishning paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan haqiqiy lingvistik sabablarga quyidagilar kiradi:

1. Birinchidan, 50-60-yillarda tilshunoslikning o'zida bir qator yangi ilmiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi – psixolingvistika, statistik sotsiolingvistika, pragmatika nazariyasi.

2. Ikkinchidan, tilshunoslik tarixida inson omilini o'rganishning birinchi o'ringa chiqishi va tilga xos insonning bioijtimoiy xususiyatlari, shu jumladan, uning jinsi bilan aloqador muammolar.

3. Uchinchidan, fandagi paradigmaning o'zgarishi (strukturalizmdan pragmatikaga o'tish) va ijtimoiy fanlarda gender tadqiqotlarini rivojlantirish uchun tegishli uslubiy hamda ilmiy asoslarning paydo bo'lishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tilni feministik tanqid qilish aniq fanlararo yondashuv tufayli tilshunoslikdagi gender tadqiqotlar boshqa sohalaridan ajralib tursa-da, ayni paytda, bizning fikrimizcha, u tilning gender tadqiqotlari kesishmasida bo'lib, shu bilan birga, tanqidiy tilshunoslikning tabiiy davomchisi hisoblanadi[3.]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender omili nafaqat shaxsning nutqiy harakatlariga ta'sir qiladi. Gender farqlar tilning barcha "bosqichlarida" – fonetika, lug'at, so'z yasalihi, shuningdek, so'zlardan foydalanish kabilarda kuzatiladi.

Gender masalalari bilan shug'ullanadigan olimlar qiziqishlari doirasiga "erkaklik" va "ayollik" tushunchalarining semantik qamrovida turli madaniyatlarda va diaxroniyada bir xil madaniyat doirasida qanday farqlanish haqidagi masalalar kiradi; gender identifikatsiyasini yaratish uchun qanday lingvistik vositalardan foydalaniladi; jins metaforasining madaniyatlardagi o'rni qanday; qaysi semantik sohalarda jins tilda aks etadi; gender yondashuv mentalitetni o'rganish uchun qanday ma'lumotlarni beradi va hokazo.

"Jins va til" muammosiga oid ba'zi kuzatishlar asosan dialektologik adabiyotlarda va grammatikalarda mavjud. Asosan ayollar nutqi va xulq-atvorining xususiyatlari haqida umumiy fikr ishlab chiqildi (erkaklar nutqi me'yor, ayollar nutqi undan og'ish sifatida qaraldi). Sepir o'zining "Ona tilida nutqning erkak va ayol variantlari" asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: aksariyat hollarda ayol variantlarini qisqartirilgan shakllar sifatida tushuntirish mumkin... Ehtimol, qisqartirilgan ayol nutqi shakllari jamiyatlardagi ayollarning kamroq markaziy yoki kamroq ritual ahamiyatga ega maqomining shartli belgilaridir"[5.,C.461].

Tilshunoslikdagi zamonaviy gender tadqiqotlarida quyidagilarga e'tibor qaratiladi: erkak va ayol tillarining ijtimoiy tabiati, erkak va ayol nutqiy aktlarining o'ziga xos xususiyatlari va konseptlarning gender tabiatini o'rganishga. Avvalo, "erkak" va "ayol" konseptlari turli madaniyatlarda hamda tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Tadqiqot obyekti asosan "ayol" konsepti bo'lib, u belgilangan me'yordan farq qiladi, uning standarti erkak hisoblanadi.

Tabiat hodisalarining gender yorlig'i, xususan, folklor asarlarida, birinchi navbatda, "bo'ri", "tulki" kabi neytral (giperik) leksemalar jinsga asoslangan ikkilamchi korrelyatsiyalarga qurilgan ertaklarda namoyon bo'ladi. "Tulki" har doim – "ayol" va "bo'ri" har doim – "erkak". Jinsga asoslangan ikkilamchi motivatsiya daraxtlarning nomlariga va butun o'simlik hayotiga o'tkaziladi: rus kishisi uchun "qayin" ayolning ramzi, agar ayolning o'zi bo'lmasa (xuddi shu narsani "olma daraxti", "gilos", "tol", "qarag'ay" haqida ham aytish mumkin))[6.,C.63]. O'zbek tilida esa ayol hamisha gulga qiyoslangan bo'lsa, erkakka nisbatan esa "chinor" ramziy ma'noda qo'llanib kelinadi.

Jamiyatning muhim a'zosi bo'lgan ayol tilda, birinchi navbatda, erkakka nisbatan tavsiflanadi: lug'at ma'lumotlari erkak va ayolning qarama-qarshiligi va taqqoslashiga asoslanadi. Ayolning qiyofasi uning anatomik xususiyatlari, tashqi ko'rinishi, yoshi, ijtimoiy roli (xotin) tavsifi orqali beriladi. Lug'atlarda va tajribalarda keltirilgan "ayol" konseptining lingvistik ifodalari dunyoning o'ziga xos milliy qarashlarini boshqa madaniy asosda aniqlashga imkon beradi. Zamonaviy yoshlarning lingvistik ongini aks ettiruvchi ayol haqidagi g'oyasi XX asrning 70-yillarini aks ettiruvchi assotsiativ lug'atda qayd etilgan ayol g'oyasidan farq qiladi, bu konsept tabiatining potensial dinamikasiga mos keladi.

Qayd etish lozimki, AQShning Dictionary.com onlayn-lug'ati "ayol" ("woman") so'zini "2022-yil so'zi" deb e'lon qildi. Ma'lum qilinishicha, yil davomida "ayol" so'ziga murojaat 1400% ga ko'tarilgan [7].

2022-yilda O'zbekistonda ilm-fan sohasida muvaffaqiyatga erishgan mashhur o'zbek ayollari nomi bilan ataluvchi 16 ta stipendiya ta'sis etildi. Ular orasida Suyuma G'aniyeva singari zabardast olim, Halima Hudoyberdiyeva, Munojot Yo'lchiyeva kabi mashhur san'at namoyandalari nomlari ham zikr qilingan.

Shuni qayd etish lozimki, mavzu doirasida "Google" platformada «ayol» kontseptosferasi kognitiv maydonining milliy ongda timsolini aniqlash maqsadida o'tkazilgan assotsiativ-ijtimoiy so'rovnoma natijalarining statistik tahlili ilovalarda qayd etilgan. «Ayol» kontseptosferasi bo'yicha assotsiativ-ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish maydoni Google platformasi bo'lib, unda onlayn-servis orqali 24 ta test shaklidagi so'rovnoma e'lon qilindi. Ushbu so'rovnoma 2022-yilning 10-20-iyun kunlari o'tkazildi va respondent sifatida O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida yashovchi turli yoshdagi ishtirokchilar qatnashdi. So'rovnomada jami 687 nafar 18 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fuqarolar ishtirok etdi. Assotsiativ tajriba materiallaridan kelib chiqadiki, mamlakat yoshlarining ijobiy fazilatlariga ega ayolni afzal ko'radi. Har bir Ayol zaminida o'z onasini, turmush o'rtog'i, qiz farzandini, umuman olganda kelajakni ko'radi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yosh, o'rta va katta yoshdagi guruhlarining konseptosferalarida "ayol" konsepti umumiy kognitiv xususiyatlar va kognitiv tasniflagichlar to'plami bilan ham izohlanadi va farqlar faqat periferik zonada namoyon bo'ladi: yoshi ortib borishi bilan individual kognitiv xususiyatlar soni ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь гендерных терминов / Ред. А. А. Денисова; Регион.обществ.организация «Восток Запад»: Женские Инновац. проекты. – М.: Информация XXI в., 2004. – С.26

2. Кондратьева О.Н. Гендерная характеристика концептов душа, сердце и ум в древнерусских текстах [Электронный ресурс] / О. Н. Кондратьева. – Режим доступа: www.sofik-rgi.narod.ru/avtor/konferencia/kondratieva.htm.

3. Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах [Электронный ресурс] / А. В. Кирилина. – Режим доступа: www.gender-cent.ryazan.ru/kirilina.htm.

4. Колосова О. А Когнитивные основания языковых категорий (на материале современного английского языка) : Дисс. ... д-ра филол. наук / О. А. Колосова. – М., 1996. – С.19

5. Сепир Э. Мужские и женские варианты речи в языке яна I Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологи / пер. с англ, под ред. и с предисл. А.Е. Кибрика. – М.: Прогресс, 1993. – 654с. – С. 461.

6. Руделев В.Г. Русское именное склонение и русский образ мира // В.Г. Руделев. Собр. соч.: в 6т. Т.6. Друг мой - язык: Избранные произведения по общему и русскому языкознанию. 4.2. – Тамбов, 2002. – 182 с. – С. 63.

7. Электрон манба
<https://www.wonderzine.com/wonderzine/life/news/266923-woman-2022>.

8. Rustamovna, U. N., and B. M. Madaminovna. "THE STUDY OF THE CONCEPT AS A UNIT OF COGNITIVE LINGUISTICS." Modern Journal of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 66-69.

9. Умарова, Наргиза Рустамовна, and Мунира Мадаминовновна Бахрамова. "'АЁЛ' КОНЦЕПТИНИНГ АССОЦИАЦИЯЛАРИ (Концептнинг ижтимоий, жисмоний, шахсий сифатлари)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.10 (2022): 24-32.

10. Бахрамова, М. М. "МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АППАРАТ ЭСТЕТИКИ И ФЕНОМЕН ИНФОРМАЦИИ." Актуальные проблемы современной науки 4 (2021): 33-36.

11. Bahromova, M. M. (2023). "AYOL" KONSEPTOSFERASIDA GENDER MUNOSABATLARINING IFODALANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (9), 513-518.

YAPON VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISH JARAYONI: TIPOLOGIK O‘XSHASHLIKLAR VA MILLIY XUSUSIYATLAR

Qosimova Gulnora Baxtiyorjon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Maqolada yapon va o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanish jarayoni, ularga xos didaktik va badiiy yo‘nalishlar tahlil etilgan. Shuningdek, har ikki adabiyotda bola shaxsini tarbiyalash, milliy qadriyatlarni ifoda etish va realistik tasvirga intilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: yapon va oʻzbek bolalar adabiyoti, didaktizm, realizm, milliy qadriyat, tipologik tahlil.

Bolalar adabiyoti har bir xalqning milliy madaniyati, maʼnaviy qadriyatlari va taʼlim-tarbiya tizimi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan muhim soha hisoblanadi. U nafaqat estetik taassurot uygʻotishni, balki bola ongida milliy gʻoya va axloqiy ideallarni shakllantirishni ham maqsad qiladi. Yapon va oʻzbek bolalar adabiyoti, har ikkisi ham oʻziga xos milliy anʼanalar va ijtimoiy sharoit asosida rivojlanib kelgan boʻlsa-da, ularning tipologik tahlili umumiy tendensiyalar bilan birga oʻziga xos farqlarni ham namoyon etadi.

Yaponiya va Oʻzbekiston bolalar adabiyotining shakllanishiga umumiy manba – xalq ogʻzaki ijodi asos boʻlgan. Bu jarayonda xalq ertaklari, qoʻshiqlar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar bolalarni axloqiy va maʼnaviy jihatdan tarbiyalash vositasi boʻlib xizmat qilgan.

Oʻzbekistonda bolalar tarbiyasi bilan bogʻliq ogʻzaki ijod qadimdan jamiyatning maʼnaviy tarkibida muhim oʻrin tutgan. Ilk yozma manbalarda ham bolalarga xos tarbiyaviy gʻoyalar uchraydi. Masalan, XI-XVI asrlarda yaratilgan Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” va Alisher Navoiy asarlari didaktik mazmunga ega boʻlib, yosh avlodni bilim, adolat va odobga chorlaydi¹¹⁴.

Yaponiyada esa bolalarga moʻljallangan ilk yozma shakllar Edo davrida (XVII-XIX asrlar) paydo boʻlgan. Bu davrda illyustratsiyalangan kitoblar – kusadzosi va akaxon kabi turlar ommalashgan boʻlib, ular didaktik gʻoya bilan birga hikoyaviy va koʻngilochar xususiyatga ega edi. Bu asarlar koʻpincha anʼnaviy hikoyalar (otogizoshi), qugʻirchoq teatri sahnalari (kojyoruri) yoki samuraylar haqidagi rivoyatlardan ilhomlangan¹¹⁵. Shu bilan birga, yapon olimlari bu asarlarni hozirgi maʼnodagi bolalar adabiyoti emas, balki uning tarixiy muqaddimasi sifatida baholaydilar¹¹⁶.

Bolalar adabiyotining zamonaviy bosqichi har ikki mamlakatda ham islohotlar davri va taʼlim tizimidagi yangilanishlar bilan uzviy bogʻliq holda boshlangan.

Yaponiyada bu jarayon Meyji islohoti (1868) bilan bogʻlanadi. Bu davrda bolalar madaniyatiga boʻlgan qiziqish kuchayib, maxsus jurnallar – 「少年園」 (“Oʻsmirlar bogʻi”), 「小国民」 (“Kichik fuqaro”), 「日本の少年」 (“Yaponiya yoshlari”) kabi nashrlar paydo boʻldi. Zamonaviy yapon bolalar adabiyotining asoschisi sifatida Ivaya Sazanami (1870-1933) tan olinadi. Uning 「こがね丸」

¹¹⁴ Батафсил қаранг: Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006. – B.26.; Safarov O., Barakaev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2022. –B.72., 74-96.

¹¹⁵ 菅忠道「菅忠道著作集」第1巻 日本の児童文学. あゆみ出版. 1983. - 427 p.

¹¹⁶ Williams K.H. Visualizing the Child: Japanese Children's Literature in the Age of Woodblock Print, 1678-1888. Harvard university. 2013.

(“Koganemaru”, 1891) asari, “少年文学叢書” (O‘smirlar adabiyoti to‘plami) turkumida nashr etilgan bo‘lib, Yaponiyadagi ilk haqiqiy bolalar adabiyoti namunasi sifatida baholanadi. Sazanami milliy va xorijiy ertaklarni qayta ishlab, zamonaviy ruhda axloqiy xulosalarni yangi badiiy shaklda ifoda etdi. Shu bilan birga, bu davrda tarjima adabiyoti ham rivojlandi. Xususan, D. Defoning “Robinzon Kruzo” (1883) va F.Xodjson Bernetning “Kichik lord Fauntleroy” (1890–1892) asarlari yapon o‘quvchilariga taqdim etildi¹¹⁷.

O‘zbekistonda esa zamonaviy bolalar adabiyotining ildizlari jadidchilik harakati bilan bog‘liq. XX asr boshlarida Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma‘rifatparvarlar “Birinchi muallim”, “Yengil adabiyot” kabi darslik va xrestomatiyalar yaratib, yosh avlodni bilim, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirdilar¹¹⁸.

Yaponiya bolalar adabiyotida XX asr boshlarigacha nasixatbozlik ustuvor bo‘lgan. 1918 yilda tashkil etilgan “赤い鳥” (“Qizil qush”) maktabi bu tendensiyaga qarshi chiqib, “doshin bungaku” – “bola qalbi adabiyoti” g‘oyasini ilgari surdi. Maktab asoschisi Suzuki Miyokichi bolalarning pok dunyosi va soddaligiga badiiy qiymat berishga intildi. Biroq keyingi tanqidchilar bu yo‘nalishni ortiqcha ideallashtirilgan va hayotiy voqelikdan uzilgan deb baholadilar. 1920-1930-yillarda proletar bolalar adabiyoti va keyinchalik “hayot haqidagi bolalar adabiyoti” (seykatsu dova) paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlar bolalar hayotini ijtimoiy realizm asosida aks ettirishga harakat qildi. Yozuvchi Subota Jyoji o‘z asarlarida bola ongining mustaqilligi va shaxsiy tajribasini yuksak darajada realistik tarzda ifoda etdi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda yapon bolalar adabiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Isii Momoko, Takeyama Mitidzi kabi yozuvchilar demokratik, tinchlikparvar va realistik g‘oyalarni yoritgan asarlari bilan tanildi. 1960-yillarda bolalar adabiyoti tanqidi asarlarni tahlil etishga asoslanib, bolalarning haqiqiy ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan realistik, zavq bag‘ishlovchi asarlarni yaratish zarurligini ta’kidladi. Biroq 1980-yillargacha yapon bolalar tarixiy nasri (jido rekishi shyosetsu) badiiy yetuklik darajasiga to‘liq erisha olmadi. Buning asosiy sabablaridan biri – kattalarning hanuz bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga intilishi bo‘lib, natijada asarlarda syujetning sustligi, obrazlar, ayniqsa, qiz bolalar xarakteri va ichki ruhiyatining yetarlicha ochilmagan¹¹⁹i kuzatilar edi.

O‘zbek bolalar adabiyotida ta’lim va tarbiya g‘oyasi har doim markaziy o‘rinda turadi. Bu adabiyotning bosh maqsadi – yosh avlodni vatanparvarlik,

¹¹⁷ 菅忠道「菅忠道著作集」第1巻 日本の児童文学. あゆみ出版. 1983. - 427 p.

¹¹⁸ Батафсил қаранг: Safarov O., Barakaev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2022. –B.72., 74-96.

¹¹⁹ Батафсил қаранг: Collins W. O. Japanese childrens historical fiction up to 1983: a critical assessment of its place within Japanese childrens literature. Diss. Loughborough University, 2014.

insonparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdir. U folklor va pedagogika bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, xalq ertaklari, topishmoqlar, qo‘shiqlar bolalar ongida tabiatga ehtirom, oilaga sadoqat, mehnat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyotida tilning obrazlilik va ravonligi katta ahamiyatga ega. Yozuvchi g‘oyaviy mazmunni bolalarning yosh xususiyatlariga mos, sodda va tushunarli uslubda ifoda etishi lozim. Zamonaviy bosqichda o‘zbek bolalar adabiyoti ham mavzu jihatidag yanada boyidi. Maktab hayoti, do‘stlik, tabiat, texnika, fantastika kabi mavzular¹²⁰da Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon, Xojiakbar Shayxov singari yozuvchilar ijod qildilar. Ular asarlarida zamon bolasining hissiyoti, orzulari va dunyoqarashini jonli badiiy obrazlar orqali aks ettirdilar.

Yapon bolalar adabiyoti o‘zining ilk bosqichlaridanoq badiiy mustaqillik va realistik ifoda uchun kurashgan bo‘lsa, o‘zbek bolalar adabiyoti ta’lim va tarbiya g‘oyasini o‘z mohiyatining asosiy ustuni sifatida saqlab kelmoqda. Yapon adabiyoti tarixi didaktizmni yengish va bola dunyosiga erkin badiiy yondashuvni izlash bilan xarakterlansa, o‘zbek adabiyoti uni milliy ma’naviyatning ajralmas qismi, qadriyat sifatida qabul qilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin har ikki mamlakatda bolalar adabiyoti jadal rivojlandi, janr va uslub jihatidan kengayib, turli yo‘nalishlar shakllandi. Yaponiyada Ozava Tadasi va Yamasita Xaruo, O‘zbekistonda esa Hamid Nazir, Anvar Obidjon hamda Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi yozuvchilar ijodi bu jarayonning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Shunday qilib, tipologik nuqtai nazardan, yapon bolalar adabiyotining bosh tendensiyasi – didaktizmdan badiiy mustaqillik va realistik ifodaga o‘tish bo‘lsa, o‘zbek bolalar adabiyotidagi yetakchi yo‘nalish – tarbiyaviy vazifani milliy ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar tizimining markaziga aylantirishdir. Har ikki adabiyotning umumiy maqsadi – bola shaxsini komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qilishidir. Biroq ular bu maqsadni amalga oshirishdagi estetik yondashuvi va badiiy ifoda vositalari bilan bir-biridan farqlanadi:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Collins W. O. Japanese childrens historical fiction up to 1983: a critical assessment of its place within Japanese childrens literature. Diss. Loughborough University, 2014.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006. – 216 b.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2010. – 368 b.
4. Safarov O., Barakaev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2022. – 320 b.

¹²⁰ Батафсил қаранг: Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2010. – 368 b.; Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006. –216 b.

5. Williams K.H. Visualizing the Child: Japanese Children's Literature in the Age of Woodblock Print, 1678-1888. Harvard university. 2013.

6. 菅忠道「菅忠道著作集」第1巻 日本の児童文学. あゆみ出版. 1983. - 427 p.

3-SHO‘BA

NAZARIY VA AMALIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

O‘ZBEKISTON OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA KO‘PTILLILIK HODISASI XUSUSIDA

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich

FarDU professori, f.f.n.

Annotatsiya. *Maqola O‘zbekistondagi ko‘p tilli ijtimoiy-madaniy makonda til kontaktlarining soha va vaziyatga ko‘ra qanday shakllanishini tahlil qiladi. Davlat tili sifatida o‘zbek tili birlashtiruvchi va normativ maydonni belgilasa, rus tili tarixiy-institutsional omillar sabab muloqot, ish yuritish hamda ilmiy-texnik diskursda muhim o‘rin tutadi; Samarqand–Buxoroda tojik tili bilan ikki tillilik odatiy, Qoraqalpog‘istonda esa qoraqalpoq–o‘zbek parallel rasmiy qo‘llanishi mavjud. Globallashuv ta‘sirida ingliz tili ta‘lim, fan va texnologiya orqali kuchaymoqda. Matbuot/OAVda funksional taqsimot ustuvor: rasmiy platformalarda o‘zbek tili asosiy, zaruratda rus/ingliz elementlari (qisqartma, nomlar) asimmetrik tarzda qo‘shiladi; mustaqil OAVlarda esa parallel bo‘limlar va stilistik kod-aralashuv ko‘proq uchraydi. Dell Haymsning kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi kontekstga mos kod tanlovining nazariy asosini beradi. Umuman, matbuot misolida ko‘rinadiki, ko‘p tillilik axborotni keng auditoriyaga yetkazish, aniqlik va ta‘sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, biroq rasmiy janrlarda kodga sodiqlik talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘p tillilik, til kontaktlari, kod almashuvi, kod aralashuvi, funksional taqsimot, rasmiy/norasmiy uslub, kommunikativ kompetensiya, Dell Hayms, OAV til siyosati, simmetrik/asimmetrik bilingvizm, o‘zbek tili, rus tili, tojik tili, qoraqalpoq tili, ingliz tili.*

O‘zbekiston jamiyati ko‘p tillilik muhiti bilan ajralib turadi. O‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lib, milliy birlik va madaniy boylik ramzi sanalsa-da, rus tili hamon keng doirada muloqot va ish yuritish tili sifatida o‘z mavqeini saqlab kelmoqda [4]. Shuningdek, aholi zich yashaydigan ba‘zi hududlarda tojik tili ishlatiladi – xususan, Samarqand va Buxoro shaharlari tarixan **tojik tilida so‘zlashuvchi** hamjamiyatlari bilan mashhur bo‘lib, mazkur mintaqalarda o‘zbek-tojik ikki tilliligi odatiy hol sanaladi [4]. Qoraqalpoq tili esa Qoraqalpog‘iston Respublikasida rasmiy maqomga ega bo‘lib, o‘zbek tili bilan bir qatorda davlat idoralarida va ta‘limda qo‘llanadi. Nihoyat, jahon integratsiyasi jarayonida **ingliz tilining** ahamiyati ortib bormoqda – ilm-fan, texnologiya va ta‘lim sohalarida inglizcha atamalarning kirib kelishi hamda yoshlarda ushbu tilni o‘rganishga qiziqish kuchaygani kuzatilmoqda [1].

Bu ko'p tilli landshaftda til kontaktlari turli sohalarda rang-barang shakllar kasb etadi. Matbuotda davlat va nodavlat OAV ayrim hollarda bir nechta tildan foydalanadi, ta'lim muassasalarida dars jarayonida o'zbekcha va ruscha aralash nutq hodisasi uchrashi mumkin, rasmiy hujjatlarda davlat tiliga rioya etish talab etilar ekan, norasmiy xizmat muomalalarida rus tilining qo'llanishi davom etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda esa yoshlar o'rtasida o'zbek va rus tillarining erkin almashinuvi, hatto inglizcha so'z va qisqartmalar ishtirokidagi aralash nutq keng tarqalgan. Shu bois tilshunoslikda **soha va kontekstga qarab tildan foydalanish** masalalarini o'rganish dolzarbdir.

Har qanday nutq jarayonida til vositalarini kontekstga mos tarzda tanlash muhim ahamiyatga ega. Amerikaning mashhur sotsiolingvisti Dell Hayms kommunikativ kompetensiya nazariyasida **grammatik me'yorlarni o'z o'rnida qo'llay bilish uchun ularning "qo'llanish qoidalari"ni ham bilish lozimligini** ta'kidlagan edi – ya'ni, **kontekstsiz grammatika qoidalari o'zidan o'zi foydasizdir** [2]. Haymsning fikricha, kim qachon, qayerda, kim bilan va qanday maqsadda so'zlashayotganini hisobga olish, ya'ni nutqning ijtimoiy-ma'naviy kontekstini bilish kommunikativ kompetensiyaning asosiy unsurlaridandir. Bu yondashuv tilni faqat tizim sifatida emas, balki **ijtimoiy hodisa** sifatida o'rganishga zamin yaratdi.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari (OAV) til kontaktlari eng aniq ko'rinadigan sohalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston OAV tizimida davlat tomonidan asos solingan gazeta va jurnallarning aksariyati o'zbek tilida olib boriladi, biroq ayrim nashrlarning ruscha versiyalari ham mavjud. Masalan, hukumatga qarashli **"Xalq so'zi"** gazetasi bilan bir vaqtda uning rus tilidagi nashri **"Народное слово"** chiqariladi. Shuningdek, milliy axborot agentliklari xabarlarini bir necha tilda tarqatishga harakat qilmoqda: O'ZA va Dunyo AA kabi agentliklar yangiliklarni o'zbek, rus, ingliz tillarida e'lon qiladi. Bu holat matbuot sohasida **simmetrik ko'p tillilikning bir ko'rinishi bo'lib, ya'ni bir xil axborot mazmuni parallell ravishda bir nechta tilda beriladi**. Rasmiy davlat OAV asosan o'zbek tiliga tayansa-da, rus tilidagi kontent ham keng auditoriya uchun mo'ljallangan (ayniqsa, rusiyzabon aholi va qo'shni mamlakatlar uchun). Nodavlat va mustaqil OAVlarda esa til masalasida nisbatan erkinlik ko'proq: masalan, **Kun.uz, Daryo.uz, Gazeta.uz** kabi internet-nashrlar xabarlarini o'zbek va rus tillarida alohida bo'limlarda chop etadi, ayrim hollarda mualliflar intervyu yoki materialdan kelib chiqib, bevosita qaysi tilda yozishni ham tanlashadi.

Matbuot materiallarida **kod almashuvi** ko'pincha **iqtibos keltirish yoki termin ishlatish** ko'rinishida uchraydi. Davlat OAV rasmiy uslubga sodiq qolgan holda asosan o'zbek tilida yozadi, biroq xorijiy hodisalar yuzasidan xabar berganda xalqaro atamalar va tashkilotlarning nomlari ko'pincha asl tilda keltiriladi.

Masalan, yangilik xabarlarida **“YeIn” (Yevropa Ittifoqi)**, **“MI6”** kabi qisqartmalar yoki **“Deutsche Welle”, “The New York Times”** kabi nomlar aynan o‘z tildagi shaklida berilishi mumkin. Bu o‘rinda jurnalistlar axborotning aniqligini saqlash va tanish brend nomlarini o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazish maqsadida kod almashishga murojaat qilishadi. **M.Sharipova** o‘tkazgan tadqiqotda o‘zbek va rus matbuotida qisqartma va abbreviaturalarning qo‘llanilishi solishtirilib, **har ikki tilda kommunikativ tejamkorlik maqsadida qisqartmalar faol qo‘llanishi**, lekin ularning shakllanishi va qabul qilinishida ba’zi farqlar borligi ko‘rsatilgan [3]. Jumladan, rus tilida xalqaro tashkilot nomlarining ruscha qisqartmalari (masalan, **OOH – BMT**) keng ishlatilsa, o‘zbek tilida ko‘proq asl (inglizcha) qisqartma yoki ularning o‘zbekcha izohlari qo‘llanadi. Bu kabi misollar matbuot tilida **asimmetrik kod almashuvini** ham ko‘rsatadi – ya’ni, ustuvor til sifatida matn o‘zbek tilida davom etsa-da, kerak joyda boshqa tildan unsurlar kiritiladi.

Davlat va nodavlat OAV tili o‘rtasida uslubiy farqlar ham mavjud. Davlat nashrlari odatda **adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya qilgan holda**, rasmiy va kitobiy uslubda yozadi; unda chet tillar aralashuvi minimallashtiriladi. Nodavlat internet-nashrlarda esa ba’zan sodda, og‘zaki nutqqa yaqin uslub qo‘llanib, auditoriyani jalb etish uchun **publitsistik emotsionallikka** urg‘u beriladi. Bunday materiallarda (ayniqsa, blog postlar, tahliliy maqolalarda) muallif **stilistik maqsadda** kod almashinuvidan foydalanishi mumkin. Masalan, muallif o‘z fikrini kuchaytirish yoki kinoya qilish uchun rus tilidagi mashhur iborani keltirib o‘tishi, so‘ng uni sharhlab berishi mumkin. Yoki ingliz tilidagi maqol yoki iqtibosni aynan keltirib, matnda unga munosabat bildiradi. Bunday usul, bir tomondan, **ikki kodli auditoriya** – ham o‘zbek, ham rus (yoki ingliz) tilini tushunadigan o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnga boy ma’no berish va uslubiy boyitish vazifasini o‘taydi.

Jurnalistik amaliyotda ko‘p tillilikning funksional jihatlari shundan iboratki, har bir til o‘ziga xos rol o‘ynaydi. O‘zbek tili **axborotni yetkazishning bazaviy vositasi** sifatida xizmat qilsa, rus tili **qo‘shimcha kontekst yoki mutaxassis fikrini asl holida keltirish** uchun ishlatilishi mumkin (ayniqsa, texnik yoki huquqiy terminlar borasida). Ingliz tili esa, asosan, **xalqaro yangiliklar** va xorijiy manbalarni yoritishda paydo bo‘ladi – masalan, xalqaro konferentsiya nomlarini (COP26, G20) yoki global voqealarga doir atamalarni (Brexit, COVID-19) inglizcha shaklda berish hollari bor. Bu misollar OAV tilida **simmetrik bo‘lmagan** til aloqalarini ko‘rsatadi: ya’ni, matn asosiy bir tilda bo‘ladi (o‘zbekcha), boshqa tillar esa unga **subordinat** (bo‘ysunuq) tarzda, ma’lum vazifani bajarish uchun aralashtiriladi. Shu bilan birga, respublikamizdagi ayrim ikki tilli nashrlar (masalan, **“Ovozi Tojik”** gazetasi – tojik va o‘zbek tillarida) yoki ko‘p tilli telekanallar (O‘zMTRKning rus va ingliz tillaridagi kanallari) misolida

parallell ko‘p tillilik ko‘rinadi. Bunday holatda bir xil kontent teng huquqli ravishda ikki tilda olib boriladi – bu **simmetrik til aloqasi** bo‘lib, asosan, turli tilli auditoriyalar ehtiyojidan kelib chiqadi.

Matbuot sohasida kod almashuvi va ko‘p tillilikning rasmiy hamda norasmiy ko‘rinishlarini ajratish mumkin. Rasmiy axborot janrlarida (yangilik, rasmiy xabar) kodga sodiqlik kuchli – matn deyarli to‘liq o‘zbek tilida yuritilib, faqat zarur terminlar tarjimasiz beriladi. Norasmiyroq janrlarda (kolumnistika, intervyu, blog) esa muloqot xarakteri yaqqolroq bo‘lib, yozuvchi yoki suhbatdosh o‘z nutqida erkinroq tarzda boshqa tildagi so‘z yoki iboralarni qo‘shishi mumkin. Jurnalistikaning bunday uslubi **kod aralashuvi** deb ataladi va odatda stilistik yoki auditoriyaga yaqinlik hosil qilish maqsadida qo‘llanadi [3].

Xulosa qilib aytganda, matbuot va OAVda o‘zbek tilining rus, ingliz, tojik tillari bilan aloqasi asosan *funksional ajratilish* tamoyili bilan kechadi – ya’ni har bir til ma’lum vazifani bajaradi. Zarurat tug‘ilganda kod almashuvi sodir bo‘ladi, biroq rasmiy OAVda bu jarayon nazorat ostida (asimmetrik), mustaqil OAVda esa nisbatan erkinroq (ko‘proq simmetrik). Har ikkala holatda ham maqsad – axborotni kengroq auditoriyaga yetkazish va matnning ta’sirchanligini oshirish.

Xulosa

Maqola shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda til aloqalari kontekstga sezgir va sohalar bo‘yicha differensiallashgan: rasmiy OAVda o‘zbek tili ustuvor bo‘lib, boshqa kodlar faqat funksional ehtiyojda qo‘shiladi; nodavlat nashrlarda auditoriya profiliga qarab ikki/uch tilda parallel kontent va stilistik aralashuv qo‘llanadi. Bunday model bir tomondan axborotning aniq va tez tarqalishini, boshqa tomondan – milliy adabiy me’yorni saqlashni ta’minlaydi. Tizimli yondashuv (Hayms nazariyasi) kontekstga mos kod tanlashni me’yorlashtirishga yordam beradi. Natijada, ko‘p tillilik jamiyatdagi kommunikativ samaradorlikni oshiradi: o‘zbek tili integratsion yadpo sifatida qoladi, rus va ingliz tillari esa tegishli vazifalarda axborotni boyitadi; hududiy kontekstlarda tojik va qoraqalpoq tillari bilan hamohang qo‘llanish ijtimoiy uyg‘unlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Languages_of_Uzbekistan#
2. **Hymes D.** On Communicative Competence // *Sociolinguistics*. – 1972. – B. 269-293.
3. **Sharipova M.K.** Efficiency in Expression: A Comparative Study of Abbreviation Usage in Uzbek and Russian Languages within the Media Landscape // *European Journal of Humanities and Educational Advancements*. – 2023. Vol.4, №7. – B. 36-40.

4. **Tagaeva F.E.** Comparative Study of Uzbek, Russian, Tajik, and English Languages in Bukhara's Sociolinguistic Landscape // *Proceedings of International Conference on Multilingualism*. – 2023. – B. 335-346.

UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR BILAN ALOQADORLIKDA IRONIK MUNOSABATNING YUZAGA CHIQISHI

E.Ibragimova,
FarDU professori v.b.

Annotatsiya

Ushbu maqolada intonatsion-fonetik vositalar orqali ironik mazmun ifodalashning lingvistik mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqotda emfatik urg'u, unli tovushlarning cho'zilishi, undosh tovushlarning qavatlanishi va urg'uning ko'chirilishi kabi fonetik hodisalarning ironiyani ifoda etishdagi roliga e'tibor qaratilgan. Nutqdagi ekspressivlik, emotsional kuch va baho munosabatining fonetik jihatdan qanday namoyon bo'lishi misollar asosida ko'rsatilgan. Ironiyaning fonetik ifoda vositalari so'zlovchining subyektiv munosabatini, his-tuyg'ularini va ichki kayfiyatini aks ettirish vositasi sifatida tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Аннотация

В статье рассматриваются фонетические и интонационные средства выражения иронического содержания в узбекской речи. Анализируются такие фонетические явления, как эмфатическое ударение, удлинение гласных, удвоение согласных и перенос ударения, которые служат средством создания иронии. На основе конкретных примеров показано, как фонетические элементы отражают субъективное отношение говорящего, усиливают экспрессивность и эмоциональность речи. Автор подчёркивает, что интонационно-фонетические средства играют важную роль в передаче оценки, сарказма и насмешки, расширяя выразительные возможности языка.

Abstract

This article explores the phonetic and intonational means of expressing irony in Uzbek speech. It focuses on the linguistic mechanisms such as emphatic stress, vowel lengthening, consonant doubling, and stress shift, which contribute to the creation of ironic meaning. Through illustrative examples, the study demonstrates how phonetic features reflect the speaker's subjective attitude, emotional intensity, and evaluative stance. The findings reveal that intonational-phonetic devices play a

crucial role in conveying sarcasm, mockery, and evaluative meanings, thereby enhancing the expressive potential of the Uzbek language.

Kalit soʻzlar: fonetika, intonatsiya, ironiya, emfatik urgʻu, choʻziq talaffuz, qavatlanish, kesatiq, ekspressivlik.

Ключевые слова: фонетика, интонация, ирония, эмфатическое ударение, удлинение гласных, удвоение согласных, сарказм, экспрессивность.

Keywords: phonetics, intonation, irony, emphatic stress, vowel lengthening, consonant doubling, sarcasm, expressiveness.

Fonetika — tilshunoslikning eng muhim va qadimiy boʻlimlaridan biri boʻlib, u nutq tovushlarining artikulyatsion, akustik va perseptiv xususiyatlarini oʻrganishga ixtisoslashgan. Fonetik tadqiqotlar nutqni tashkil etuvchi unsurlarni tabiiy va fizik jihatdan tavsiflashga yoʻnaltirilgan boʻlsa, fonologiya esa mazkur unsurlarning tildagi funksional rolini, yaʼni maʼno ajratuvchi vazifasini tahlil qiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, unli va undosh fonemalarning oʻzaro munosabati, ularning artikulyatsion parametrlari, akustik xususiyatlari va distributsiyadagi oʻrni tilning ichki tuzilishini anglashda muhim hisoblanadi. Ushbu omillar tilning sistemaliligi, strukturaviy munosabatlari va maʼno ifodalashdagi mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi.

Intonatsion-fonetik vositalarning asosiy vazifalaridan biri soʻzlovchining voqelikka boʻlgan turli munosabatlarini ifodalash, shu jumladan, maʼnoni kuchaytirish, boʻrttirishdir. Maʼnoni kuchaytirish va boʻrttirish orqali ham ironik mazmun ifodalash mumkin. Bu holat quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- a) unli tovushlarni choʻzish;
- b) urgʻuning koʻchirilishi;
- v) undosh tovushlarning qavatlanishi.

Nutq muallifi oʻzining boshqalarga boʻlgan subyektiv munosabatini ifodalash maqsadida unli tovushni choʻzib talaffuz qiladi. Bu tilshunoslikda emfatik urgʻu deb ham ataladi. Emfatik urgʻu soʻzdagi biror tovushni choʻziq talaffuz qilish orqali amalga oshadi. Nutq jarayonida guvoh boʻlinadigan holatlardan biri — soʻzlovchi oʻz munosabati, his-tuygʻulari yoki baho berish kabi subyektiv holatlarni ifoda etish maqsadida ayrim tovushlarni, xususan, unli fonemalarni choʻziq talaffuz qilishi orqali maʼlum ekspressivlikka erishishidir. Bunday holat tilshunoslikda emfatik urgʻu (emfatik aksent) deb ataladi. Emfatik urgʻu, odatda, soʻz yoki soʻz birikmasi doirasida muayyan fonemaning, ayniqsa, unli tovushning choʻzilishi orqali amalga oshadi va maʼlum maʼnoni — hayrat, tahqiq, kuchli baholash yoki muhokamaning taʼsirchanligini ifodalash vositasi

sifatida xizmat qiladi. Bu turdagi intonatsion-akustik vosita, ayniqsa, dialogik nutqda va emotsional intensivlikni talab etuvchi holatlarda keng qo'llaniladi. Masalan:

— O'zingiz ishbilarmon qizsiz!" deganda, nutq muallifi ishbilarmon so'zining oxirgi bo'g'inidagi "o" unlisini cho'zib ("ishbilarmono" tarzida) talaffuz qilish orqali bu so'zni birovga quloq solmaydigan, mahmadona ma'nolarida qo'llaydi. Natijada Qalandarovning o'z suhbatiga nisbatan salbiy munosabati ifoda etiladi.

Undan tashqari, so'zdagi urg'uni boshqa bo'g'inga ko'chirish orqali ham ironik mazmun ifodalash mumkin. Masalan:

— Kolxozni opichlab katta qilgansiz. Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini yaxshi bilasiz!.. (A.Qahhor).

Berilgan parchadagi "katta" so'zining urg'usini ikkinchi bo'g'indagi "a" unlisiga, "yaxshi" so'zida birinchi bo'g'indagi urg'uni ikkinchi bo'g'inga hamda "bilasiz" so'zining birinchi bo'g'inidagi urg'uni oxirgi bo'g'inga ko'chirish bilan kesatish mazmuni ifodalanadi. Shu bilan birga, yuqoridagi so'zlar mantiqiy urg'u olib, ironik mazmunni yanada bo'rttirishga xizmat qiladi.

Ironik mazmun undosh tovushlarni qavatlash orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Masalan:

— Magnitofonni qo'yars-s-iz (agar, qo'lingiz sinib qolmasa, demoqchi, "Mirzo" teatri). Bu yerda "qo'yarsiz" so'zidagi "siz" II shaxs qo'shimchasining talaffuzi orqali kesatish ma'nosi ifoda etilgan.

Yana bir misol:

Qalandarov Saidaga kolxozdan ketish haqida ariza yozing, deganida, Saidarozi bo'lmaydi. Shunda Qalandarov g'ijinib:

— Kolxoz yoqib qolgan bo'lsa, er-per topib bera qolay, — dedi, Saida esa uning aftiga qarab:

Men sizni faqat yaxshi paxtakor, deb bilar edim, boshqa kas-s-bingiz ham bor ekan, — deydi kesatib. (A.Qahhor).

Mazkur nutq parchasidagi "kasbingiz" so'zida "s" tovushining qavatlanishi natijasida piching mazmuni yanada bo'rttirilgan.

Yuqoridagi misolimizda ikki qahramonning bir-biriga bo'lgan salbiy munosabati ifodalanib, bu ifoda kesatiqqa kesatiq tarzida namoyon bo'lgan. Jonli nutqda bunday misollarni juda ko'plab uchratish mumkin. Ular nutqning ekspressiv-emotsional xususiyatini yanada kuchaytirishga, ta'sirchanligining oshirilishiga yordam beradi.

Ko'rinadiki, ironik mazmun ifodalash orqali inson ruhiy holatining xarakteristikasini ham berish mumkin. Bu esa nutq ko'rinishining mazmundorligini oshirishga olib keladi. Yuqoridagi misoldan yana shu narsa

ma'lum bo'ladiki, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi qarama-qarshilik birligini ta'min etuvchi asosiy uslubiy vosita, bu ironiyadir. Ironiya bu o'rinda inson ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan murakkab kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Demak, har qanday so'z ma'lum muhitda so'zlovchining niyati bilan intonatsiya yordamida kinoya, piching, uchuruq, qochiriq, kesatiq ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin. Intonatsion-fonetik vositalar yordamida ironik mazmun ifodalash usullarini o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шодиев Н.Т. А.Қаҳҳор романларининг психологик таълил маъорати. ("Сароб" ва "Синчалак" асарлари асосида): Филол.фанлари номзоди...дисс.-Тошкент, 1973. -196 б.

2. Яхшиева Г.Р. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол.фанлари номзоди...дисс.автореф. -Тошкент, 1997. -25 б.

3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан, 1983. -88 б.

FORSIY SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING O'ZBEK TILIDAGI O'RNI

Alimova Zarifaxon Vaxobovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), FarDU dotsenti

Ma'lumki, o'zbek tilida so'z yasashining semantik, fonetik, sintaktik-leksik, affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari mavjud. So'z yasashining affiksatsiya usuli o'zbek tilida faol qo'llanadigan usuldir.

O'zbek tilida leksema yasash vazifasini asli forsha-tojikcha fe'l asosi ham bajaradi. Ot, sifat, son turkumlaridagi leksemalarga fe'l asosini qo'shib leksema hosil qilish tojik tilida leksema tuzish (tuzma leksema) deyiladi: *bog' + dor = bog'dor* (*dor- doshtan* – "*ega bo'lmoq*" fe'lining hozirgi zamon asosi), *dur "uzoq"* + *bin = durbin* (*bin- didan* "*ko'rmoq*" fe'lining hozirgi zamon asosi), *choryak "to'rtidan bir"* + *kor* (*koridan* – "*ekmoq*" fe'lining hozirgi zamon asosi) = *choryakkor > chorakkor > chorakor* kabi¹²¹. A.Hojiyevning ta'kidlashicha, ba'zi lug'aviy birliklar, ya'ni so'zlar morfema vazifasida ham qo'llanadi va so'zga

¹²¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. -Б.33.

qo'shib yoziladi: *darsxona, dorixona; talabnoma, taklifnoma* kabi. Bunday birliklar ilmiy adabiyotlarda "affiksoid" deb yuritilishi ham mumkin. Lekin bizningcha, bunday terminni qo'llashga ehtiyoj yo'q. Chunki so'zga qo'shib yozilishi va morfemaga xos vazifaga egaligi ularni ham affiks deb atashga asos bo'ladi¹²². Sh.Rahmatullayev ham A.Hojiyevning fikriga qo'shilgan holda quyidagilarni bildiradi: "*Xona, noma, goh* kabi tojikcha leksemalar, o'zbek tilida mustaqil ishlatilishidan tashqari, *oshxona, ma'lumotnoma, oromgoh* kabi leksemalarning tarkibida yasovchi qism sifatida qatnashadi; bir qancha leksemalarga qo'shiluvchi qism bo'lib kelgani sababli mustaqil leksemalik holatidan affiksoidlik holatiga o'tgan"¹²³. Bunday o'zlashmalarga *bosmaxona, yotoqxona, qorovulxona, qo'yxona, qo'noqxona, bildirishnoma, bo'yoqxona, yilnoma, yo'riqnoma* (o'zbekcha), *guvohnoma, dorinoma, garovxona, kabobxona, mehmonxona, go'laxxona, darvozaxona; guzargoh, dastgoh, ibodatgoh, lashkargoh, namozgoh, otashgoh* (fors-tojikcha), *ziyoratgoh, manzilgoh, sajdagoh, saylgoh, sayrgoh, qadamgoh, qiblagoh; aybnoma, iltimosnoma, tashakkurnoma, ta'zianoma* (arabcha) kabilarni ham kiritish mumkin. Adabiy va jonli tilda ko'p qo'llanadigan *asosnoma, chevarxona* so'zlari negadir O'TILga kiritilmagan. Bizningcha, ushbu leksemalar ham lug'at boyligimiz takibiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi A.Uralovning ta'kidlashicha, *-xona* affiksoidi qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan birliklar turli xildagi joy va tushunchalarni, xususan: 1) aynan narsa turadigan joy nomlarini; 2) aynan bir faoliyat olib boriladigan joylarni; 3) aynan yangi ma'nodagi birliklar va tushunchalarni ifodalaydi¹²⁴.

Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at tarkibining so'z yasaliish jarayonlarida faol ishtirok etib, yangi lug'aviy birliklar hosil qilgan vositalarga *-zor* (*o'tzor*), *-don* (*suvdon*), *-dor* (*unumdor*), *-kor//gar* (*paxtakor, sitamgar*), *-soz* (*uysoz*), *-boz* (*o'yinboz*), *-kash* (*chizmakash*), *-xo'r* (*oshxo'r*), *-paz* (*oshpaz*), *be-* (*bebosh*), *no-* (*nomard*), *ser-* (*sersuv*), *kam-* (*kamgap*), *ham-* (*hamyurt*), *xush-* (*xushbichim*), *nim-* (*nimjon*) kabi o'nlab suffiks, prefiks, suffiksoid va prefiksoidlar kiradi¹²⁵. Aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan oronimlar qatorida *-gar* suffiksi ishtirok etgan *Zargar* (tog' -Qo'shrabot tumani), *Zargartepa* (tepa - Ishtixon tumani) kabi misollar ham keltiriladi¹²⁶.

Forscha-tojikcha affikslarni quyidagicha guruhlash mumkin:

¹²² Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари.-Тошкент: Фан. 2010. -Б.43.

¹²³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. –Б.33.

¹²⁴ Уралов А. Ўзбек тили қўшимчалари тизимида мураккаб ва "кенгайган шакл"лар. Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс...автореф.-Тошкент, 2019. –Б.16.

¹²⁵ Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Хўжанд: Раҳим Жалил, 2013.- Б.115.

¹²⁶ Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Ф.ф.ф.д.(PhD) дисс... автореф. - Самарқанд, 2019. –Б.16.

a) ot yasovchi affikslar: **-bon** (bozorbon, darvozabon), **-boz** (qilichboz, buyruqboz), **-gar** (jodugar, holvagar), **-goh** (janggoh, namoyishgoh), **-zor** (yantoqzor, qamishzor), **-dor** (zamindor, chorvador), **-do‘z** (telpakdo‘z, qalpoqdo‘z), **-kash** (o‘tinkash, kemakash), **-kor** (bedakor, jo‘xorikor), **-paz** (baliqpaz, shakarpaz), **-soz** (chinnisoz, oynasoz), **-furush** (o‘rikfurush, qatiqfurush), **-shunos** (urug‘ shunos, o‘lkashunos), **-xon** (duoxon, qissaxon);

b) sifat yasovchi affikslar: **ba-** (badavlat, bamahni), **bad-** (badniyat, badjahl), **-dor** (xoldor, rangdor), **ser-** (serquyosh, seryomg‘ir), **-mand** (dardmand, orzumand);

v) ravish yasovchi affikslar: **-ona** (mardona, dadilona), **-namo** (ranjigannamo, telbanamo).

Manbalarda keltirilishicha, prefiks xarakteridagi affiks morfemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashishi ikki yo‘sinda amalga oshgan:

a) yasama so‘z tarkibida derivat orqali o‘zlashgan;

b) analogiya qonuniyati ta‘sirida yakka holda o‘zlashib, o‘zbekcha lug‘aviy birliklarga qo‘shilgan: *notinch*, *noo‘rin*, *beish* kabi¹²⁷.

A.Berdialiyev to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, fors-tojik affikslari o‘zbek tiliga dastlab o‘zlashgan so‘zlar tarkibida kirib kelgan. Ular keyinchalik o‘zbek tilining o‘z lisoniy birliklari maqomida rasmiylashgan¹²⁸.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘ati xulosalari shuni ko‘rsatadiki, fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan affiks, prefiks, affiksoid va prefiksoidlar arabcha, forsha-tojikcha, o‘zbekcha va ruscha-baynalmilal so‘zlarga qo‘shilgan. O‘zbek tili lug‘at tarkibining shakllanishida va rivojlanishida fors-tojik tilidan o‘tgan leksik birliklardan tashqari affiksial birliklar, prefiks, affiks, prefiksoid va affiksoidlarning ham roli kattadir. Ular o‘zbek tilining so‘z yasaliishi jarayonida faol ishtirok etadi.

KONSEPTOSFERADA MA‘NO SHAKLLANISHI VA TUSHUNCHA MUNOSABATI

Tashtemirova Z.S.
FarDU. p.f.n., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept tushunchasi masalasi muhokama qilinadi. Konseptlar madaniy, lingvistik, psixologik, falsafiy va boshqa jihatlarida

¹²⁷ Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. - Фарғона, 2018. - Б.61.

¹²⁸ Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясалиши. Морфонология. - Хўжанд, 2015. - Б.32.

ko'rib chiqiladi, ularning ko'plab talqinlari, tasniflari va tadqiqot usullari taklif etiladi.

"Konsept" tushunchasi kognitologiya va lingvokulturologiyaning asosini tashkil qiladi. Ammo, xorijiy va mahalliy tilshunoslikda "konsept" atamasi keng qo'llanilishiga qaramay, hozirda uning yagona talqini mavjud emas. Konseptning mohiyati uning aqliy kognitiv tabiati bilan belgilanadi, bu haqiqatni ong bilan aks ettirish natijasidir. Konseptning mazmuni so'zning leksik ma'nosiga qaraganda ancha kengroq va chuqurroqdir, chunki u nafaqat onga tegishli semantik komponentlarni, balki insonning umumiy axborot bazasini, uning nutqida topilmasligi mumkin bo'lgan mavzu yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: konsept, kognitiv atama, lingvokulturologiya, lingvokognitiv, psixolingvistik, lingvokultural, konseptosfera, freym, dunyoning madaniy va milliy insoniy tasavvurlari, mentalitet.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о понятии концепта. Концепты рассматриваются в культурологическом, лингвистическом, психологическом, философском и других аспектах, предлагается большое количество их интерпретаций, классификаций и методов исследования.

Понятие «концепт» составляет основу когнитологии и лингвокультурологии. Но, несмотря на широкое распространение термина «концепт» как в зарубежной, так и в отечественной лингвистике на сегодняшний день не существует его единого толкования. Сущность концепта определяется его мыслительной когнитивной природой, представляющей собой результат отражения действительности сознанием. Содержание концепта намного шире и глубже лексического значения слова, так как включает не только актуальные для сознания смысловые компоненты, но и информацию, отражающую общую информационную базу человека, его энциклопедические знания о предмете или явлении, которые могут и не обнаруживаться в его речи.

Ключевые слова: концепт, когнитивный термин, лингвокультурология, лингвокогнитивное, психолингвистическое, лингвокультурное, концептосфера, фрейм, культурно-национальные представления человека о мире, ментальность.

This article discusses the question of the concept of the concept. Concepts are considered in cultural, linguistic, psychological, philosophical and other aspects, a large number of their interpretations, classifications and research methods are proposed.

The concept of "concept" forms the basis of cognitology and linguoculturology. But, despite the widespread use of the term "concept" in both foreign and domestic linguistics, there is currently no single interpretation of it. The essence of the concept is determined by its mental cognitive nature, which is the result of reflection of reality by consciousness. The content of the concept is much broader and deeper than the lexical meaning of the word, since it includes not only semantic components relevant to consciousness, but also information reflecting the general information base of a person, his encyclopedic knowledge about a subject or phenomenon that may not be found in his speech.

Keywords: concept, cognitive term, linguoculturology, linguocognitive, psycholinguistic, linguocultural, conceptosphere, frame, cultural and national human representations of the world, mentality.

Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchasi bo'lgan konsept termini jahon tilshunosligida tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'riflanadi. S.A.Askoldov (Alekseyev) konseptning tabiatini 1928-yilda til va tafakkur munosabatlari doirasida o'rgandi. U konseptni "bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlik"[1.,C.271] ekanligini ta'kidlaydi.

"Konsept" termini etimologiyasini o'rgangan V.V.Kolesov u "tushuncha" degan ma'noni anglatadi va conceptum (lot.) – "don, embrion, prototipning bir turi, so'zda ham, fikrda ham, amalda ham unib chiqishi mumkin bo'lgan narsa [2.,C.19]", deya ta'riflaydi. Olimning fikricha, terminning ikkinchi ma'nosi lingvistik va madaniy tushunchaning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni "Platonning g'oyasi, Aristotelning toifasi, Dekartning tug'ma g'oyalari, Kantning apriori toifalari, Gumboldtning ichki shakllari..., ular mohiyatining turli hodisalarini"[2.,C.20] – konsept, ya'ni ma'no tug'ilishini tasvirlaydi. U konseptni "bizning ko'zimiz anglay olmaydigan to'rtinchi o'lchov nuqtasi"[2.,C.19], konseptning mohiyati, potensial ma'nolar nuqtasi, aqliy genotip sifatida tan oladi va uni faqat bilvosita tushuniladigan elementar zarralar va genlarga o'xshatadi. Konsept mantiqiy, ramziy va milliy etiketli komponentlarni o'z ichiga oladi. Konsept madaniyat bilan belgilanadigan va tilda ifodalanadigan ongning bir qismidir, shuning uchun u til, madaniyat va ongni birlashtiradi.

"Konsept" atamasi o'rta asrlar ta'limotiga ko'ra, *con-capere* – "yig'moq", "ilmoq" fe'llari bilan anglangan bo'lsa, rus tiliga esa "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida kirib keldi [3.,C.126].

S.A.Askoldov "Konsept va so'z" maqolasida butunlikni qisman topish vazifasini bajaruvchi konseptning xususiyatlarini tavsiflaydi, potensial tushunchaning eng muhim tarkibiy va uning organik qismi so'z ekanligini qayd etadi.[1.,C.275]

“Konsept” atamasi (lot. *conceptum* – “fikr”, “konsepsiya”, “tushuncha”) fanlararo yoki Ye.S.Kubryakovaning ta’rifiga ko’ra, “soyabon: fikrlash va bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug’ullanadigan bir nechta ilmiy yo’nalishlarning mavzu sohalarini qamrab oladi” [4.,C.58]. “Kognitiv atamalarning qisqacha lug’ati”da izohlanishicha, “konsepsiya tushunchasi insonning fikrlash jarayonlarida faoliyat yuritadigan va tajriba hamda bilimlar mazmunini aks ettiradigan ma’nolarga mos keladi, barcha inson faoliyati natijalari va olamni bilish jarayonlari mazmuni muayyan “kvantlar”, “bilimlar” ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Konsept aqliy birlik, ong elementidir. Inson ongi real dunyo va til o’rtasidagi vositachidir. Madaniy ma’lumotlar ongga kiradi, u filtrlanadi, qayta ishlanadi, tizimlashtiriladi. “Konseptlar inson va dunyo o’rtasida vositachilik qiladigan o’ziga xos madaniy qatlamni tashkil qiladi”[5.,C.3].

Konsept o’tgan asrning 80-yillarda tushuncha so’zining sinonimi sifatida qo’llanilgan, bugungi kunda esa tushuncha terminiga nisbatan kengroq ma’noga ega bo’lgan konsept termini faol hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept atamasini aniqlash uchun bir necha yondashuvlar mavjud. Jumladan, “konsept mental tuzilma bo’lib, ayni vaqtda ko’p qirrali va ko’p qatlamli, o’zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etuvchi tuzilmadir [6.,C.13]” (D.Xudoyberganova); “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug’ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom oladi” (SH.S.Safarov); “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo’lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir”; “konsept bilan tushunchani aysbergga o’xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo’lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir [7.,B.49]” (O’.Q.Yusupov).

Konsept termini borasidagi fikrlar shunchalik xilma-xilki, bu borada tilshunos G’.M.Hoshimovning ta’rifi ancha batafsilligi bilan ajralib turadi: konsept – bu tafakkurda kechuvchi bir-biri bilan chambarchas bog’liq nafaqat ikki muhim jarayon konseptualizatsiya (konseptuallashtirish) va kategorizatsiya (kategoriyalashtirish)ning natijasi sanaladi, balki unga qo’shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo) semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasidir va u yaxlit konseptual-kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o’zining semantik sig’imi bilan bog’liq holda ma’lum darajada (qisman) aks etadi[8.,B.408-412]”. Professor konseptni murakkab idrokiy voqelik, ya’ni tilda

verbal (va kerak hollarda noverbal) vositalar orqali voqelantiriluvchi hodisa sifatida murakkab ichki tashkil etuvchilardan iborat deb hisoblaydi. Olimning fikricha, u o'ziga xos tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan shajaraviy tarkibga ega va tilda gapiruvchilar o'rtasida barcha so'zlovchilar tomonidan belgi(lar) orqali moddiylashtiriladi hamda barchaga umumiy bo'lgan bir ma'no sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib ma'no verbal belgi orqali voqelantiriladi, kalitlashtiriladi, kodlashtiriladi, parollashtiriladi, me'yorlashtiriladi [8.,B.408-412].

Yuqoridagi ta'rif va izohlar asosida shuni aytish mumkinki, konsept tushunchasi bizning ongimizda kechuvchi bir necha jarayonlarning asosiy natijasi va u kognitiv tilshunoslikning chuqur o'rganishni taqozo etadigan birligidir.

Ayrim tilshunoslar konseptual komponentni (xarakterli va aniq tuzilishli), majoziy komponent (ongni qo'llab-quvvatlovchi kognitiv metafora)ni va mazmunli komponentni – tilning leksik-grammatik tizimidagi o'rnini belgilaydigan konseptning etimologik, assotsiativ xususiyatlarini aniqlashni ma'qullaydilar.[9.,C.7]

Konseptning maydon strukturasi konseptning tuzilishi yadro (tayanch qatlami) va periferiya (talqin qatlami) bilan ifodalanadi. Asosiy qatlam va qo'shimcha kognitiv xususiyatlar, qatlamlar birgalikda konsept doirasini tashkil qiladi hamda uning tuzilishini ta'minlaydi. I.A.Sterninning fikriga ko'ra, "bu tuzilish qat'iy emas, chunki har qanday tushuncha doimo ishlaydi, uning turli tarkibiy qismlari va jihatlarini aktuallashtiradi, boshqa tushunchalar bilan bog'lanadi"[10.,C.82].

Bugungi kunda konsept kategoriyasi faylasuflar, mantiqchilar, psixologlar, madaniyatshunoslar tadqiqotlarida kuzatilib, u o'zida barcha nolingvistik talqinlarning izlarini olib yuradi. Keng qo'llanilishiga qaramay, konsept atamasi hali ham aniq izohga ega emas va uning turli sohalaridagi talqinlari ham rang-barang. Shunisi ma'lumki, konsept fikrning bir toifasi bo'lib, uni kuzatib bo'lmaydi va bu uning turlicha talqin qilinishiga olib keladi.

Lingvokulturologiyada konsept – inson ruhiyatida aks etgan olam manzarasini, miyaning konseptual tizimi va tilini (lingua mentalis), aqliy leksikon, xotiraning tezkor mazmuniy birligini, insonning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilishini, ongimiz yoki psixologik resurslarimiz birliklarini tushuntirishga xizmat qiluvchi atama sifatida talqin qilinadi [11.,C.90]

Konseptning mazmuni ma'nosidan kengroq, chunki "konseptlar... o'z strukturasi saqlab qoladi va tarixiy davomiylikni yo'qotmaydi. Konseptlar tuzilishi faqat qo'shimcha belgilar hisobidan to'ldiriladi. Bu esa xalq moddiy va ma'naviy madaniyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Konseptning muayyan belgilarini ifodalash shakllari eskirishi mumkin, xususiyatlarning o'zi eskirmaydi va yo'qolmaydi. Ularni ifodalash uchun yangi shakllar paydo bo'ladi. Konsept

semantik jihatdan chuqurroq va boyroq. U inson aqliy dunyosining birligi bo'lib, konsept so'zning ma'nosini kengaytiradi, chunki ma'lum bir hodisaning aqliy belgilarini, shu jumladan, rivojlanishning ushbu bosqichida odamlar ongi tomonidan aks etgan noverbal belgilarni ham o'z ichiga oladi. Konsept voqelikni tushunishni ta'minlaydi.

Bundan ko'rinadiki, konsept va ma'no kommunikativ jihatdan tegishli qism va aqliy butunlik sifatida o'zaro bog'liq. Ma'no (semema) konseptni ifodalovchi ma'lum bilish belgilari va komponentlarini o'z semalari bilan etkazadi, ammo bu doimo konsept semantik tarkibining bir qismi hisoblanadi. "Konseptlar biron bir so'z bilan "uzil-kesil" va qat'iy bog'lanmagan. Ular ko'pincha turli xil og'zaki shakllarda munosabatlarga kirishib, guyoki so'zlarni "juftlaydilar", shu bilan birga "sinonimlashib", juda g'ayrioddiy va oldindan aytib bo'lmaydigan shakllarda ifodalanadi" [12.,C48].

Shunday qilib, konsept va ma'no voqelikni ong tomonidan aks ettirishning natijasi bo'lgan aqliy, kognitiv xarakterdagi hodisalardir. Biroq ma'no lingvistik ongning elementi, konsept – kognitiv ong, o'z navbatida, tilning semantik maydoni, shuningdek, konsept – konseptosfera birligi hamdir. Konseptning mazmuni so'zning leksik ma'nosiga qaraganda ancha kengroq va chuqurroqdir, chunki u nafaqat ongga tegishli semantik tarkibiy qismlarni, balki insonning umumiy ma'lumot bazasini, uning nutqida topilishi mumkin bo'lmagan mavzu yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlarni aks ettiruvchi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово и русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / С.А. Аскольдов. – М.: Academia, 1997. – С.271.
2. Колесов, В.В. Язык и ментальность / В.В. Колесов. - СПб.: «Петербургское востоковедение», 2004. –С.19.
3. Корячанкова, С. Концепт «свет» и его номинанты в поэтическом творчестве В.С. Соловьева II Мир русского слова и русское слово в мире. XI Конгресс МАПРЯЛ. Т.4. – HERON PRESS SOFIA. – 2007. – С. 126.
4. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. / Под общей ред. Е.С. Кубряковой. – М.: МГУ, 1996. – С. 58.
5. Арутюнова Н. Д. Кириш // тилнинг мантикий тахлили. Рухий ҳаракатлар. – М.: Наука, 1993. – С.3-6.
6. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2013. – Б.13.

7. Юсупов Ў. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуреда атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Т., 2011. – Б.49
8. Шайхисламов Н. Когнитив тилшунослик тўғрисида тушунча ва унинг универсал табиати. – Б. 408-412. www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5
9. Воркачев С. Счастье как лингвокультурный концепт / С. Воркачев. – М.: Гносис. – 2004. – С. 7.
10. Стернин, И.А. Методика исследования структуры концепта // Методические проблемы когнитивной лингвистики. – 2001. – 182 с.
11. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: 1997. – С. 90.
12. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры / Ю.С. Степанов. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С. 48.

NEMIS TISHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLAR TADQIQI

Umarjonova Guzal Muxtorovna

Qo‘qon universiteti dotsenti

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada frazeologizmlarning til tizimidagi o‘rni, ularning shakllanish xususiyatlari, semantik va struktur jihatdan o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab frazeologiya mustaqil fan sifatida shakllanganligi, bu yo‘nalishda rus va g‘arb tilshunoslarining ilmiy izlanishlari muhim o‘rin tutgani asoslab berilgan. Xususan, V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N.M. Shanskiy, G.F. Zayler, V. Flaysher, X. Burger kabi olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinib, frazeologik birliklarning turlari, semantik tasnifi va grammatik strukturasi o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada frazeologizmlarning xalqaro tadqiqotlar doirasida o‘rganilish tarixi, ularning milliy va tipologik xususiyatlari, hamda frazeologiyaning zamonaviy tarmoqlari va yo‘nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, frazeologiya, til tizimi, turg‘un ibora, semantika, struktur, Vinogradov, Kunin, Shanskiy, Flaysher, Zayler, Burger, tilshunoslik tarixi, idiom, xalqaro tadqiqotlar.

Tilning o‘z ichki imkoniyati, o‘ziga xos xususiyatlaridan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Dunyodagi har qanday tilning boyligi nafaqat leksik birliklardan, balki

mavjud minglab turg'un iboralardan tashkil topib, Shu bilan birga mazkur turg'un birikmalar ham til lug'at boyligining bir qismini tashkil qiladi.

Frazeologizmlar xususida o'tgan asrning ikkinchi yarmida dunyo tishunoslari tomonidan bir qator fundamental ishlar olib borilgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, frazeologik iboralar tilda qayta, ikkinchi bor shakllangan nominal birliklardir. Shu boisdan ham ularning strukturasi va semantikasida yuz berayotgan o'ziga xoslik alohida izlanishlarni taqozo etadi. Ularni o'rganish tilda qiziqarli masalalar mundarijasini taqdim etgani bois o'tgan asrda o'rganila boshlangan bu masala xususida hanuzgacha tadqiqotlar olib borilishi to'xtamagan.

“Frazeologizmlarni tishunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga rus tishunoslari tomonidan asos solingan. Ushbu olimlar o'z tadqiqotlarida frazeologik birliklarni turlicha tavsiflab o'tganlar” [13]. Masalan, taniqli rus tishunoslari V.V.Vinogradov, I.I.Chernishyova, N.N.Shanskiy turli xil so'z birikishlari frazeologik birliklar va ularning barqarorlik darajasini farqlaydilar. A.I.Molotkov frazeologizmlarni “idiomatik birliklar” va “turg'un iboralar” deb tasniflagan. U metafora, tasviriy vositalar, ifoda va hissiy ranglarning iboralarga xos ekanligini e'tirof etgan [10, 282].

Lekin olimlar o'z tadqiqotlarida mazkur birliklarni turli nomlar bilan ataganlar. Jumladan, G.L.Permyakov frazeologik birliklarni atamalar, so'zlar, hikmatli so'zlar, aforizmalar deb atashni ma'qul ko'rgan [11, 378].

Frazeologiya masalalarining ilmiy tadqiqida taniqli rus tilshunosi V.V.Vinogradovning asarlari alohida rol o'ynaydi. Olim o'z asarlarida frazeologiyaning asosiy tushunchalari, masalalar ko'lami va vazifalari yuzasidan oydinlik kiritib bergan. V.V.Vinogradov [7] tomonidan tasniflangan frazeologik birliklar guruhlanishi bo'yicha fikrlari nafaqat rus, balki g'arb tishunosligida ham tegishli tillarning frazeologizmlarga boyligi darajasi o'rganildi hamda g'arb tillari frazeologiyasi ilmiy tadqiqotlar ob'ektiga aylandi. Shuningdek, rus tili frazeologik birliklarini A.I.Smirniskiy, V.L.Arxaevskiy, M.T.Tagiev, M.M.Kopilenko, N.M.Shanskiy, V.P.Jukov, A.M.Babkin, V.N.Teliya, L.I.Molotkov, ingliz tili frazeologiyasi yuzasidan N.N.Amosova, A.V.Kunin, nemis tili frazeologiyasi bo'yicha esa G.F.Zayler, I.I.Chernishyova, I.M.Umarxodjaev, X.Burger, V.Flaysler, A.M.Bushuy, T.Shippan, R.Ekkert va X.Gyunter, K.Palm kabi olimlar o'z tadqiqotlari bilan tishunoslikka o'z hissalarini qo'shganlar. Ularning nazariy va amaliy izlanishlari tahsinga sazovorligini alohida ta'kidlab o'tishmiz lozim.

FBlarning semantik tavsiflash tishunoslikning zamonaviy turi hisoblanadi. L.R.Zinder va T.V.Stroevalar: “Mazkur paydo bo'lgan yangi frazeologik ma'no nafaqat so'z birikmalarining alohida tarkibiy qismlari ma'nosini o'zgarishi asosida

emas, balki butun birikmaning unga yangi semantik yoki ifodali qatlam qo'yish ma'nolarini anglatadi" deb ta'kidlaganlar o'z tadqiqotlarida [8, 407].

Frazeologizmlar sohasida faoliyat olib borgan tadqiqotchilar soni anchagina bo'lib, ular FBlarni turli tasnif va guruhlarga ajratishganini uchratishimiz mumkin. Jumladan, V.N.Teliyaning bu boradagi nazariyalari ham diqqatni tortadi. U frazeologik birliklarni tishunoslikning turli jihatlari bo'yicha tadqiqot olib borishni quyidagicha tavsiya etadi: "1) Tishunoslikning so'z birikishlarning xususiyatlarini hamda ularning belgilarini o'rganish sohasi sifatida; 2) Ularni leksik, semantik, grammatik, ya'ni ma'no xususiyatlarini bog'likligini va ikkilamchi ma'nosini o'rganadigan tishunoslikning bir bo'limi sifatida; 3) Nutqda frazeologizmlarning xususiyatini o'rganadigan tishunoslik bo'limi sifatida; 4) Muayyan yo'nalish, uslub yoki shaxsiy muallif nomini aniqlash usullarini o'rganuvchi tishunoslik bo'limi sifatida; 5) Paremiyalarni o'rganadigan tishunoslik bo'limi sifatida; 6) Frazeologik birliklarning ensiklopedik lug'atini yaratish hamda aforizm, maqol, matal yoki sitatalar majmuasini yaratuvchi tishunoslikni alohida sohasi sifatida" [12, 60].

A.V.Kunin frazeologik birliklarni morfologik jihatdan 4 katta struktur-grammatik guruhlarga ajratib, ularning birinchi guruhini, ya'ni nominativ guruhni gap turkumiga asosan izohlashni tavsiya etadi. Jumladan nominativ guruhga u substantiv, ad'ektiv va adverbial, predlogli frazeologik birliklarni kiritadi [9, 288].

N.M.Shanskiy frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasniflab, "FBlar komponentlarini morfologik xususiyatga ko'ra har xil bo'lgan va bir-biri bilan turli sintaktik aloqada bo'lgan so'zlardan tashkil topgan kompozision xususiyatdagi tarkibiy yaxlitlik" deb ifodalaydi [14, 56-58]. U tasnifida frazeologik birliklarni nominativ va kommunikativ guruhlarga taqsimlaydi. Nominativ guruhga bitta gap turkumi funksiyasini bajaradigan frazeologizmlar, kommunikativ guruhiga esa murakkab gapning bir qismi sifatida keladigan frazeologizmlarni kiritadi.

Frazeologiya atamasi ko'plab mualliflar tomonidan xilma-xil tavsiflangan. Xorijiy lug'atlarda frazeologiya atamasi faqat "inhalteere Schönrednerei und Neigung dazu" – "mantiqsiz so'zamollik va unga bo'lgan moyillik" tarzidagi izohlar ham mavjud. Keyinchalik, "Großes Fremdwörterbuch" lug'atida esa, "feste Wortverbindung, Redewendung" – "turg'un iboralar, idiomalar" deb atalgan [4, 446].

Frazeologik birliklar frazeologik birlashma, frazeologik birlik, ibora va terminlar bilan ifodalanib, ushbu iboralar faqat frazeologik birlik sifatida qabul qilinadi, deydi E.Agricola o'z hamkorlari bilan chop etgan "Die deutsche Sprache" nomli ensiklopediyasida [1].

Tishunos olim Georg Fridrix Zaylarning nemis tili frazeologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida nemis tilining turg'un birikmalari bilan birga

“maqollar, juftlashgan kombinasiyalar, Shuningdek, ularning tilda vujudga kelish masalalari, ularning manbalari, struktur va semantik tahlil” iga ham e’tibor qaratgan [6]. Mazkur tadqiqotlarda olim eng boy faktik materiallardan tashqari, bugungi kunda o’z ahamiyatini yo’qotmagan bir qator umumlashtirilgan qimmatli nazariy fikrlarga tayangan holda maqollar ta’rifini aniqlagan. G.F.Zaylarning tadqiqotlari frazeologizmlar, ularning kelib chiqishi va leksikografik tahlilini yoritib berishga qaratilgan.

V.Flaysher frazeologik birliklarning xususiyatlariga va tadqiqot usullariga qarab, tilning frazeologik tarkibini turli xil tasniflashni taklif qilgan. “V.Flaysher leksema va idiomalarni frazeologiya shakllanishining asosiy mezonini deb baholaydi. Masalan, “Bausch und Bogen” – yaxlit, “klip und klar” – “qisqa va aniq” [13, 145-148]. U: “Frazeologik birliklarning semantik va semantik-struktur barqarorligi, leksikallashuvi nutq va matn tayyorlashda leksik birlik xususiyatlarini ko’rsatuvchi asosdir” deb hisoblaydi [3, 250].

V.Flaysherning mazkur asari Germaniyada frazeologiyaga oid tadqiqotlarning keng miqyosda olib borilishiga sabab bo’ldi. 1980 yillar oxirlariga kelib, germaniyaliklar va boshqa mamlakatlardagi nemis tilida so’zlashuvchi kishilar frazeologiyaga oid tadqiqotlarda o’zaro yaqin ilmiy aloqalar o’rnatdilar. O’sha vaqtdan boshlab frazeologiyaga bo’lgan qiziqish jadal sur’atlar bilan o’sib bordi va buning samarasi o’laroq ko’plab ilmiy asarlar nashr etildi.

1983-yilda Mannxaym shahrida, 1987-yilda Syurixdagi bo’lib o’tgan konferensiya frazeologiya sohasi rivojida umumiy nazariy masalalarni hal qilinishida katta rol o’ynadi. Slavyan va nemis tishunoslari o’rtasidagi hamkorlikda bunday xalqaro konferensiyalar ko’plab o’tkazildi va ularda aynan frazeologiyaga doir masalalar o’rtaga tashlandi. Bu kabi tadbirlar Evropaning turli mamlakatlarida an’anaviy tarzda o’tkazilib kelishi bilan birga nemis va slavyan tishunoslaridan tuzilgan institutlarni yaratish uchun asos bo’ldi. Aynan Shunday tadbirlar ta’sirida 1999-yilda “Evropa frazeologiya jamiyati” tashkil etildi va faol ish olib bordi.

2003-yilda X.Burger frazeologiya sohasiga yangi qarashlarni olib kirdi. 2006-yilda X.Burger boshchiligidagi evropa tishunos olimlari birgalikda yozgan “Tishunoslik va kommunikasiya fanlari bo’yicha qo’llanma” turkumidan yangi mazmundagi “Frazeologiya” nomli kitob chop etildi.

Xulosa. Frazeologizmlar til tizimining muhim va o’ziga xos qatlamini tashkil etib, har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasini o’zida mujassam etadi. Ular orqali nafaqat tildagi obrazlilik, balki xalqning dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlari ifodasini topadi. Frazeologik birliklarning shakllanishi, semantik va grammatik tuzilishi hamda ularning nutqdagi vazifalari tilshunoslikning turli yo’nalishlari, jumladan leksikologiya, stilistika va semasiologiya bilan uzviy bog’liqdir. XX asrda rus va g’arb tilshunoslarining (V.V.

Vinogradov, A.V. Kunin, N.M. Shanskiy, V. Flaysheer, G.F. Zayler, X. Burger va boshqalar) ilmiy izlanishlari natijasida frazeologiya mustaqil ilmiy soha sifatida shakllandi. Ularning tadqiqotlari frazeologik birliklarning semantik, morfologik va struktur tahlilini chuqurlashtirib, frazeologik tizimning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qildi.

Foydalangan adabiyotlar ro'xati:

1. Agricola.E, W-Fleisch, H.Protze. Unter Mitwirkung von W.Ebert. Die deutsche Sprache. Kleine Enzyklopädie in zwei Bänden. - Leipzig, 1969. - S. 1174.
2. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Verlag: - Leipzig, 1982. - S. 250.
3. Großes Fremdwörterbuch. Verlag: Buch und Zeit Verlagsgesellschaft, - Köln, 1991. – S. 446.
4. Виноградов В.В. “Избранные труды. Лексикология и лексикография”. – Москва, Изд:Наука, 1977. - С.312.
5. Зиндер Л.Р., Строева Т.В. “Современный немецкий язык”. Москва: Высшая школа,1970. – С. 407.
6. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка: опыт систематизированного описания. - Москва: Международные отношения, 2011. – С. 288.
7. Молотков А.И. “Основы фразеологии русского языка”. - Ленинград, Изд: Наука. Ленинградское отделение, 1977. – С.282.
8. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, 1996. – С. 288. – С. 60.
9. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. - Москва, 2015. – С. 56-58.

ISHTIXON TUMANI SHEVASIDA UCHROVCHI FORSCHA O‘ZLASHMALARNING XUSUSIYATLARI

Sadoqat Rajabova Rasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tayanch doktoranti

sadoqatrajabova1993@gmail.com

958937993

Annotatsiya. Maqolada Ishtixon shevasida qo‘llaniluvchi fors-tojikcha so‘zlar izohi keltirilgan. Bu shevada qay darjada qo‘llanilishi, mavzuiy

guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilingan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fonetik qonuniyatga bo'ysungan holda qo'llaniladi. Ularning anchagina qismi o'zbek adabiy tilida va boshqa o'zbek shevalarida ham uchrash mumkin. Ishtixon etnik arablari yashaydigan hududda qo'llaniluvchi fors-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o'zbek adabiy tilda qo'llaniluvchi fonetik o'zgarishga uchramagan so'zlar : *gul, shabnam, oftob, panja, bahor, begona, gilos* 2) o'zbek adabiy tilda qo'llaniluvchi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar : *ärvä (arava), äpsis (afsus), goš (go'sht), bevaš (bebosh)*.

Kalit so'z: Markaziy Osiyo, Ishtixon, sheva, hafta – häptä, choshgoh –čäškä, palla – pällä/pillä, zamon – zämän, va h.k.

Markaziy Osiyo hududida qadim-qadimdan o'zbeklar va tojiklar qo'shni bo'lib yashashgan. Turli xil madaniy-ma'rifiy va savdo-sotiq, quda andachilik aloqalarini o'rnatishgan. Aralash holda istiqomat qilishgan. Ma'lum bir davrda esa asosiy muloqot tili ham hisoblangan. Bugungi kunda ham ushbu millat va til vakillari yurtimizning Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona, Qashqadaryo va boshqa bir qancha hududlarda biz o'zbeklar bilan birga istiqomat qilishadi. Shunday qilib bugungi kunga kelib fors-tojik tilining elementlari tilimizning ajralmas mulkiga aylanib qolgan. Shevalarda tilning ushbu o'zlashma qatlami yirik monografik tadqiqot sifatida alohida yoritilmagan, ammo shevalarni tadqiq etishda ko'pgina tadqiqotchilar o'z ishlarida ushbu jihatni qisman yoritib o'tishgan. V.V. Reshetov¹²⁹, Sh. Shoabdurahmonov¹³⁰, B. Jo'rayev¹³¹, M. Mirzayev¹³², S. Rahimov¹³³, T. Sodiqov¹³⁴, N. Shoimova¹³⁵ va boshqa ko'pgina tadqiqotchilarning ishlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqot ishlarida o'rganilgan shevalar tarkibidagi fors-tojik so'zlarning leksik, fonetik o'zgachaliklar u yoki bu tarzda yechimini topishga e'tibor qaratilgan.

O'zlashtirilgan fors-tojikcha so'zlar salmog'i Ishtixon tumani etnik arablar shevasida ham alohida bir qatamni tashkil etadi. Chunki Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo singari hududlar kabi Samarqand shevasida ham ikki tillilik mavjud. Lekin Samarqand viloyatining aynan bu hududida saqlanib qolmagan. Sheva vakillari so'zlashuv tilida aynan o'zi holida yoki ma'lum fonetik jarayonga uchragan holda saqlanib qolgan.

Ishtixon etnik arablari yashaydigan hududda qo'llaniluvchi fors-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o'zbek adabiy tilda qo'llaniluvchi fonetik

¹²⁹ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси, -Тошкент, 1978.

¹³⁰ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили, 220-222 бетлар.

¹³¹ Жўраев Б. Юкори Қашқадарё ўзбек шевалари,-Тошкент, 1969.

¹³² Мирзаев М. Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида// Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 11. -Тошкент, 1961.

¹³³ Раҳимов С. Ўзбек тилининг Сурхондарё шевалари.-Тошкент, 1985.

¹³⁴ Содиқов.Т. Лектика говор Тошкентской област, -Тошкент, 1968.

¹³⁵ Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё "Же" ловчи кипчоқ шевалари лектикаси, Тошкент, 1999.

o‘zgarishga uchramagan so‘zlar : *gul, shabnam, oftob, panja, bahor, begona, gilos, dil, diydor, zambil, dona, dori, yaxna, mezbon, mehmon, zo‘r, olcha, tog‘ora, sedana, tilla* va boshqalar. 2) o‘zbek adabiy tilda qo‘llaniluvchi fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar :

/r	Shevada	Adabiy tilda
	ärvä	arava
	äpsis	afsus
	bevaš	bebosh
	goš	go‘sh
	däröv	darrov
	deval	devor
	zänjil	zanjir
	sus	sust
	šälvir	shalvar
0	käsä	kosa

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi fonetik qonuniyatga bo‘ysungan holda qo‘llaniladi. Ularning anchagina qismi o‘zbek adabiy tilida va boshqa o‘zbek shevalarida ham uchrashi mumkin. Bu farqlar quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlar boshida, o‘rtasi va oxirida keladigan “f” tovushi “p” ga o‘xshab talaffuz qilinadi: *fotiha – patiha, farzand – parzan, oftob – aptap, lof – lap, telefon – tilpan, xafa – xapa* va.h.k.

2. Fors- tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagi “b” tovushi “p”ga o‘xshab talaffuz qilinadi: *abzal-äpzäl, ayb-äjp, zardob –zärdäp , namakob – nämäkäp, girdob – girdap, serob – serap, gulob – gulab* va.h.k.

3. Fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagi “t” tovushi ayrim so‘lar oxirida tushirib talaffuz etiladi: *mast – mäś, g‘isht –yīš, go‘sh – goš, rost – ras, do‘st – dos* va h.k.

4. Fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlar oxirida kelgan jarangli “d” jarangsiz “t” tovushiga o‘zgargan holda talaffuz qilinadi: *mard –märt, omad –amät, baland – bälänt, dard – dart, daromad- därämät* va h.k.

Ishtixon etnik arablar shevasida fors-tojik tiliga oid so‘zlar quyidagi mavzuiy guruhlar orqali tahlil qilsak yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

1. Uy-ro‘zg‘or nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *parda – pärdä, kosa – käsä, tarozi – täräzi, cho‘lpi – čolpī, chinni – činni, xokandoz –xakandaz, xontaxta – xantaxta, to‘rva – torva, tova- täbä, tog‘ora – tayara, rapida – räpidä, oshxona – ašxana, ombur – ämbir, lagan – lägän, karnay – kärnäjä, kalit – kälit, zambil- zämbil, dastarxon – дәstixan, darvoza – dävva, gugurt- gürgüt, guruch – gurič* va h.k.

2. Sabzavot va poliz ekinlarini bildiruvchi so‘zlar: *sabzi – sovzi, sholg‘om – šälyäm, turp – türp, bodring – badriņ, no‘xot – nuxat, mosh –maš, sholi – šoli, tarvuz – tariz, loviya – lublä* va h.k.

3. O‘simlik va daraxt nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *barg – bäg, pechak – pečäk, beda – bedä, daraxt – däräx, anor – änar// änär, shox –šax, gilos- giläs, anjir – änjil, bodom –badam, zardoli – zäldari, olcha –alčä* va h.k.

4. Diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar: *nomoz – nämaz, peshin –pešin, xo‘ja –xoža, eshon –ešan, do‘zax – dozax, gunoh – gunah, banda – bändä, xufton –xuptan* va h.k.

5. Vaqt bilan bog‘liq so‘zlar: *hafta – häptä, choshgoh –čäškä, palla – pällä//pillä, zamon – zämän,* va h.k.

6. Hafta kunlarini ifodalovchi so‘zlar: *dushanba – dүšämmi, seshanba – sešämmi, chorshanba- čäršämmi, payshanba –päjšämmi, shanba –šämbä.*

7. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan qo‘shimchalar: **-kar, -kär (-kor)** bu qo‘shimcha so‘zga qo‘shilib shu qo‘shilgan so‘zdagi o‘simlikni o‘stiruvchi shaxs ma‘nosini anglatadi: yallakar (g‘allakor) g‘alla yitishtirish bilan shug‘illanuvchi shaxs, šalika (sholika) sholi yitishtirish bilan shug‘illanuvchi shaxs, paxtakar (paxtakor) paxta yitishtirish bilan shug‘illanuvchi shaxs ma‘nolarini anglatadi va h.k. Bu qo‘shimchaning Samarqand viloyatida ishlatilishi haqida X. Donyorov “-кар (-кор), ғаллакар (ғаллакор), абыкәр (обикор). Ko‘rinadiki, -kär (-kor) affiksi sharqiy grupp shevalarida, asosan, yerga nisbatan ishlatilgan (kasbkorga, odamga nisbatan emas). Sharqiy grupp shevalarda yaqin vaqtlargacha kasbkorga (odamga) nisbatan -kor o‘rnida ham -чи affiksi qo‘llangan. Masalan, пахтачы (пахтачы), ғаллачы (ғаллачы). Lekin keyingi vaqtda adabiy til va shahar shevalari tasirida bu affiks sharqiy grupp shevalarida ham odamga nisbatan qo‘llanilmoqda

”.136 X. Donyorov –kor va –chi affiksini biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llaniladi deb xulosalagan. Bugungi kunda esa asosan –kor shakli faol qo‘llaniladi.

8. –dar, –där, –dar ushbu qo‘shimcha ma‘lum bir xususiyat yoki o‘zi qo‘shilgan so‘zga egalik ma‘nosini ifodalaydi. Ba‘zi o‘rinlarda –li va ser- qo‘shimchalari bilan sinonim bo‘la oladi šaxdar (shoxdor), bojdar (bo‘ydor), guldar (guldor) va h.k. X. Donyorov bu qo‘shimcha haqida “Bu affiks, asosan, o‘zbekcha –li affiksi o‘rnida qo‘llanadi. Lekin o‘ziga xos ma‘no ottenkasi bor. Ba‘zi hollarda bu ottenka mustaqil ma‘no kasb etadi. Masalan, шактар мал (шохдор мол) deganda shohga ega (shoxli) bo‘lgan mol nazarda tutilmaydi, balki shoxi katta mol nazarda tutiladi”. 137

9. ser- sersu (sersuv), serqatnav (serqatnov) sergäp (sergap) va h.k. Bu qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan so‘zga egalik ma‘nosini anglatadi va ba‘zi o‘rinlarda –li, ser- qo‘shimchalari bilan sinonimlik hosil qiladi. Sersu olma – suvli olma, sergo‘sh t ovqat - go‘sh tli ovqat .

–zär, –zar, –zar bu qo‘shimcha o‘simliklarga qo‘shilib mana shu o‘simlik ko‘p o‘sadigan joy ma‘nosini anglatadi. Masalan, *daraxzar* (daraxtzor) daraxtlar ko‘p ekilgan joy o‘rmondan kichik, *bugdejzar* (bug‘doyzor) bug‘doy ekilgan dala, *bedäzär* (bedazor) beda ekilgan dala va h.k.

be- bu qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan so‘z tarkibidagi mazmun yo‘qligini ifodalaydi: *behäl* (behol), *bemövrid* (bemavrid), *bexavar* (bexabar) va h.k.

na-, nä (no-) nämälim (noma‘lum), nato‘ri (noto‘g‘ri), nätäbi (notabiiy), näinsäp va h.k.

be- va no qo‘shimchalari **–siz** qo‘shimchasi bilan sinonim hisoblanadi. Behold –holsiz, bequvvat – quvvatsiz, noinsof – insofsiz va h.k

–xana (-xona) ushbu qo‘shimcha haqida X. Donyorov “–қана (хона) so‘zi sharqiy grupp shevalarida ko‘proq affiks sifatida qo‘llanadi. Lekin adabiy tilimizdagi qo‘llanilishidan deyarli farq qilmaydi. Masalan: малқана (молхона)...”¹³⁸ Misollar: gäzxana – oshxona, ayilxana – og‘ilxona, atxana – otxona, vanaxana (vannaxona) va h.k.

Shunday qilib sheva tarkibida qo‘llaniluvchi fors-tojikcha so‘zlar ancha faol bo‘lib, barcha sohalarda keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. А. Аллабердиев. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. – Т.2018. Б-34.
2. Н. Шоимова. Ўрта Қашқадарё қипчоқ шевалари лексикаси. – Т.1999. Б-110.
- 3.Х. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.1979. Б 78-79.

¹³⁶ X. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.1979. Б 81-82.

¹³⁷ X. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.1979. Б-82.

¹³⁸ X. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.1979. Б-82.

4. Ashirboyev, S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021
5. Поливанов Е.Д. Вокализм говора города Самарканд // Доклады АН. СССР, М, 1928. №14.
6. М.Валиев. Ўзбек тилининг Найман шеvasи. –С.1963.
7. Н.Ражабов. Ўзбек тилининг ғарбий Самарканд шевалари. –С.1977.
8. В.Эгамов. Самарканд областининг Ғаллаорол шеvasи. –С.1954.
9. З Тиллаева. Самарканд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. — С., 2023. —Б.111
10. Гребункин А.Д. Мелкие народности Зарафшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М, 1872. – С.113-114.
- 11.Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – С. 12-13.
- 12.Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Т. 2012.-Б.154.
14. Islom.uz
- 15.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, I jild, —Б. 964.
- 16.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, II jild, —Б. 1036.
- 17.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, III jild, —Б.844.
- 18.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, IV jild, —Б.824.
- 19.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, V jild, —Б.720.
- 20.O'zbek tilining izohli lug'ati.—Т, 2022, VI jild, —Б.864.

TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (DEBAT USULI MISOLIDA)

Kurbonova Ziyoda Askardjanovna
Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari, chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati hamda o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda debat usulining o'rni yoritiladi. Shuningdek, debat usulining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy mazmundagi mavzular asosida o'tkazilishi o'quvchilarning hayotiy fikrlash va tahliliy yondashuvini yanada rivojlantirishi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, chet tillarini o'rganishda ona tilining o'rni va uning tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so‘z va iboralar: zamonaviy pedagogika, innovatsion yondashuv, chet tili o‘qitish, debat, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, ona tili, ijtimoiy mavzular.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishdir. Shu bois, zamonaviy pedagogika an’anaviy yodlashga asoslangan ta’limdan interaktiv, o‘quvchi shaxsini markazga qo‘yuvchi metodlarga o‘tishni taqozo etmoqda.

Chet tilini o‘rganish jarayoni, aslida, ona tilini chuqur bilish va undan to‘g‘ri foydalanish asosida yanada muvaffaqiyatli kechadi. Ona tili – bu tafakkur, milliy ong va muloqot madaniyatining poydevoridir. Shuning uchun chet tillarini o‘qitishda o‘quvchilarda ona tiliga hurmat, grammatik va nutqiy tafakkur uyg‘unligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchi faqat grammatikani o‘rganibgina qolmasdan, o‘z fikrini jamiyat, siyosat va iqtisodiyotga oid dolzarb mavzular bo‘yicha ham bildira olishga o‘rganishi kerak. Buning uchun esa debat kabi metodlar juda samaralidir.

Zamonaviy pedagogika ta’lim jarayonida o‘qituvchini emas, balki o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Interaktiv metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Debat”, “Fishbone” – o‘quvchilarda nutq faolligini oshirishga, ijtimoiy hamda tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu metodlarning afzalligi shundaki, ular o‘quvchiga mavhum nazariy bilimlarni amaliy muhokama orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, til o‘qitishda **debat** o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Chet tili darslarida innovatsion yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning nutqiy faoliyati faollashadi, muloqot madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini asosli tarzda bayon etish ko‘nikmasi rivojlanadi, hamkorlikda ishlash, tinglash va bahslashish madaniyati shakllanadi.

Bunday metodlar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda, masalan, ijtimoiy tenglik, global isish, iqtisodiy o‘sish yoki siyosiy erkinlik kabi mavzularda o‘z fikrini bildirish orqali tilni o‘rganadilar.

Shu bilan birga, ona tili bilan chet tilini qiyoslab o‘rganish o‘quvchilarda so‘z boyligini kengaytiradi, grammatik strukturalarni anglashni osonlashtiradi va tarjima malakasini oshiradi.

Debat usuli – ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi vosita.

Debat – bu o‘quvchilarning ma’lum mavzu bo‘yicha turli fikrlarni himoya qilish va qarama-qarshi dalillar keltirish asosida o‘z fikrini asoslash jarayonidir. U nafaqat til o‘rganish, balki mantiqiy, tanqidiy va ijtimoiy fikrlashni rivojlantiradi.

Debat usulining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir:

- Mavzuni tanlash va tahlil qilish;
- Guruhlarni “ha” va “yo‘q” tomonlarga ajratish;
- Dalillarni tayyorlash;
- Bahslashish va o‘z fikrini himoya qilish;
- Yakuniy xulosa va tahlil.

Debatlarda o‘quvchilar faqat til mavzularida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishdagi masalalarda ham bahslashishlari maqsadga muvofiq. Masalan:

“Yoshlar siyosatda faolroq ishtirok etishlari kerakmi?”

“Ta’limda onlayn darslar an’anaviy darslarni almashtira oladimi?”

“Kichik biznes iqtisodiyotning asosiy tayanchimi?”

“So‘z erkinligiga chegaralar qo‘yish zarurmi?”

“Kriptovalyutalar kelajakda rasmiy to‘lov vositasiga aylanishi kerakmi?”

Bunday mavzular orqali o‘quvchilar o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilish, mantiqan isbotlash, tinglovchilarni ishontirish va qarshi fikrni madaniyatli tarzda rad etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu jarayonda ular ona tili va chet tilidagi ifoda uslublarini taqqoslaydi, fikrni aniq va to‘g‘ri bayon etish madaniyatini mustahkamlashadi.

Akademik litseyda olib borilgan tajriba darslarida “Debat” usuli ingliz va nemis tili darslarida muntazam qo‘llanilganda, o‘quvchilarning og‘zaki nutq faolligi 35% dan 70% gacha oshgani kuzatildi.

O‘quvchilar “Sun’iy intellekt inson ish o‘rinlarini yo‘qotadimi?”, “Gender tengligi jamiyat taraqqiyotining zarur shartimi?” yoki “Yoshlar startaplarini davlat moliyalashi kerakmi?” kabi mavzularda bahs olib borish orqali, nafaqat til ko‘nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va ona tilidagi nutqni chet tilida ifodalash malakasini ham rivojlantirishdi.

Xulosa qilib aytganda, debat usuli chet tillarini o‘qitishda eng samarali interaktiv metodlardan biridir. U o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, tanqidiy tahlil va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Ayniqsa, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy mazmundagi debatlar ularni hayotiy voqelikka yaqinlashtiradi, fuqarolik mas’uliyatini oshiradi va zamonaviy dunyoqarashni shakllantiradi.

Shu bilan birga, o‘quvchilar chet tili orqali o‘z ona tiliga bo‘lgan hurmatni yanada chuqurroq his etadi. Zero, ona tilini sevgan, uni mukammal bilgan insongina boshqa tilda ham chiroyli, mazmunli va ta’sirli fikr bildirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хасанбоев Ж. Педагогика: назария ва амалиёт. – Тошкент: Фан, 2021.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
3. Махмудова Г. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент, 2020.
4. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2015.
5. Qosimova N. Chet tillarini o‘qitishda interaktiv metodlar. – Toshkent, 2022.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

SINTAKTIK SATHDA PLEONAZM

Tursunov Asadullo Shuhratjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik
kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sintaktik sathda uchraydigan pleonazm hodisasi tahlil qilinadi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida pleonazmning sintaktik sathda o‘rganilishi, so‘z birikmalari va gaplarda ma’no ortiqchaligini yuzaga keltiruvchi birliklar misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, pleonazmning uslubiy va kommunikativ xususiyatlari hamda nutq madaniyatida tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Аннотация: В статье анализируется явление плеоназма на синтаксическом уровне. На примерах освещается изучение плеоназма на синтаксическом уровне в мировой и отечественной лингвистике, рассматриваются словосочетания и единицы, создающие избыточность смысла в предложениях. Также анализируются стилистические и коммуникативные особенности плеоназма и его место в речевой культуре.

Kalit so‘zlar: pleonazm, sintaktik sath, sintaktik pleonazm, stilistik funksiya, semantik ortiqchalik, adabiy norma.

Ключевые слова: плеоназм, синтаксический уровень, синтаксический плеоназм, стилистическая функция, семантическая избыточность, литературная норма.

Jahon tilshunosligida pleonazm hodisasi antik davrdan boshlab o‘rganilgan. Kvintilian, Donat va Diomed kabi qadimgi rim tilshunoslari uni stilistik nuqson sifatida qaragan bo‘lsa, Dionisiy Galikarnasskiy uni nutqning ravshanligi,

ishontiruvchanligi va ritmikligini oshiruvchi vosita deb hisoblagan. XIX-XX asrlarda G.Paul, Ch.Xokket, A.Martinet va O.Esperesen kabi olimlar ortiqchalik tamoyilini kommunikativ nazariya doirasida tahlil etganlar. Masalan, Ch.Xokket pleonazmni nutq uslublarining zaruriy qismi deb hisoblagan. Sintaktik pleonazmni giperxarakterizatsiya sifatida o'rganishda Kristian Leman kabi tadqiqotchilar muhim hissa qo'shgan bo'lib, u sintaktik darajada konkord (kelishuv) pleonazmini ajratib ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida pleonazm XVIII asrdan boshlab ekspressiv shakl sifatida tan olingan. N.Grech, F.Miklosich va A.Potebnya kabi olimlar uni mantiqiy, semantik va stilistik jihatdan o'rganganlar.

O'zbek tilshunosligida pleonazm maxsus tadqiqot mavzusi bo'lib, R.Qo'ng'urov¹³⁹, N.Mahkamov¹⁴⁰ va B.Sheronov¹⁴¹ kabi olimlarning ishlarida yoritilgan. N.Mahkamov "Adabiy norma va pleonazm" monografiyasida affixal pleonazm va leksik-affixal pleonazmni tahlil etgan. R.N.Yusubova tejamkorlik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etgan. F.E.Ibragimov¹⁴² esa badiiy mantda ellipsis va antiellipsis masalalarini ko'rib chiqqan. O'zbek tilidagi pleonazmning ijtimoiy funksiyalari va stilistik qo'llanilishi hali to'liq tadqiq etilmagan sohalaridir.

B.Sheronovning fikricha, har qanday takror, xoh u qisqa bo'lsin, xoh u to'liq bo'lsin, pleonazmga aloqador bo'ladi, tautologiya pleonazmning bir ko'rinishi bo'lib, unda biror so'z o'z shakliy xususiyatini saqlagan holda takrorlanadi¹⁴³. B.Sheronov shakl va mazmun munosabatida nomuvofiqlikni yuzaga keltiruvchi sintaktik ortiqchalik hodisasini gap qurilishi bilan bog'liq ravishda tahlil etib, pleonazm va tautologiyani ortiqchalikni yuzaga chiqaruvchi omillar sifatida ko'rsatgan, shuningdek, monosubyekтли, polisubyekтли gaplarning, inkor gaplar hamda izohlovchili gaplarning, ajratilgan bo'laklarning lisoniy ortiqchalikka daxldor jihatlarini sintaktik planda tadqiq qilib, bunda tejamlilik va ortiqchalikning dialektik aloqasini e'tiborga olgan¹⁴⁴.

Sintaktik ortiqchalikning ham o'ziga xos bir necha ko'rinishlari bor, ular ko'pincha shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik asosida voqelanadi va bayon qilinayotgan fikrning izchilligini ta'minlaydi. A.P.Skovorodnikov sintaktik planda

¹³⁹ Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент, 1980. – 168 б.

¹⁴⁰ Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент, 1988. – 88 б.

¹⁴¹ Шеронов Б. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.21.

¹⁴² Ибрагимова Ф. "Бадий матнда эллипсис ва антиеллипс". Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.

¹⁴³ Шеронов Б. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.9.

¹⁴⁴ Шеронов Б. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.20.

yuzaga keluvchi ortiqchalikni ellipsisning strukturaviy va funksional korrelyati ekanligini ta'kidlab umumiy nom bilan **antiellipsis** deb ataydi, ushbu atama o'zbek tilshunosligida ham qayd etilgan. Sintaktik ortiqchaliklar funksional uslublarning barchasiga xos, faqat so'zlashuv va badiiy uslubda nisbatan faol qo'llaniladi¹⁴⁵.

Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar, umumlashtiruvchi so'z bilan qo'llangan uyushiq bo'laklar, yoyiq va ajratilgan undalmalar, ajratilgan izohlovchilar – sintaktik sathda pleonazmni yuzaga chiqaruvchi asosiy birliklar hisoblanadi.

Sintaktik pleonazmlar – ular, asosan, o'zbek tilidagi dialektal nutqqa xos. Ma'lumki, so'zlashuv nutqi to'g'ridan-to'g'ri tinglovchiga qaratilgan va dastlabki ishlanmagan, silliqланmagan nutqdır. “Shu sababli so'zlovchi so'zlash jarayonida bayon qilinayotgan fikrdan chalg'imaslik, uning izchilligini ta'minlash maqsadida bir gap ketidan ikkinchisini ketma-ket, yangi sxemaga solib o'tirmay, shu birinchi gapga ulab ketaveradi. Bunda birinchi gapning oxirgi qismi – kesim sostavi ikkinchi gap boshida keltiriladi, natijada sintaktik pleonazm vujudga keladi: *Holvapurush qiyinchiliklar bilan o'z shahriga yetib keldi, yetib kelib o'z uyiga kelib darvozani taqilladi* (Andijon shevasi). Bu gapda **yetib keldi** qismi ortiqcha ishlatilgan, shu qismi tushirib qoldirilganda yoki uning o'rniga va bog'lovchisi qo'llanganda ham o'sha ma'no anglashiladi”¹⁴⁶.

Sintaktik planda ortiqchalik uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi bo'lakning voqelanishi asosida shakliy-mazmuniiy nomuvofiqlik talablariga mos tarzda vujudga keladi. B.Sheronov ta'kidicha, umumlashtiruvchi so'z shakliy planda “ortiqchalik” mavqeyida bo'ladi¹⁴⁷.

D.Yo'ldosheva “XXI asr o'zbek dramaturgiyasida tavgologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili”¹⁴⁸ nomli tadqiqotida dramatik asardagi sintaktik pleonazm va uning funksional-stilistik xususiyatlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: pragmatik yondashuvda fikr ifodalashning qulay va unumdor shakllarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Dramalarda, personajning dialektal nutqida sintaktik pleonazm uchraydi. So'zlovchi nutqida bayon qilinayotgan fikrdan chalg'imaslik, nutqida izchillikni ta'minlash, tinglovchi diqqatini o'ziga ko'proq jalb etish kabi pragmatik omillar natijasida birinchi gapning oxirgi qismi ikkinchi gap boshida keltiriladi: *Melis (onasining vajohatidan cho'chib oshxona tomon chekinarkan). U yoqlar ham siz o'ylaganchalik jannat emasdir, ena! “Amerikada yashayman degan odam Kennedi aeroportiga borib*

¹⁴⁵ Qarang: Юсупова Р. “Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоетик хусусиятлари” филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Навоий, 2021. – Б.65.

¹⁴⁶ Турובהва М. Узбек шеваларида синтактик плеоназмлар // УТА. 1982. 5-сон. 52-бет.

¹⁴⁷ Qarang: Юсупова Р. “Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоетик хусусиятлари” филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Навоий, 2021. – Б.204

¹⁴⁸ Yo'ldosheva D. XXI asr o'zbek dramaturgiyasida tavgologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Samarqand, 2025. – B.18.

tushgan zahoti ko'kragidan yuragini yulib oladi, yulib olib oyog'i ostida ezg'ilay-ezg'ilay, shundan keyingina dollar yurtiga qadam bosmog'i kerak. Jahannam, jahannam!" derdi-ku anovi ukajoningiz! Esingizdan chiqdimi shu gaplar? (E.A'zam, "Jannat o'zi qaydadir").

"Ajratilgan bo'laklar gap qurilishida bir denotativ asosni o'sha denotativ asosga nisbatan yana kengaytirib, sintaktik ortiqchalikka sabab bo'ladi"¹⁴⁹.

N.Mahmudov sodda va qo'shma gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligini bir-biriga qiyoslab o'rganish natijasida bunday gaplarning shakl va mazmun nomuvofiqligida ikkita tamoyil amal qilishini ta'kidlaydi: sodda gaplar doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tamoyilining namoyon bo'lishi sifatida yuzaga kelsa, qo'shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalik tendensiyasiga borib taqaladi¹⁵⁰.

Sintaktik sathda pleonazmning shakllanish sabablari:

- Lisoniy odat – ma'nosi to'liq anglanmagan turg'un birikmalarning tez-tez ishlatilishi;
- Ekspressivlik istagi – so'zlovchining ma'noni kuchaytirish yoki ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ortiqcha birlik ishlatishi;
- Til me'yorlarining buzilishi – adabiy til normalariga amal qilinmasligi;
- Tafakkurdagi ortiqchalik – fikrni ifodalashda lo'ndalik yetishmasligi.

Sintaktik pleonazmning turlari. Sintaktik pleonazm quyidagi ko'rinishlarda uchrash mumkin:

- So'z birikmasi darajasida: *ko'z bilan ko'rmoq, qulog'i bilan eshitmoq, avvaldan boshlab*;
- Gap darajasida: *U keldi va u keldi, Men o'zim bormoqchiman*;
- Qo'shma gaplarda: *Agar keladigan bo'lsa, u albatta keladi* kabi ortiqcha takrorlar.

Xulosa qilib aytganda, pleonazm, xususan, sintaktik pleonazmlar, badiiy uslubda ta'sirchanlik, kuchaytirish, urg'ulash maqsadida qo'llanadi. Masalan, nasriy va she'riy asarlarda keng qo'llanuvchi "men o'zim", "yuragim ichida" kabi ifodalar obrazlilikni kuchaytiradi. Ammo rasmiy va ilmiy uslubda bunday ortiqchaliklar **uslubiy xato** hisoblanadi. Sintaktik sathda pleonazm hodisasi jahon va o'zbek tilshunosligida bir qancha olimlar tomonidan o'rganaliganligiga qaramasdan, ushbu hodisaning o'zbek tilshunosligida tadqiq etilishi kerak bo'lgan bir qancha jihatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹⁴⁹ Шеронов Б. Ўзбек тили гап курилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.13.

¹⁵⁰ Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 12.

1. Юсупова Р. “Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоетик хусусиятлари” филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Навоий, 2021.
2. Ибрагимова Ф. “Бадий матнда эллипсис ва антиеллипс”. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2011.
3. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент, 1980.
4. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент, 1988.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
6. Туробова М. Ўзбек шеваларида синтактик плеоназмлар // УТА. 1982. 5-сон.
7. Шеронов Б. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
8. Yo‘ldosheva D. XXI asr o‘zbek dramaturgiyasida tautologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Samarqand, 2025.

ISAJONSULTON HIKOYALARIDA NOVERBAL VOSITALAR: GEST VA MIMIKANING LINGVOPOETIK FUNKSIYASI

Sohibjamol Habibullayeva

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida noverbal vositalar turlari, ularning lingvopoetik funksiyalari va badiiy matn strukturasi ularning estetik ta’sirini ko‘rsatib berilgan. Noverbal vositalarning turlarini tasnifi: gest, mimika. Isajon Sulton hikoyalarida noverbal vositalar va ularning poetik-stilistik funksiyalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Gest, mimika, pauza, lingvopoetika, noverbal vositalar, verbal, til birliklari, emotsional, ekspressiv, pragmatik ma’no.

Til insonga xos bo‘lgan eng muhim muloqot vositalaridan biridir. Biroq verbal til har doim ham fikr, tuyg‘u va ma’lumotlarni yetkazishda yetarli bo‘lmashligi mumkin. Ayniqsa, badiiy asarda muallif noverbal vositalardan – gest, mimika, pauza, tana harakati, tovush ohangi, makon va vizual obrazlardan keng foydalanadi. Lingvopoetika esa ana shunday matn unsurlarini til, go‘zallik, muloqot estetikasi nuqtai nazaridan tadqiq etadi.

Noverbal vositalar inson tafakkurining hissiy ko‘rinishlarini tashuvchi belgilar tizimidir. Ular tilsiz nutq vositalari sifatida muloqotda emotsional, ekspressiv, pragmatik ma’no hosil qiladi. Tilshunos A. Mehrabian ta’kidlaganidek, “Inson muloqotidagi ma’nolarning atigi 7 foizi so‘z orqali, 38 foizi ovoz ohangi, 55 foizi esa noverbal signallar orqali yetkaziladi”¹⁵¹. Shu bois badiiy nutq tahlilida noverbal qatlamni e’tiborsiz qoldirish, matnning estetik mexanizmini to‘liq anglashga to‘sqinlik qiladi.

Gest (imo-harakat), mimika (yuz ifodalari) va pauza (nutqdagi to‘xtov) badiiy matnda so‘zning ortidagi hissiyotni ifodalaydi. Gest — tananing turli qismlarining harakati orqali ifoda topadigan noverbal vosita bo‘lib, u badiiy matnda muhim unsur va dramatik effekt yaratadi. Misol uchun, adabiyotda mualliflar gestlar yordamida xarakterning ichki holatini ochadi: qo‘l silkitish, bosh chayqash, ko‘z bilan qarash, lablarni qisish kabi mimika elementlari orqali hissiy ziddiyat ko‘rinadi. Masalan, Isajon Sultonning quyidagi hikoyasini olaylik, “*Yo‘q, kerakmas, - deyishdi kishilar.*

Uzr,- qo‘llarini ikki yonga yoydi Maestro. Bizning jamiyatda xaqhning irodasi qonun bilan teng.” Bu o‘rinda hikoyaning asosiy qahramoni, tomoshani olib boruvchi Maestro qo‘l harakatlari bilan “*qo‘llarini ikki yonga yoydi*” tomoshaning qatnashchisi qo‘pol kishidan uzr so‘rab, tomoshabinni majburlay olmasligini, chorasizligini tushintirib qo‘ysa,

Yoshingiz nechada ?

O‘n uchda, -dedi burro qilib u kishi, ikki qo‘lini ikki yoniga tushirib. Zo‘r berganidan hatto burnining uchi terlab ketdi. Mana bu misolda esa qo‘llarini yoniga tushirishni boshqa bir ma’nosini qo‘llaydi. Qo‘l harakatlari orqali bolalarga xos erkalik, o‘ng‘aysizlanish kabi semalarni ifodalab, unga *burnining uchi terlab ketdi* tana tili vositasini qo‘shib, so‘zlovchining qattiq hayajonda ekanligini aks ettirgan.

Yo‘q, - deb yig‘lab yubordi birinchi turgan semiz kishi, azbaroyi istamaganidan oyoqlarini tapirlatib. – Kerak emas, sirayam xohlamayman.

Siz-chi?

Onamni oldiga ketaman, - dedi burnini shilq-shilq tortib. Yuqoridagi matnda noverbal vositalar bir qancha semalarni o‘zida aks ettirgan. *oyoqlarini tapirlatib, burnini shilq-shilq tortib* kabi birliklar orqali qahramonning psixologik holatini jarayondan norozilik tuyg‘usida ekanligini tushunish mumkin. Asosiysi, qahramonlardagi bolalarga xos nutqni o‘quvchiga bildirish uchun noverbal vositalardan foydalangan. “Bir tomosha tarixi”¹⁵² hikoyasi Isajon Sultonning majoziy hikoyalaridan biri bo‘lib, unda insonlarni turli xil vaziyatlarda ,hatto

¹⁵¹ Mehrabian, A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. Belmont, 1971.

¹⁵² И.Султон. Озод. – Тошкент: Шарк, 2012. Б. - 163

bolalik paytiga qaytarib tomoshabinlarni chuqur o'yg'a toldiradi. Tomoshani aktyorlar o'ynaydi, shuning uchun yozuvchi noverbal vositalar orqali aktyorlarni "bola" obrazida ekanligini o'quvchiga oshkor qiladi. Bolaga xos erkalik, yig'loqilik, o'yinqaroqlik, erkinlik kabi ma'nolarni mana shu gestlar orqali ifodalaydi.

Gestlar matnda odatda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Emotsional – his-tuyg'ularni (g'azab, qo'rquv, sevgi, nafrat) bildiradi;

Ekspressiv – nutqdagi urg'uni, ohangni kuchaytiradi;

Kommunikativ – personajlar o'rtasidagi muloqotni yo'naltiradi;

Stilistik – qahramonning xarakteri va individualligini ochadi.

Semiotik yondashuvga ko'ra, gest belgilar tizimidir. Har bir gest o'ziga xos "kod"ga ega bo'lib, u madaniyat bilan uzviy bog'liq.

O'zbek adabiyotida qo'lni yurakka qo'yish — sadoqat; yelka qisish — beqarorlik; ko'z olib qochish — uyat yoki pushaymonlik ramzidir. Shu tarzda gest madaniy kod vazifasini bajaradi.

Mimika — bu yuz muskullarining harakati orqali his-tuyg'ularni ifodalovchi noverbal vositadir. Inson yuzidagi mimik ifodalar quvonch, g'azab, qo'rquv, hayrat, iztirob kabi emotsiyalarni bevosita ko'rsatadi. Badiiy matnda mimika nafaqat personaj ruhiyatini ko'rsatadi, balki muallifning emotsional fonini ham yaratadi.

Badiiy matnda noverbal unsurlar semantik "bo'shliq"ni to'ldiradi — ya'ni yozuvchi aytmagan, ammo o'quvchi sezadigan ichki ma'no, kayfiyat, ruhiyatni yuzaga keltiradi. "Toshkelinchak" hikoyasidan olingan quyidagi misolga qaraylik: *"Qiz esa "Otam nima desa shu" deb turganmish. Nazardan gapirishsa, indasmish-u, ammo ko'zidan yoshi duv-duv oqib ketaverarmish"* ("Toshkelinchak")¹⁵³ yuqoridagi misolda keltirilgan noverbal vositalar faqatgina musulmon xalqlari, aynan, o'zbek xalqi uchun xos bo'lgan milliy koloritlarimiz bilan o'zaro bog'liqdir. Chunki faqatgina bizda turmushga chiqayotgan qiz kuyov haqida hamma qatori bemalol gapira olmaydi. Hislarini bemalol oshkor qila olmaydi, uyat, andisha degan tushunchalarimiz sababli, bu noverbal nutq qizning ko'zidan oqqan duv-duv yoshlar orqali o'z aksini topadi.

Marhumning otasi iyagi titrab, qo'llari qaltirayotganini sezdirmaslik uchun beixtiyor moshguruch soqolini silab:

- Ha, Xudoning irodasi ekan, o'g'lim, - dedi.

...G'am qaddini ezib qo'ygan onaizor ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artib:

¹⁵³ И.Султон. Озод. – Тошкент: Шарк, 2012. Б. - 112

- - Bolalarim, nonga qaranglar, - dedi. (“Bayroq”)¹⁵⁴ bu o‘rinda yozuvchi gender individuallikka asoslanuvchi noverbal vosita mimikadan foydalanib, birinchi misolda erkaklarga xos, qatiyat, og‘ir, bosiqlik, ruhan kuchli ekanligini anglatishga urinsa, ikkinchi misolda ayollarning erkaklarga nisbatan zaif ekanini g‘am-tashvish oldida ko‘z yoshlarini berkitma olmasligini ta’kidlagan.

Gest, mimika va pauza — adabiy matnning “ko‘rinmas”, ammo eng ta’sirchan qatlamidir. Ular orqali yozuvchi:

qahramonning ruhiy olamini ochadi;

matnga drammatizm va musiqiylik beradi;

o‘quvchining hissiy ishtirokini kuchaytiradi.

Lingvopoetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, noverbal vositalar — so‘zsiz poetikani yaratadi. Bularni o‘rganish o‘zbek tilshunosligida estetik tahlilning yangi bosqichini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizova D. A. Sociolinguistic, Linguoculturological and Cognitive Aspects of Nonverbal Communication. EIP, 2022.

2. Boboyarova D. Semantics of Hand Movement Verbs in Uzbek and English Languages. Inter-Publishing, 2023.

3. Mehrabian A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. Belmont, 1971.

4. Султонов И. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011

5. Султонов И. Озод. – Тошкент: Шарқ, 2012

6. Султонов И. Боғи Эрам. – Тошкент: Шарқ, 2015

7. Султонов И. Ҳазрати Хизр изидан. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA METAFORA VA ARALASH METAFORA

Murodjonova Latofat Farhodjon qizi.

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikda metafora va aralash metafora hodisalari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Metaforaning inson tafakkuri va nutq faoliyatidagi o‘rni, uning konseptual va obrazli turlari, shuningdek, “tirik”, “o‘lgan” va “aralash” metaforalar o‘rtasidagi farqlar ilmiy misollar asosida yoritilgan. Tadqiqotda J. Lakoff, M. Jonson, M. Kimmel, K. Myuller kabi olimlarning g‘oyalari asos qilib olingan. Maqola kognitiv lingvistika

¹⁵⁴ И.Султон. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. Б. 57

yo'nalishida metafora orqali inson tafakkuridagi assotsiativ jarayonlarni tushuntirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: metafora, aralash metafora, kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, obrazli metafora, tafakkur, kognitiv jarayon, til tizimi.

Kirish

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda metaforani o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Metafora inson tafakkurining asosiy ifodalaridan biri sifatida nafaqat adabiy, balki ilmiy va kundalik tilda ham keng qo'llaniladi. Kognitiv tilshunoslik metaforani shunchaki estetik vosita sifatida emas, balki inson ongidagi bilim va tajribalarni tushunish, konseptualizatsiya qilish jarayonini aks ettiruvchi hodisa deb talqin etadi. Kognitiv lingvistika fani XX asr oxirida, xususan 1989 yilda Duysburg shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada shakllangan bo'lib, uning asosiy g'oyasi til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishdan iboratdir.

Asosiy qism (Metod va Natijalar)

Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida kognitiv-semantik va konseptual tahlil usuli tanlandi. Metafora misollarini kognitiv kontekstda tahlil qilish orqali ularning inson tafakkuridagi o'rni aniqlanadi.

Metaforaning kognitiv mohiyati

Metafora insonning borliqni anglashidagi muhim vosita hisoblanadi. U yangi g'oyalarni mavjud tajriba orqali tushuntirish imkonini beradi. Boyd (1993) ta'kidlaganidek, ilmiy bilimlarda metaforaning asosiy kognitiv vazifasi yangi tushunchalarni ilgari mavjud g'oyalar yordamida anglashdir.

Konseptual metafora nazariyasi

J. Lakoff va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metaforalar inson tafakkurining tabiiy qismidir. Ular uch asosiy turga bo'linadi: yo'nalishli, tizimli va ontologik metaforalar.

Obrazli va aralash metaforalar

O'zbek va ingliz tillarida metaforalar tilda va tafakkurda turlicha ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida "hayot yo'li", "ko'ngil ko'zi", "dil ishi" kabi metaforalar mavjud bo'lib, ular inson tajribasining ma'naviy va hissiy tomonlarini ifodalaydi. Ingliz tilida esa "life is a journey", "heart of stone", "time is money" kabi metaforalar keng qo'llaniladi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ham abstrakt tushunchalar konkret obrazlar orqali ifodalanadi.

Aralash metaforalarda esa bu jarayon yanada murakkablashadi. Masalan, ingliz tilidagi "He sailed through the exam" jumlasida "sail" (suzib o'tmoq) harakati "exam" (imtihon) konsepti bilan birlashtirilib, ikki xil metaforik tizim bir butun ma'noni hosil qiladi. O'zbek tilida esa "U imtihondan suzib o'tdi" deyilmasa-da, "imtihonni yengil o'tdi", "imtihonni parvoz qilib o'tdi" kabi obrazli

ifodalar ishlatiladi. Bu holatda ham kognitiv jarayon — ma’no ko‘chirish — o‘xshash tarzda kechadi. Yana bir misol: ingliz tilida “Her words cut deep” (“Uning so‘zlari yuragimni kesdi”) va o‘zbek tilidagi “So‘zlari yuragimni tilka-pora qildi” metaforalari mazmun jihatdan tengdir. Ikkisida ham hissiy og‘riq jismoniy jarohat obrazida ifodalangan. Shu bois, aralash metaforalar turli tillarda o‘xshash kognitiv asosga ega bo‘lishi mumkin. Obrazli metaforalar inson ongida erta shakllanib, ikki obraz yoki hissiyotning taqqoslanishiga asoslanadi. Aralash metafora esa bir nechta metaforik tizimlarning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Masalan: “Her burning eyes and fiery hair set his heart alight” – bu jumlada obrazli va konseptual metaforalar uyg‘unlashgan.

“Tirik” va “o‘lgan” metaforalar

K. Myuller tasnifiga ko‘ra, uxlayotgan metaforalar hozirda faol bo‘lmagan, ammo yana jonlanish salohiyatiga ega; uyg‘oq metaforalar esa faol ishlatilayotgan, ammo vaqt o‘tishi bilan passivlashishi mumkin bo‘lgan metaforalar hisoblanadi. Masalan, “to comprehend” fe’li dastlab “Understanding is grasping” metaforasiga asoslangan bo‘lsa-da, hozirgi kunda u metaforik ma’nosini yo‘qotgan.

Munozara

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metafora va aralash metaforalar tilda faqat badiiy vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining chuqur kognitiv tuzilmasini aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik birliklarni tahlil qilish ularning umumiy kognitiv asosga — tajriba, hissiyot va idrok tizimlariga — tayanishini ko‘rsatadi. Har ikkala tilda ham metafora orqali inson abstrakt tushunchalarni konkret, seziladigan hodisalarga bog‘laydi.

Shuningdek, aralash metaforalar tilda ijodkorlikni kuchaytiradi, ma’no qatlamlarini boyitadi. Ular nutqni jonlantiradi, tafakkurning yangi yo‘nalishlarini ochib beradi. Demak, metafora — bu tildagi bezak emas, balki tafakkurdagi dunyoni idrok etishning faol mexanizmidir.

Aralash metaforalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, inson tafakkuri murakkab ko‘chirish jarayonlari asosida ishlaydi. Har bir metafora insonning konseptual tizimida mavjud assotsiatsiyalar orqali yangicha ma’no yaratadi. Shu jihatdan, aralash metafora faqat til vositasi emas, balki tafakkurdagi kognitiv moslashuv natijasidir.

Xulosa

Metafora kognitiv tilshunoslikda inson tafakkurining konseptual tuzilmasini ochib beruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Aralash metaforalar esa bu jarayonning eng murakkab, ammo eng ifodali shakli bo‘lib, ular orqali inson ongidagi turli konseptual tizimlar o‘zaro uyg‘unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Boyd R. Metaphor and Theory Change. 1993.
3. Kimmel M. Mixing Metaphors: Conceptual Blending in Thought and Language. 2010.
4. Zalevskaya A.A. Psixolingvistika asoslari. Moskva, 2001.
5. Myuller K. Dead and Alive Metaphors in Cognitive Linguistics. 2015.
6. Luriya A.R., Vygotskiy L.S. Til va tafakkur psixologiyasi. Toshkent, 1999.
7. Pavlov I.P., Sechenov I.M. Inson reflekslari va nutq mexanizmlari. Moskva, 1975.
8. Despot K., Bolognezi M. Metaphor in Cognitive Context. Oxford, 2014.

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARIDA FONETIK TAKRORLARNING XUSUSIYATLARI

Yoqubova Gulasal Farxodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fonetik takrorlar va ularning o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarida qo‘llanilishi xususiyatlarini bayon qiladi. O‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlari namunalari misolida esa fonetik takrorlarning ahamiyati hamda funksiyalari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: takror, fonetik takror, alliteratsiya, vokal alliteratsiya, konsonans alliteratsiya, kontakt alliteratsiya, distant alliteratsiya, assonans.

Annotation: This article describes phonetic repetitions and their features in Uzbek children’s folk songs. Using examples from Uzbek children’s folklore songs, the significance and functions of phonetic repetitions are also highlighted.

Keywords: repetition, phonetic repetition, alliteration, vocal alliteration, consonant alliteration, contact alliteration, distant alliteration, assonance.

Аннотация: В данной статье описываются фонетические повторы и их особенности в узбекских детских фольклорных песнях. На примере образцов узбекского детского фольклора раскрываются значение и функции фонетических повторов.

Ключевые слова: повтор, фонетический повтор, аллитерация, гласная аллитерация, согласная аллитерация, контактная аллитерация, дистантная аллитерация, ассонанс.

Bolalar folklor qo'shiqlarida takrorlarning o'rni beqiyosdir. Umuman olganda takrorlar bolalarga xos bo'lgan ko'plab janrlarda asosiy elementlardan biri sifatida kuzatiladi. Jirmunskiyning fikriga ko'ra poetik takrorlar voqelikdan olingan hissiy taassurotning emotsional ta'sir kuchini oshirishda muhim o'rin tutadi.¹⁵⁵ Folklor qo'shiqlarida takror qo'shiq matnidagi tasvirni bo'rttirib ko'rsatish, qo'shiqning musiqiyliigi va ohangdorligini ta'minlash va boshqalar e'tiborini jalb qilish kabi vazifalarni bajaradi. Hotamov va Sarimsoqov o'zlarining "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da takrorni "...badiiy nutqqa xos intonatsion-sintaktik ifoda usullaridan biri: ayrim tovushlarni bir yoki bir necha so'zni yoki so'z birikmalarini ba'zan esa ma'lum bir satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his-tuyg'uni ifodalashga, uning ta'sir kuchini oshirishga turli intonatsiyalarni bo'rttitib ko'rsatishga imkon beradigan stilistik usul"¹⁵⁶ deya ta'riflaydilar. Shuningdek ular takrorni alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans konsonans, monorim, pleonasm, taftologiya, naqorat kabi turlarini ajratib ko'rsatadilar.¹⁵⁷

O'zbek bolalar folklor qo'shiqlarida eng keng tarqalgan turlaridan biri sifatida fonetik, leksik va sintaktik takrorlarni keltirishimiz mumkin. Xususan, fonetik takrorlar bolalar folklori janrlarida faol uchraydigan badiiy san'atlardan hisoblanadi. Ayniqsa alliteratsiya bolalar folklor qo'shiqlarining asosiy elementlaridan biri bo'lib u "... she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi."¹⁵⁸ Alliteratsiya san'ati tilning tovush tizimida namoyon bo'lganligi sababli uning vujudga kelishida tovushlar asosiy elementlar hisoblanadi. N. Hotamov va B. Sarimsoqovlar esa alliteratsiyani ham unli ham undosh tovushlar takroridan hosil bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, uni vokal va konsonant alliteratsiyaga ajratadilar.¹⁵⁹ O'zbek bolalar folklor qo'shiqlarida esa alliteratsiyaning har ikki turini kuzatish mumkin:

Karim kamonga ketdi,

Sobir somonga ketdi.

Tolib, Tesha - ikkovi

Ikki tomonga ketdi...¹⁶⁰

¹⁵⁵Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. - Л.: Наука, 1977. - С. 199

¹⁵⁶ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - Б.235.

¹⁵⁷ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - Б.235.

¹⁵⁸ D. Kuronov, Z. Mamajonov, M. Sheralieva, *Adabiyotshunoslik lug'ati* (Toshkent: Akademnashr, 2010) B-27

¹⁵⁹ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - Б.235

¹⁶⁰ *Chittigul*, to'plab nashrga tayyorlovchilar: Yo'ldosh Sultonov, Nasimxon Raxmonov, Shomirza Turdimov, Toshkent: «O'qituvchi», 1992. B-66

Ushbu qo'shiq matnining birinchi qatorida <k> portlovchi, ikkinchi qatorda <s> sirg'aluvchi va uchinchi qatorda <t> portlovchi tovushining takrori konsonant alliteratsiyani hosil qilmoqda. Ushbu tovushlar karim, *Sobir*, *Tolib*, *Tesha* kabi antroponimlar, *kamonga*, *somonga* va *ketdi* kabi ot va fe'l turkumiga mansub so'zlar tarkibidagi fonemalar boshida kelib alliteratsiyaga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Joylashuv o'rnini va o'zaro munosabatiga ko'ra ushbu alliteratsiya kontakt alliteratsiya hisoblanib, bir xil undosh tovushga ega bo'lgan va alliteratsiyaga asos bo'lib xizmat qilayotgan so'zlar qo'shiq matnida yonma-yon joylashmoqda. Shu bilan bir qatorda yuqoridagi to'rtlikda assonans hodisasi ham kuzatilmoqda. Misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligi assonans deyiladi.¹⁶¹ Bu o'rinda so'zlar tarkibidagi uyg'un tovushlar <a> hamda <o> keng unilari assonansni hosil qilib misraning jarangdor bo'lishini ta'minlamoqda.

Quyidagi "Chittigul" nomli bolalar qo'shig'ida ham alliteratsiyaning ajoyib namunasini ko'rishimiz mumkin:

"...Qo'ling qo'lbog'da bo'lsin,

Beling belbog'da bo'lsin.

Hayu, chittigul,

Hayu, chittigul..."¹⁶²

Ushbu qo'shiq matnida birinchi qatorda so'zlar boshida kelgan <q> undoshi, ikkinchi qatorda esa undoshi konsonant alliteratsiyani hosil qilmoqda. Bu misolda ham xuddi yuqoridagi misol kabi alliteratsiyaga asos bo'lgan so'zlar o'zaro yonma-yon kelganligi sababli kontakt alliteratsiya vujudga kelmoqda. Shuningdek birinchi qatordagi so'zlarning barchasida birinchi bo'g'inlarida <o> hamda <o> unilari takrorlanib kelib assonansga asos bo'lmoqda. Bolalar qo'shiqlarining janr xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bu o'rinda alliteratsiya va assonans tovush takrorlari quyidagi funksiyalarni bajarmoqda:

- Matnning ohangdorligini oshirish. Bir xil unli tovushlarning so'zlar tarkibida aynan takrorlanishi matnga ma'lum bir ritm va ohang bag'ishlaydi. Bu esa qo'shiq matnini yanada musiqiy qilishga xizmat qiladi. Shuningdek bolalar qo'shiq matnidagi so'zlarni talaffuz qilinishida <o> tovushining takrorlanishi tilga ravonlik va osonlik beradi;

- Eslab qolishni osonlashtirish. Folklor qo'shiqlar odatda avlodlardan avlodga og'zaki tarzda yetkazilganligi sababli bir xil tovushlar takrori bolalar xotirasida

¹⁶¹ S. Sultonsaidova va I. Sharipova, O'zbek tili stilistikasi (Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI nashriyoti, 2009).

¹⁶² Chittigul, to'plab nashrga tayyorlovchilar: Yo'ldosh Sultonov, Nasimxon Raxmonov, Shomirza Turdimov, Toshkent: «O'qituvchi», 1992. B-8

osonroq saqlanib qoladi va xalq og‘zaki ijodining keyingi avlodlarga o‘tishi uchun osonlashtiradi.

- Ma‘noni kuchaytirish. Qo‘lbog‘ bolani (chaqaloqni) beshikka belashda ikki qo‘lini yoniga qilib, bilaklari va qorin ustidan tortib bog‘lanadigan enli bog‘ichdir.¹⁶³ Odatda, o‘zbek xalqida chaqaloqni beshikka belashga milliy qadriyat va bola tug‘ilishining ilk kunlarida o‘tkaziladigan alohida muhim marosim sifatida qaraladi. Bu o‘rinda tovushlar takrori aynan milliy qadriyatlarga urg‘u berish vazifasini ham bajarmoqda.

Alliteratsiyaning vokal turi ham folklor qo‘shiqlarda keng kuzatiladigan fonetik takror turlaridan biri hisoblanadi.

Oftob chiqdi olamga,

Yugurib bordim xolamga.

“Xola, xola, non “ – dedim

Pok bo‘lmasa o‘luvdim.¹⁶⁴

Yuqorida olingan parchada oftob, olamga, bordim, xolamga, xola, non, pok(sal¹⁶⁵) so‘zlarida takrorlanib kelgan <o> unlisi vokal alliteratsiyani hosil qilib qo‘shiqni kuylash jarayonida satrlar orasida musiqiy uyg‘unlikni yaratadi. Ta’kidlash kerakki, unli tovushlar cho‘zib talaffuz qilish xususiyatiga ega ekanligi sababli vokal alliteratsiya konsonant alliteratsiyadan ko‘ra ko‘proq musiqiylik beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarida fonetik takrorlar ko‘plab o‘rinlarda uchrab turlicha funksional xususiyatlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuronov.D, Z. Mamajonov, M. Sheralieva, Adabiyotshunoslik lug‘ati Toshkent: Akademnashr, 2010

2. Madvaliyev, Abduvahob, and Durdon Xudayberganova, editors. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Vol. 4, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

3. Sultonsaidova.S va I. Sharipova, O‘zbek tili stilistikasi (Toshkent: Yurist-media markazi nashriyoti, 2009).

4. Yo‘ldosh Sultonov, Nasimxon Raxmonov, Shomirza Turdimov. Chittigul Toshkent: «O‘qituvchi», 1992.

5. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. - Л.: Наука, 1977.

¹⁶³ Madvaliyev, Abduvahob, and Durdon Xudayberganova, editors. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Vol. 4, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.B-325

¹⁶⁴ Chittigul, to‘plab nashrga tayyorlovchilar: Yo‘ldosh Sultonov, Nasimxon Raxmonov, Shomirza Turdimov, Toshkent: «O‘qituvchi», 1992

¹⁶⁵ O‘rinbayeva, D. B. Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. Samarqand, 2017.

6. Хотамов Н, Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979.

TURKIY TILSHUNOSLIKDA FOLKLORIK FRAZELOGIZMLARNING TUTGAN O'RNI (QORAQALPOQ VA QOZOQ DOSTONLARI ASOSIDA)

Qutiboyeva A. –

Ajiniyoz nomidagi NMPI tayanch doktoranti

Izoh: Ilmiy maqolada turkiy tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganish va xalq frazeologik birliklarining qo'llanish xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

Аннотация: Научная статья посвящена изучению фразеологизмов в турецком языкознании и особенностям употребления народных фразеологизмов.

Annotation: The scientific article focuses on the study of phraseological units in Turkish linguistics and the features of the use of folk phraseological units.

Tayanch so'zlar: Tilshunoslik, frazeologizm, folklor, obraz, emotsiya.

Ключевые слова: языкознание, фразеология, фольклор, образ, эмоция.

Key words: linguistics, phraseology, folklore, image, emotion.

Til bilan xalq - bir butun. Qadimdan xalqning tiliga qarab millatini tanigan. Millatning boshqa millatlardan eng dastlabki farqi ham - til. Xalqimizning milliy xarakterlarini belgilovchi urf-odatlar fe'l-atvor muloqoti bevosita tilda namoyon bo'ladi. Hayotning barcha sohasida qo'llanib tilimizga badiiy bo'yoq beradigan frazeologizmlar - har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Frazeologizmlar so'zlashuv tilida ham, yozma tilda ham ko'p qo'llaniladi.

Har bir xalqning frazeologiyasi juda boy lingvistik meros hisoblanadi. Chunki unda o'sha xalqning milliy madaniyati, urf-odati, e'tiqodi, tasavvuri va tarixi bor. Qoraqalpoq va qozoq xalqi o'zining donishmandligi, dunyoqarashi va dunyoqarashini tiliga sig'dira bilgan gapni aniq va ravshan qo'llashni odat qilgan. Frazeologizmning qay-qaysisi bo'lmasin hammasida eng avval xalqning so'zlashuv tili asosida rivojlangan. Shuning uchun ham ular turmushning barcha sohalarini o'z ichiga olib, ichki mazmuni jihatidan juda boy bo'ladi.

Turkiy frazeologiyani eng avval o'rgangan olimlarning biri qozoq olimi

I.Keñesbaev¹⁶⁶ bo‘lib hisoblanadi. Qozoq frazeologiyasining ko‘ch boshlanishidan keyin o‘zbek tilshunos olimi – SH.Raxmatullaev¹⁶⁷, ázerbayjan – G.A.Bayramov¹⁶⁸, túrkman – L.Babaev¹⁶⁹, qorachoy-bolqor– Z.K.Jarashueva¹⁷⁰, qirg‘iz – J.Osmanov¹⁷¹, turk – L.N.Dolganov¹⁷², qumıq – K.X.Daybova¹⁷³, chuvash – M.F.Shernov¹⁷⁴, qoraqalpoq tilinegi frazeologizmderdı – E.Berdimuratov¹⁷⁵ va boshqa tillarning ishlari turkiy tilshunoslikdagi frazeologiyaning dastlabki tayanch ishlari hisoblanadi. So‘nggi yillarda frazeologizmlar turli ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu tadqiqotlarga tayanadi.

Qozoq tilshunosligida frazeologizmlarni har tomonlama o‘rgangan olima Guldarxon Smagulova turkiy frazeologiyasining o‘rganilishi bo‘yicha: «Turkiy frazeologiyasining masalalarini muhokama qilganda umumiy turkiy madaniyatining ma’naviy merosining bir sohasi barqaror iboralar - frazeologizmlarning turklashtirishdagi kechagi rivojlanishi bilan shakllanishi bugungi tadqiqot yo‘nalishlari va kelajakdagi holati haqida aytilishi kerak»¹⁷⁶ deb fikr bildiradi.

Folklor - xalqning uzoq yillik tarixi, turmush tarzi va ma’naviy dunyosi haqida ma’lumot beradi. Folklor tilida paydo bo‘lgan frazeologik birliklar xalqimizning milliy mentaliteti, dunyoqarashi, adabiy-estetik saviyasini yaqqol namoyon etadi.

Folklor frazeologiyasining eng asosiy xususiyatlaridan biri obrazlilik. Folklorning frazeologik birikmalari obrazli, poetik bo‘ladi. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida frazeologizmlar kuchli obrazlilik bilan boyitilgan. Masalan:

Onan soń Edige turıp *hár túgi tebendey shansılıp*, mına gápti aytqanda *qap-qara boldı júzi, jer kórmedi kózi*, qattı ashıwı keldi: (15-bet Edige)

Bu misolda

¹⁶⁶ Kenesbaev I. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. (КТФС),

¹⁶⁷ Рахматуллоша III. У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД, М., 1952.

¹⁶⁸ Байрамов Г. А. Устойчивые словосочетания в азербайджанском языке.— Известия АН АзербСССР, серия общественных наук, 1959,

¹⁶⁹ Бабаев К. Идиомы в туркменском языке. АКД. Ашхабад, 1963.

¹⁷⁰ Жарашуева З. К. Вопросы фразеологии современного кара-часно-балкарского языка. АКД, Баку, 1973. с. 24.

¹⁷¹ Осмонова Ж. Идиомы в киргизском языке. АКД. Фрунзе, 1969. с. 28.

¹⁷² Долганов Л. Н. Пути развития идиоматики в современном турецком языке, АКД, М., 1952.

¹⁷³ Даибова К. Х. Фразеология кумыкского языка. АКД, М.,

¹⁷⁴ Чернов М, Ф. Фразеология современного чувашского языка.

¹⁷⁵ Бердимуратов Е. Ҳазирги заман карақалпақ тили (Лексикология) Нөкис: Билим, 1994;

¹⁷⁶ Смағұлова Г. С 52 Қазақ фразеологиясы лингвистикалық парадигмаларда: монография. – Алматы: «Елтаным баспасы», 2020. – 256 бет. ISBN 978-601-332-718-1

«hár túgi te bendey shanshılıp» Edigening juda g‘azablanib, g‘azabidan bo‘yi tikka turish ma’nosini bildirib qahramonning tana harakati bilan psixologik holati bir vaqtda tasvirlanadi. Al «qap-qara boldı júzi» birikması g‘azabning haddan tashqari chiqqanini ko‘rsatsa, «jer kórmedi kózi» birikması ko‘zning yer ko‘rishi emas, odamning sabrsiz holatini tasvirlaydi. Bu gapda Edigening g‘azabi, nomusi frazeologik birikmalar orqali juda obrazli tasvirlangan. Har bir barqaror tizma uning psixologik portretini ochadi va dostonning epik ifodasini kuchaytiradi.

Qozoq xalqining Qo‘blondi botir dostonida ham shunga o‘xshash frazeologizmlar bor. Misali «Qobilandi ashıwdan *túgi tirilip, kózinen ot shashıp, qılıshın sıwırıp aldı.*» (45-b.) 943480418

Bu misoldagi «túgi tirilip ashıwlanıw» birikması tanasi seskanib, hayratlanish ma’nosini bildirib yuqoridagi «hár túgi te bendey shanshılıp» frazeologizmi bilan ma’nodosh bo‘lib keladi. «Kózinen ot shashtı» iborasi esa qattiq g‘azablanish, qahr lanish ma’nosini bildirib «jer kórmedi kózi» frazeologizmi bilan ma’nodosh bo‘lib turibdi. Biz bu misollardan qoraqalpoqning "Edige," qozoqning "Qo‘bilandi" dostonlaridagi frazeologizmlar umumiy turkiy poetik an‘analarga asoslanishini ko‘rishimiz mumkin.

Folklor frazeologiyasi xalq tuyg‘usini, hissiyotini ifodalaydi. Emotsiya - xalq og‘zaki adabiyotida qahramonning ichki tuyg‘usini, psixologik holatini tasvirlaydigan muhim badiiy kategoriya. Frazeologizmlar emotsiyani yetkazishning eng ta’sirli vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali botirning g‘azabi, quvonchi, qo‘rquvi obrazli va ta’sirli tarzda tasvirlanadi.

Qo‘rquv ma’nosini bildiruvchi frazeologizmlarga misol: «Záre janı qalmadı, ne qıların bilmedi, gá qızardı, gá bozardı, tımsalı júregın jardı.» (148-b.), «Qurtqa kórip shoshındı, óni solıp, tili baylanıp qaldı.» (28-b.)

Qoraqalpoq dostonida qo‘rquvning ta’siri yuz-ko‘rinish bilan yurakning urishi orqali beriladi, qozoq dostonida esa so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishi orqali tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq va qozoq tilining leksik tarkibida qahramonlik dostonlari tilining frazeologiyasi unumli qo‘llaniladi. Doston tilida frazeologizmlar tildagi boshqa so‘zlardan emotsional-ekspressiv bo‘yoqlari bilan farqlanadi, ayniqsa, aytiladigan fikrni obrazli qilib kuchaytirishda ahamiyati katta. Qahramonlik dostonlarida obrazli frazeologizmlar xalqning hayot tajribasi va dunyoqarashini tasvirlaydi va og‘zaki adabiyotda estetik ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun frazeologizmlar nafaqat lisoniy, balki ma’naviy va ruhiy meros sifatida baholanishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Кенесбаев 1. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. (КТФС),

2. Рахматуллоша Ш. У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбек-ского языка. АКД, М., 1952.
3. Байрамов Г. А. Устойчивые словосочетания в азербайджанском языке.— Известия АН АзербСССР, серия общественных наук, 1959,
4. Бабаев К. Идиомы в туркменском языке. АКД. Ашхабад, 1963.
5. Жарашуева З. К. Вопросы фразеологии современного кара-часно-балкарского языка. АКД, Баку, 1973. с. 24.
6. Осмонова Ж. Идиомы в киргизском языке. АКД. Фрунзе, 1969. с. 28
7. Долганов Л. Н. Пути развития идиоматики в современном турецком языке, АКД, М., 1952.
8. Даибова К. Х. Фразеология кумыкского языка. АКД, М.,
9. Чернов М, Ф. Фразеология современного чувашского языка.
10. Бердимуратов Е. Ҳазирги заман қарақалпақ тили (Лексикология) Нөкис: Билим, 1994;
11. Смағұлова Г. С 52 Қазақ фразеологиясы лингвистикалық парадигмаларда: монография. – Алматы: «Елтаным баспасы», 2020. – 256 бет. ISBN 978-601-332-718-1
12. Edige Qaraqalpaq xalıq dastanı-Nókis Qaraqalpaqstan, 1990.-400 b
13. Қобыланды батыр // Бабалар сөзі: Жыр-дастандар. – 5-т., – Астана: Фолиант, 2006. – 456 б.

TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Sherdjanova Sevara Qahramanovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti, Ingliz tili o'qituvchisi,
sevara.sherdjanova88@mail.ru;

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola tilshunoslik sohasida maqollarning semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada o'zbek xalq maqollari misolida ularning ma'nosi, ko'chma ifoda vositalari, badiiy til xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning qisqalik, hikmatlilik va xalq dunyoqarashini ifodalashdagi o'rni ko'rsatilib, ularning leksik, semantik va stilistik qatlamlari ko'rib chiqilgan. Maqollarda tashbeh, kinoya, alliteratsiya kabi stilistik vositalar qanday ishlatilishi va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi.

Maqoladagi natijalar maqollarning xalq tilshunosligida muhim o‘rin tutishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, maqollar, semantika, stilistika, paremiologiya, lingvistik tahlil, badiiy til, tilshunoslik turlari.

KIRISH. Til insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Til orqali inson o‘z fikrini ifoda etadi, muloqot qiladi, madaniyatini avloddan-avlodga yetkazadi. Maqollar esa tilning noyob janrlaridan biri bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining mahsuli sifatida shakllangan qisqa, hikmatli va obrazli ifodalardir. Ular nafaqat til birliklari, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy tajribalarining muhim namunalarini hisoblanadi. Shu sababli, tilshunoslikda maqollarning o‘rganilishi naqadar muhim ekanligi haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maqollarning semantik va stilistik xususiyatlari ularning ma’nolarini qanday ifodalayotgani va badiiy til vositalari yordamida qanday jonlantirilganini tushunishda katta ahamiyat kasb etadi. Semantik xususiyatlar maqollarning ma’nolar doirasini aniqlasa, stilistik jihatlar esa ularning ifoda qudratini oshiradi, o‘quvchi va tinglovchiga yanada ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Bu ikki qirrali yondoshuv, ya’ni semantik va stilistik tahlil, maqollarning niyat qilingan mazmunini, ular orqali xalqning madaniy va til o‘ziga xosligini o‘rganishga yordam beradi.

Shuningdek, maqollar ko‘pincha tashbeh, kinoya, metafora kabi badiiy vositalardan foydalanadi, bu esa ularni qisqa va lo‘nda shaklda kuchli ifoda etish imkonini beradi [1]. Masalan, “Yetti o‘lchab, bir kes” maqoli insonlarni harakatlarida o‘lchovli va ehtiyotkor bo‘lishga chaqiradi. Shu bilan birga, tashbeh va alliteratsiya qo‘llanilishi maqolni yanada yodda qoladigan va ta’sirchan qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqotda asosiy e’tibor paremiologiya - maqollarni o‘rganish fanining tilshunoslik va folklorshunoslik bilan tutashgan sohasiga qaratilgan. Ilmiy manbalarda maqollar nafaqat qisqa va ixcham ifoda vositasi sifatida, balki xalq madaniyati, dunyoqarashi va til strukturasi nuqtai nazaridan ham chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot adabiyotlarida maqollarning semantik qatlamini aniqlashda komponent tahlil, tavsifiy-tahliliy, qiyosiy va analitik metodlar ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek va boshqa tillardagi maqollarni fonetik, leksik, grammatik, stilistik jihatlardan chog‘ishtirish orqali ular orasidagi o‘xshashlik va farqlar o‘rganiladi. Semantik tahlilda maqollardagi sinonim, antonim, tashbeh va kinoya kabi ifoda vositalari aniqlanib, ularning ma’nosi yoritiladi.

Shuningdek, maqollarni lingvokulturologik nuqtai nazardan o‘rganishda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikka urg‘u beriladi, hamda tadqiqotlarda maqollarni xalqning mentaliteti va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashdagi roli o‘rganiladi. Ushbu

metodlar maqollarning faqat lugʻaviy emas, balki madaniy-konseptual tavsiflarini ham aniqlashga yordam beradi [2].

Metodologiyada matn lingvistikasi, kognitiv tahlil, pragmatik yondashuv va kompyuter korpus tahlili kabi yangi usullar ham keng qoʻllanilmoqda [3]. Bu usullar maqollarning tilshunoslikdagi kompleks xarakterini, ularning tilda amaliy qoʻllanilishi va taʼsirchanligini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maqollarning tilshunoslikda oʻrganilishi uchun koʻp qirrali, integratsiyalashgan metodlar zarur boʻlib, ular semantik, stilistik va madaniy jihatlarni birgalikda tahlil qilishga imkon beradi. Bunday yondashuv oʻzbek xalq maqollarining lingvistik va madaniy boyligini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻzbek maqollari tilshunoslikda semantik va stilistik jihatdan boy va murakkab tuzilishga ega boʻlib, ular xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Maqollarning semantik xususiyatlari ularning koʻp qatlamli maʼnosini ochib beradi: ular koʻpincha koʻchma maʼnoda ishlatiladi, xalqning axloqiy, ijtimoiy qadriyatlarini ifodalaydi. Stilistik jihatdan esa maqollar badiiy uslublar, masalan, tashbeh, kinoya, alliteratsiya va metafora kabi vositalar orqali yanada taʼsirchanlik kasb etadi. Bu esa maqollarni nafaqat ogʻzaki ijod namunasi, balki badiiy tilning oʻziga xos shakli qilib koʻrsatadi.

Maqollarning qiyosiy tahlili natijasida oʻzbekcha maqollar boshqa tillardagi maqollar, jumladan, ingliz tilidagi maqollar bilan fonetik, semantik va stilistik jihatdan oʻxshashlik va farqlarga ega ekanligi aniqlandi. Masalan, oʻzbek maqollarida urgʻu va qofiya koʻproq ishlatilib, ularni yodda qoladigan va vaznli qiladi, boshqa tillarda esa maqollarning semantik ifodasi ohang va intonatsiyaga koʻproq bogʻliq [4]. Shuningdek, maqollarning lingvokulturologik aspektlari ham tadqiq etilib, ularning milliy madaniyat va xalq mentaliteti bilan chambarchas bogʻliqligi yaqqol koʻrsatildi [5].

Natijalar shuni koʻrsatadiki, maqollar tilshunoslikda nafaqat leksik birlik, balki madaniy kontekstga ega boʻlgan, xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi hodisa sifatida oʻrganiladi. Ushbu yondashuv maqollarning koʻp qirraliligini va ularning til va madaniyat sohalarida muhim oʻrinni egallashini anglashga yordam beradi [6]. Masalan: “Yetti oʻlchab, bir kes” bu maqol puxta, ehtiyotkor qaror qabul qilishni targʻib qiladi; “Har kim suygan oshini ichadi” har bir kishi oʻz taʼbiga qarab ish tutishini bildiradi; “Oʻzi yoʻqning koʻzi yoʻq” kabi bu misollar maqollarning amaliy, ijtimoiy va axloqiy jihatlardagi semantik qirralarini koʻrsatadi. Bilamizki, maqollarda koʻplab badiiy til vositalari ishlatiladi: tashbeh: “Tilingda boʻlsa boling kulib turar iqboling” tilni yashirish, unga eʼtibor berish haqida. Alliteratsiya va qofiya: “Yomonga boʻldim yoʻldosh, ishimga

bo‘lmadi qo‘ldosh” maqolida qofiya va ritm ta’sirchanlikni oshiradi. “Ahmoq aql o‘rgatar”bu maqolda to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlar ortida kinoya borligini ko‘rishimiz mumkin.. “Arslonning o‘ligi - sichqonning tirigi” kuchsiz odamlar kuchsiz odamlarni hukmron sifatida qabul qilishini ta’kidlaydi, bu esa ingliz tilidagi “Better be the head of a dog than the tail of a lion” maqoliga ekvivalent bo‘la oladi [7]. “Har qush o‘z uyasini der” o‘zini himoya qilish va o‘zini qadrlashni bildiradi. Ushbu misollar maqollarning tilshunoslikdagi foydali jihatlarini, ularning semantik qatlamlarini va badiiy ifoda uslublarini ochib beradi. Shu bilan birga, maqollarning o‘ziga xos til va madaniyat havzasi ekanligini ko‘rsatadi va tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik tahlillarida samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA. Ushbu ilmiy maqolada tilshunoslikda maqollarning semantik va stilistik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalq maqollari o‘zining qisqa, ixcham shakli orqali ko‘p qatlamli ma’nolarga ega bo‘lib, ular xalq dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy tajribalarini ifodalaydi. Semantik xususiyatlar maqollarning ma’nosining kengligi va hikmatlilik darajasini ochib beradigan bo‘lsa, stilistik xususiyatlar badiiy til vositalari - tashbeh, kinoya, alliteratsiya, qofiya kabi - yordamida ularning ifoda kuchini oshiradi. Misollarda ko‘rsatilganidek, maqollarning ma’naviy va amaliy mazmuni bugungi kun tilshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Shuningdek, maqollarning lingvokulturologik kontekstdagi o‘rni ularning milliy madaniyat va xalq mentalitetini aks ettirishida namoyon bo‘ladi. Maqollar millatlararo solishtirma tahlil qilishda ham muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot davomida kognitiv, pragmatik va lingvistik metodlardan foydalangan holda, maqollarning tilshunoslikdagi murakkabligi va ahamiyati batafsil yoritildi. Kelajakda maqollarning pragmatik va psixolingvistik jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish zarurati mavjud.

Shunday qilib, o‘zbek maqollari tilshunoslik va madaniyatshunoslikda milliy til va madaniyat boyligini anglash hamda saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ularni chuqur o‘rganish tilshunoslik fanining nazariy va amaliy rivojlanishiga xizmat qiladi va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karomatova K.M., Karomatov H.S., “Proverbs. Maqollar. Пословицы”, O‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar tahlili.
- 2.To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqllov, Bahodir Sarimsoqov, “O‘zbek xalq maqollari”, O‘zbek tilshunosligida maqollar.
- 3.Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, “Hikmatnoma” va “Ma’nolar xazinasini” - o‘zbek maqollarining semantik tahlili.
- 4.O.Safarov, “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi”, maqollarning nazariy asoslari.

5.Honek, R., “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom”, ingliz tilidagi maqollar tahlili.

6.Profesor Mayder, “Proverbs: A Handbook”, ingliz maqollarining semantik tahlili.

7.Arora, S., “The Perception of Proverbiality”, ingliz maqollarida badiiy san’atlar.

KONSEPTUAL-SEMANTIK TAHLIL: “SMILE/TABASSUM” LEKSEMALARINING SINONIMIK VA ANTONIMIK PARADIGMASI

Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi

TerDPI, Amaliy ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

+998992440097

E-mail: njorayeva461@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “*smile/tabassum*” konseptining konseptual-semantik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda ushbu leksemaning sinonimik va antonimik paradigmaları o‘rganilib, ularning semantik farqlari, hissiy-psixologik mazmuni hamda madaniy konnotatsiyalari aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “*smile/tabassum*” konsepti har ikki til madaniyatida ijobiy hissiyot, samimiyat va insonlararo munosabatlarning muhim belgisi kabi namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *konsept, tabassum, smile, sinonimiya, antonimiya, semantika, paradigmatic tahlil, madaniyat.*

Kirish. So‘nggi yillarda tilshunoslikda hissiy konseptlar, xususan, insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi leksik birliklarni kognitiv va konseptual jihatdan tadqiq etish dolzarb masalaga aylandi, hamda “*smile*” va “*tabassum*” leksemalari shu kabi hissiy konseptlarning eng yorqin namunasi. Ushbu leksik birliklar insonning ichki holatini, ijobiy hissiyotlarini, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim semantik markazlardan biri deb qaraladi. Konseptual-semantik tahlil nafaqat so‘zning lug‘aviy ma‘nosini, balki uning zaminida yotgan madaniy, kognitiv va ijtimoiy konnotatsiyalarni ham ochib beradi. Ayniqsa, “*smile/tabassum*” kabi hissiy birliklar orqali xalqning milliy tafakkuri, ijobiy kayfiyatga munosabati va muloqot etiketi namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot doirasida “*smile/tabassum*” konseptlarining semantik va madaniy talqini kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalari asosida yoritiladi. G. Lakoff va M. Johnson [2] inson tafakkuri

metaforik asosga ega ekanini ko'rsatib, emotsional konseptlarning tajriba va madaniyat bilan bog'liqligini asoslaydilar. A. Wierzbicka [3] esa emotsional leksik birliklarning madaniyatlararo farqlarini tahlil qilib, "*smile/tabassum*"ning universalligi va milliy xususiyatini ajratadi.

V.A. Maslova [4], Z.D. Popova va I.A. Sternin [5] konseptni inson tafakkurining kognitiv modeli deb talqin etsalar, E.S. Kubryakova [6] konseptlarning idrok va tajriba orqali shakllanishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev [7] va N. Mahmudov [8] leksik-semantik tizimni o'rganib, hissiy so'zlarning ma'no qatlamlarini ochib bergan. D. Xudoyberganova [9] til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, A.A. Potebnya [10] esa so'z orqali milliy tafakkur ifodasini asoslagan.

Natija. Ingliz tilidagi "*smile*" leksemi qadimgi inglizcha "*smilan*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab "*yumshoq kulish*", "*lab burchaklarini biroz ko'tarish*" [11] ma'nolarini bildirib, mazkur leksema dastlab neytral yoki ijobiy emotsional holatni ifodalagan bo'lsa-da, keyingi davr til taraqqiyoti jarayonida u kinoya, istehzo yoki ijtimoiy niqob ma'nolarini ham qamrab olgan ko'p qatlamli semantik birlik deb qarala boshlandi. Shu jihatdan, "*smile*" konsepti ingliz tilida inson hissiyati, ijtimoiy muloqot va madaniy kontekst o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yorituvchi muhim emotsional birlik hisoblanadi.

O'zbek tilidagi "*tabassum*" so'zi esa arab tilidagi "*tabassama*" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, "*kulmoq*", "*chehra ochmoq*", "*xush kayfiyatni ifodalamoq*" kabi ma'nolarni anglatib, ushbu leksema o'zbek tilida asosan samimiylilik, mehribonlik va ichki ezgulik bilan bog'liq ijobiy hissiy holatni ifodalovchi konsept deb qaraladi. Shuningdek, "*tabassum*" konsepti sharq madaniyatiga xos bo'lgan axloqiy-estetik qadriyatlar ya'ni kamtarlik, iliqlik va ruhiy osoyishtalik bilan bevosita uzviy bog'langan. Shunday qilib, "*smile*" va "*tabassum*" leksemalari semantik jihatdan umumiy ijobiy hissiyotlarni ifodalovchi birliklar kabi namoyon bo'lsa-da, ularning konseptual maydonlari milliy-madaniy tafakkur va lingvokognitiv qadriyatlar orqali belgilanadi..

Ingliz tilidagi "*smile*" leksemi o'z semantik tizimi doirasida bir qator sinonimik birliklarni hosil qiladi: "*grin, beam, smirk, giggle*". Ularning har biri ma'no intensivligi va emotsional konnotatsiyasi xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. "*Grin*" — keng, tishlarni ko'rsatgan holda kulish bo'lib, ko'pincha samimiylikni ifodalasa, ba'zan ortiqcha tabiiylik yoki ijtimoiy holatga nisbatan sun'iy quvonchni bildiruvchi ifoda kabi talqin etiladi. "*Beam*" esa yorqin, quvonchli va iliq tabassumni anglatadi; u ko'proq ijobiy hissiy holat, mehr va samimiyat bilan bog'liq. "*Smirk*" — o'zidan mamnun, istehzoli yoki kinoyali kulish bo'lib, salbiy yoki neytral konnotatsiyaga ega; u shaxsning ichki ustunlik hissini yoki yashirin kinoyasini ifodalaydi. "*Giggle*" — yengil, nozik va qisqa

kulgu bo‘lib, odatda uyatchanlik, hayajon yoki noqulaylik holatida yuzaga chiqadi. Mazkur sinonimik qator “*smile*” konseptining polisemantik va konnotativ kengligini yaqqol namoyon etadi. U ijobiy emotsiyadan kinoyali yoki ijtimoiy strategik holatgacha bo‘lgan semantik gradientni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu sinonimlar orqali ingliz tilidagi “*smile*” konseptining murakkab ijtimoiy va psixologik tabiati ko‘zga tashlanadi. “*Smile*” insonning nafaqat hissiy holatini, balki uning ijtimoiy o‘zini tutishi, kommunikativ niyati va madaniy muvofiqlik darajasini ham ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi “*tabassum*” leksemasi o‘z semantik tizimi doirasida boy sinonimik paradigmani hosil qiladi: “*jilmayish, kulimsirash, iljayish*”. Ushbu birliklar o‘zbek xalqining hissiy ifoda madaniyati, axloqiy-estetik qadriyatlari va milliy psixologiyasini aks ettiradi. Har bir sinonim o‘zining emotsional intensivligi, konnotativ mazmuni va ijtimoiy qo‘llanilish darajasi bilan farqlanadi.

“*Jilmayish*” — tabiiy, samimiy va iliq tabassumni bildiradi; u odatda quvonch, mehr-muruvvat yoki hurmat ifodasi hisoblanadi. Bu so‘z ijobiy kayfiyat va ichki muvozanatni ifodalaydigan eng neytral hamda madaniy jihatdan maqbul shakl hisoblanadi. “*Kulimsirash*” esa mayin, biroz ichki hisni yashiruvchi yoki nazorat ostidagi tabassum bo‘lib, odatda ijtimoiy vazminlik va kamtarlikni ifodalaydi. Bu so‘z orqali o‘zbek madaniyatiga xos o‘zini tutish, ichki hisni jilovlash, va bosiqlik kabi qadriyatlar namoyon bo‘ladi. “*Iljayish*” esa biroz istehzoli yoki kinoyali kulish holatini bildiradi; u shaxsning ichki noroziligi yoki ijtimoiy masofani saqlash istagini ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, “*iljayish*” konnotativ jihatdan neytral yoki salbiy tus olgan, shaxsiy kayfiyat bilan bog‘liq hissiy ifodadir.

Mazkur sinonimlarning semantik diapazoni emotsional samimiyatdan ijtimoiy niqobgacha bo‘lgan holatlarni qamrab oladi. Shu ma’noda, “*tabassum*” konsepti o‘zbek madaniyatida nafaqat hissiy ifoda vositasi, balki axloqiy poklik, ruhiy ilqlik, va sotsial uyg‘unlik ramzi ifodasi hisoblanadi.

Ingliz tilida “*smile*” leksemasining antonimlar qatorini “*frown, scowl, grimace, glower*” birliklari tashkil etadi. Ushbu so‘zlar ijobiy hissiy holatga zid bo‘lgan hissiy reaksiyalarni ifodalaydi. “*Frown*” — tashvish yoki norozilikni bildiruvchi neytral ifoda, “*scowl*” — g‘azab va norozi kayfiyatning kuchli ifodasi, “*grimace*” — yoqimsizlik yoki og‘riq hissini anglatadi, “*glower*” esa — sovuq, dushmanona qarashni bildiradi. Mazkur antonimik qator “*smile-frown*” oppozitsiyasini shakllantirib, shaxslararo muloqotda emotsional muvozanat va psixologik holatlarning tildagi aksini namoyon etadi. Shu jihatdan, “*smile*” konsepti ochiqlik, ilqlik, ijobiy munosabat ramzi bo‘lsa, uning antonimlari ijtimoiy masofa va hissiy yopiq holatni ifodalaydi.

O'zbek tilida *"tabassum"* leksemasining antonimik paradigmasi *"qovoq uyish, jahldor qarash, g'amginlik, jiddiy qarash"* kabi birliklar orqali ifodalanadi. *"Qovoq uyish"* — hafalik yoki norozilikni, *"jahldor qarash"* — g'azabni, *"jiddiy qarash"* esa — hissiy sovuqlik va befarqlikni bildiradi. Ushbu antonimlar *"tabassum"* konseptining aksiologik jihatdan qarama-qarshi qutbini tashkil etib, o'zbek madaniyatida ochiqlik, samimiyat va mehr-muruvvatning tildagi ifodaviy qarama-qarshiligini ko'rsatadi. Shu tariqa, *"tabassum–qovoq uyish"* juftligi milliy muloqot madaniyatida insoniy munosabatlarning ijobiy va salbiy emotsional chegarasini belgilovchi muhim konseptual qarama-qarshilik ifoda etadi.

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, *"smile/tabassum"* konseptlari ingliz va o'zbek tillarida universal emotsional hodisa bo'lishiga qaramay, ularning semantik tuzilishi hamda konnotativ mazmuni milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy muloqot me'yorlari bilan belgilanadi.

Ingliz tilidagi *"smile"* konsepti, avvalo, ijtimoiy-kommunikativ vosita, hissiy nazorat shakli yoki sotsiokultural strategiya deb qaraladi. Bu tilda *"smile"* insonlar o'rtasidagi ijtimoiy masofani boshqaruvchi, ijobiy obrazni saqlovchi va o'zini tutish madaniyatini ifodalovchi pragmatik birlikdir.

O'zbek tilidagi *"tabassum"* esa, aksincha, axloqiy-estetik qadriyat, ruhiy poklik va samimiy insoniy munosabat belgisi hisoblanadi. U o'zbek xalqining madaniyatida mehr, hayo, bardoshlilik va ma'naviy osoyishtalikning lingvistik timsoli hisoblanadi.

Shunday qilib, *"smile/tabassum"* konseptlari har ikki tilda ham universal emotsional birlik bo'lib, ularning semantik va aksiologik differensiasiyasi milliy madaniy kodlar, axloqiy qarashlar va kommunikativ qadriyatlar orqali shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранов, Х. К. *Большой арабско-русский словарь: В 2 т.* – 11-е изд., стереотип. – М.: Живой язык, 2006. – 71 с.
2. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 256 p.
3. Wierzbicka, A. *Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 368 p.
4. Маслова, В. А. *Когнитивная лингвистика.* – Минск: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.
5. Попова, З. Д., Стернин, И. А. *Когнитивная лингвистика.* – Воронеж: Истоки, 2007. – 314 с.
6. Кубрякова, Е. С. *Очерки по когнитивной лингвистике.* – М.: Наука, 1996. – 234 с.
7. Рахматуллаев, Ш. *О'zbek tili semasiologiyasi asoslari.* – Toshkent: Fan, 2008. – 280 b.

8. Mahmudov, N. *Hozirgi o'zbek tili: Leksikologiya*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 320 b.
9. Xudoyberganova, D. *Til va madaniyat munosabati*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
10. Потебня, А. А. *Мысль и язык*. – М.: Лабиринт, 1999. – 349 с.
11. Online Etymology Dictionary. *Smile* [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://www.etymonline.com/search?q=smile>

SHUKRONALIKNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA MADANIY KODLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI TAQQOSLASH

Rahimova Shahnoza Jo`raqulovna

Termiz davlat pedagogika institute

Tillar fakulteti

Amaliy ingliz tili kafedrası

raximovashaxnoza68@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shukronalikni ifodalovchi til birliklari leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Shukronalik ifodalari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nuqtai nazaridan ham ahamiyatli bo'lib, har bir millatning dunyoqarashi, qadriyati va muomala madaniyatini aks ettiradi. Maqolada ikki tilda mavjud shukronalik birliklari semantik tarkibi, ishlatilish konteksti va madaniy kodlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shukronalik, minnatdorchilik, leksik-semantik birlik, madaniy kod, lingvomadaniyat, pragmatika.

Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odatları va dunyoqarashini ifodalovchi asosiy mezondir. Har bir xalq o'zining ma'naviy olamini til vositasida namoyon etadi. Xususan, **shukronalik** tuyg'usi har bir jamiyatda muhim axloqiy-ruhoviy qadriyat sanalib, uning ifodalanishi milliy mentalitet va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shukronalikni ifodalovchi til birliklari leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi va ularning ortida yotgan **madaniy kodlar** o'rganiladi.

Asosiy qism

1. Shukronalik tushunchasining madaniy asoslari

Shukronalik — bu insonning olgan yaxshiliklariga nisbatan minnatdorchilik bildirishi, ichki ruhiy holati orqali namoyon boʻladigan ijobiy hissiyotdir. Ingliz va oʻzbek xalqlari bu tushunchani turli til birliklari orqali ifoda etadilar, ammo ularning asosida turli **madaniy qadriyatlar** yotadi.

Oʻzbek jamiyatida shukronalik koʻproq **diniy, maʼnaviy va urfdagi** tushunchalar bilan uygʻunlashgan. “Shukur qilish”, “shukr keltirish”, “Allohga shukr” kabi iboralar bu holatni bildiradi. Ingliz tilida esa shukronalik koʻproq **individalizm va jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlar** doirasida ifodalanadi: "Thank you", "I'm grateful", "Much appreciated", "Thanks a lot", "I can't thank you enough" kabi iboralar keng qoʻllaniladi.

2. Leksik-semantik jihatdan taqqoslash

Oʻzbek tilida shukronalik bildiruvchi birliklar koʻpincha **diniy va maʼrifiy kontekst** bilan bogʻliq:

- **Shukr** – diniy ildizga ega, koʻpincha Allohga nisbatan qoʻllaniladi: “Shukrki, hammasi joyida”, “Allohga shukr, yaxshi yetib oldik”.

- **Minnatdorchilik** – rasmiy uslubga xosroq: “Sizga chuqur minnatdorchilik bildiraman”.

- **Rahmat** – eng koʻp ishlatiladigan soʻz boʻlib, turli kontekstlarda qoʻllaniladi: “Katta rahmat!”, “Rahmat sizga, juda yordam berdingiz”.

Ingliz tilida esa shukronalik bildiruvchi iboralar **koʻproq nutq madaniyati, xushmuomalalik va kommunikatsion qadriyatlar** bilan bogʻliq:

- **Thank you** – eng umumiy ifoda, har qanday kontekstda ishlatiladi.
- **Thanks a lot, Many thanks** – minnatdorchilikning kuchaytirilgan shakli.
- **I really appreciate it** – koʻproq his-tuygʻu bilan aytiladi, samimiyroq.
- **I'm grateful (to you)** – rasmiyroq va ichki chuqur minnatdorchilikni bildiradi.

Ingliz tilida shukronalik bildirishda **intonatsiya, emotsional urgʻu** ham muhim rol oʻynaydi. Oʻzbek tilida esa shukronalik koʻproq **mazmun** orqali, kontekst va diniy-tarixiy madaniyat orqali anglashiladi.

3. Madaniy kodlar va ularning tildagi ifodasi

Madaniy kod — bu xalqning qadriyatlari, axloqiy meʼyorlari, diniy qarashlari va hayot tarzining tilda namoyon boʻlishidir. Oʻzbek tilida shukronalik bildiruvchi iboralar koʻpincha **diniy eʼtiqod** bilan bogʻlangan:

- “Shukr Allohga”
- “Alloh sizdan rozi boʻlsin”
- “Baraka toping”

Bu iboralar orqali inson faqat shaxsga emas, balki **Yaratganga minnatdorchilik** bildiradi. Ingliz tilida esa shukronalik bildiruvchi iboralar **individda** yoʻnaltirilgan va koʻproq ijtimoiy norma sifatida qoraladi:

- “Thanks for your help”
- “I owe you one”
- “You're a lifesaver”

Bu esa ingliz tilida shukronalik bildiruvchi iboralar ko‘proq **funksional va ijtimoiy** xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

4. Stilistik va pragmatik jihatlar

Shukronalik bildiruvchi birliklar nutqda ko‘pincha **muloqot samaradorligini oshirish, muloqotdagi ijobiy munosabatni mustahkamlash, va xushmuomalalik** mezonlariga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida:

- “Rahmat, sog‘ bo‘ling” – qadimiy, xalq og‘zaki ijodidan kelib chiqqan.
- “Sizga rahmat, o‘zingizdan rozi bo‘lsin” – duoga yaqin, shukronalik va iltifotni birlashtirgan birlik.

Ingliz tilida:

- “Thank you so much for coming” – odobli va nozik xushmuomalalik.
- “I can’t thank you enough” – chuqur minnatdorchilik bildiruvchi ibora.

Xulosa

O‘zbek va ingliz tillarida shukronalik bildiruvchi til birliklari o‘zining **leksik-semantik, stilistik, va madaniy kodlar** jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek tilida bu tushuncha ko‘proq diniy va ma’naviy asosga ega bo‘lib, madaniyat, urf-odat va iymon asosida shakllangan. Ingliz tilida esa bu tushuncha **ijtimoiy muloqot, individga qaratilgan** minnatdorchilik va **xushmuomalalik** tamoyillariga tayanadi.

Shunday qilib, shukronalikni ifodalovchi birliklar har ikki tilda ham ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ammo ularning ortida yotgan **madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, va dunyoqarash** ularni farqlab turadi. Bu esa tarjima, madaniyatlararo muloqot va til o‘rganishda alohida e’tibor talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курбонова, Г.Х. (2018). *Ўзбек тилида миннатдорлик маъносини ифода этувчи birlikларнинг лингвокультурологик хусусиятлари*. Тошкент: Фан нашриёти.
2. Karimova, Z. (2021). *Leksik-semantik birliklarning madaniy tafakkurdagi ifodasi*. O‘zMU Ilmiy axborotlari, 2(3), 45–49.
3. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions across languages and cultures: Diversity and universals*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Kramsch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford: Oxford University Press.

5. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). New York: Pearson Education.

6. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Longman.

NORASMIY MULOQOTNING LINGVOPRAGMATIK JIHATDAN O'RGANISHNING AHAMIYATI

Keldiyorova Ziyoda Hamza qizi

Qarshi davlat universiteti
filologiya fakulteti Lingvistika (o'zbek tili)
yo'nalishi 2-kurs magistri +998914682829

Annotatsiya: Maqolada norasmiy muloqotning lingvopragmatik jihatdan o'rganilish ahamiyati tahlil qilinadi. Muloqotning ijtimoiy, kommunikativ va psixologik xususiyatlari, shuningdek rasmiy va norasmiy muloqot turlari o'rtasidagi farqlar yoritiladi. Norasmiy muloqotning til tizimidagi yangilanish, so'zlashuv uslubining rivoji hamda zamonaviy til dinamikasidagi o'rni ilmiy asosda izohlanadi.

Аннотация: В статье рассматривается значение изучения неформального общения с лингвопрагматической точки зрения. Анализируются социальные, коммуникативные и психологические особенности общения, а также различия между официальными и неофициальными его видами. Показано, что неформальное общение является важным источником языковых инноваций и динамических изменений в современном узбекском языке.

Kalit so'zlar: norasmiy muloqot, lingvopragmatika, kommunikatsiya, tilshunoslik, rasmiy va norasmiy muloqot, ijtimoiy aloqa, nutqiy jarayon, muloqot madaniyati.

Ключевые слова: неофициальное общение, лингвопрагматика, коммуникация, языкознание, официальное и неофициальное общение, социальное взаимодействие, речевой процесс, культура общения.

KIRISH

Muloqot odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy unsuridir. Ijtimoiy aloqa sifatida muloqotning o'ziga xos xususiyati ma'lumotlar almashuvida yotadi. Bu almashuv orqali odamlar va ularning jamoalari o'rtasidagi aloqani, ijtimoiy tajribani to'plash va uzatishni, uni boyitishni ta'minlaydi. Muloqot kishilar

amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o‘rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb atay olish bilan bog‘liq ehtiyojni qondirib beradi.

ASOSIY QISM

Muloqot jarayonida **kommunikativlik** (axborot uzatish), **interaktivlik** (o‘zaro ta‘sir o‘tkazish) va **perseptivlik** (o‘zaro idrok etish) kabi jihatlar amalga oshadi.[1] Tilshunoslikda ham, boshqa sohalar kabi tadqiq o‘tkazilayotgan shu atamaning lug‘atdagi izohiga e‘tibor qaratiladi. “**Muloqot**” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta‘riflangan:

“Muloqot”- uchrashish, ko‘rishish; qabul qilish, uchrashuv, musohaba. Masalan: *...Bolalik oshnasi polvon Qulmuhammad bilan bo‘lgan shirin muloqotda yana ... xon zulmi oshib ketayotganidan shikoyat qildi. Mirmuxsin, Cho‘ri. Yosh qalam sohiblari bilan hamma joyda: Andijonda, Qo‘qonda, Namanganda doimiy ravishda muloqot olib borish lozim. Gazetadan.* [2] Bu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, “muloqot” atama sifatida ko‘proq uchrashish, uchrashganda gaplashish ma‘nosini ifodalaydi. Biroq nutqiy muloqotda, ko‘proq **kommunikatsiya** ma‘nosini ifodalaydi. Ingliz tilida muloqot so‘zi “communication” so‘zi bilan beriladi va quyidagicha ta‘rif etiladi:

Communication- the imparting or exchanging of information by speaking, writing or using some other medium. “television is an effective means of communication” [3] Bugungi kunda o‘zbek tilida ham “**kommunikatsiya**” atamasi “**muloqot**” atamasi bilan o‘rindosh sifatida qo‘llanilmoqda. Jumladan, R.O. Yakobson **kommunikatsiya** terminini **nutqiy muloqot** ma‘nosida ishlatadi. Uning fikricha, olimlar kommunikatsiyani turli jarayonlarni qamrab oluvchi uch darajada tavsiflashadi:

Quyi daraja - nutqiy axborotni uzatishga asoslangan kommunikatsiya hodisasini, O‘rta daraja - axborot uzatishni til va tildan boshqa vositalar orqali amalga oshiruvchi muloqot jarayonini,

Yuqori daraja - barcha ijtimoiy kommunikatsiya turlarini qamrab oladi. Birinchi daraja lingvistika tomonidan, ikkinchisi semiotika, uchinchisi muloqot nazariyasida o‘rganiladi. [4]

Rus tilshunosi I.A. Sternin muloqotning quyidagi belgilariga ko‘ra topologiyasiga tavsif etgan:

1. muloqot mavzusi;
2. muloqot maqsadi;
3. rasmiylik darajasi;
4. muloqot shakli;
5. muloqotdoshni tanlash erkinligi;
6. muloqotda shaxsiyatning namoyon bo‘lishi darajasi;

7. muloqotning shakl va mazmun muvofiqligiga ko'ra davomiyligi. [5]

Nutqiy muloqot eng kamida ikki kishi o'rtasida ro'yobga chiqadi. Bundan farqli ravishda ba'zan bir necha kishilar ham ishtirok etishi mumkin. Bularga oila a'zolar, qarindoshlar, do'stlar hamkasblar va turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Muloqot, shuningdek, xarakteriga ko'ra: rasmiy va norasmiy muloqot turlariga ajratish mumkin.

MUHOKAMA

Rasmiy va norasmiy muloqot o'rtasidagi dixotomiyada **norasmiy muloqot** alohida o'rin tutadi. Chunki u insonning kundalik hayoti (oilalar, ish, do'stlar, dam olish) bilan bog'liq bo'lib, u asosan hayot sifatini belgilaydi. Muloqotning norasmiy shakli shaxsning o'z-o'zini kashf etishi va ona tilidan foydalanish uchun erkinlik yaratadi. Tilshunoslikka funksional, antroposentrik, ijtimoiy va psixolingvistik yondashuvlar nuqtayi nazaridan norasmiy muloqotni o'rganish kundalik hayotni o'rganishni sezilarli darajada to'ldiradi.

Rasmiy muloqotda esa rasmiy shaxslar, davlat tashkilotlar va ular nomidan ish yurituvchi davlat vakillari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpuslarda, rasmiy ish qog'ozlarida foydalanadigan muloqotlar sanaladi. Rasmiy muloqotda ham ikki tomon, so'zlovchi va tinglovchi bo'ladi. X.Sh. Narxodjayeva o'zining "Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tahlili" nomli monografiyasida har qanday nutqiy muloqotda axborot uzatuvchi, uni qabul qiluvchi, unga munosabat bildiruvchi va axborot ishtirok etishini qayd etganlar. O'zbek tilshunosligida E. M. Gurtuyeva, D.A. Babaxanova, D.S. Kulmamatov tadqiqotlarida rasmiy uslubning vazifaviy, janriy xususiyatlari va o'qitilishi masalalari yoritiladi. Rasmiy va norasmiy muloqotning har ikkisi ham teng qatorda ijtimoiy hayotda o'z maqomiga ega. Buni quyidagi jadval orqali farqlash qiyin emas, albatta:

Rasmiy muloqot	Norasmiy muloqot
Siyosat, tartib, qonun-qoidalar va boshqalar kabi rasmiy ma'lumotlar uzatadi.	Asosan shaxsiy tajriba, fikr, xabar almashish kabi ijtimoiy aloqalar uchun.
Adabiy til me'yorilarga bo'ysunadi.	Erkin oqim va tuzilmasiz harakatda.
Eslatmalar, qonun-farmoyish hujjatlari, rasmiy ish hujjatlari orqali namoyon bo'ladi.	Yuzma-yuz suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar orqali namoyon bo'ladi.
Fuqarolar, ishchi xodimlar yoki biror bo'limga qaratilgan bo'ladi.	Muayyan shaxslar (oilalar a'zolar, do'stlar) yoki guruhlardan iborat turli auditoriyaga qaratilgan.

Agar rioya qilinmasa, intizomiy choralar yoki qonuniy javobgarlik kabi jiddiy oqibatlariga olib keladi.	Jiddiy oqibatlariga sabab bo'lmaydi. Ammo oila, do'stlar va ish joyidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Ma'lum qolipdagi terminlar, jargon va texnik atamalar ko'p ishlatiladi.	Jargon, argo va slenglar, iboralar, qisqartma so'zlar, imo-ishoralar va boshqalar ko'p ishlatiladi.

Rasmiy muloqot turi - davlat munosabatlarini tartibga solishni ta'minlaydigan, tomonlarining mas'uliyatini ko'zda tutuvchi, jamiyatdagi qonun-qoidalarni to'liq va aniq yetkazadigan aloqa. Rasmiy muloqotda qat'iy til me'yorlari muhim. Uning asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlik, nutqiy qoliplar, tayyor sintaktik qoliplar, kasb-hunarga oid so'zlar va atamalar qo'llanilib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutqiy qurilmalari(*shu asosda, shunga ko'ra, ma'lum qilamizki, ...ni e'tiborga olib, ...ga ko'ra, ...biz, imzo chekuvchilar, ...ga muvofiq, ...dan kelib chiqib, ...sharti bilan, ...buyuraman, berilsin, taqdirlansin, tasdiqlandi* kabi) hujjat matnidan kelib chiqib darak-hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishi ya'ni polisemantik, o'xshatish va sifatlash kabi babiiy unsurlardan qochishlikni, fe'llarning majhul nisbatda, buyruq-istak maylida bo'lishini, qo'shma gaplardan unumli foydalanishni talab qiladi. [6]

Masalan, *O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessinining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.*[7] Ushbu misolda *...ga muvofiq, qaror qiladi* so'zlari avvaldan tayyor holdagi jumlar qatoriga kiradi.

Norasmiy muloqot ham leksik, ham funksional xususiyati orqali rasmiy muloqotdan farq qiladi. O'zbek tilida norasmiy muloqotda gapning eng muhim qismlariga birdan o'tilmaydi. Avval salomlashish eng muhim bosqich sanaladi. Agar tinglovchi notanish bo'lsa – *Assalom-u alaykum, yaxshimisiz? ishlaringiz yaxshimi? – Va alaykum assalom, rahmat* deb, tanish bo'lsa *salom, salomalekum, qalaysiz?, qalesan? bormisan? tirikmisan? valekum* kabilar, ijtimoiy tarmoqlarda, odatda, do'stlar orasida *saloom, salyut, salomlar, ishlar qalay?* kabi jumlar yoki stiker va imodjilar orqali ifoda etiladi. Murajaat shakli ham rasmiyga nisbatan farqli ravishda begona shaxs bo'lsa, otaxon, onajon, xolajon, amakijon, aka, opajon, singlim, ukam kabi qarindosh urug' nomlarini aytib murojaat qilishadi, agar tanisa ismi bilan atashadi. Muloqotning asosiy qismiga turli jumlar orqali olib boriladi. Bundan maqsad so'zlovchiga tinglovchi o'z maqsadini ta'sirli va chiroyli

tarzda yetkazish yotadi Bu ham soʻzlovchining yoshi, mansabi, jinsi mavzuga asoslanadi. Nutqiy jarayonda aytiladigan *xullas kalom, gapning indallosi, gapning poʻst kallasi, gap bunday, gap shu* kabi jumlar suhbatdoshni bevosita asosiy xulosani aytish bosqichiga olib oʻtadi. Xayrlashish bosqichi ham oʻziga xoslikni tashkil qiladi. *Xayr, sogʻ boʻling, omon boʻling, koʻrishguncha, boʻpti, mayli, baʼzan paka, koʻrishamiz, davay, bye* kabilarni ijtimoiy tarmoqlarda va ogʻzaki muloqotda uchratishimiz mumkin. Norasmiy muloqotda hattoki shevaga xos soʻzlarni, maqollar va frazalarni ishlatish mumkin, adabiy til meʼyorlariga boʻysunmagan holda gaplar hosil qilish, soʻzlarni fonetik jihatdan qisqartirish holatlari ham uchraydi. *-Sagʻir, yangamga(kelinoyi) yaxshi koʻrinayin deya, oʻziday-oʻziday satillarda(chelak) suv tashidi.* [8]

-Qani, opke, uzum boʻlsa, maza qilib tushiraylik bir. [9]

Yuqoridagi hikoyadan parchada *opke* hamda *tushiraylik bir* jumalari fikrimizning yaqqol isboti. Chunki soʻzlovchi adabiy tildagi leksik birliklarning soʻzlashuv usulidagi variantlaridan koʻproq foydalanadi, grammatik qoliplarga tushmasligi, soʻzlashuv uslubidagi lugʻatlardan foydalanish hamda koʻproq dialogik suhbatga mansubligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, muloqot- ikki va undan ortiq kishilar oʻrtasidagi bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon boʻluvchi oʻzaro taʼsir jarayonidir. Muloqotning norasmiy turi tildagi yangilanish va dinamik oʻzgarishlarning muhim manbai sanaladi. Shu bois uni lingvopragmatik jihatdan oʻrganish oʻzbek tilining zamonaviy rivojlanish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] – Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent, 1994. -36-bet.
- [2] – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II tom. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 744-bet.
- [3] – Oxford electronic dictionary.- Oxford: Oxford University Press, 2020.
- [4] – Якобсон Р.О. Речевая коммуникация // Избранные работы – Москва: Прогресс, 1985. – С. 306-319.
- [5] Стернин И. А. Введение в речевое воздействие. - Воронеж, 2001. – С. 19.
- [6] - Mahmudov N, Rafiyev A, Yoʻldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Darslik – Toshkent: Choʻlpon, 2013.
- [7] - Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qarori, 103-son. - 21.02.2025

[8] Togʻay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. – Toshkent: Ziyonashr.2019. 7-bet.

[9] - Yoqubov O. Yaxshilik. Hikoya. - “Mutolaa” elektron platformasi. Toshkent, 2024.

O‘ZBEK TILIDA METONIMIYANING KOGNITIV TALQINI

Axrorova Jamila Agzamovna

Fargʻona davlat universiteti tayanch doktoranti

jamilaakhrorova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada metonimiya xodisasiga umumiy taʼrif berilib, unda ushbu fenomenni kognitiv nuqtai nazardan yoritishga xarakat qilingan. Metonimiya xodisasi hozirgi zamon tilshunosligida yangi kirib kelgan tushuncha emas, uni tadqiq qilish antik davrga borib taqaladi. Bugungi kunga qadar bir qator faylasuf va tilshunos olimlar metonimiyani yetarlicha oʻrganib, bu xaqda oʻz tadqiqot va qarashlarida ushbu xodisaning tasnifi, uning oʻziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari xaqidagi fikrlarini aniq va toʻlaqonli etib yoritganlar.

Kalit soʻzlar: metonimiya, kognitiv tilshunoslik, kategoriya, semantika, ritorika, sinonimlar tizimi, metonimik koʻchirish, kontseptual.

Abstract: This article provides a general definition of the phenomenon of metonymy, in which an attempt is made to illuminate this phenomenon from a cognitive perspective. The phenomenon of metonymy is not a new concept in modern linguistics, its study dates back to antiquity. To date, a number of philosophers and linguists have studied metonymy sufficiently and have clearly and fully clarified their ideas about the classification of this phenomenon, its specific features and stages of development in their research and views on this subject.

Key words: metonymy, cognitive linguistics, category, semantics, rhetorics, synonym system, metonymic transfer, conceptual.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri bu maʼlumot yuboruvchi va qabul qiluvchi dinamikasi misolida lingvistik imkoniyatlarni shakllanishi va tavsiflashdan iboratdir. Shu bilan birga, mazkur soxadagi muammolardan yana biri

bu lingvistik ma'lumotlar bilan bog'liq turli xil kategoriyalarni aniqlashdir.¹⁷⁷ Tilning boshqa satxlarida bo'lgani kabi, semantik soxa xam kognitiv tadqiqotlarning asosiy tadqiqot ob'yekti darajasiga ko'tarilganidir. Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida semantikaning bir qator yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Metonimiya xodisasi xam aynan ushbu kognitiv nuqtai nazardan o'rganila boshlandi.

Dunyo tillari tarkibida ma'nodoshligi, leksemalarning mazmundorligi xamda semasiologik jixatdan boy tillar soni juda xam ko'p. Shu jumladan o'zbek tili xam sinonimlar tizimi jixatidan eng boy tillar jumlasiga kiradi. "Olmoq", "yuz", "qo'l" leklsemalarining 10 ga yaqin sinonimlari mavjud. Tilshunoslikning sinonimlar tizimi rivojlanishi turli xil unsur va faktorlar ta'sirida sodir bo'ladi. Metonimik ko'chish esa ushbu faktorlardan biri xisoblanadi.

Metonimik xodisalarni o'rganish va tadqiq qilish antik davrdan boshlangan. Chunonchi, Aristotel' metonimiya va sinekdoxani alohida ta'riflamasdan, barcha majoziy so'zlarni metafora turkumiga kiritadi.¹⁷⁸ Ko'chimning ushbu turi xaqidagi ilk fikrlar va qarashlar antik davr donishmand va so'z san'ati ustasi Kvintilian tomonidan keltirilgan. Kvintilian metonimiya turlarining ko'pligi xaqida bayon qilib, ularning asosiylari borasida firk bildirgan, ular: sabab-oqibat, kashfiyot-kashfiyotchi, buyum- uning egasi. Antik davr faylasuflaridan birinchi bo'lib aynan Kvintilian metonimiya va sinekdoxaning o'xshashligi xaqida qayd etgan.¹⁷⁹

Bugungi kunda ritorika, falsafa xamda tilshunoslik soxalarida izlanish olib borayotgan olimlar mazkur xodisani yanada chuqur va teran tadqiq qilishga kirishganlar. Jumladan, O'zbek tilshunosligida bir qator tilshunos olimlar tilshunoslikning semasiologiya va stilistika soxasida sezilarli izlanishlar amalga oshirdilar, chunonchi, M.Mirtojiyevning ilmiy ishlari va kitoblarida yuqoridagi soxalar bo'yicha aniq va tushunarli fikr va qarashlar misollar bilan bayon qilingan.¹⁸⁰ Shunday bo'lsada, metonimiya xodisasining psixolingvistik faktorlari xamda metonimiyaning sinonimlar tizimi rivojlanishiga ta'siri masalalari aloxida tadqiqot ob'yekti sifatida ko'rib chiqilmagan.

Tilshunoslikda metonimik ko'chimning namoyon bo'lishida dialektikaning umumiy va xususiy kategoriyalari muxim o'rin tutadi. Inson oldindan kuzatgan va tafakkur qilgan voqea-xodisalarni o'zida mujassam bo'lgan barcha qobiliyati bilan eslab qolishga xarakat qiladi. Ba'zan xotira aksi ma'lum bir denotatni, garchi uni o'z nomlanishi bo'lsa xam, boshqa nom orqali atovchi faktorga aylanadi.

¹⁷⁷ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. // ВЯ, 1994. № 4. С. 17-33.

¹⁷⁸ Аристотель Поэтика // Сочинения в 4-х т. Т. 4. - М.: «Мысль», 1983. - С. 669.

¹⁷⁹ Гаспаров М.Л. Античная риторика как система // Избранные труды в 3-х томах. Т.1. «О поэтах». - М.: Языки русской культуры, 1997а. - С. 557.

¹⁸⁰ М.Митрожиев "O'zbek tilida polisemiya" ТОШКЕНТ «ФАН» НАШРИЁТИ 1984 kutubxonasi В.3.

Metonimik ko‘chirish esa sinonimik tizimning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy faktorlardan biri xisoblanadi. Aynan mana shu unsur nutq sinonimlarining xosil bo‘lishiga ijobiy turtki bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun “peshona” leksemasi misolida ushbu denotatning turli ma’nolarini kuzatish mumkin: inson yuzi bir qismi, shuningdek, taqdir, qismat, ma’nolarida xam birdek qo‘llaniladi, “Peshonamda yozilgani sen ekansan, menda nima chora!”.¹⁸¹ Shuningdek, din bilan bog‘liq ba’zi qarashlar xam bir qator funktsional sinonimlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan. Misol uchun, xalqimiz orasida “Qayerda bo‘lsang xam o‘zi seni qo‘llasin, panoxida asrasin” jumlasini tez-tez uchrab turadi. Mazkur ifodada ajratib ko‘rastilgan leksema “parvardigor, robbim, tangri, qodir egam” sinonimik qatorini ifodalab kelmoqda.

O‘zbek tilshunosligida evfemizmning xam ma’lum qismlari metonimik ko‘chirish orqali shakllanadi. Demak, ushbu usul asosida shakllangan nutq va funktsional sinonimlar metonimiya bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga o‘zbek tilida sinonim so‘zlarning xosil bo‘lishida inson tana a’zolari bilan bog‘liq bir qator ko‘chirish usullari mavjud. Yuqorida biz “peshona” leksemasini ko‘rib chiqdik. Quyidagi misolga e’tiborni qaratsak: “Kumushning ko‘zlari o‘ynaguvchi qizlarda bo‘lsa ham, haqiqatda boshqa bir narsani ko‘rgandek.”¹⁸² Ushbu jumlada keltirilgan “ko‘z” leksemasi “qarash, nazar, qaramoq” so‘zlariga sinonim bo‘lmoqda. Ko‘zning qarash, korish uchun muximligi esa bu sinonimning asosini tashkil etadi.

Kognitiv semantikaning ko‘plab tadqiqotlarida asosiy e’tibor bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatiga qaratiladi. O‘zbek tilida metonimiyaning kognitiv talqini ushbu xodisa diqqat markazida ekanligi bilan izohlanadi.¹⁸³ Bunga misol qilib, o‘zbek tilida ko‘p uchraydigan “tirnoqqa zor”, ya’ni “Bu oila necha yildirki tirnoqqa zor” jumlasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jumlada “tirnoq” so‘zi denotativ ma’noda qo‘llanilmagan, ya’ni, “tirnoq” leksemasi “farzand, bola” ma’nolarida keltirilgan. Ushbu xolatda “tirnoq” so‘zi diqqat markazida bo‘lib, “farzand” leksemasida qo‘llanilgan. Shuning uchun kognitiv tilshunoslikda so‘z shakli ikkilamchi o‘rinda turadi. O‘sha so‘zning diqqat markazidagi o‘rni, ma’nosi va vazifasi birlamchi va asosiy xodisa sifatida talqin qilinadi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida metonimiya xodisasiga kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qarashga doir fikrlar, tilshunoslar tomonidan qilingan tadqiqotlar va qarashlar xaqida bayon qilindi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘zbek tilida metonimik ko‘chirishning kognitiv talqini diqqat markazining

¹⁸¹ © Izoh.uz — O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2014–2015

¹⁸² Qodiriy A. *O‘tkan kunlar*. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1926. – 10 b.

¹⁸³ ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 7(85). Часть 1. 2020. – С. 53.

reaksiyasi bilan ifodalanadi. Diqqat markazi shuningdek matnda bir ob'yekt bilan bog'liq bo'lgan, lekin matnda hali talqin qilinmagan boshqa tushunchaga qaratilgan. Asosiy diqqat markazidagi leksema kontseptuallashtirishning asosiy qoidasi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. // ВЯ, 1994. № 4. С. 17-33.
2. Аристотель Поэтика // Сочинения в 4-х т. Т. 4. - М.: «Мысль», 1983. - С. 669.
3. Гаспаров М.Л. Античная риторика как система // Избранные труды в 3-х томах. Т.1. «О поэтах». - М.: Языки русской культуры, 1997а. - С. 557.
4. М.Митрогийев "O'zbek tilida polisemiya" TO'SHKENT «ФАН» НАШРИЁТИ 1984 kutubxonasi B.3.
5. © Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2015
6. Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1926. – 10 b.
7. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 7(85). Часть 1. 2020. – С. 53.

XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINI TAHLIL QILISHDA FILM DIALOGLARIDAN FOYDALANISH

Xolmatova Nozimaxon Iqbol qizi

Farg'ona davlat universiteti, 1-kurs tayanch doktorantura talabasi

Elektron pochta: xolmatovanozimaxon7@gmail.com

Tel: +998908560098

Anotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi film dialoglaridagi xushmuomalalik strategiyalari va ijtimoiy kontekstga bog'liq muloqotlar o'rganildi. Misol tariqasida *The Devil Wears Prada* filmi tahlil qilinib, rahbar-xodim va avlodlararo muloqotdagi ijtimoiy va madaniy jihatlar yoritilgan. Film dialoglari nafaqat til tizimi, balki madaniyat, hurmat va kommunikativ strategiyalarni tushunishda boy manba sifatida ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: film dialoglari, pragmatika, xushmuomalalik, nutq aktlari, kasbiy muloqot

Kirish

So'nggi yillarda lingvopragmatika va diskurs tahlili yo'nalishlarida film dialoglarini tadqiqot material sifatida qo'llash tendensiyasi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu holat kino san'atining nafaqat madaniy, balki tilshunoslik uchun ham muhim manba ekanini ko'rsatadi. Chunki film dialoglari inson muloqotining tabiiy unsurlarini, ya'ni nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, madaniyatga xos kommunikativ xatti-harakatlarni o'zida mujassam etadi. Pragmatik tahlilda film dialoglarining ahamiyati shundaki, ular insonlarning real hayotdagi muloqotiga juda yaqin bo'lgan, ammo maqsadli tarzda yozilgan ssenariy asosida yaratilgan nutq namunalari hisoblanadi. Shu bois, film dialoglari lingvokulturologik jihatdan ham muhim: ular orqali milliy madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar, kasbiy muloqot uslublari va nutq etiketining o'ziga xos ko'rinishlarini o'rganish mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Diskurs tahlilida film dialoglari "telecinematic discourse" deb ataluvchi yangi yo'nalish doirasida o'rganiladi (Bednarek, 2018). Bu atama film, serial va televidenie mahsulotlaridagi muloqotni lingvistik jihatdan o'rganishni anglatadi. Film dialoglari tabiiy muloqotdan farqli ravishda oldindan ssenariy asosida yoziladi, lekin ular tabiiy nutqqa imkon qadar yaqin shaklda tuziladi. Shu sababli ular "yarim tabiiy diskurs" sifatida baholanadi (Culpeper, 2001).

Pragmatika nuqtai nazaridan film dialoglarida xushmuomalalik (politeness), bexushmuomalalik (impoliteness), nutq aktlari (speech acts) va kontekstual ma'nolarni tahlil qilish muhimdir. Brown va Levinson (1987) tomonidan ilgari surilgan xushmuomalalik nazariyasiga ko'ra, har qanday muloqot ishtirokchisi o'zining "yuzini" (face) saqlashga intiladi. Film dialoglarida bu strategiyalar turli madaniyatlarda qanday namoyon bo'lishini ko'rish, ayniqsa lingvokulturologik tadqiqotlar uchun katta imkoniyat yaratadi.

Halliday (1985) tomonidan ilgari surilgan funksional grammatika yondashuvi esa film dialoglaridagi til birliklarining kontekst bilan uzviy bog'liqligini tushunishga yordam beradi. Dialoglar nafaqat ma'no, balki ijtimoiy rol, vaziyat va maqsad bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi. Film dialoglari ko'pincha ijtimoiy, kasbiy yoki madaniyatlararo muloqotni tahlil qilishda ishlatiladi. Masalan, ish joyi, ta'lim muassasasi yoki oilaviy muloqotga oid sahnalar orqali ijtimoiy rollar va til strategiyalari o'rganiladi. Louhiala-Salminen (2002) ta'kidlaganidek, professional muloqot real hayotdagi ierarxiya va kontekstual bog'liqlikni aks ettiradi, film sahnalari esa buni aniqroq ko'rsatish imkonini beradi.

Shunday qilib, film dialoglarini tahlil qilish til birliklarining ijtimoiy ma'nosini ochib beradi hamda muloqot jarayonida madaniy qadriyatlar qanday aks etishini tushuntirishga yordam beradi.

Ma'lumotlar va metodologiya

Ma'lumotlar "The Devil Wears Prada" (2006) nomli filmdan olingan ikkita dialoglardan iborat:

1-dialog

Andrea: Hi.

Christian: Christian Thompson.

Andrea: Christian Thompson? You're kidding. *No, you're... You write for, like, every magazine I love.*

Bu holat Andrea Miranda uchun katalogni olish uchun James Holtning ziyofatiga borgach sodir bo'ladi. Kutilmaganda Christian unga yaqinlashadi va ular tanishadilar. Andrea o'zining sevimli muallifi bilan tanishganidan hayajonlanadi. "*No, you're... You write for, like, every magazine I love.*" degan ifoda Andrea tomonidan **ortiqcha ijobiy xushmuomalalik** (positive politeness) bilan aytilgan bo'lib, u Christianni qoyil qolganini bildiradi.

2-dialog

James: Here we go. It's a sketch of Miranda's dress for the benefit. Also the centerpiece of my spring collection. Top-secret stuff.

Andrea: I'll guard it with my life.

Andrea Mirandadan James Holtning katalogini olib kelish topshirig'ini olgan. Ular uchrashgach, James katalog maxfiy ma'lumotlarga boy ekanini aytadi. Andrea esa uni "I'll guard it with my life." deb va'da beradi, ya'ni u katalogni juda ehtiyot bilan saqlashini bildiradi. Bu ifoda **va'da berish shaklidagi ijobiy xushmuomalalik**ka kiradi.

Film dialoglarining o'rganilishi lingvokulturologik nuqtayi nazardan ham muhimdir. Har bir madaniyatda xushmuomalalik va muloqot normalari turlicha bo'lgani uchun, filmlar orqali bu farqlarni tahlil qilish tilshunoslikda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. Ingliz tilidagi filmlarda muloqot odatda individualizm va to'g'riso'zlikka asoslanadi. Shu sababli film dialoglarini o'rganish orqali talabalarda pragmatik moslashuv, madaniyatlararo tushuncha va til sezgirligi shakllanadi. Film dialoglari til o'rgatishda ham katta ahamiyatga ega. Ular real nutq vaziyatlarini aks ettirgani sababli o'quvchilarga tabiiy til modelini beradi, kontekstni tushunishga o'rgatadi va til birliklarini vaziyatga mos ishlatish ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa

Film dialoglari zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa pragmatika va lingvokulturologiyada muhim tadqiqot manbasi sifatida qaralmoqda. Ular yordamida inson muloqotining tabiiy xususiyatlari, madaniy qadriyatlar, xushmuomalalik strategiyalari va nutq aktlari o'rganiladi. Film dialoglarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, til o'qitish,

tarjima, madaniyatlararo muloqot va professional diskursni tahlil qilishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bednarek, M. (2018). *Telecinematic Discourse: Approaches to the Language of Films and Television Series*. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
3. Culpeper, J. (2001). *Impoliteness: Using Language to Cause Offence*. Cambridge University Press.
4. Halliday, M. A. K. (1985). *An Introduction to Functional Grammar*. Edward Arnold.
5. Louhiala-Salminen, L. (2002). "The Business Communication Classroom vs. Reality: What Should We Teach Today's Professionals?" *English for Specific Purposes*, 21(2), 139–151.
6. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

O'ZBEK LINGVOKULTUROLOGIYASINIG SHAKLLANISHI VA RIVOJI

Ibrohimova Zarnigor Nodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs doktoranti

Zarijon0611@gmail.com;

ORCID ID 0009-0007-7294-0113

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya yo'nalishining shakllanishi va bu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning rivojlanishi va uning mukammal talqinini yaratishda ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini yana-da kengaytirish, ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish o'zbek tilining ahamiyatini oshirishi, madaniyatlararo muloqotni shakllantirishi va uni yana-da rivojlantirishiga xizmat qilishi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniyat, til birliklari, kommunikativ aspekt, qadriyatlar, milliy til.

Til- madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Til va madaniyat bir –biriga bog'liq bo'lib, til madaniyatni ifodalaydi. O'z navbatida madaniyat ham tilda namoyon bo'ladi.

Global muammolarning keskinlashuvi va texnika taraqqiyoti natijasida turli til egarlari o'rtasida yuzga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida kommunikativ aspektdagi milliy – madaniy xususiyatlar semantikasini anglagan holda muloqot qilishni taqozo etadi. Shuningdek, lingvokulturologik birliklarning funksiyasi turli vaziyatlarda, xususan til egalariga tegishli bo'lgan marosim jarayonlarida qo'llanilishini o'rganish davom etmoqda. Shu sababdan ham tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Lingvokulturologiya madaniy ahamiyat kasb etgan til birliklariga va xalq madaniyatiga til orqali nazar solishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, bu fan til madaniyatni ro'yobga chiqaradigan mezon ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya tadqiqiga bag'ishlangan bir necha ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ular lingvokulturologiyaning ilmiy jihatdan asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi, milliy til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganish singari qator masalalarga qaratilgan.

O'zbekistonda lingvokulturologiyaga bag'ishlangan dastlabki ilmiy izlanish namunalari sifatida tilshunos N.Mahmudovning *“Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab”*[14], S.Mo'minovning *“O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari”*[8], **F. Usmonovning** *“O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”*[8], **D. Toshevaning** *“Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari”*[10], **D. Ashurovning** *“Alpomish dostonining lingvokulturologik xususiyatlari”* [2], **A. Mamatov va B. Boltayevaning** *“Frazologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi* [7], D.Xudoyberganovanning *“Matnning atropotsentrik tadqiqi”* mavzusidagi monografiyasini [13], Y. Nurmuhammedovning *“Frazologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari”* monografiyasini [9] misol keltirish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan, shuningdek, o'zbek tili va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, til birliklarining lingvokulturologik tahlili va ular orqali madaniy dunyoqarashni o'rganishga bag'ishlangan.

A. Mamatov o'zining *“Zamonaviy lingvistika”* nomli asarida shunday deydi: *“Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari - bu “konsept” va “lingvokulturema” terminlari bo'lib, ulardan dastlabkisi ong birligi, ikkinchisi til birligi hisoblanadi. Bu tushunchalar o'zida madaniyatning bir bo'lagini aks ettirishi tufayli ayrim tilshunoslarning ishlarida sinonim tushunchalar sifatida qaraladi”*[6].

Tilshunos D.Xudoyberganovanning *“Matnning antropotsentrik tadqiqi”* monografiyasi tahsinga loyiq [13]. Olima bu izlanishi orqali o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarining o'rganish ahamiyatini ko'rsatdi. Monografiyada lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish

mazmunli matnlar, matn yaratilishida metaforalarning ahamiyati, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

N.Kurbanazarova “Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida lingvokulturologik birliklar, O‘zbekistonning Surxondaryo vohasidagi to‘y marosimiga oid leksik birliklarni semantik jihatdan sharhlab, misollar bilan yoritgan, shuningdek ularni lingvomadaniy jihatdan ham tadqiq etgan[5]. Qayd etish joizki, tilshunosning bu asari to‘y marosimi bo‘yicha lingvokulturologik tadqiqot olib borayotgan ko‘plab yosh tilshunoslarga dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda lingvokulturologiyaga bag‘ishlangan o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar ham yaratila boshladi. Xususan, tilshunos Sh. Usmanovanning “Lingvokulturologiya fanidan ma‘ruzalar kursi” nomli kitobi bu sohada o‘zbek tilida yaratilgan ilk o‘quv adabiyoti sanaladi[11]. Darslikda lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari, o‘rganish obyekti hamda predmeti va u bilan bog‘langan fanlar bo‘yicha muhim ma‘lumotlar berilgan. Lingvokulturologiyaga oid eng asosiy tushunchalarga izoh berilib, fan yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy asarlar bilan yaqindan tanishtirilgan.

O‘zbek tilshunosligida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar lingvokulturologiya sohasi rivojiga hissa qo‘shibgina qolmay, tilshunoslikka qiziquvchilar, talabalar, yosh tadqiqotchilarga lingvokulturologiyaning yana-da tushunarli bo‘lishiga, bu haqida kengroq bilim olishga va bu ilmiy tadqiqotlarni yana-da kengaytirishga turtki bo‘lmoqda. O‘zbek tili juda boy til bo‘libgina qolmay, adabiyotimizda yaratilgan asarlar leksikasi bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy ishlar qilinmoqda. Ilm – fanga e‘tibor kuchaygani, olimlarga qulay shart- sharoitlar yaratib berilgani sari o‘zbek tilshunosligi, xususan o‘zbek lingvokulturologoyasi jadal sur‘atlarda rivojlanaveradi. O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning mukammal talqinini yaratishda ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini yanada kengaytirish, ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish o‘zbek tilining ahamiyatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish va uni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurov D. Alpomish dostonining lingvokulturologik xususiyatlari. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. –Наманган, 2021
2. Chuliyeva O.Til birliklarini rivojlanishida lingvokulturologiya fanining o‘rni. Ученый XXI века • 2022 • № 2 . B.51.
3. Darvishov I. Lingvokulturologiya fanidan ma‘ruzalar matni. Namangan-2021. B.16.

4. Kurbanazarova N. Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi. filol.fan. nomz. ... dis. – Termiz - 2021. B.45.
5. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: Noshir, – 2019.-B.94.
6. Mamatov A., Boltayeva B. Frazologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. –Toshkent: Navro'z, 2018. –100 b.
7. Mo'minov S. "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari": filol. fanlari dokt. ...diss. – Toshkent, 2000.
8. Nurmuhammedov Y. "Frazologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari", Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.– 136 b.
9. Tosheva D. "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari". Филол. фан. фалсафа док-ри дисс (PhD). –Тошкент, 2017.
10. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent -2019. B. 248.
11. **Usmonov F.** "O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi": Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2017.
12. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.2013.B.43
13. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. №5.–Б.10.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GLUTTONIK PRAGMATONIMLARNING KELIB CHIQISHI HAMDA XUSUSIYATLARI

Akramova Nilufar A'zamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Nilufarakramova92@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gluttonik pragmatonimlar tilshunoslikning nisbatan yangi yo'nalishlaridan biri — pragmatonimika doirasida tahlil qilinadi. Maqolada gluttonik pragmatonimlarning leksik-semantik, struktur va pragmatik xususiyatlari o'rganilib, ularning milliy-madaniy mazmuni va kommunikativ vazifalari yoritilgan. Misollar asosida so'nggi yillarda shakllangan o'zbek tilidagi zamonaviy gluttonik pragmatonimlarning shakllanish omillari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pragmatonim, gluttonik pragmatonim, nomshunoslik, lingvopragmatika, brend, milliylik, reklama.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida nomshunoslik (onomastika) doirasida “pragmatonimika” alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanmoqda. Pragmatonimlar — bu ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish, reklama va iste‘mol sohalarida qo‘llaniladigan nomlar tizimi bo‘lib, ular tildagi amaliy kommunikativ vazifani bajaradi. Pragmatonimlar turli tarmoqlarga bo‘linadi: “ergonimlar”, “kommeronimlar”, “kosmonimlar”, “gluttonik pragmatonimlar” va boshqalar. Gluttonik pragmatonimlar tilshunoslikda nisbatan yangi, ammo faol rivojlanayotgan qatlamdır. Ular oziq-ovqat, ichimlik, restoran, kafe, shirinlik va milliy taomlar bilan bog‘liq nomlarni o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat har kungi turmush tarzimizning ajralmas qismi sifatida til tizimida keng aks etadi. Shu sababli ushbu sohaga oid atamalar, leksik birliklar tilda nihoyatda keng tarqalgan. Bu leksik birliklar har bir xalqning milliyligini, madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, xalq milliy xarakterini, urf-odatlarini, kundalik turmush hayotini ifoda etuvchi gluttonik birliklardir. Gluttonik pragmatonimlar xalq madaniyati va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalqning gastronomik qarashlarini jihatdan ifodalaydi.

Gluttonik pragmatonimlar — bu ovqat, ichimlik, restoran, kafe yoki boshqa turdagi yegulik bilan bog‘liq xizmat va mahsulotlarni nomlovchi tijorat birliklaridir. Filologiya fanlari doktori A.V. Olyanich “gluttoniya” va “gluttonik” atamalarining muallifi bo‘lib ushbu soha rivojlanishida katta hissa qo‘shgan. Gluttonik pragmatonimlar atamasi tilshunoslikda nisbatan yaqinda ilmiy muomalaga kirgan. Gluttonik pragmatonimlar shakllanishi va rivojlanishiga davlatning geografik joylashuvi, urf-odatlari, madaniyati, iqlim, din hamda iqtisodiy omillar ham ta’sir o‘tkazadi. Ushbu birliklar xalq madaniyati va turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular turli til qatlamlarida o‘z o‘rniga ega. O‘zbek tilshunosligida K.Shaniyazov, M.Qurbonova, K.Mahmudovlar izlanishlar olib borganlar. M.T.Xudayarovaning “O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida)” asarida o‘zbek xalqi taomlari, qoraqalpoq taomlari hududlar kesimida atroflicha o‘rganilgan hamda ularning etimologiyasi, ularning xalq marosimlari bilan bog‘liq atamalariga izohlar berilgan hamda taomlarning izohli lug‘ati tuzib chiqilgan. G.Odilovanning “Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (gluttonik diskurs misolida)” nomli tadqiqot ishida ilk marta gluttonik diskursning turli sohalar bilan bog‘liqligi asoslab berilgan, kulinariyaga oid atamalar berilgan, badiiy tarjimada gluttonik pragmatonimlar tarjimasidagi muammolarga izoh bergan hamda ularga yechim taklif qilgan. Jahon tilshunosligida F.Gardafe, Xu Venying, Kara Killing va Skott, Brad Kessler, Leyns, Vendi va Romona Perez va boshqalar “food” (“ovqat”) konseptining badiiy matnlarda qo‘llanishini tadqiq qilganlar.

Tilshunoslikda rus olimlaridan A.V.Olyanich, M.V.Undritsova, L.R.Yermakova, I.A.Derjavetskaya, N.P.Golovnitskaya kabilar glyuttonik diskursning leksik-semantik, pragmatik va lingvokulturologik muammolarini rus va ingliz tillari misolida qiyosiy tadqiq qilgan. D.Yu.Gulinovning “Национальная специфика французской лингвокультурной сферы гастрономия” deb nomlangan tadqiqotida qiyosiy lingvistikani metodologik vosita sifatida lingvomadaniyatshunoslik fani bilan bog‘lab o‘rgangan.

D.Gulinovning fikricha, fransuz gastronomiya terminologiyasining hamda madaniy belgilar bilan atalgan gastronomik birliklarni rus tiliga tarjima qilishda tarjima transformatsiyalarining turlarini aniqlash masalalarini o‘rganib chiqqan.

N. P. Golovnitskaya Germaniya, Avstriya va Shveytsariyadagi nemis tilida so‘zlashuvchi etnik guruhlarining gastronomik nutqini tadqiq qilgan. Olimaning fikricha nemis tilidagi gluttonik nutq zamonaviy Yevropa taomlaridan faqr qiladi. U nemislar uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari go‘sh, kolbasa, sardalya, kartoshka va ichimliklar qatorida, pivo(odatiy nemis mahsuloti) kabi mahsulotlarga asoslanganligini ta’kidlaydi. N.P.Golovnitskaya oziq-ovqatning fiziologik, ijtimoiy, psixologik va madaniy funksiyalarini aniqlab bergan. Tilshunos olimasi M.V.Undritsova esa gluttonik kommunikatsiyani leksik tizmini tadqiq qilib quyidagi guruhlarga ajrtagan: 1)taomlarning nomlari; 2)idish va asboblarning nomlari, pishirish uchun; 3)ovqatlanish jarayonlarining nomlari; 4)belgisi, ovqatlanish vaqti; 5)ovqatlanish joyini ko‘rsatish.

Rus tilshunos olimasi L.Ermakova o‘z tadqiqotida insonning pragmatik faoliyatini xar xil turlarini aks ettiruvchi pragmatonimlar guruhini tipologik xususiyatlarini taniflagan. Olima gluttonik pragmatonimlar ustida muhim izlanishlar olib borib nutqning gluttonik komponenti milliy xarakter va me’yorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi gluttonik lug‘atga asoslanishi haqida fikr yuritgan. S.Edilov o‘zining “Функционально-семантическая характеристика названий пищи в чеченском языке” deb nomlangan tadqiqot ishida chechen tilidagi taom nomlarini frazeologik va paremiologik sathlarda o‘rgangan hamda ularning semantik xususiyatlarini tahlilga tortgan va ularning etimologiyasiga oid izlanishlar olib borgan.

Gluttonik pragmatonimlar tilshunoslikda turli uslublarda o‘rganiladi hamda ular turli uslublarda turlicha ta’sirga ega bo‘ladi:

Og‘zaki uslubda – samimiylik va yaqinlik

Badiiy uslubda – obrazlilik va ekspressivlik

Publitsistik uslubda – milliylik va ta’sirchanlik

Ilmiy uslubda – neytrallik va aniqlik

Shuningdek, ular yordamida tuyg‘ular, munosabatlar, madaniy qadriyatlar ifodalanadi. Bu ularni stilistik jihatdan boy va qimmatli birliklar qatoriga kiritadi.

Lingvosemiotik nuqtai nazardan, oziq-ovqat va ichimlikka bo'lgan ehtiyojlarimiz maxsus tizimga bog'liqdir, gluttoniya - "bir butun sifatida oziq-ovqat jarayonini, oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishni, uni birlamchi qayta ishlashni, shuningdek, tayyorlash va iste'mol qilishning haqiqiy jarayonlarini tavsiflovchi belgilar tizimi".¹

Gastronomik nutq, shuningdek, "glyuttonik" yoki "pazandalik" nutqi sifatida ham tanilgan, oziq-ovqat resurslarining holati va ularni qayta ishlash va iste'mol qilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan aloqaning maxsus turidir.

Gluttonik pragmatonimlar zamonaviy o'zbek tili onomastikasining amaliy va madaniy jihatdan muhim qatlamidir. Ular har bir xalqning yillar davomida shakllangan milliy, an'anaviy o'ziga xos gluttonik pragmatonimlari xalqning turmush tarzini ifodalaydi hamda uni boshqa xalq va millatlardan ajratib turadi. Ushbu leksik birliklar xalq miliy madaniyatini ifodalovchi muhim omillardir, ularni yaratuvchilaribo'lgan xalq ushbu birliklarga yillar davomida o'zining milliy madaniyatini singdirgan. Ular tilning estetik, iqtisodiy va kommunikativ imkoniyatlarini birlashtiradi. Ushbu nomlar orqali tildagi milliylik, ta'b, go'zallik tushunchalari ifodalanadi va shu bilan birga, iste'molchi ongida ijobiy taassurot paydo qiladi. Shuning uchun gluttonik pragmatonimlarni o'rganish tilshunoslik, reklama va brendshunoslik uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.ФОМЕНКО Ольга Сергеевна ПРАГМАТОНИМЫ-ГЛОБАЛИЗМЫ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ СТАТУС И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА 10.02 19 — теория языка АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук 3 О АПР 2009 Волгоград — 2009)

2.ШВЕДОВА Нелли Леонидовна ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА ПРАГМАТОНИМОВ (на материале современной массовой литературы) 10.02.19 — теория языка -8^1£ Н 2011 АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Волгоград — 2011.13-с

3. Яковлева Ольга Евгеньевна СЕМИОТИЧЕСКИЕ ТИПЫ ПРАГМАТОНИМОВ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА (на материале номинаций продуктов питания) Специальность 10.02.01 -русский язык АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Новосибирск – 2006.8-с

4. .Олянич А. В. Гастрономический дискурс в системе массовой коммуникации: семантико-семиотические характеристики // Массовая культура на рубеже XX-XXI веков: человек и его дискурс: сб. науч. тр. М., 2003. 168-с

5. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli lug'ati". – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Jo'rayev A. "Nomshunoslikka kirish". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
7. Xo'jayev R. "Til va madaniyat munosabatlari". – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
8. Nurmatova D. "Pragmatonimlarning lingvistik xususiyatlari". – "Filologiya masalalari" jurnali, №3, 2021.

TABRIK VA ISTAK, QUTLOV MUNOSABATINI AKS ETTIRUVCHI NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi

Urganch davlat universiteti

"O'zbek tilshunosligi" kafedrası o'qituvchisi

G-mail: saparovasurayyoxon25@gmail.com

Tel.: +998937495775

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'y marosimlarida tabrik, istak va qutlov mazmunini ifodalovchi nutqiy etiket birliklari Xorazm shevalaridagi leksik birliklar misolida lingvokulturologik tahlil qilingan. . Lingvokulturologik tahlil orqali ularning madaniyat bilan, xalq tafakkuri va qadriyatlari bilan uzviy bog'liqligini aniqlash mumkinligi, turli ijtimoiy vaziyatlarga oid nutqiy akt birliklarini guruhlariga ajratish, madaniy kodlar nuqtayi nazaridan ham yoritib o'tish Xorazm hududiga oid farqli leksik birliklarning tub aholi tasavvurlarini, tafakkur olamini aks ettirishda muhim hisoblanishi haqidagi muallif fikr-mulohazalari bildirilgan.

Annotation. This article presents a linguoculturological analysis of speech etiquette units expressing congratulations, wishes, and blessings used during wedding ceremonies, based on lexical units from the Khorezm dialects. Through linguoculturological analysis, it is possible to identify their close connection with culture, folk mentality, and values. The classification of speech act units related to various social situations and their interpretation from the perspective of cultural codes are also discussed. The author emphasizes that lexical features specific to the Khorezm region play an important role in reflecting the worldview and conceptual perception of the local population.

Аннотация. В данной статье представлен лингвокультурологический анализ речевых этикетных единиц, выражающих поздравления, пожелания и благопожелания, используемых в свадебных обрядах, на примере лексических единиц хорезмских диалектов. Посредством лингвокультурологического анализа выявляется их тесная связь с культурой, народным мышлением и ценностями. В статье также рассматривается классификация речевых актов, связанных с различными социальными ситуациями, и их освещение с точки зрения культурных кодов. Автор отмечает, что отличительные лексические особенности хорезмского региона играют важную роль в отражении мировосприятия и менталитета местного населения.

Kalit soʻzlar: lingvokulturologik tahlil, madaniy kod, nutqiy akt, nutqiy etiket birligi, anʼana, marosim.

Keywords: linguoculturological analysis, cultural code, speech act, speech etiquette unit, tradition, ceremony.

Ключевые слова: лингвокультурологический анализ, культурный код, речевой акт, речевая этикетная единица, традиция, обряд.

Xalq ogʻzaki nutqida uchraydigan tabrik, istak va qutlovlar nafaqat til birliklari, balki oʻzida xalqning milliy tafakkuri, axloqiy-estetik meʼyorlari, turmush tarzi, urfi va odati, diniy eʼtiqodini mujassamlashtirgan lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Ayniqsa, Xorazm shevalarida bu iboralar oʻziga xos mazmun va madaniy rang-baranglik kasb etgan.

Nutqiy etiket birliklari kishilarning muayyan kommunikatsiya jarayonidagi vaziyatlarda insonlararo munosabatni tartibga soluvchi birliklar boʻlib, ular shaxslarning individual xarakteri va atrof-muhit, tarbiya omili asosida istalgan leksik birlik orqali voqelanishi mumkin. Masalan, toʻy, tugʻilgan kun yoki farzand koʻrish, uy-joyli boʻlish, yangi ish boshlash, yangi mashina olish, motam marosimlarida va kishilarga hamdardlik bildirish kabi jarayonlarda insonlar nutqida qoʻllanuvchi birliklarni aytish mumkin. Lingvokulturologik tahlil orqali ularning madaniyat bilan, xalq tafakkuri va qadriyatlari bilan uzviy bogʻliqligini aniqlash mumkin boʻladi. Turli ijtimoiy vaziyatlarga oid nutqiy akt birliklarini guruhlariga ajratib, madaniy kodlar nuqtayi nazaridan ham yoritib oʻtish Xorazm hududiga oid farqli leksik birliklarning tub aholi tasavvurlarini, tafakkur olamini aks ettirishda muhim hisoblanadi. Chunki turli hududlarda istiqomat qiluvchi oʻzbek ahli turli turmush tarzi, turfa xil ashyolar orqali oʻzlarining dunyoqarashlarini aks ettirishadi.

Toʻy-marosimlariga oid qutlovlar. Bunda toʻy qilayotgan xonadon egalari hamda uylanayotgan yigitga yoki turmushga chiqayotgan qizga yaqinlari, dugona, doʻst-u yorlari tomonidan qutlov va tabriklar bildiriladi. Bu insonlarning

birdamligi, yaxshi-yu yomon kunida yonida turishi kabi insoniy qadriyatlarni ifodalaydi. To'y va u bilan bog'liq katta-kichik marosimlarda yaqinlar tomonidan nutqda voqelanadigan turli tabrik shakllari ba'zan qisqagina bir jumla bilan, ba'zan esa uzundan uzun kattaroq hajmli tabrik ko'rinishida aks ettiriladi. Inson tasavvuri cheksiz bo'lgani kabi ular sonining ham chegarasi yo'q. Lekin vaqtlar o'tishi, turmush va hayot haqida insonlar tasavvuri ijtimoiy omillar asosida yangicha talqinga moslashishi sababli ayrim fonetik o'zgarishlar yoki leksik birliklardagi farqlar asosida takrorlanishi mumkin.

"Tojlār marāk bolsin", *"Tojñ qutli bolsin"* nutqiy etiket birliklari semantik jihatdan quvonchli kun bilan tabriklash, baxt tilashni ifodalaydi. Oila qurish boshqa o'zbek xalqi kabi Xorazm ahlida ham juda muhim qadriyat hisoblanib, bu ibora orqali oila barakasi, davomiyligi tilanadi. Shu nuqtayi nazardan, oila birdamligini, davomiyligini, oqibatini istovchi birliklar Xorazm aholisi nutqiy akt jarayonlarida xalqqa xos qadriyat va an'analarni aks ettiruvchi madaniy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Özlärinnän köpäjsin" nutqiy etiket birligi to'yga tashrif buyurgan yaqin insonlar, mehmonlar tomonidan qutlov va tilak sifatida qo'llanib, yosh oilalarga ko'p farzand, uzoq umr, shu bilan birga oila birdamligini tilashni ifodalaydi. Bunda "oila ko'p farzand bilan baraka topadi" degan e'tiqod xalqqa xos milliy qadriyatlardan biridir. Bu o'zbeklarning bolajon xalq ekanligidan dalolatdir.

"Qošā qārriğājsilār"/"Qošā qārriñlār"/ "Qošā qārñ" / "qošā qārñājsān" nutqiy birligi ajrashmaslikni, baxtli bo'lishni, fikr va dunyoqarash birdamligini ifodalaydi. Bu ibora oila mustahkam bo'lishini istashlikni bildiradi. Zero, oila mustahkamligining asosi fikrlar uyg'unligidadir. O'zbek xalqi kabi Xorazm ahli ham ajrashishni qoralashadi. Har qanday vaziyatda ham oilani asrab qolishga, mustahkamligini ta'minlashga harakat qilinadi. Diniy nuqtayi nazardan ham ajrashish qoralangan. Bu xalqning an'analari islomiy odatlar, qoidalar bilan shakllanganligidan dalolatdir. Musulmon kishisi an'alariga sodiqlik nuqtayi nazaridan bu ibora birgalikda umr kechirish orzusini bildiradi. "Qo'sha qarish" – xalqimiz nazarida eng yuksak baxt. U orqali oilaviy barqarorlik va sadoqat qadriyatlari ilgari suriladi.

"Oñ bolsin" nutqiy etiket birligi xonadon egalariga boshlagan xayrli ishlari o'ngidan kelib, yaxshi kunlarning, xayrli amallarning boshlanishi, qolaversa, quvonchli kunlari bardavom bo'lishini tilashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, bu nutqiy birlik bo'lishidan tashqari, kichik marosim turi ham hisoblanadi, ya'ni xorazmliklarda shunday an'ana borki, to'y boshlagan xonadon egalarini qutlab, *"o'ng bo'lsin"* aytib kelish qarindoshlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu to'y oldi kichik tadbirida qarindoshlar to'y egasiga o'z moddiy yordamlarini ko'mak sifatida in'om etadilar. Bu ham oila mustahkamligi, shajaralar, qavm-u qarindoshlar

o'rtasidagi yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, birdamlikning ustunligidir. Bu odat barcha avlodlarga ajdodlardan meros an'ana sifatida nasldan naslga o'tib kelmoqda. Faqat ko'maklashish davr talabi bilan turlicha ko'rinishga kirib kelmoqda. Hududlarda uchraydigan variantlari quyidagicha: *tojñ oñ bosñ, toylār oñ bosñ, bashlāgān tojññz oñ bosñ*

“*Marāk*” yoki “*tojlār marāk*” nutqiy etiket birligi “xayrli bo'lsin”, “nasib qilsin” kabi ma'nolarni anglatuvchi ijobiy qutlov shakli. Bu birlik “muborak” so'zining mahalliy qo'llanish shakli bo'lib, ayrim fonetik o'zgarishlar kuzatiladi. To'y marosimida kelgan mehmonni iliq kutib olish, unga samimiy munosabatda bo'lish bilan birga kelgan mehmon ham mezbonga o'z qutlovini samimiyat bilan izhor etib quvonchiga sherik ekanligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida, Xorazm xalqining mehmondo'stligini ko'rsatadi. “*Marāk*” qutlov birligi Xorazm mintaqasi aholisining do'stona muomalasini, madaniyatidagi ochiqlikni aks ettiradi.

“*Bizārām tojlār ātñš nāsīb ātsñ*” qutlovi baraka, o'zaro hasad emas, havas, tilak bildirish madaniyatining namunasi. U o'zgalarning to'yiga qarab, hasad emas, balki ijobiy motivatsiya shaklida orzu qilish holatini ifodalaydi. Xorazm ahli birovning yaxshi kunini orzu qilish va shunday kunga uni ham yetkazish istagini ochiq bildirishi orqali xalqning birdamlik, samimiylik, ochiq ko'ngillik hislatlari ifodalanadi. Bu ham mintaqqa aholisiga xos shaxslar xarakteridagi madaniy xususiyatlardandir. O'z navbatida u kamtarlikni ham ifodalaydi. Chunki o'zining baxti, vaziyati to'y qilayotgan kishinikidan ham afzal bo'lsa-da, mezbonning baxtli inson ekanligini kamtarlik bilan ta'kidlash yoki diqqatini shunga (baxtli inson ekanligiga) qaratishni anglatadi.

“*Bargān//baryān jeriñdā dašdin qat*” bu nutqiy etiket birligi turmushga chiqqan joyida sobit, kuchli bo'lish istagi haqidagi tilakni ifodalaydi. Katta yosh vakillari tomonidan bo'lajak kelinga qarata aytiladi. “*Dašdin qat*” bu yerda sabr, chidam, fidoyilik timsolini ifodalagan. O'zbek madaniyatida ayolga yuklatiladigan ijtimoiy rollar (farzand, ayol, kelin, ona, qaynona, buvi, jamiyatning qaysidir bo'g'inida faoliyat olib boruvchi) – uyni tutib turish, tinchlikni saqlash, sabrli bo'lish o'z ifodasini topgan. Xotin-qizlar ongiga to'g'ridan to'g'ri yoki ramziy yo'l bilan sabr-matonat targ'ib qilinadi.

“*Ibñllī-jñbñllī bolsñ*” nutqiy birligi ko'pincha keksa yosh nutqida qo'llanib, serfarzand, serdavlat bo'lishlikni, mustahkam, shinam oila qurishni anglatadi. Bu birlik orqali an'analarga muvofiqlik, baraka, bag'rikenglik tushunchalari ifodalanadi. Bunda an'analarga muvofiqlik oila muhitining go'zalligi bilan ulug'lanadi.

“*Bāxtlī bol, eñ yaman gūñiñ šūnnin bolsñ*” yomon kunning bo'lmasin, eng og'ir kunning bugun kabi shodiyonali kun bo'lsin, ya'ni hech qachon noxushlikka duch kelmagin ma'nosida qo'llaniladi. Bu ibora xalqning hayot sinovlariga

nisbatan ijobiy, bardavom munosabatini ifodalaydi. Qay darajada yomon bo‘lmasin, yomon kun ham yomon emas degan chuqur falsafiy fikrni bildiradi.

Yuqorida ifodalangan to‘y va shodiyona kunlarda ishlatiladigan nutqiy etiket birliklari ba‘zan bir nechta birlikda nutqiy akt jarayonlarida voqelanadi. Ular alohida-alohida qo‘llanish holatlariga ham ega. To‘y bilan bog‘liq qutlov birliklari ko‘pchilikni tashkil etib, beshik to‘y, sunnat to‘yi va farz to‘ylariga qarab tabrik va tilaklarga qo‘shimcha leksik birliklar qo‘shilib borilaveradi. Ya‘ni beshik to‘yga kelganlar *“oŋ bosin, sūnnātinām jetirsin”* birligini, sunnat to‘yiga kelganlar *“sūnnātinā jetiribdi, fārzinām jetirgij/ fārzinām/ fārz tojlārīnām gormak nāsib ātgij”* kabi nutqiy etiket birligi sifatida qo‘llanuvchi qutlov birliklarini qo‘llashadi. Bundan tashqari, *“jenāki jildā šu gūnlār beşik ākkālib otirish nāsib atgij”* yoki *“doqqiz aj-u doqqiz gūndān(gūnnān) kejin beşik ākkālib, sonžilāb otirish nāsib atgij”* kabi duo ko‘rinishidagi uzundan uzoq qutlov birliklari ham mavjud. Bu yerda beshik farzandli bo‘lishga, oilaviy hayot go‘zal davom qilishiga ishoradir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazm shevalaridagi nutqiy etiket birliklarining lingvokulturologik tadqiqi orqali hudud aholisining azaliy an‘ana va qadriyatlari, kishilar xarakterining, muomala odobining qanday madaniy ta’sirlar asosida shakllanganligi haqida nazariy bilimlar majmuini tarkib toptirish mumkin. Bu orqali psixosemiotik, sotsiolingvistik, lingvopragmatik yondashuvlar doirasida qilinayotgan ilmiy ishlar uchun ham nazariy manba, qolaversa, inson tafakkuri va til o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi falsafiy farazlar aniq mohiyatini topishida yana bir qadam vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анчимиук О. Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. 2020.
2. Формановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. – Москва. 2002.
3. Goldin V.E. Odob va nutq. – Saratov. 1987.
4. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Стернин И.А. Русский речевой этикет. – Воронеж. 1996.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. наشريёти. – Жиззах: “Сангзор”, 2006.
7. Турдиева Х.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Диссертация. Тошкент – 2020.

INKOR KATEGORIYASINING MODALLIK VA BAHOLASH KATEGORIYALARI BILAN O‘ZARO ALOQALARI

Tursunova Nilufar Talatovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Yaponshunoslik oliy maktabi

Katta o‘qituvchisi

lilytt1986@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada inkor kategoriyasining tilshunoslikdagi o‘rni, uning modallik va baholash kategoriyalari bilan aloqasi tahlil qilingan. Inkor nafaqat grammatik vosita, balki semantik, pragmatik va kognitiv hodisa sifatida qaraladi. Tadqiqotda inkorning shubha, ehtimol, yumshatish, empatiya yoki tasdiq ma’nosini ifodalash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, litota kabi “tasdiqni ifodalovchi inkor” hodisalari ham yoritilgan. Muallif inkor va tasdiqning dialektik bog‘liqligini, ularning presuppozitsiya bilan aloqasini tahlil qilib, inkorni ko‘p funksional va universal hodisa sifatida baholaydi.

Аннотация: В данной статье отрицание рассматривается как грамматическое, семантическое, когнитивное и прагматическое явление. Автор показывает, что оно может выражать сомнение, вероятность, эмпатию, смягчение или даже утверждение. Особое внимание уделяется феномену «утверждающего отрицания» (например, литота). Подчеркивается диалектическая взаимосвязь отрицания и утверждения, а также их связь с пресуппозицией. В результате категория отрицания представлена как универсальное и многоплановое явление современной лингвистики с богатым функционально-семантическим потенциалом.

Kalit so‘zlar: inkor, tasdiq, modallik, baholash, semantika, pragmatika, presuppozitsiya, litota, “tasdiqni ifodalovchi inkor”.

Inkor kategoriyasi lingvistikada ko‘pqirrali, dinamik va ko‘p darajali semantik tizimni tashkil etadi. Uning asosida mantiqiy inkor yotadi, ammo tildagi inkor lingvistik vosita sifatida nafaqat mantiqiy qarama-qarshilikni, balki qator ma’no va funksiyalarni ham qamrab oladi. Grammatik inkor fe’l yoki predikatning maxsus inkor formalari (masalan, rus tilida “ne”, o‘zbek tilida “-ma/-mo”, yapon tilida “nai” “-ない”) orqali amalga oshiriladi va jumla mazmunini rad etishga xizmat qiladi. Ammo lingvistik inkor faqat grammatik qavatda cheklanib qolmaydi, balki ko‘pincha turli implitsit, ya’ni yashirin va qo‘shimcha ma’nolar shaklida ham namoyon bo‘ladi.

Grammatik inkor odatda eksplitsit (ochiq) shaklda gapning asosiy ma’nosini rad etsa, inkor tushunchasi ko‘pincha modallik, ehtimollik, kamchilik, yo‘qlik, shart yoki boshqa semantik-pragmatik elementlar orqali ham ifoda topadi. YA’ni,

tildagi ba'zi konstruksiyalar to'g'ridan-to'g'ri inkorni anglatmasa-da, mantiqiy-fikriy jarayonda "mavjud emaslik", "bajarilmaganlik", "yetishmovchilik" kabi salbiy mazmun shakllantirishi mumkin. Misol tariqasida, ingliz tilida "hardly", "scarcely", "little", "few" kabi so'zlar to'g'ridan-to'g'ri inkor bo'lmasa-da, nutqda yoki fikriy jarayonda salbiy-implitsit inkor vazifasini bajaradi.

Shu tarzda, inkorning lingvistik konsepti tilda nafaqat morfologik yoki sintaktik ko'rinishlarda, balki kognitiv va semantik tizimlarda ham namoyon bo'ladi. Inkor va modallik o'rtasidagi chuqur integratsiya shuni ko'rsatadiki, ayrim grammatik inkor ko'rsatkichlari kontekstual sharoitga qarab modal (ehtimol, gumon, shubha) yoki baholovchi (empatik, muloyimlashtiruvchi, kinoyali) funksiyalarga ega bo'lishi mumkin.

Modallik tilshunoslikda subyektiv munosabatni, voqelikka baho berishni, haqiqat yoki ehtimollikni ko'rsatuvchi ilmiy kategoriya sifatida qaraladi. Klassik grammatikada va zamonaviy lingvistikada modallik va inkorning o'zaro munosabatiga turlicha yondashuvlar mavjud: Avtonom yondashuv: Inkor va modallik mustaqil, alohida kategoriyalar bo'lib, bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas (S.A.Vasilyeva, V.Z.Panfilov). Inkorni modallikka tobe etish: Ayrim nazariyalarda inkor modallikning bir ko'rinishi, ya'ni rad etish, shubha, ehtimol, tasdiqsizlikni ko'rsatuvchi element sifatida qaraladi (V.G.Admoni, A.Vejbitska, O.Yyespersen). Integratsiya va muvozanatli yondashuv: Inkor va modallik mustaqil, ammo o'zaro bog'liq va nutqda bir-birini to'ldiruvchi, ayrim hollarda interferensiyasi kuzatiladigan kategoriyalar hisoblanadi¹⁸⁴(I.V. Andreyeva, V.V. Juravleva, O.I. Moskalskaya).

Tilshunoslikda ustuvor qarash shuki, inkor va modallik bir-biridan mustaqil bo'lsa-da, ko'plab grammatik va semantik holatlarda birgalikda namoyon bo'ladi. Masalan, shart, ehtimol, shubha yoki amalga oshmaganlikni bildiradigan modal konstruksiyalarda inkor ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita shaklda paydo bo'ladi.

Inkor kategoriyasi semantik-pragmatik qiymatga ega bo'lib, nutqda faqat rad etish emas, balki subyektning munosabati, bahosi va ekspressiv emotsiyasini ham namoyon qiladi. Inkor grammatik ko'rsatkichlari orqali empatik, shubhali, yumshatuvchi, ehtiyotkorlik, yoki kinoyali ma'nolar yuzaga kelishi mumkin.

Ayrim hollarda, inkor formalari baholash va modallik ko'rsatkichlari bilan sintezlashgan bo'ladi. Masalan, inkorli konstruksiyalar yumshatuvchi ma'noda ("unchalik yomon emas", "uncha faol emas" va h.k.), kinoya yoki ikkilamchi ma'noda ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda inkor vositasi gapning to'g'ridan-

¹⁸⁴ Андреева И.В. К вопросу о взаимодействии модальности и отрицания // Вопросы языкознания. — 1974. — №5. — С. 23–30.

to'g'ri mazmuni emas, balki subyektiv, ekspressiv, yoki emotsional yukni namoyon qiladi.

Tilshunoslikda inkor kategoriyasi grammatik, semantik, kognitiv va pragmatik jihatdan ko'pqirrali integratsiyaga ega. U nafaqat mustaqil grammatik vosita, balki boshqa muhim til kategoriyalari — modallik va baholash tizimlari bilan dinamik va murakkab o'zaro aloqalarga kiradi. Zamonaviy lingvistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, inkor kategoriyasining funksiyalari va ma'nosi nutqda faqat grammatik yoki mantiqiy rad etish bilan cheklanmaydi; u nutq subyektning munosabati, shubhasi, muloyimligi, ehtiyotkorligi, yoki ekspressiv (empatik, kinoyali, yumshatuvchi) bayonini ham qamrab oladi.

Bu lingvistik kompleks integratsiya inkor kategoriyasining to'liq funksional-semantik portretini shakllantiradi va uni zamonaviy tilshunoslikning ko'pqirrali, universal va amaliy qiymatga ega fenomenlaridan biriga aylantiradi.

Tilshunoslikda inkor va tasdiq kategoriyalari ma'no va funksiya jihatdan qarama-qarshi, biroq uzviy bog'liq kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. Bu dialektik qarama-qarshilik inson fikrlashining universal asoslaridan biri bo'lib, har qanday til tizimida inkor va tasdiq muntazam ravishda bir-biriga qarshi qo'yiladi. Inkor — tasdiqqa nisbatan semantik belgilangan, maxsus marker orqali ifodalanadigan a'zo (markerlangan), tasdiq esa nomarkerlangan holat hisoblanadi¹⁸⁵.

Inkorning semantik asosini tahlil qilar ekan, olimlar uni faqat grammatik vosita emas, balki fikrning mazmun va maqsadga muvofiqligi, nutqdagi umumiy bag'olash tizimiga ham bog'liq deb qaraydi. Ayniqsa, inkor va tasdiq kategoriyalari bir-birini shartli va mazmun jihatdan to'ldiruvchi, ko'pincha bir butun semantik maydonning ikki polyusi sifatida namoyon bo'ladi¹⁸⁶.

Inkor kategoriyasining semantik va funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilishda, uning tasdiq kategoriyasi bilan o'zaro munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Lingvistik tadqiqotlarda inkor faqatgina ma'lumotni yo'qqa chiqarish vositasi emas, balki tildagi presuppozitsiya, ya'ni gapda aniq aytilmagan, ammo mantiqan kutilgan ma'nolarni ham ifoda qila oladi.

Presuppozitsiya – bu til birligida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, ammo ma'no jihatdan zarur hisoblangan ma'lumotdir. Masalan, “U kelmadi” jumlasini olsak, unda “u kelishi kutilgan edi” mazmuni mavjud. Inkor va presuppozitsiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan: inkor formasi aksar hollarda ma'lum bir holat yoki harakat realligiga nisbatan kuzatiladigan kutilgan tasdiqni nazarda tutadi. Shu tariqa, inkorli gaplarda aslida tasdiq variantlari fonidagi semantik farqlar, presuppozitsiya orqali yuzaga chiqadi. Ayrim mualliflar, masalan, YE.V.

¹⁸⁵ Падучева Е.В. Семантические исследования: presupпозиция и утверждение. — М.: Наука, 1985.

¹⁸⁶ Айзенштадт Э.И. Значение категории отрицания в языке // Вопросы языкознания. — 1949.

Paducheva ta'kidlashicha, "Inkor o'z semantikasini ijobiy gapning presuppozitsiyasi bilan bog'liq holda amalga oshiradi¹⁸⁷".

Lingvistikada inkor va tasdiq kategoriyalarining munosabati haqida turli nazariy yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar inkorni tasdiqqa to'liq bo'ysunuvchi, ya'ni uning "soyasi" sifatida ko'radi¹⁸⁸, boshqalar esa inkorni mustaqil semantik va funksional kategoriya sifatida baholaydi¹⁸⁹. O'z navbatida, aksariyat tadqiqotchilar bu ikki kategoriyaning dialektik bog'liqligi, ya'ni ular bir-birini inkor qiluvchi, bir paytning o'zida bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanini e'tirof etishadi (Ayzenshtadt, Vladimirskaia, Orlova, Paducheva va boshqalar).

Tasdiq va inkor — inson fikrlash jarayonining ikki qarama-qarshi, ammo uzviy bog'liq tarafi sifatida namoyon bo'ladi. Tilda inkor alohida va to'la huquqli kategoriya bo'lib, tasdiq bilan dialektik nutqiy oppozitsiyani tashkil etadi. Inkori formal ravishda tasdiqqa nisbatan markerlangan a'zo bo'lib, tasdiq esa nomarkerlangan a'zodir.

Lingvistik foydalanishda ba'zi inkor formalari to'g'ridan-to'g'ri inkor ma'nosini anglatmay, aksincha, tasdiq mazmunini ifoda etadi. Bu holat "Tasdiqni ifoda etuvchi inkor" (TII) hodisasi sifatida ma'lum. Bunday konstruksiyalarda formal inkor orqali ifoda qilingan ma'no — tasdiq mazmuniga ega bo'ladi. Litota — bunday semantik mexanizmlarning yorqin namunasi.

Litota bu — tilda ma'lumotni normalashtirish yoki yumshatish, ya'ni qandaydir fakt yoki holatning kuchini kamaytirish uchun qo'llaniladigan inkor formasidir. Masalan, "u yaxshi emas" jumlasida kerakli kontekstda "u yomon" ma'nosiga tenglashib ketadi, yoki ingliz tilidagi "not bad" ifodasi amalda "yaxshi" ma'nosini beradi. Bu borada O.A. Prokofyeva "Litota TII shakli bo'lib, inkoriy belgini yumshatadi va inkorni tasdiqlash vositasiga aylantiradi" deb ta'kidlaydi¹⁹⁰. TII — tasdiqni ifoda etuvchi inkor — bu grammatik jihatdan inkor bo'lgan, ammo semantik va pragmatik jihatdan tasdiq ma'nosini anglatuvchi konstruksiyadir. TII holatlarida til birligida formal inkor bo'lsa-da, voqelikda gapning ma'nosi tasdiq mazmunini anglatadi. Bunday konstruksiyalarni ajratib ko'rsatish, ularni tahlil qilish va turkumlashtirish lingvistikada funksional-semantik yondashuvning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, "TII — shunday tuzilma bo'lib, ularda formal tuzilish ifodalangan ma'no bilan mos kelmaydi: shakli inkor — mazmuni

¹⁸⁷ Падучева Е.В. Семантические исследования: пресуппозиция и утверждение. — М.: Наука, 1985. — С.93

¹⁸⁸ Карри Х. Логика и язык. — М., 1969.

¹⁸⁹ Вежицка А. Смысл и структура грамматики. — М., 1972.

¹⁹⁰ Прокофьева О.А. Функционально-семантические особенности категории отрицания в современном английском языке. — Пятигорск, 2001. — С.55.

ijobiy”¹⁹¹. YA’ni, bunday hollarda inkor ko‘rinishining ortida tasdiqning noyob funksional-stilistik imkoniyatlari yashiringan bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, inkor kategoriyasi faqat yoki tasdiqni yo‘qqa chiqarish bilan cheklanib qolmaydi, balki ko‘p hollarda presuppozitsiya, tasdiq va boshqa ma’nolarni ifoda etishning samarali mexanizmiga aylanadi. Ayniqsa, IIT holatlari (litota va boshqa qurilmalar) tilning funksional-semantik salohiyatini kengaytiradi, gapni yumshatish, empatizatsiya qilish va muloqotdagi ko‘pqirrali ma’nolarni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева, И. В. (1985). *Категория отрицания в русском языке*. Москва.
2. Йесперсен, О. (1924). *The philosophy of grammar*. Лондон: Allen & Unwin.
3. Лайонс, Ж. (1977). *Semantics* (Vol. 1–2). Кембриж: Cambridge University Press.
4. Москальская, О. И. (1981). *Грамматика текста*. Москва: Высшая школа.
5. Панфилов, В. З. (1968). *Категория отрицания и её функции*. Москва.
6. Падучева, Е. В. (1985). *Высказывание и его соотнесённость с действительностью*. Москва: Наука.
7. Прокофьева, О. А. (2002). *Литота и её семантические возможности*. Санкт-Петербург.
8. Васильева, С. А. (1979). *Модальность и отрицание в современном русском языке*. Ленинград.
9. Wierzbicka, A. (1980). *Lingua mentalis: The semantics of natural language*. Нью-Йорк: Academic Press.
10. Орлова, И. А. (2005). *Отрицание в функциональной грамматике*. Москва.
11. Эйзенштадт, Э. (1995). *Dialectical oppositions in language*. Берлин: Mouton de Gruyter.

RUS TILSHUNOSLIGIDA ASAR NOMLARINING O‘RGANILISHI

Jo‘rayeva Shahnozaxon Soxibjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada asar nomi onomastik birlik sifatida o‘rganilgan va uning badiiy matn tizimidagi o‘rni hamda funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda asar nomi (biblionim) muallif tomonidan yaratilgan

¹⁹¹ Ўша манба. – Б.59.

individual nomlash shakli bo'lib, u matnning konseptual mazmunini ochib beruvchi, estetik hamda kommunikativ vazifalarni bajaruvchi nom sifatida izohlangan. Onomastik nuqtayi nazardan asar nomi muayyan davr, madaniy muhit va muallif dunyoqarashini aks ettiruvchi belgili birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqolada biblionimlarning semantik tuzilishi, ularning o'quvchi idrokiga ta'siri hamda intertekstuallik jarayonidagi o'rni haqida ilmiy mulohazalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari asar nomining nominativ, pragmatik va estetik funksiyalarini aniqlash orqali uning adabiy jarayondagi ahamiyatini kengroq talqin etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: asar nomi, biblionim, onomastika, poetika, semantika, nominatsiya, badiiy matn, intertekstuallik, kommunikativ funksiya.

Asar sarlavhasi yoki biblionim badiiy matnning semantik, struktural va estetik jihatdan ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat asar nomini bildiradi, balki muallif g'oyasining mazmuniy yo'nalishini, estetik konsepsiyasini va o'quvchi e'tiborini yo'naltiruvchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Rus tilshunosligida sarlavha fenomeni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy tahlil ob'ekti sifatida shakllandi. Tilshunoslar sarlavhaning struktura-semantik xususiyatlari, poetik funksiyasi va o'quvchi ongida shakllantiruvchi roli kabi jihatlarni o'rganish orqali uni matn semiotikasining muhim elementi sifatida izohlashgan. Quyida ushbu yo'nalishda olib borilgan asosiy ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi.

Asar sarlavhalari badiiy matnning konseptual tuzilmasida alohida semantik yukga ega. Li Litsyun o'z tadqiqotida sarlavhani "mini-matn" sifatida talqin etib, uning strukturaviy, semantik va pragmatik qatlamlarini tahlil qiladi¹⁹². Unga ko'ra, sarlavha matnning "kirish kodi" bo'lib, o'quvchini mazmuniy dunyoga yo'naltiradi. Masalan, Lev Tolstoyning "*Война и мир*" nomli asarida sarlavha ikki qutbli antonimik birliklar ("urush" va "tinchlik") orqali insoniyat va jamiyat hayotidagi abadiy ziddiyatni ifodalaydi. Strukturaviy jihatdan ikki koordinativ birlikning bog'lanishi asarning semantik maydonini kengaytiradi, pragmatik jihatdan esa o'quvchida tarixiy va falsafiy kutish effektini hosil qiladi. Shu bilan birga, Fyodor Dostoevskiyning "*Преступление и наказание*" nomi ham xuddi shunday oppozitsion konstruktsiya asosida qurilgan bo'lib, unda sarlavha faqat mazmunni nomlash bilan cheklanmay, balki axloqiy-diniy muammolarni markazga olib chiqadi.

Li Litsyun shuningdek, sarlavhaning pragmatik funksiyasini muhim deb hisoblaydi, ya'ni u o'quvchi va matn o'rtasida kommunikativ aloqani

¹⁹² Ли Лицунь. *Структура, семантика и прагматика заглавий художественных произведений*. – М., 2016. – 182 с.

ta'minlaydi¹⁹³. Masalan, Anton Chexovning *“Человек в футляре”* sarlavhasi metaforik xarakterga ega bo'lib, insonning ijtimoiy va ma'naviy yopiq dunyosini ifodalaydi. Bu yerda *“futlyar”* so'zi tashqi shaklda oddiy predmet bo'lsa-da, semantik jihatdan qahramonning ruhiy izolyatsiyasini bildiradi. Shu tariqa, sarlavha nafaqat asarning nominativ elementi, balki o'quvchining idrokida psixologik-assotsiativ maydon yaratadigan estetik vositaga aylanadi. Li Litsyunning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, sarlavhalarni tahlil qilish faqat tilshunoslik masalasi emas, balki lingvopoetik va kognitiv tahlilni ham talab etadi. Shu asosda muallif asar nomlarini badiiy matnning semantik yadrosi va kommunikativ o'qi sifatida talqin qiladi.

Rus tilshunosligida sarlavhaning poetik tabiatiga oid ilk fundamental izlanishlardan biri G.Bojkova va D.Nuriyevaning *“Поэтика заглавий рассказов М. А. Осоргина”* nomli maqolasidir¹⁹⁴. Tadqiqotchilar M.Osorginning kichik proza asarlaridagi sarlavhalarni semantik markaz sifatida tahlil qilib, ularning butun matnni tashkil etuvchi konseptual yadroni belgilashini aniqlaydilar. Ularning fikricha, sarlavha matnni idrok etish jarayonida o'quvchini ma'lum semantik maydonga yo'naltiruvchi vositadir. Shu bilan birga, sarlavha o'zida muallif niyatini, badiiy kayfiyatni va estetik kodni mujassam etadi. Mualliflar sarlavhani faqat nominativ birlik emas, balki matn ichidagi semantik aloqalarni boshqaruvchi struktur element sifatida talqin etadilar.

E.Livskayaning *“Поэтика заглавий автора ‘Поэтики заглавий’ С. Д. Кржижановского”* nomli maqolasida sarlavhaning metatekstual funksiyasi tahlil qilinadi¹⁹⁵. Muallif S. D. Krijanovski ijodidagi sarlavhalarni *“matn ichidagi matn”* sifatida ko'rib chiqib, ularning ironik, intertekstual va refleksiv tabiatini ochib beradi. E.Livskaya fikricha, Krijanovski sarlavha orqali o'z asarlarining estetik konsepsiyasini ifodalaydi, shu bois ularning sarlavhalari muallif poetikasining integral qismidir. Bu yondashuv sarlavhani matnning metaforik va falsafiy qatlamlari bilan uzviy bog'liq estetik element sifatida talqin etish imkonini beradi.

O.Bogdanova o'z tadqiqotida sarlavhani badiiy matnning semantiko-kompozitsion yadrosi sifatida talqin etadi va uni matnning tashqi nomi emas, balki ichki tuzilma bilan uzviy bog'langan strukturaviy komponent deb baholaydi¹⁹⁶. Muallifning fikricha, sarlavha matnning semantik bosqichlarini tashkil etuvchi *“diktem birlik”* bo'lib, u asarning konseptual g'oyasini qisqargan shaklda

¹⁹³ Ли Лицунь. *Структура, семантика и прагматика заглавий художественных произведений*. – М., 2016. – 211 с.

¹⁹⁴ Божкова Г. Н., Нуриева Д. Р. Поэтика заглавий рассказов М. А. Осоргина // *Филологические науки. Вопросы теории и практики*. – 2013. – № 9 (27). – С. 45–48.

¹⁹⁵ Ливская Е. В. Поэтика заглавий автора «Поэтики заглавий» С. Д. Кржижановского // *Концепт*. – 2014. – № 10.

¹⁹⁶ Богданова О. Ю. *Заглавие как семанτικο-композиционный элемент художественного текста (на материале английского языка)*: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 24 с.

ifodalaydi. Masalan, Ernest Hemingueyning *“The Old Man and the Sea”* asarida sarlavha ikki semantik qutb — inson (Old Man) va tabiat (Sea) oʻrtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi; bu qarama-qarshilik butun asarning kompozitsion rivojlanish yoʻnalishini belgilaydi. Xuddi shuningdek, J.Steinbeckning *“Of Mice and Men”* asarida sarlavha shoir R.Burnsning sheʼriy satridan olingan boʻlib, unda inson orzularining moʻrtligi va hayotiy haqiqat bilan toʻqnashuvi ifoda topadi. O.Bogdanova taʼkidlashicha, bunday sarlavhalar nafaqat asar mazmunini oldindan belgilaydi, balki oʻquvchining interpretatsiya jarayoniga taʼsir etuvchi pragmatik signallarni ham shakllantiradi. Shu tariqa, sarlavha matnning semantik strukturasida assotsiativ, intertekstual va motiv hosil qiluvchi komponent sifatida namoyon boʻladi

V.Bezruxova oʻzining “Структурно-семантические особенности и функции заголовков беллетристических произведений XIX века” nomli maqolasida XIX asr rus adabiyotidagi sarlavhalarining lingvopoetik tabiatini oʻrganadi¹⁹⁷. Tadqiqotda Pushkin, Gogol, Dostoevskiy va Turgenev asarlaridagi nomlash anʼanalari tahlil qilinib, sarlavhalarining struktur-semantik turlari ajratiladi: tematik, obrazli va metaforik. Muallif sarlavhaning oʻquvchiga taʼsir koʻrsatishdagi kommunikativ funksiyasini asoslab, uni semiotik signal sifatida izohlaydi. Bezruxova qarashicha, sarlavha matnni “kirish nuqtasi” sifatida shakllantiradi, shu bois u badiiy asar poetikasining markaziy komponenti hisoblanadi.

Y.Burmistrovaning “«Стихотворения в прозе» И. С. Тургенева: заглавие цикла как историко-литературная проблема” maqolasi esa sarlavhani tarixiy-adabiy kontekstda tahlil etadi¹⁹⁸. Muallif Turgenyevning “Sheʼrlar nasrda” turkumidagi sarlavhalarni oʻsha davr poetik anʼanalari bilan bogʻlaydi va ularning sikl tuzilmasidagi kompozitsion hamda ideologik rolini koʻrsatadi. Y.Burmistrova sarlavhani tsiklni birlashtiruvchi struktura sifatida baholaydi, uning oʻquvchini maʼlum semantik maydonga tayyorlovchi vazifasini asoslaydi. Shu bilan sarlavha nafaqat matn tashqi belgisi, balki yozuvchi konsepsiyasining tarixiy-estetik ifodasidir degan xulosaga keladi.

Yuqorida tahlil qilingan manbalar rus tilshunosligida asar sarlavhalarining tadqiqi koʻp yoʻnalishli va murakkab ilmiy jarayon ekanini koʻrsatadi. Tadqiqotchilar sarlavhani til birligi sifatida emas, balki estetik, semantik va kommunikativ birlik sifatida tahlil etadilar. G.Božkova va D.Nuriyeva sarlavhaning semantik dominantligini, E.Livskaya esa uning intertekstual va

¹⁹⁷ Безрухова В. В. Структурно-семантические особенности и функции заголовков беллетристических произведений XIX века // *Филологические науки*. – 2012. – № 3.

¹⁹⁸ Бурмистрова Ю. Д. «Стихотворения в прозе» И. С. Тургенева: заглавие цикла как историко-литературная проблема // *Вестник РУДН. Серия: Литературоведение. Журналистика*. – 2020. – Т. 25, № 4. – С. 565–576.

metapoetik funksiyasini ochib beradi. V.Bezrukhova sarlavhaning struktural-semantik xususiyatlarini tizimlashtirgan bo'lsa, Y.Burmistrova uni tarixiy-adabiy kontekstda yoritadi. Shunday qilib, rus tilshunosligida sarlavha matn semiotikasining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi; u asarning mazmuni, uslubi va estetik konsepsiyasini anglashda kalit vazifasini bajaradi. Bu esa sarlavha fenomenini zamonaviy lingvopoetik va kognitiv tadqiqotlar uchun dolzarb mavzuga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Безрухова В. В.** Структурно-семантические особенности и функции заголовков беллетристических произведений XIX века // *Филологические науки*. – 2012. – № 3.
2. **Богданова О. Ю.** *Заглавие как семантико-композиционный элемент художественного текста (на материале английского языка): автореф. дисс. ... канд. филол. наук.* – Москва, 2010. – 24 с.
3. **Божкова Г. Н., Нуриева Д. Р.** Поэтика заглавий рассказов М. А. Осоргина // *Филологические науки. Вопросы теории и практики*. – 2013. – № 9 (27). – С. 45–48.
4. **Бурмистрова Ю. Д.** «Стихотворения в прозе» И. С. Тургенева: заглавие цикла как историко-литературная проблема // *Вестник РУДН. Серия: Литературоведение. Журналистика*. – 2020. – Т. 25, № 4. – С. 565–576.
5. **Ливская Е. В.** Поэтика заглавий автора «Поэтики заглавий» С. Д. Кржижановского // *Концепт*. – 2014. – № 10.
6. **Ли Лицунь.** *Структура, семантика и прагматика заглавий художественных произведений.* – Москва, 2016. – 182 с.

4-5-SHO‘BA

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

ZAMONAVIY PEDAGOGIKA: INNOVATSIYON YONDASHUVLAR

OLIY TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNING INTEGRATIV MODELI: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna

FarDU professori, pedagogika fanlari doktori

baxtixon78@gmail.com

+998-93) 648 54 76

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishning integrativ modeli tahlil qilinadi. Pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida inklyuziv muhitni shakllantirish, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalarida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integrativ model, pedagogik-psixologik yondashuv, oliy ta'lim, inklyuziv muhit, strategiya, kompetensiya.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli modernizatsiya jarayonlarida inklyuziv ta'limni qo'llash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, UNESCOning "Ta'lim hamma uchun" dasturi va milliy normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojga ega yoshlar, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand guruhlar hamda turli madaniy qatlam vakillari uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ta'lim jarayonida tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Inklyuzivlikning keng joriy etilishi, xalqaro olimlar fikriga ko'ra (Ainscow, Booth, Florian), ta'lim tizimini demokratiklashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va salohiyatli kadrlar tayyorlashda muhim metodologik platformani tashkil etadi.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy-gumanistik pedagogika tamoyillariga asoslangan bo'lib, ta'lim oluvchilar o'rtasidagi individual farqlarni kamchilik emas, balki rivojlantiruvchi omil sifatida talqin etadi. UNESCO ta'rifiga ko'ra, inklyuziv ta'lim har bir shaxs uchun ta'lim olish teng imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan yangilangan ta'lim modeli hisoblanadi.

Oliy ta'limda inklyuzivlik quyidagi asosiy tamoyillarni qamrab oladi: teng imkoniyatlar tamoyili; moslashuvchan o'quv dasturlarini joriy etish; universallik, ya'ni o'quv muhiti barcha talabalar uchun ochiqligi; ijtimoiy integratsiya va muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv.

Ainscowning ta'kidlaganidek, inklyuziv ta'lim tizimi nafaqat maxsus ehtiyojga ega shaxslar uchun, balki barcha ta'lim oluvchilar uchun insonparvar, bag'rikeng va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim makonini shakllantiradi.

Inklyuziv ta'limning integrativ modeli oliy ta'lim jarayonining pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini o'zaro uyg'un holda rivojlantirishni talab etadi. Avvalo, pedagogik komponent doirasida o'qituvchilarning inklyuziv pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Florian hamda Black-Hawkins tadqiqotlarida qayd etilganidek, pedagog kadrlar zamonaviy inklyuziv metodikalarni puxta egallagan taqdirda, har bir talabaning ehtiyojiga mos ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyati keskin ortadi. Buning uchun adaptiv, modulli va differensial yondashuvga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan keng foydalanish, AKT vositalari va vizual-didaktik resurslar orqali o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash, talabaning shaxsiy o'sishini rag'batlantiruvchi formatif baholash tizimini joriy etish talab etiladi.

Buning bilan bir qatorda, psixologik komponent inklyuziv ta'limning barqaror samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Talabalar uchun doimiy psixologik maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yish, ularning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlash, o'quv motivatsiyasini yuksaltirish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarur. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko'ra, shaxsning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlov resurslariga ega bo'lishi uning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi omildir. Shu sababli stressga bardoshlilik va moslashuvchanlikni shakllantiruvchi psixologik intervensiyalar inklyuziv ta'limda muhim metodik vazifa hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy komponent inklyuziv muhitni shakllantirish jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Akademik hamjamiyatda tolerantlik, empatiya va bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish orqali har bir talaba o'zini bahramand, qadrlangan va jamoaning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi. Ta'lim jarayonida hamkorlikka asoslangan o'qitish strategiyalarini joriy etish kommunikativ o'zaro ta'sirni kuchaytiradi va ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Shuningdek, davlat tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, nodavlat sektor va xalqaro hamkorlar ishtirokidagi qo'llab-quvvatlov tizimini kuchaytirish inklyuziv ta'limning institutsional jihatdan barqaror tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Vygotskiy ta'kidlaganidek, shaxsning ijtimoiy muhit bilan interaksiyasi uning psixologik va intellektual kamolotida muhim o'rin tutadi.

Inklyuziv ta'lim insonparvarlik paradigmasiga tayangan holda: shaxs qadri-qimmatini va huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi; ta'lim oluvchining imkoniyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi; individual farqlarni ijobiy resurs sifatida baholaydi.

Mazkur yondashuv talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi: kommunikativ kompetensiya; ijtimoiy faollik va liderlik; mustaqil ta'lim olish va o'zini rivojlantirish strategiyalari; kasbiy o'zini identifikatsiya qilish.

Bruner fikriga ko'ra, ta'lim mazmuni shaxsning faol bilish jarayoniga moslashtirilganda, uning kognitiv rivoji eng yuqori natijalarga erishadi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Inklyuziv ta'limni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish jarayonining samaradorligini ta'minlash maqsadida bir qator strategik yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur. Avvalo, kadrlar salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'nalish o'qituvchilarni inklyuziv pedagogika va maxsus ta'lim metodikasi bo'yicha muntazam ravishda malaka oshirish, psixologik-pedagogik treninglar tashkil etish orqali pedagogik jamoaning inklyuziv kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish sifatida ta'lim muhiti va infratuzilmani moslashtirish ko'zda tutiladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun pandus va liftlar o'rnatish, braille alifbosidagi o'quv materiallarini tayyorlash, eshitishda nuqsoni bo'lganlar uchun subtitrlar ta'lim kontentlarini yaratish, shuningdek, yordamchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim jarayoni hamma uchun qulay bo'lishi ta'minlanadi. Shuningdek, monitoring va tahlil tizimini yo'lga qo'yish ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, inklyuziv ta'lim samaradorligini muntazam baholash, maxsus indikatorlar asosida diagnostika o'tkazish hamda olingan natijalarga tayangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab etadi. Bu jarayon inklyuzivlikning real ta'sirchanlik darajasini aniqlash va tizimni doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish sifatida hamkorlikni kengaytirish ko'rsatib o'tiladi. Xalqaro tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha tajriba almashinuv, yangi metodikalar transferi hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi. Ushbu strategiyalar tizimli qo'llanganda inklyuziv ta'limning barqarorligi, samaradorligi va makon sifatida jozibadorligi oshadi.

Inklyuziv ta'limning integrativ modeli O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarishning muhim omili hisoblanadi. Pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining uyg'unlashuvi har bir talabaga o'z salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini yaratuvchi samarador muhitni shakllantiradi. Inklyuziv ta'limni strategik darajada rivojlantirish respublikaning global ta'lim maydoniga

integratsiyalashuvini jadallashtiradi va raqobatbardosh inson kapitali yaratishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ainscow, M. (2020). Promoting inclusion and equity in education: Lessons from international experiences. London: Routledge.
2. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). The Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools. Bristol: CSIE.
3. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828.
4. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge: Harvard University Press.
6. UNESCO. (2009). Policy guidelines on inclusion in education. Paris: UNESCO.
7. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York: UN Publishing Service.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SAVOD O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Akbarova Feruzaxon Adxamovna

Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari
kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sing o‘quvchilariga o‘qish va yozishni o‘rgatishda savod o‘rgatish davrining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: tovush, harf, bo‘g‘in, savod o‘rgatish, analitik-sintetik tovush metodi, o‘qish va yozish ko‘nikmasi, nutqqa oid malaka.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Til jamiyat a‘zolarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta‘sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o‘zaro munosabati, his-tuyg‘ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini

chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qish, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga aylantiriladi. O'qish va yozish malakasi nutqqa oid malaka hisoblanadi. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Yozuvda o'quvchi tovushni harfga, o'qishda esa harfni tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o'qish va yozish parallel olib boriladi. O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. Bu metodga dastlab pedagog olim Ushinskiy tomonidan asos solingan. Bu metodda so'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli – o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unilardan boshlanadi. Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan **e** tovushi so'ng undoshdan keyin keladigan **e** tovushi o'rgatiladi. **O** harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan **o** tovushini ifodalaydi. Ruscha – internasional so'zlarda urg'usiz bo'g'inda **a** tarzida (kalxoz), **o'** tovushi kabi (to'nna), qisqa **i** tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi harf birikmasi. 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilanadi. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

Alifbo davri sonor – ovozli (ovozdor) tovushlarni o'rgatishdan boshlanadi. Lekin **ng** sonor undoshi **n** va **g** undoshi tovush harfi bilan tanishtirilgach o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirrog'ida o'rganiladi. **J** harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Savod o'rgatish jarayonidayoq harfning 4 xil shakli (bosma, yozma, bosh va kichik) o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalanilsa, sekin-asta orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga

bo'lish, bo'g'in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo'g'inlarni farqlashga o'rgatish muhim sanaladi.

O'qish ham yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi harfni eslab qo'shguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi-da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi.

Yozuvga o'rgatish o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e'tibor bilan boshlanadi. Ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligi mo'ljallanishi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizikultura mashqlarini o'tkazishni taqozo qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Q. Abdullaeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1996.
2. A. Rafiev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. -T.: 2003.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. -T.: O'qituvchi, 1992.

ADABIYOT FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Maxkamova Shahloxon Oxunjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi — ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ko'rishlarini chuqurlashtirishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada "kasbiy kompetentlik" tushunchasining nazariy jihatlarini, adabiyot fanini o'qitishda o'qituvchilarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish usullari ko'rib chiqildi. O'qituvchilarning shaxsiy-holdiq, metodik, mazmuniy hamda axborot-texnologik kompetensiyalari, ularni takomillashtirishning tashkiliy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Muomala bosqichida xalqaro tadqiqotlar va amaliy tajribalardan foydalanildi. Xulosa qilinsa, adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirish uchun kompleks strategiya zarurligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik; o'qituvchi; adabiyot fani; metodik kompetensiya; pedagogik kompetensiya; shaxsiy kompetensiya; raqamli (axborot-texnologik) kompetensiya; professional rivojlanish.

Аннотация: Вопрос развития профессиональной компетентности преподавателей литературы имеет важное значение для повышения эффективности учебного процесса, а также для углубления знаний, умений и навыков учащихся. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты понятия «профессиональная компетентность», а также методы формирования и развития компетентности преподавателей при обучении литературе. Проанализированы личностно-деятельностные, методические, содержательные и информационно-технологические компетенции преподавателей, а также организационные и практические аспекты их совершенствования. В исследовании использованы данные международных исследований и практического опыта. В заключение делается вывод о необходимости комплексной стратегии для систематического развития профессиональной компетентности преподавателей литературы.

Ключевые слова: профессиональная компетентность; преподаватель; предмет литературы; методическая компетенция; педагогическая компетенция; личностная компетенция; цифровая (информационно-технологическая) компетенция; профессиональное развитие.

The issue of developing the professional competence of literature teachers plays a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process and

deepening students' knowledge, skills, and abilities. This article examines the theoretical aspects of the concept of "professional competence," as well as methods for forming and developing teachers' competence in the process of teaching literature. The study analyzes teachers' personal, methodological, content-related, and digital (information-technological) competencies, along with organizational and practical approaches to their improvement. International research findings and practical experiences were utilized in the discussion stage. The article concludes that a comprehensive strategy is essential for the continuous development of literature teachers' professional competence.

Keywords: professional competence; teacher; literature subject; methodological competence; pedagogical competence; personal competence; digital (information-technological) competence; professional development.

Kirish

XXI asr ta'limining o'ziga xos xususiyati — tezkor ijtimoiy, texnologik va didaktik o'zgarishlarning amalga oshuvi. Bu jarayonda o'qituvchining roli passivdan faolga o'zgardi: faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi, muhit yaratish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi shaxsga aylandi. Shu munosabat bilan, o'qituvchilar uchun "kasbiy kompetentlik" tushunchasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Kompetentlik — o'zgaruvchan kontekstda murakkab pedagogik vazifalarni hal qilish uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlarni birlashtira oladigan salohiyatdir.

Adabiyot fani o'qituvchilari ayniqsa ko'p jihatdan majburiyatga ega: ular nafaqat adabiy matnni tushuntirish, balki madaniy-axloqiy, tilshunoslik va estetik jihatlarni ham o'quvchilarga etkazadilar. Shuning uchun adabiyot o'qituvchisi uchun kompetentlik bir necha yo'nalishda bo'lishi lozim — mazmuniy (adabiyotni bilish), metodik (o'qitish usullari), pedagogik (o'quvchilarning o'zligini hisobga olgan tarzda), shuningdek raqamli va tadqiqotchilik jihatlari.

Mazkur maqolada adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-analitik tahlili, muammo va takliflari ko'rib chiqiladi.

Tahlil va muhokama

Kasbiy kompetentligining kontsepsiyasi

"Kompetentlik" tushunchasi turli kontekstlarda turlicha talqin etiladi; o'qituvchilarning kompetentligini aniqlashda bilim, ko'nikma va qadriyatlar birgalikda ko'riladi. Masalan, Jentsch va König va boshq. tomonidan o'qituvchilar kompetentligining kognitiv va affektiv-motivatsion komponentlari alohida shaklda ko'rib chiqilgan. Unda kompetentlik — kontekstga mos ravishda turli resurslarni mobilizatsiya qilish salohiyati deb belgilanadi.

Bundan tashqari, kompetentligining rivojlanishi — statik holat emas, balki dinamik jarayon ekanligi ta'kidlanadi. "Situatsiyaga bog'liqligi", "amalga

yo‘naltirilganligi”, “shaxsiy va professional identifikatsiyani o‘z ichiga olishi” kabi atributlari ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan, adabiyot fani o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetentligini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin:

- **Mazmuniy–fan kompetensiyasi** — adabiyot nazariyasi, tarixiy kontekst, janr, til va uslub jihatlari, matn tahlili va b. bo‘yicha bilim.

- **Metodik kompetensiya** — darsni loyihalash, interaktiv usullar, o‘quvchilarning turli tipdagi o‘zlashtirishlarini qo‘llab-quvvatlash, baholash usullari.

- **Pedagogik va shaxsiy kompetensiya** — o‘quvchilar bilan munosabat, klass rahbarligi, motivatsiyani shakllantirish, refleksiya, professionalrizikos.

- **Axborot-texnologik va tadqiqotchilik kompetensiya** — raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, tadqiqot asosida dars yuritish.

Adabiyot fani o‘qituvchilarida kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligiga ichki va tashqi omillar ta’sir etadi (Syarifah & Kadi, 2022). Masalan, ichki omillar — pedagogik ishtiyoq, tashkilotivlik, shaxsiy refleksiya, o‘zini takomillashtirishlar; tashqi omillar esa — maktab muhiti, rahbariyat qo‘llab-quvvatlashi, malaka oshirish imkoniyatlari, texnologik resurslar.

Tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatadiki: o‘qituvchilarning pedagogik mazmuniy bilimlari, o‘qitishga bo‘lgan ishtiyoqi va o‘zini boshqarish qobiliyati dars sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. COVID-19 davrida esa o‘qituvchilarning raqamli ta’lim vositalarini samarali qo‘llash malakasi kasbiy kompetentligiga muhim omil bo‘ldi.

Ayniqsa o‘qituvchining “qiyinchiliklarga chidamliligi” (adversity quotient = AQ) va “tashabbuskorligi” o‘qituvchining OCB (organizational citizenship behaviour) orqali kasbiy kompetentligiga kuchli ta’sir etishini ko‘rsatgan tadqiqot ham mavjud.

Adabiyotga xos holda: adabiyot fani o‘qituvchisida yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘shimcha sharoitlar mavjud — matnning madaniy-tarixiy qirralari, til-uslub jihatlari, o‘quvchilarning ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi. Shuning uchun metodik jihatlarni yangilash (masalan, interaktiv o‘qitish, ekskursiyalar, loyihaviy ishlar) va darsga raqamli resurslarni joriy etish muhim.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari

Adabiyot fani o‘qituvchilari uchun kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. **Doimiy malaka oshirish** — seminar, treninglar orqali metodik va axborot-texnologik yangilanish. Masalan, o'qituvchilarni interaktiv metodlar, elektron matnlar bilan ishlash bo'yicha tayyorlash kerak. Tadqiqotlardan biri ta'kidlaydiki, malaka oshirish dasturi o'qituvchilarning pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini oshirishda muhim.

2. **Refleksiv amaliyot** — o'qituvchining o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishi, dars jurnalini yuritishi, tajribani yozma qayd etishi. Bu tajriba, xatolar va muvaffaqiyatlardan o'rganishni ta'minlaydi.

3. **Hamkasblar bilan tarmoqlanish va “amal jamiyati” (community of practice)** — o'qituvchilar o'zaro tajriba almashishi, mentorlik, kuzatish-tahlil qilish jarayonlari orqali o'sadi.

4. **Raqamli vositalarni integratsiyalash** — adabiyot darslarida multimedia, onlayn forum, elektron kutubxona, interaktiv testlar va h.k. qo'llash orqali o'qituvchilarning qiziqishini oshirish va o'qituvchining kompetentligini kengaytirish mumkin.

5. **Ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish** — o'qituvchining motivatsiyasi, stressga chidamliligi, tashkilotchilik qobiliyati va kasbiy xulq-atvori kasbiy kompetentligiga ta'sir qiluvchi jihatlardir. [PMC](#)

6. **Mazmuniy yangilanish** — adabiyot nazariyasi, o'qituvchilarning ehtiyojlari, o'zgarayotgan til-madaniyat muhitiga moslashish. O'qituvchi yangi o'qitish metodlari, yangi adabiy yo'nalishlar, interseksional yondashuvlar bilan tanish bo'lishi kerak.

Muammolar va cheklovlar

Amaliyotda ko'plab adabiyot fani o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar aniqlangan:

- “Malaka oshirish” dasturlari ko'pincha sath jihatdan an'anaviy bo'lib, o'qituvchilarni zamonaviy raqamli vositalar bilan samarali tayyorlashga yetarli emas.

- Tashkiliy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi — maktab rahbariyati, rahbarlik, resurslar yetishmasligi o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishni cheklaydi.

- Shaxsiy vositalar va motivatsiyaning pastligi — o'qituvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ikkinchi darajali intilishlari kam bo'ladi.

- Raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik — o'qituvchilar ko'p hollarda axborot-texnologiyalardan foydalanishda qiyinchilik sezadi.

- Adabiyot faniga xos jihatlar — ko'rinishi jihatdan boshqa fanlardan farq qiladi: adabiy-madaniy, til-uslub jihatlari chuqur bo'lgani uchun o'qituvchilar keng metodik tayyorgarlikni, didaktik innovatsiyalarni muntazam qo'llashga ehtiyoj sezadilar.

Masalan, tadqiqotlarda o'qituvchilarning kompetentligiga ta'sir etuvchi motivatsiya va shaxsiy xususiyatlar aniqlangan.

Adabiyot fani o'qituvchilari kompetentligini rivojlantirishda takliflar

- Maktab ichida “metodik hamjamiyat” tashkil qilish — adabiyot fani o'qituvchilari haftalik yoki oylik ravishda tajriba almashish, dars amaliyoti tahlili, fokus-guruhlar orqali ishlashlari lozim.
- Darsni rejalashtirishda raqamli komponentlarni (masalan, elektron matnlar, onlayn muhokamalar, blog-lash) kiritish. Bu nafaqat o'quvchilarni jalb qiladi, balki o'qituvchining axborot–texnologik kompetensiyasini ham oshiradi.
- Kasbiy malaka oshirish dasturlarini moslashtirish — adabiyot fani uchun maxsus modul (masalan, “adabiyot va media”, “matn va tahlil: zamonaviy usullar”, “darsni interaktiv tashkil etish”) rivojlantirish.
- O'zini-o'zi baholash va refleksiya jurnali yuritish. Har bir o'qituvchi darslardan so'ng qisqa refleksiya qilishi, tajribani yozib borishi va keyingi darsni shu asosda takomillashtirishi maqsadga muvofiq.
- Mentorluk va kuzatuv-tahlil tizimini yaxshilash — tajribali adabiyot o'qituvchilari yangi o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashi, darslarini kuzatishi va maslahat berishi.
- Rahbarlik darajasida qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish — maktab ma'muriyati o'qituvchilarning zamonaviy metodik markazlar, elektron resurslar va professional rivojlanishga ajratilgan vaqt bilan ta'minlanishini tashkil etishi zarur.
- O'quvchilarning ehtiyojlari va kontekstga mos ravishda darslarni moslashtirish — adabiyot fani darslari ham o'quvchilarning digital odatlari, multimedia talablari va madaniy kontekstini hisobga olgan holda tashkil etilishi muhim.

Xulosa

Adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish — ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning individual va ijodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim yo'nalishidir. Mazkur maqolada kompetentligini nazariy jihatdan aniqlash, unga ta'sir etuvchi omillar va rivojlantirish usullari ko'rib chiqildi. Kompetentligini shakllantirish bir tomonlama emas; u mazmuniy, metodik, pedagogik va axborot-texnologik komponentlarni birlashtirgan jarayondir.

Adabiyot fani kontekstida o'qituvchining metodik yangilanishga moslashuvi, raqamli vositalarni qo'llay olishi, o'quvchilarning turli tipdagi ehtiyojlarini hisobga olgani va hamkasblar bilan hamkorlik qilishlari ayniqsa muhim. Shu bilan birga, maktab, maktab rahbariyati va ta'lim siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash muhitining yaratilishi ham kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida adabiyot fani o'qituvchilari uchun maxsus kompetensiyalarni aniqlovchi ramka ishlab chiqish, kompetentligini baholash vositalarini takomillashtirish va malaka oshirish dasturlarini mazmun jihatdan boyitish tadqiqot mavzularidan biri bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, N. "O'zbekiston ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari." *Ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 2023, №4, – B. 25–31.
2. Abdullayeva, D. "O'qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar." *Pedagogik mahorat ilmiy jurnali*, 2022, №2, – B. 44–49.
3. Jo'rayeva, S. "Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'qituvchi kompetentligiga ta'siri." *Axborot texnologiyalari va ta'lim*, 2024, №1, – B. 55–62.
4. Tursunov, A. "Yosh o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omillari." *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 2021, №5, – B. 70–77.
5. Eshonqulova, M. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini oshirish." *Innovatsion ta'lim jurnali*, 2023, №3, – B. 15–21.
6. Xudoyberdiyev, B. "Pedagogik kompetensiya va kreativ yondashuvlarning ta'lim sifatiga ta'siri." *Ma'naviyat va ma'rifat*, 2022, №6, – B. 28–34.
7. G'afforova, N. "O'qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirishda xalqaro tajriba." *O'zbekiston ta'limi*, 2023, №2, – B. 40–47.
8. Abduvaliyeva, Z. "Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik psixologiyaning o'rni." *Psixologiya va ta'lim jurnali*, 2024, №1, – B. 18–24.
9. Ergasheva, M. "O'qituvchi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli." *Ta'lim islohotlari amaliyoti*, 2022, №5, – B. 53–59.
10. Raxmonov, O. "Pedagogik faoliyatda innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi." *Ilm va innovatsiyalar jurnali*, 2024, №2, – B. 33–40.

VIZUAL MATERIALLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti
diloromsobirovagmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida vizual materiallar asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodik

asoslari ochib beriladi. O'qish savodxonligi tarkibini tashkil etuvchi omillar, vizual ta'lim vositalarining axborotni idrok etish va matn mazmunini tushunishga ta'siri ilmiy manbalar asosida asoslanadi. Shuningdek, o'quvchilar nutq va tafakkur rivojiga yo'naltirilgan innovatsion texnologik yondashuvlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, vizual materiallar, boshlang'ich ta'lim, idrok, matn tahlili, metodik texnologiya.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirish ularning keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Xalqaro pedagogik hamjamiyat, xususan PISA baholash dasturida, o'quvchining matndan zarur ma'lumotlarni izlab topish, mazmunni to'g'ri anglash, asosiy g'oya va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, shuningdek, axborotni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish kompetensiyalari eng muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan ta'limda vizual materiallardan foydalanish nafaqat didaktik vosita, balki kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi kuchli texnologik mexanizm hisoblanadi.

Kognitiv psixologiya fanida olib borilgan tadqiqotlar boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida vizual stimullar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. L.S.Vygotskiy o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasida tasvir orqali idrok qilinadigan ma'lumot bola ongida tezroq aks etishini va bu jarayon uning yaqin rivojlanish zonasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan. Unga ko'ra, ko'rgazmali vositalar bolalarning tasavvuri va tilda ifodalash qobiliyatini qo'llab-quvvatlab, semantik anglashni kuchaytiradi.

J.Brunerning representatsiya nazariyasi esa tasviriy, ikonografik ifoda shakli kichik yoshdagi o'quvchilar tafakkurining yetakchi bosqichi ekanligini ta'kidlaydi. Brunerning fikricha, vizual obrazlar orqali taqdim etilgan bilim miyaning assotsiativ tizimini faollashtirib, ma'lumotlarni yodda saqlash davomiyligini oshiradi.

R.Mayerning multimodal o'rganish modeli bo'yicha esa informatsiya ikki kanal orqali: vizual-kognitiv va auditiv nutq kanali orqali qabul qilinganda, semantik strukturalash yanada samarali kechadi. Bu esa o'quvchining kognitiv yuklamasini kamaytirib, mazmunni tahlil qilish va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, A.Paivioning ikki tomonlama kodlash nazariyasi ham tasvir va so'z orqali berilgan axborot birgalikda miyaga yetkazilganda ma'lumotni qayta ishlash jarayoni tezlashishini isbotlaydi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, vizual obrazlar va lingvistik belgilar o'rtasidagi sinergiya xotira izlarini mustahkamlaydi va bilimlar transferini osonlashtiradi.

Klassik didaktik tamoyillarni rivojlantirgan Y.A.Komenskiy ham ta'limda ko'rgazmalilikning ahamiyatini alohida qayd etgan. Uning ta'kidlashicha, bolaning idroki avvalo sezgi organlari orqali rivojlanadi va tasvirlar haqiqatning konkret modelini taklif etganligi sababli bilimni ongda mustahkam joylashtiradi.

Zamonaviy neyropsixologik izlanishlar (M.Posner, S.Dehaene) esa vizual stimullar miyaning prefrontal va oksipital sohalarida faol neyron aloqalarini shakllantirib, matn mazmunini tez anglash va muhim axborotni filtrlash tizimini kuchaytirishini tasdiqlamoqda.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar umumlashmasi shuni ko'rsatadiki: tasvirga asoslangan idrok bolaning fikrlash jarayonini yo'nalganlik bilan tashkil etadi; semantik anglashni tezlashtiradi; tahliliy operatsiyalarni faollashtiradi; kognitiv yuklama optimal chegarada saqlanadi; motivatsiya va o'quv faoliyatiga qiziqishni oshiradi. Demak, obrazli fikrlash ustuvor hisoblangan boshlang'ich sinf davrida ta'lim mazmunini vizual shaklda tashkil etish o'quvchining mantiqiy, lingvistik va metakognitiv salohiyatini izchil rivojlantiruvchi didaktik hamda psixologik asoslangan yondashuvdir.

Vizual materiallar asosida o'qish savodxonligini rivojlantirish quyidagi ilmiy asoslangan mexanizmlarga tayangan holda amalga oshadi:

1. Perseptiv-kognitiv mexanizm. Tasvir va matnning uyg'unligi idrok jarayonining murakkablashuviga emas, balki soddalashuviga xizmat qiladi, chunki o'quvchi matn kontekstini mavjud vizual belgilar orqali tez yechadi.

2. Assotsiativ-iktisodiy mexanizm. Tasvirlar o'quvchi ongida mavjud bilimlar bilan bog'lanib, yangi mazmunni qabul qilishni osonlashtiradi.

3. Metakognitiv nazorat. O'quvchi o'qish strategiyalarini tanlash, kuzatish va baholash imkoniga ega bo'ladi, natijada mustaqil o'qish qobiliyati shakllanadi.

4. Motivatsion-emotsional ta'sir. Vizual ta'lim materiallari darsning qiziqarli tashkil etilishiga xizmat qiladi, o'qishga ijobiy munosabat shakllanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, vizual materiallar o'qitish jarayonida faqat tasviriy ko'mak sifatida emas, balki axborot manbai, mazmunni model qilish vositasi va fikrlash operatsiyalarini yo'naltiruvchi stimulyator vazifasini bajaradi. Demak, vizual ta'lim texnologiyasi o'quvchini bilimning tayyor iste'molchisi emas, balki faol ongli subyekti sifatida shakllantiradi.

Vizual materiallarga asoslangan ta'lim: o'quvchilarning nutqiy va tafakkur salohiyatini sinergiyali rivojlantiradi; mazmunni semantik qayta ishlash jarayonini osonlashtiradi; o'quv jarayonini samarali, qiziqarli hamda kognitiv faol bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois ushbu texnologiyani boshlang'ich ta'limning asosiy metodik komponenti sifatida tizimli ravishda joriy etish, uni raqamli ko'rinishda takomillashtirish va diagnostik mezonlarini ilmiy asoslash pedagogik va psixologik tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L. S. *Myshlenie i rech.* Moskva: Labirint, 2001. 352 b.
2. Bruner J. *Kulturologicheskie osnovy obucheniya.* Moskva: Prosveshchenie, 2017. 298 b.
3. Mayer R. E. *Multimedia Learning.* New York: Cambridge University Press, 2009. 321 p.
4. Paivio A. *Mental Representations: A Dual Coding Approach.* Oxford: Oxford University Press, 2014. 409 p.
5. Posner M. I., Rothbart M. K. *Educating the Human Brain.* Washington: American Psychological Association, 2007. 256 p.
6. Dehaene S. *Reading in the Brain: The New Science of How We Read.* New York: Penguin Books, 2010. 388 p.
7. Нурмухамедова Р. Б. *О'qish savodxonligi: nazariya va amaliyot.* Toshkent: O'qituvchi, 2022. 210 b.
8. Ўзбекистон Республикаси Халқ та'лими вазирлиги. *Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS.* Toshkent, 2020. 45 b.

O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QUVCHILARDA AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Xudoyberdiyeva Nodirabegim Alisher qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://nodiraxudoyberdiyevagmail.com>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar yordamida o'quvchilarda axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, interfaol pedagogik texnologiyalar axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirishdagi rolga ilmiy yondashuvlar asosida talqin berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy kompetensiya, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, shaxs rivoji, hamkorlik pedagogikasi, kommunikativ ko'nikmalar.

Ta'limni insonparvarlik qadriyatlari asosida tashkil etish jamiyat taraqqiyotining strategik omili hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda axloqiy kompetensiyani shakllantirish ularning shaxs sifatida kamolga yetishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur kompetensiya o'quvchining axloq normalarini

tushunishi, ijtimoiy vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini ongli tartibga solishi, boshqalarga hurmat va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi bilan ifodalanadi.

Psixologiya fanida L.S.Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasiga ko'ra, shaxsning axloqiy ongini shakllantirish jarayoni ijtimoiy aloqalar vositasida amalga oshadi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari asosida, bola kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik qilgan holda axloqiy me'yor hamda qadriyatlarni faol o'zlashtiradi. Vygotskiy ta'kidlashicha, ijtimoiy muloqot orqali hosil bo'lgan axloqiy bilimlar ichki psixik tizimga ko'chadi va shaxs xulq-atvori uchun boshqaruvchi omilga aylanadi.

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi esa shaxsning xatti-harakati ko'pincha kuzatish orqali o'zlashtirilishini asoslaydi. Olim tomonidan ilgari surilgan modellashtirilgan o'rganish tamoyiliga muvofiq, o'quvchilar atrofdagilar xulqini baholaydi, ijobiy namunalarni ichki standart sifatida qabul qiladi va ularni ijtimoiy vaziyatlarda qayta takrorlaydi. Bandura fikricha, maqto'v, rag'bat yoki tanqid kabi tashqi signallar axloqiy qarorlar qabul qilish motivatsiyasini kuchaytiradi va natijada ijtimoiy javobgarlik barqarorlashadi.

J.Bruner esa bilimni faol konstruksiyalash jarayoniga katta urg'u beradi. Uning konstruktivistik modelida ta'lim jarayoni mazmunni tayyor shaklda qabul qilish emas, balki ijtimoiy muloqot orqali uni ma'noli qayta qurish sifatida talqin etiladi. Bruner izohlagan refleksiv fikrlash jarayoni o'quvchilarga axloqiy tanlovlarni ongli baholash, turli nuqtai nazarlar o'rtasida asosli qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

Mazkur nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axloqiy kompetensiya shunchaki bilim yig'indisi emas, balki shaxsning ijtimoiy muhit bilan izchil o'zaro aloqasi natijasida tarkib topuvchi murakkab psixologik tuzilmadir. O'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish: o'quvchilarni faol subyekt sifatida ijtimoiy rollarda ishtirok etishga chorlaydi; muomala va hamkorlik tajribasi orqali ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi; axloqiy mas'uliyatning shakllanishiga zamin yaratadi. Demak, ta'limning tarbiyaviy samaradorligini oshirish uchun real hayotiy vaziyatlar modellashtiriladigan, dialog va hamkorlikka asoslangan interfaol metodlar zarur metodik shart sifatida talqin etiladi.

Axloqiy kompetensiyaning strukturaviy modeli quyidagi komponentlar orqali talqin etiladi:

Aksial qadriyatlar tizimi: halollik, adolat, hurmat, mas'uliyat, bag'rikenglik kabi universal xulqiy mezonlarni anglash.

Normativ tartibga rioya qilish: sinf jamoasida qabul qilingan qoidalarga amal qilish, ijtimoiy rollarni to'g'ri bajarish.

Refleksiv baholash: o'z xatti-harakatlarini baholash, xatoni anglash va tuzatishga intilish.

Muloqot madaniyati: empatiya, hamkorlik, konstruktiv dialog olib borish.

Mazkur komponentlarning integrativ namoyon bo'lishi o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligi va axloqiy yetukligini ta'minlaydi. Interfaol ta'lim texnologiyalari quyidagi pedagogik imkoniyatlari bilan ajralib turadi: o'quvchini bilim subyekti sifatida faol ishtirokchi maqomiga olib chiqadi; jamoaviy faoliyat natijasida ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi; o'quvchilar o'z fikrini asoslashga o'rganadi; hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali axloqiy tanlovlar mashq qilinadi.

Amaliyotda ko'p qo'llaniladigan quyidagi metodlar axloqiy rivojga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

Interfaol metodlar o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish orqali ularning axloqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, "rol o'ynash" texnologiyasi o'quvchilarni ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlaydi, ular turli ijtimoiy rollar mazmunini his etadi hamda o'z harakatlari uchun mas'uliyatni anglay boshlaydi. Mazkur metod orqali o'quvchilar real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish yo'li bilan empatiya va ijtimoiy javobgarlikni egallaydi.

"Bahs-munozara" metodida esa o'quvchilar qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilish orqali tolerantlikni, ya'ni turli nuqtai nazar egalari bilan konstruktiv muloqot qila olish madaniyatini o'zlashtiradi. Ushbu jarayon axloqiy qarorlar qabul qilishda dalillarga asoslanish va boshqalar fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, "keys-stadi" usuli o'quvchilarni real hayotga yaqin bo'lgan axloqiy muammolarni tahlil qilish va ular bo'yicha oqilona yechim topishga o'rgatadi. Bu jarayonda o'quvchilar axloqiy tanlovlarning ijtimoiy oqibatlarini ongli idrok qiladi va mas'ul qaror qabul qilishga tayyorlanadi.

"G'oyalar generatsiyasi" metodidan foydalanish o'quvchilarni ijodiy izlanish va refleksiv fikrlashga yo'naltiradi. Muammoli vaziyatlar bo'yicha turli fikrlar ilgari surilishi o'quvchilarda mustaqil mulohaza yuritish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish hamda axloqiy mezonlarga ko'ra baholash malakasini shakllantiradi.

"Debat" texnologiyasi esa dolzarb axloqiy mavzular bo'yicha asosli pozitsiya egallashni talab etadi. Bu metod o'quvchilarda dalillashga asoslangan fikr bayon qilish madaniyatini rivojlantiradi, shuningdek, axloqiy qadriyatlarni tanlashda ongli yondashuvni kuchaytiradi.

Umuman olganda, ushbu metodlar o'quvchilar ongining faollashuviga, ijtimoiy tajribaning boyishiga, mustaqil va tanqidiy fikrlashning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ularning axloqiy kompetensiyasi izchil rivojlanib, jamoadagi xulq-atvori barqaror axloqiy me'yorlar bilan boshqariladigan darajaga yetadi.

O'quvchilar o'rtasidagi faol hamkorlik asosida quyidagi mexanizmlar ishga tushadi:

1. Identifikatsiya va modellashtirish: o'quvchi boshqalardagi ijobiy xulq namunalarini qabul qiladi.

2. Emotsional ta'sir etish: empatiya va hamdardlik orqali axloqiy qarashlar kuchayadi.

3. Motivatsion qo'llab-quvvatlash: rag'bat vositasida ijobiy xatti-harakatlar barqarorlashadi.

4. Refleksiv tahlil: har bir harakatning ijtimoiy oqibatini anglash kuchayadi.

Bandura nazariyasiga ko'ra, kuzatish orqali o'rganish ijtimoiy tajribaning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, dars jarayonidagi interaksiya o'quvchi xulqini ongli shakllantiradi.

Interfaol metodlar qo'llanilgan o'quv jarayoni o'quvchilarda axloqiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur metodlar yordamida o'quvchilar ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan fazilatlarni faol egallaydi, o'z xulqini boshqarish, jamoada ishlash va insoniy qadriyatlarni hurmat qilishni o'rganadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim amaliyotida interfaol yondashuvlar tizimli ravishda joriy etilishi pedagogik dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya va ta'lim nazariyasi. Moskva: Pedagogika, 1991. – 215–230-betlar.

2. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. – 22–45-betlar.

3. Bruner J. The Culture of Education. Cambridge: Harvard University Press, 1996. – 87–112-betlar.

4. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. – 104–121-betlar.

5. Marzano R.J. Classroom Instruction That Works. Alexandria: ASCD, 2001. – 55–79-betlar.

6. Zunnunov A. Pedagogik kompetentlik asoslari. Toshkent: Fan, 2020. – 98–117-betlar. (Kompetensiyalar modeli va tarbiyaviy jarayon samaradorligi)

7. Himmataliyev T. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 203–220-betlar.

TURLI TIZIMGA OID TILLARNING INTONATSION MODELLARI

Yormatova Yoqutxon Nurmatovna

Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: So‘nggi yillarda tilshunoslikda intonatsiya nazariyasi va uning tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning aksariyati tilning prosodik sistemasiga taalluqliligi bilan ajralib turadi. Biroq lisoniy interferensiya mohiyatida intonatsion konseptual struktura masalalariga bag‘ishlangan ishlar deyarli kuzatilmaydi. Quyida esa jahon tilshunosligida o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadigan ingliz tili intonatsion sistemasi haqidagi ayrim masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: intonatsiya, model, paradigmatic struktura, melodika, sintaktik fonetika

Har bir tilning o‘ziga xos intonatsiyasi mavjud va ular o‘zaro farqlanadi. Ohang kishiga tinglayotgan qo‘shiqni anglashga yordam bergani kabi intonatsiya ham xorijiy tilda aytilgan axborot mazmunini anglashga xizmat qiladi. Qo‘shiqda ohang o‘zgarsa, uni tushunish qiyinlashadi. Shuning uchun ham ona tilidagi intonatsion ko‘nikmani ingliz tilida muloqot qilish davomida mazkur xorijiy tilga qo‘llash vaqtida tinglovchi uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘iladi.

Ingliz intonatsiyasi o‘zining murakkabligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur intonatsiya sheva va muayyan hududlar o‘rtasida ham sezilarli darajada farqlanadi. Bu farqlanishni Britaniya va Amerika intonatsiyalaridagi farqda yaqqol ko‘rish mumkin. Mazkur holat esa bir til doirasida ichki fonetik interferensiya hodisasi deb ataladi.


Ingliz tilshunoslik maktabining yorqin namoyandalari D.Djounz, G.Suit, G.Palmer, L.Armstrong va I.Uord, R.Kingdon, J.O‘Konnor, A.Gimsonlar [1] intonatsiya doirasida ko‘plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borganlar. Nutq yoki gapni talaffuz qilish jarayonida intonatsiyaning yetakchi komponenti hisoblangan melodika ton harakati yoki ohang deb yuritiladi. Ingliz adabiy tili intonatsiyasiga oid nutq melodikasi ton yoki ohangning harakatlanishiga ko‘ra olti guruhga ajratiladi. Ular gapning melodik strukturasida joylashadi. Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda gap melodikasi va unda tonning harakati bilan bog‘liq gap turlarini intonatsion model yoki intonatsion qurilmalar deb yuritiladi. A.Hojiyev ham intonatsiyani sof lingvistik hodisa sifatida izohlaydi va asosiy e‘tiborni uning sintaktik funktsiyasiga qaratadi: “...intonatsiya lotincha *intonare* so‘zidan olingan

bo‘lib, u baland ovozda gapirmoq, talaffuz qilmoq kabi ma’nolarni ifodalashi, u nutqqa emotsional-ekspressiv bo‘yoq berish va gapda sintaktik ma’no ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik jihatdir”[2], deb hisoblaydi olim. Demak, gapning intonatsion modeli intonatsiyaning sintaktik funksiyasi bilan belgilanadi, bunday xususiyat o‘zbek tili uchun ham, ingliz tili uchun ham normativ holat hisoblanadi. Biroq muayyan suhbatdoshlardan birining turli tizimga oid til intonatsion modelini paradigmatic strukturada assotsiatsiyalanmaganligi uchun prosodik aksent yuzaga keladi. Shuning uchun ham ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rgangan o‘zbek tili sohibi nutqida prosodik interferensiya intonatsiya yoki melodika nazariyasi, ayni paytda ingliz tili melodik tarkibi amaliyoti ko‘nikmasi yo‘qligi uchun prosodik-intonatsion interferensiya yuzaga keladi. Bu fikrlar tilning prosodik sistemasida sintaktik fonetika muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi. Biz quyida ingliz tilining intonatsion sintaktik paradigmasi yoki modellarini taqdim qilamiz.

J.O‘Konnor va G.Arnold kabi tilshunoslar ingliz adabiy tili intonatsiyasi tarkibiga kiruvchi asosiy ton harakatini quyidagi olti xil modelda tasniflaydi:

1. Ingliz adabiy tili intonatsion model (rus tilshunosligida bu termin “интонационная конструкция” [3] deb yuritiladi) ida The Low Fall formulasi mavjud bo‘lib, bu formula asosida ton yoki ohangning harakatlanishi quyi, o‘rta pasayuvchi ohang modelida amalga oshiriladi. Masalan, *Why do you have to cause misery and chaos all the time?* Bu intonatsion modelga ko‘ra, ton harakati quyi yoki o‘rta gerts melodik nuqtadan boshlanib pasayuvchi ohang bilan yakunlanadi. Bu ohangni talaffuz etish jarayonida ovoz o‘rta diapazondan sekin-asta pastga tushadi. Bunda ohang fikrning tugallanganligi, qat’iyligi, jiddiyligi kabi ma’no ottenkalarini ifodalaydi. Melodikaga asoslangan ohang yoki ton harakati til hodisasiga aloqador gapning sintaksema va gramemma parametrlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Ingliz tiliga xos bo‘lgan bunday intonatsion model dastlab maxsus so‘roq gaplarda, shuningdek, darak, buyruk, undov gaplarda namoyon bo‘ladi. Bu ingliz tilidagi intonatsion modelning birinchi turidir. Intonatsion model talaffuz tajribalariga asoslangan holda ingliz tili egasi tasavvurida assotsiatsiyalanadi va grammatik model sifatida quyi, o‘rta pasayuvchi ohang tarzida idrok qilinadi. Masalan, ingliz adabiy tili intonatsion modelining birinchi shakli quyidagi diagrammada o‘z ifodasini topgan.


‘What will we ‘do to‘day? *Bugun nima qilamiz?*



2. Ingliz tili intonatsion modelining ikkinchi turida The High Fall formulasi mavjud bo‘lib, bu intonatsion qurilma modeli melodik strukturaga

tegishli ton harakatini boshqaradi. Bunda ton yoki ohangning harakati baland pasayuvchi model deb nomlanadi. Ingliz adabiy tili modelining ikkinchi turida intonatsion melodik struktura quyidagi eksperimentda o'z ifodasini topgan.


I very much 'want to 'see it. Men buni ko 'rishni juda ham xohlayman.



Bu darak gap melodikasi talaffuz jarayonida ovoz ohangini boshqaradi. Melodika ovoz bilan bog'liq holda baland yoki past ton bilan boshlanadi. Ovozning melodik harakati gapning mazmuniy strukturasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda propozitsiya tarkibi samimiylik, qiziqish, ajablanish, ba'zan norozilik va e'tiroz kabi mazmuniy strukturalar bilan boyiydi.


3. Ingliz adabiy tili intonatsion modelida The Rise Fall formulasi mavjud bo'lib, bu formula asosida ton yoki ohangning harakatlanishi ovoz diapazoni markazidan ko'tarilgan ovoz diapazoni baland nuqtaga ko'tarilib pasayadi. Ingliz adabiy tilining bu modelida melodik strukturaning o'zgarishi ovoz diapazoniga ta'sir ko'rsatadi. Natijada gap orqali ifodalangan propozitsiya semantik strukturasini turli xil ottenkalardan iborat bo'ladi. Gapning semantik strukturasini mazkur melodik harakatlanish natijasida individ munosababini ifodalashga xizmat qiladi.

"What a "lovely "day! Qanday go 'zal kun!"




4. Ingliz adabiy tilining to'rtinchi intonatsion modelida The Low Rise formulasi mavjud bo'lib, bu formula asosida ton yoki ohangning harakatlanishi quyi – ko'tarilish dan iborat bo'ladi. Bunda talaffuz jarayoni ovoz diapazonining eng past darajasidan boshlanadi va uning o'rta darajasigacha ko'tariladi. Mazkur model asosida tuzilgan umumiy so'roq gaplarda fikrning tugallanmaganligi ko'zga tashlanadi.

Are you free this afternoon? Bugun tushdan keyin bo 'shmisiz?




5. Ingliz adabiy tilining beshinchi intonatsion modelida The High Rise formulasi mavjud bo'lib, bu formula asosida gapning melodik harakati yuqori ko'tarilish tizimidan iborat bo'ladi. Bunda ovoz tor diapazon yoki keng diapazondan iborat bo'ladi. Bunday tipdagi so'roq gaplarda intonatsion takror kuzatiladi. Bu gapning melodik harakatida namoyon bo'ladi.

'How much? Narxi qancha?




'What did you say? Nima dedingiz?



6. Ingliz adabiy tilining oltinchi intonatsion modelida The Fall Rise formula mavjud bo'lib, uning melodik harakati pasayib ko'tariluvchi tizimdan iborat bo'ladi. Eksperimental intonatsion sistemada bu jarayon murakkab ohang deb yuritiladi. Melodik harakatning murakkabligi tushuvchi va ko'tariluvchi ikki qismda ko'zga tashlanadi. Avval ovoz o'rtadan yoki eng balanddan eng quyiga qadar tushadi, so'ngra o'rta diapazongacha ko'tariladi. Bu tipdagi darak gaplarda propositsiya tarkibi xabar mazmuniga asoslanadi, xabar asosida boshqa axborotlar anglanadi. Xabarga asoslangan axborotlar buyruq yoki boshqa nutqiy aktlarda bo'lishi mumkin.

'Do it today. Buni bugun bajaring.



Yuqorida qayd etilgan ingliz adabiy tiliga xos intonatsion modellarning olti turi tilning sintaktik sathiga tegishli bo'lib, talaffuz modellariga rioya qilmaslik yoki intonatsion modelning talaffuz normasidan chetga chiqishi yuz berganida sintaktik interferensiya hosil bo'ladi. Sintaktik interferensiya asosan intonatsiyaning melodik qismiga tegishli bo'lib, u intonemalarning paradigmatic buzilishi doirasida yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jones D. The pronunciation of English.-Cambridge: CUP,1909.-214 p.

2. Sweet H. A Primer of Phonetics.-Oxford: At the Clarendon Press,1906.-119 p.
3. Palmer, H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E Palmer. –Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p.
4. Ward J., Armstrong L. Handbook of English intonation.-Cambridge Heffer, 1926.-124 p.
5. Kindgon, R. English Intonation Practice / R. Kindgon. – London : Longmans, 1958. – 184 p. Kindgon, R. The Groundwork of English Intonation / R. Kindgon. – London : Longmans, Green and Co, 1958. – 272 p.
6. O'Connor, J. D. Better English pronunciation. Second edition / O'Connor, J.D. – Cambridge : Cambridge University Press. – London : Longmans, 1980. O'Connor, J. D. Intonation of Colloquial English / O'Connor J. D., Arnold G. F. – London: Longmans, 1961. – 270 p.
7. Gimson, A. C. An introduction to the pronunciation of English / A.C. Gimson. 4th ed. / rev. by Susan Ramsaran. - London [etc.] : Arnold, 1989. - XIX, 364 p.
8. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 40.
9. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 40.
10. Брызгунова, Е. А. Звуки и интонация русской речи : [для иностранцев, изуч. рус.яз.] / Е. А. Брызгунова. - 4-е изд., перераб. - Москва : Рус. яз., 1981. – 279 с. : ил.

FOLKLOR: RAMZLAR VA TIMSOLLAR

S.Xodjayev,

FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada jahon folklori namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar va timsollar tahlil қилинган.

Kalit soʻz va ibora: folklor, ertak, mif, evrilish, uchlik, ramziy uchlik, badiiy-estetik vazifa, shakl va mazmun birligi.

Dunyoning turli hududlarida yashovchi xalqlarning ertaklarida oʻxshashliklar mavjudligi haqida olimlar ancha ilgari oʻz fikrlarini aytib oʻtganlar. Misol uchun Sharl Perroning mashhur fransuz ertaklari toʻplamiga kiritilgan “Kuloyim” (“Zolushka”) voqeasi turli xalqlarning 350 yaqin ertaklarida uchraydi, ularning koʻpchiligida yoʻqolgan tuflicha yoki boshqa oyoq kiyimi ishtirok etadi. “Oltin baliq” haqidagi ertakni Hindistonning eng chekka qishloqlarida ham, Janubiy

Amerika changalzorlarda ham, Afrika savannalarida ham eshitish mumkin. Turli xalqlarningsyujeti o'xshash bo'lgan ertaklari haqida gapirilar ekan uchta asosiy hodisani ta'kidlash lozim: birinchidan, ertaklar biror bir xalqning muhitida shakllanadi va keyinchalik boshqa mamlakat xududiga ko'chadi, uning urf-odatlari, milliy xususiyatlariga moslashadi. Ikkinchidan, bir xil ijtimoiy-tarixiy rivojlanish sharoitiga ega bo'lgan turli xalqlarda bir vaqtning o'zida bir biriga o'xshash ertaklar paydo bo'lishi, va nihoyat ertaklar kitoblar orqali ham bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tishi mumkin. Ana shu jarayonda ertaklarda o'xshashlik, narsa va detallarning yaqinligi, qahramonlar miqdori va harakatlarning bir xilligi paydo bo'ladi. Ana shu o'xshashliklardan biri ertaklardagi uchlik timsolidir.

“Uchlik”- bu birliklarning turli variantlaridan tajassum topgan «uch» raqami hisoblanadi. «Uch» raqami ertaklar kompozitsiyasini belgilovchi muhim badiiy elementlardan biridir. Misol uchun «Uch og'a-ini botirlar» o'zbek xalq ertagining strukturasi an'anaviy uchlikka asoslangan va uchliklar (uch o'g'il, uch kun yo'lda bo'lish, kechani uch bo'lakka bo'lib poyloqchilik qilish, uch malika, o'g'illarga uch xovli-joy tayyorlash)ertakni boshdan-oyoq bir butun kompozitsion yaxlitlikka olib kelgan [1, 45]. Mashhur rus folklorshunos olimlar A.I.Nikiforov va V.Y.Propplar ham an'anaviy uchliklar masalasi yechimini topish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan [2, 86]. E'tibor berilsa, aka-ukalar oldiga qo'yilgan “vazifa” murakkablashib boradi, ya'ni to'ng'ich botir sherni, o'rtancha botir ajdarni, kenja botir bo'lsa biryo'la qirqta qaroqchini o'ldiradi. Og'a-inilar jasur, bir-birlariga mehribon, shunday bo'lsada asosiy ishlarni kenja botir amalga oshiradi.Podshoning qizlari bir-biridan go'zal-kattasining yuzi oyday, o'rtancha malika oy “mendan!” deb talashsa, kun “mendan!” deb talashadigan,kichik malika juda chiroyli bo'lib , bu qizga cho'lpon yulduzi cho'rilikka tayyor, uning uchun kun gul, oy esa olma terar ekan. (Kattasi go'zal, o'rtanchasi yana ham suluv, kenja qiz o'ta sohibjamol). Hindlarning “Uch shahzoda” ertagida podshoning uch o'g'li uch xil yo'l bilan otalari bergan pulni ko'paytiradilar (ikkita kattalari savdo-sotiq, kichigi mo'ysafidning maslahatiga ko'ra donni dengizga tashlab baliqlarni boqish bilan). Bu ertak Sharqda, xususan, o'zbeklarda keng tarqalgan “Yaxshilik qil – daryoga tashla, baliq bilmasa Xoliq biladi” naqlini esga soladi. Ikki katta akalarda xudbinlik bor, chunki ular o'z mablag'larini xususiy tadbirkorlikka yo'naltirishadi, kenja esa o'z ixtiyoridagi mablag'ni beminnat xayriyaga yo'naltiradi. “Oltin baliq” ertagida chol to'rga ilingan baliqdan yashash uchun eng zarur uch narsa – yegani guruch, kiygani kiyim va nihoyat, uy so'raydi. Kampirining qistovi bilan uchinchi marta baliqning oldiga borib uch marta chaqiradi, lekin endi baliq chiqib ham qo'ymaydi. Eslab ko'raylik xumdagi jin ham o'z sohibining uchta tilagini ado etadi. “Oltin tuflicha” nomli Vyetnam ertagining bosh qahramoni Mugazo uchta laqqabaliq ushlaydi, Muxalok uning qumbalig'ini uch bo'lakka bo'lib yeb qo'yadi,

kampir o'gay qizini saroyga yubormaslik uchun uch narsa: yeryong'oq, guruch va kunjutni aralashtirib yuboradi (mayda, maydaroq, juda mayda), Mugazo uchinchi palmadan yiqilib suvga cho'kib ketadi va o'z xoliga qaytish uchun uch marta evrilish sodir bo'ladi. Afrikaning kaonde xalqi ertagi «Uch kalebasa»da olamni va butun borliqni yaratgan yog'ingarchilik ma'budi Leza ilk odamlar (Mulonga va uning xotini Mvinambuzi)ga Mayimba qushidan uchta kalebasa (qop yoki idish) yuboradi va uchinchisini ochmaslikni tayinlaydi. Mayimba qushi uchinchi kalebasani ochganda uch ofat: kasalliklar, o'lim va dahshatli yovvoyi xayvonlar(sherlar, qoplonlar, zaharli ilonlar) chiqib ketadi.

“Uch yolg'ondan qirq yolg'on” o'zbek xalq ertagining fransuzcha varianti bo'lgan “Uch ovchi” ertagi ham to'liq uchlik asosiga qurilgan. Uch marta yolg'on gapirgan odam, keyin o'zini yolg'on gapirishdan tuta olmaydi. Uch ovchi bo'lgan ekan: ikkisi yalang'och, biri esa kiyimsiz. Ularning uch miltig'i bo'lgan ekan: ikkisi o'qlanmagan, birining esa o'qi yo'q. Ular tongda yo'lga tushib uch marta uzoq va undan ham uzoq yo'l yuribdilar. Ovchilar o'rmon yaqinida uch quyonni otibdilar va ularning ikkisini qo'ldan chiqarib, uchinchisini qochirib yuboribdilar. Ular yana uch marta uzoq va undan ham uzoq yo'l yurib, devorsiz, tomsiz, deraza-eshiksiz uyga kelib, uch ovchi uch marta eshikni taqillatishadi. Uyning yo'q xo'jayini uyida uchta xumchasi borligi, ulardan ikkitasining tagi yo'qligi, uchinchisi esa xech narsaga yaramasligini aytadi (Inkor inkorni inkor qiladi). Tahlilga tortilgan ushbu ertak A.Kamyuning asarlarida aks etga absurd haqidagi tushuncha va tasavvurlarni yodga soladi. Afro-amerikaliklarning «Qanday qilib Quyon og'a Tulki og'a, Bo'ri og'a va Ayiq og'ani oyni ushlashga majbur qildi» ertagida Quyon og'a o'z qo'shnilari (Tulki, Bo'ri, Ayiq og'alar)ni baliq ovlashga chaqiradi. Ayiq og'a, Bo'ri og'alar qarmoq, Tulki og'a to'r, Quyon og'a esa bir banka chuvalchang olib keladilar(3 + 1). Tulki, Bo'ri va Ayiq og'alar hovuzga tushib ketgan oyni ushlash uchun uch marta to'r tashlaydilar. Avstraliyaliklarning «Xayvonlar, qushlar va baliqlar qanday paydo bo'lgan» afsonasida olamning onasi Eyngana yerni barpo qilayotganda xayvonlar, qushlar va baliqlarni yaratishni unutib qoldirgani haqida hikoya qilinadi. Tog'lar va vodiylar, o'rmonlar va cho'llar, dengizlar va daryolar, odamlaru daraxtlar bilan bir qatorda u uch aka-ukalar: yomg'ir, chaqmoq va momaqaldiraqni ham bunyod qiladi [3, 234].

Yuqorida keltirilgan misollarga tayangan xolda aytish mumkinki, «an'anaviy uchliklar nafaqat syujet xarakatining bir qolipda sekin davom etishini ta'minlaydi», shu bilan birgalikda dunyo xalqlarida ilohiylashtirilgan uch raqami qator estetik vazifalar bajaradi. Rus olimi akademik N.I.Konradning pentatonika haqidagi fikriga [4, 32] qo'shilgan holda «Uch» sonida ham xilma-xillikning oliy holati sifatida bus-butunlik g'oyasi mujassam topgan va uchlik syujet qurilishining

hamma elementlariga daxldor bo'lganligi uchun deyarli barcha xalqlar ertaklarida uchraydi, deb aytishimiz mumkin.

Sehrli fantastik ertaklarda ko'p uchraydigan ilon obrazi hamma ko'rgan, hamma biladigan jonzot. Lekin "Ilon pari" yoki "Ilon og'a" ertagidagi ilon oddiy ilon emas, u mifologik tafakkur hosilasi bo'lgan qudratli kuchdir. Bunga ko'ra o'z sehri va jodusiga ega. Bu ertaklarning paydo bo'lishida ibtidoiy idrok, tafakkur, hissiyotning o'ziga xos bo'lgan jihatlari, ya'ni har bir zarra jonli, ongli, maqsadli degan qarash yotadi. Bu esaularni yovuz kuch sifatida ham, ezgu kuch sifatida ham ilohiylashtirishga olib kelgan. Ulardan tashqari bu xususiyatlar insonning ularga topinishiga ham omil bo'lgan. Quyosh, oy, yulduz kabi osmon jismlari ham, tog', tosh, suv kabi tabiiy-fizik jismlar ham jonli va o'z sehriga ega. Ular xatti-harakatlariga insonga xos xususiyatlar ko'chiriladi: ular gapiradi, yaxshilik va yomonlikni farqlaydi. Odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Mifga xos evrilish tufayli inson toshga aylanadi, aylantirib qo'yiladi.

Sehrli fantastik ertaklarda mifga xos magik raqamlar ham turli poetik vazifalarda keladi. Bu raqamlar ba'zida vaqtni cho'zish uchun (bu vaqt ichida qahramon aniq bir to'xtamga kelib oladi), yo'llar (uch yo'l) va xarakter qirralarini ochish uchun xizmat qildiriladi. Odatda, folklorshunoslikda xalq qo'shiqlari ham uch asosiy guruhga: dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga ajratiladi va bular marosimlarga bog'lanmaydigan qo'shiqlar sirasiga kiritiladi. Ovchilik, savdo-sotiq bilan bog'liq qo'shiqlar saqlanib qolmaganligi qayd etiladi.

Marosim folkloridagi kelin kelganda gulxan yoqilishi ham "Avesto" miflari bilan bog'lanadi. Gulxan atrofida kelinning uch marta aylantirishda kelin poklanadi, yangi joyga moslashadi, aylanishning uch marta takrorlanishi magik raqam bilan bog'lanadi.

Afsona deb beriladigan matn mazmuni quyidagicha: jahonni fath etgan Iskandar mangu hayot suvini izlab g'orga kiradi. Ammo obihayotni unga hamrohlik qilgan Xizr va Ilyos ichib, o'lim bilmas xususiyatga ega bo'ladilar. Shundan beri ular dunyoni kezib yurishadi va Xizr quruqlikda, Ilyos suvda yo'lovchilarga yordam berishadi.

So'z san'ati, xususan folklor namunalari muayyan xalqning ko'p asrlik ijtimoiy hayoti ko'zgusidir. Biz so'z yuritayotgan uchlik asosidagi badiiy lavhalar maishiy turmush, ijtimoiy jarayon, falsafiy tafakkur taraqqiyotini ko'z oldimizda yaqqol gavdalantiradi. Biz aynan folklor namunalari orqali ajdodlarimizning oilaviy-maishiy turmush tarziga qo'ygan talablari, avlodlarni tarbiyalash mezonlari, jamiyatni ravnaq toptirish bo'yicha mushoxadalari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. "San'atning asl qudrati – har bir avlod ongida yangilanib (1), har bir ko'ngilda rost mazmun kasb eta olishida (2), hayotni,

kosa davronni (ma'nosi: Baxshi-shoirning tinglovchi, o'quvchi ishqibozdan baland san'atkor ekanligi – kosa davronni – “poyga, uloq, bozor”ni badiiy mushohada etganligida.) badiiy timsollarda, kodlarda (3) muhrlanganida namoyon bo'ladi” [5, 75].

Tahlilga tortilgan uchlikka asoslangan ramzlar, timsollar, ishoralar muayyan xalqning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotining turli bosqichlarini badiiy-estetik jihatdan tasirli ravishda ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ularda olg'a surilgan umumbashariy g'oyalar har bir davr uchun o'zining axloqiy-ta'limiy ta'sirini ko'rsataveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сехрли» рақамлар. Т., «Фан» нашриёти. 1991 й.
2. Никифоров А.И. Структура чукотской сказки как явление примитивного мышления// Советский фольклор. № 2 – 3. М., 1936 С. 269; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. М., 1976. С. 96.)
3. Сказки народов мира – М.: «Правда» 1987.
4. Н.И.Конрад. Ренессанс ва Навоий. “Жаҳон адабиёти” 2006. №2.
5. Ш.Турдимов. Этнос ва эпос. Т. “Ўзбекистон” – 2021. – 96 б.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

To'raqulov Iqboljon Ikromovich
Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat
markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda ijodiy fikrlashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va yangilik yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi faolligi, mustaqil fikrlash, ijodkorlik.

Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. “Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T.Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o'rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalari aks etish jarayonidir”. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo'lib, u

maktabda o'qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma'lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo'lishini qayd qiladilar:

- 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur;
- 2) ijodiy tafakkur.

Reproduktiv tafakkur o'quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og'zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o'quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'rni kelganda reproduktiv tafakkurga, o'rni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko'radi.

Ta'limning samaradorligi o'quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashg'ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so'z va qo'shimchalarni, gap qurilishlarini o'zaro qiyoslash; ularning o'xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so'z va qo'shimchalar ro'yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o'zaro chambarchas bog'langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta'lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e'tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko'zlagan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, "Shaxsning xususiyatini ifodalovchi so'zlar" mavzusini o'rganishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so'zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (chiroyli, xushmuomala, serjahl, bosiq, samimiy, o'jar v.h) so'zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 3-3 ta so'zni berib, bu so'zlar ro'yxatini mustaqil davom ettirish, bolalarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko'maklashadi:

1. Ona tili ta'limi mazmunini o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish. "Ona tili darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadigan qo'shimcha o'quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to'g'ri tashkil etadi, o'qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, "O'quvchi + o'quv topshirig'i + o'qituvchi" o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri belgilash mumkin emas. O'qituvchi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning yoshini bilish o'qituvchi va o'quvchi orasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishga keng imkoniyat yaratadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi. Topshiriqlar o'quvchilarning bilim sa'viyasiga mos bo'lsagina u samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995.

2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2009.

ERKIN VOHIDOV G‘AZALLARIDA YOR OBRAZI

Abduraximova Dilafruz,

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov ijodidagi an‘anaviy obrazlarning poetik mazmuni yoritilgan. Shoir ijodida an‘anaviy yor obraziga xos xususiyatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: an‘anaviy obraz, adabiy ta’sir, novatorlik, poetik mazmun, poetic g‘oya.

Yor so‘zi o‘zbek tilida ko‘pincha sevgi, mehr-muhabbat, azob va sog‘inch kabi insoniy tuyg‘ularning obrazli ifodasi sifatida ishlatiladi. Ushbu obrazning lingvistik va madaniy kontekstlarda o‘ziga xosligi, uni boshqa tillarga to‘liq va aniq tarzda uzatishni murakkablashtiradi. Yor obrazining semantik transferi uning asliy ma’nosi va kengaytirilgan badiiy-tuyg‘u qatlamlarini boshqa tilga moslashtirish jarayonidir.¹⁹⁹ Yor obrazi badiiy adabiyotda ko‘plab o‘rinlarda uchraydi. Yor so‘zining ma’nosi quyidagi ma’nolarni ifodalaydi.

1. Dilga yaqin kishi; hamdam, do‘st, muhib; yordamchi.

a) ziyofatga o‘rtoqlar, yor va birodarlar kelishdi.

b) ostimizda o‘ynar otlar, Har kim o‘z ko‘nglini shodlar, Do‘st-u yor, yaxshi ulfatlar, Nuktadonlar, xush qol endi. Erali va Sherali

c) nihoyat, zafar ularga [massagetlarga] yor bo‘lib, dushmanni orqaga sura boshlashdi. M. Osim, Ajdodlarimiz qissasi

d) arvoqlar yor, pirlar madadkor bo‘lib, ovimiz baroridan kelsin. Hamza

2. Sevgili, ma’shuq, ma’shuqa.

a) Vafodor yor.

Har narsaning sababchisi ham, da’vosi ham yor. Oshiqqlar yor vasliga yetishish uchun necha ming mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Yozuvchilar asarlarida yor vaslini ta’riflasa, shoirlar yor tasvirini g‘azalga soladilar. Poetikada yor, oshiq, ag‘yor so‘zlari birgalikda keladi. Bularning barisi ijod na’munasining asosiy qahramonlari sanaladi. O‘z ijodini yor obrazi bilan boyitgan, o‘zini esa oshiq misolida tasvirlovchi faylasuf shoirimiz Erkin Vohidov ijodi bilan tanishib chiqamiz. Erkin Vohidovning “Yoshlik” devonida uning g‘azallaridagi yor obrazini ko‘rishimiz mumkin.

Saydi ishq bo‘lgan ko‘ngilga

Qo‘ymangiz behuda ayb.

Bo‘lsa bandi domi sayyod,

¹⁹⁹ Shomurodova, S. (2024). Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta’limidagi ahamiyati: Nordic_Press, 1(0001)

*Yo 'q erur ohuda ayb.
Bandga tushgan bu ko'nguldur,
Menda, ayting, ne gunoh,
Dil qushiga dom qo'ygan
U1 ikki joduda ayb.²⁰⁰*

Ushbu misralarda shoirning ishqga qul bo'lgan kimsani behuda aybga buyurmang. Agar o'hu sayyodni o'ljasi bo'sa unda ham ayb yo'q, chunki sayyodni ishi ovchilik. Meni bu ko'nglimam yor ishqida qamalgan bo'lsa, menda gunoh yo'q. Buning aybdori ikki jodu ya'ni ko'zlarim deb o'zining yorga oshiqligini chiroyli tasvirlagan.

*Jodu ko'zlar bandi yolg'iz —
Sen emas, tutqun yurak,
Avval oxir ko'hna meros
Ishq degan tuyg'uda ayb.*

Keyingi misralarda shoir jodu ko'zlarning asiri bitta sen emas qalbim, bu ko'hna meros bo'lgan "Ishq" degan tuyg'uda ayb deydi.

*Tushda ko'rdim dilbarimni,
Ey sabo, uyg'otmagil,
Olma bir dam vasl shavqin,
Qo'y, meni qo'zg'atmagil.
Necha kunlar axtarurman,
Ko'zlarimda uyqu yo'q,
Uyquda topdim nihoyat,
Endi sen ajratmagil.*

"Uyg'otmagil" g'azalida esa shoir shabbodaga murojat qilib uni uyg'otmasligini tush ko'rayotganini, tushida axtarib yrgan yorini topganini aytadi.

*Seni yotlar tugul hatto —
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.
Ko'zim yongay senga nargis —
Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.*

"Rashkim" she'rida esa shoir yorini begonalar tugul hatto o'zidan ham qizg'onishini aytadi. Uzoqroq termulsam, ko'zimdan ham g'ashlanaman. Nargiz gul

²⁰⁰ Шомуродова, С. Х. (2020). Эркин Воҳидов ғазалларида талмех санъатининг ўрни. Международный журнал искусство слова, 3(5).

senga qiyo boqsa ko'zim yonadi. Lola termulsa senga rashkim yuzimdan ham bilinadi, ya'ni loladay yuzlarim qizaradi deb tasvirlaydi shoir.

*Ko'rdim-u lol bo'ldi aqlim, o'ngmidi bu
yoki tush,
Bo'lsa ham o'ng, yo seni ko'rgach, boshimdan
uchdi hush.
Sen baland tog' uzra erding misli ohu
yoki qush,
Yolvorib men pastda derdim: bir nafas
yonimga tush.*

Shoirning o'z g'azallarida oshiq obrazi sifatida gavdalanganini ko'rib o'tdik, uning "Azganush" g'azalida esa yor sifatida arman qizini tasvirlaydi. Seni ko'rganim tushimda edimi yoki hushimda, boshimdan hushim uchdi deb aytib o'tadi. Shoir yorini tog'dagi ohu yoki misli qush sifatida tasvirlaydi. U yoriga murojat qilib yoniga bir bor tushishini yolvoradi. Bu bilan oshiqning yor vaslini yaqindan ko'rishga bo'lgan mushtozlikni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak shoir yorga nisbatan turli o'xshatishlar qilganini, unga turli murojatlarni amalga oshirganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomurodova, S. (2024). Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta'limidagi ahamiyati: Nordic_Press, 1(0001).
2. Шомуродова, С. Х. (2020). ЭРКИН ВОХИДОВ ҲАЗАЛЛАРИДА ТАЛМЕҲ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
3. Mirshadmanovna, X. Z., & Qizi, Q. M. M. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O 'RGATISH. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 658-663.
4. Obidjon o'g'li, Y. O. (2024). MATN TAHLILIDA TERMINOLOGIYA MASALASI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 79-82.

MASHRAB IJODIDA PAYG'AMBARLAR OBRAZI TASVIRI : AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

*Hasanova Saodat Xakimjon qizi
Namangan davlat universiteti magistri*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mutasavvuf shoir Boborahim Mashrab ijodida poetik mahorat, xususan, payg'ambarlar obrazining g'oyaviy-badiiy talqini, poetik mahorati va uslubiy o'ziga xosligi kabi masalalar tahlili ko'rib chiqilgan .

Kalit so'zlar: Tasavvuf, Qur'oni karim, payg'ambar, hadis, ramz.

Annotation. This article analyzes the poetic mastery of the Sufi poet Boborahim Mashrab, particularly focusing on the ideological and artistic interpretation of the prophets' imagery and the stylistic uniqueness in his works.

Key words: Mysticism, Qur'an karim, prophet, hadith, symbol.

Boborahim Mashrabning mohiyatan inson qadri, sharafi va ma'naviy kamolotini ulug'lashga, ezgulik va go'zallikni madh etishga bag'ishlangan she'riy merosida g'azal, mustazod, murabba, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta'rix kabi janr turlarida bitilgan yetuk namunalarni uchratamiz. Boborahim Mashrab o'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p mustazod yozgan ijodkorlardan biri. Shoir mustazodlari ham xuddi g'azallari kabi, sho'x va jarangdor, nafis va zavqbxashdir. Mumtoz she'riyatda murabba' turining mustahkamlanishi va takomilida Mashrab ijodining o'rni katta. Romantik ko'tarinkilik ruhi ufurib turgan asarlarini adabiyot tarixida murabba' turida yaratilgan eng yetuk namunalar jumlasiga kiritish mumkin. Boborahim Mashrabning g'azal, mustazod va murabbalarida ishq-muhabbat, vafo, sadoqat mavzusi yetakchi o'rinda tursa, muxammas va musaddaslarida chuqur ijtimoiylik ustunlik qiladi, taqdirning kemptikligi va hayotning nosozliklaridan, davr va adolatsiz muhitning shaxs boshiga tinimsiz keltirayotgan jabr-u jafosidan shikoyat qat'iy va keskin ifodalanadi:

*Shirin g'amida Farhod, tog'larda etib faryod,
Ishq o'tida o'rtanib oxir bu fano bo'lg'on.
Ul oshiqi Majnun ham Layliga bo'lub shaydo,
Cho'llarda vatan aylab ko'z yoshi ravon o'lg'on. [1:148]*

Lirika, aslida, shoir, ijodkor tuyg'usi, his-hayajoni, ideali, yashashdan umidining poetik in'ikos, ruhiy kechinmalar natijasi hisoblanadi. Ana shu tuyg'ularning barchasi majoziy, falsafiy, estetik qarashlar orqali Boborahim Mashrab ijodida o'z ifodasini topgan.

Shoir musammanlarining har bir misrasida axloqiy-ta'limiy masalalar payg'ambarlar obrazi misolida keltiriladiki, bu Boborahim Mashrabning o'ziga xos iste'dodini ko'rsatadi:

*Fano bergil, hidoyat qil jahannamning tanuridin,
Tufaylidur bu yo'l, afv ayla, Dovudning zaburidin,
Chiqorgil xotirimni nafsi shaytonning g'ururidin,
Dilimga ohi sardi berki Isrofilning suridin,
Qulumyan tutgilu Dovud bo'taqvoga yetkurgil [1: 347]*

Mashrabning she'riyatida payg'ambarlar obrazlari tasvirlanayotganda, ularning har biri nafaqat tarixiy shaxs, balki insoniy komillik va ma'naviy ideal ramzi sifatida qoraladi. Badiiy talqinning poetik usullari va ularning tasavvufiy mazmuni.

*Hazrati Odamni avval jumladin a'lo qilib,
Posi sultonni bag'ishlab jannat ichra shoh qilib,
Hazrati Havoni ul odam bilan hamroh qilib,
Kulli maloiklar ichinda jumladin a'lo qilib.
Oxiri vaqtida jannatdin sivo qildi falak.[3: 48]*

Bir so'z bilan aytganda, xalq orasida qalandardek yurib, taqdiri azalga raddi badal berib tug'ilgan Boborahim Mashrab g'azallari asrlar davomida nasllar orasida qalblardan qalblarga ko'chib kelayotir.

*Reza reza qildi mehnatdin tani Ayubni,
Dog'i farzandiga sargardon qilib Yaqubni,
Sotturub bozorg'a balki o'shal mahbubni,
Qaysi bir vasfini aytay charxi be oshubni,
Oxiri vaqtda giriftori balo qildi falak. .[3: 48]*

Payg'ambarlar obrazlari esa ilohiy haqiqatni anglash va namuna sifatida ko'rsatiladi.

Buyuk iste'dodli shoirning so'zi Sharqda hamon betakror, hamon haq uchun dadil jangga kirganlarga hamdam, maslakdosh, ammo kecha-yu kunduz mol tilagida yurgan "o'z nafs bilan sirdosh" kishilarning esa qattol dushmani, ogoh etuvchi hozir-u nozir bir ovoz. Shoir ijodida bir she'rning har bandida payg'ambarlar obraziga ta'rif berilgan:

*Misli ruhmankim miyoni jonda yurdum axtarib,
Ham chu Odam jannati rizvonda yurdum axtarib,
Navha qilim Nuhdek no'fyonda yurdum axtarib,
Chun Xalildek otashi so'zond a yurdum axtarib,
Misli Ismoil kabi qurbonda yurdim axtarib. [1:338]*

Hayratlanarlisi shundaki, Boborahim Mashrabning mutlaq Allohga ishq ham xuddi shunday samimiy va ehtirosli. Hech bir soxtalik, pardali kinoyali gaplarni uchratmaysiz unda:

*Manzilim bo'ldi Musodek har zamone ko'hi To'r,
To dilimga toblag'ay db mahzari nuri g'afur,
Dovudi Sarmastdek ilkimga olganman zabur,
To Musodek nardalardin o'tmasa nur qaydadur,
Charx urub sarmananli umronda yurdim axtarib. [1:338]*

Payg'ambarlar obrazlari orqali shoir insonni to'g'ri yo'lga boshlash, sabr-toqat, adolat va mehr-oqibatni targ'ib qiladi. Bu obrazlar o'quvchiga chuqur ta'sir qiluvchi badiiy vositalar bilan yoritilgan. Shoir o'z davrida tasavvuf falsafasiga asoslangan holda Qur'on hikoyalari, payg'ambarlarning hayoti va ularga oid dostonlardan ta'sirlangan.

Boborahim Mashrab ijodida payg'ambarlar obrazini tasvirlashda o'ziga xos uslubiy xususiyatlar mavjud bo'lib, ular uning badiiy mahorati, tasavvufiy dunyoqarashi va estetik tafakkurining yorqin ifodasidir.

Mashrab tasavvufni o'z she'riyatining asosiy ilhom manbai sifatida tanlagan.

Mashrabning payg'ambarlar obrazini yaratishdagi uslubi ramziy, tasavvufiy va estetik yondashuv bilan boyitilgan. U Qur'on qissalarini badiiy shaklga solib, ularni inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi vositaga aylantiradi. Tashbeh, istiora, talmih kabi san'atlarni mohirona qo'llash orqali Mashrab o'z asarlarida payg'ambarlarning siymosini nafaqat diniy, balki hayotiy va ma'naviy ideal sifatida yuksak darajada tasvirlagan. Bu uslub Mashrab she'riyatining badiiy yuksakligi va doimiy ahamiyat kasb etishiga sabab bo'lgan.

O'shandog' hazrati Yusufni solding g'amning chohiga

Nazar qil, yo ilohiy, siynai choklarning ohiga,

Ilohiy dard ko'rgan Ayubi donoga etkurgil.

Bu har jomandalar yo'l ustiga umidvoringdur,

Qachon rahmat etushgay deb hamisha itizoringdur,

Alastning xamirini ichgan hama beixtiyoringdur,

Nazardin solma mazlumlarni kamtar hoki soringdur,

Shafolat vaqti ummatni Rasululloga etkurgil.

Qur'on va hadisda payg'ambarlar eng oliy axloq va odil yo'lni ko'rsatuvchi namuna sifatida tasvirlangan. Bu baytlar shoirning diniy bilimi va shar'iy ilmini namoyon qiladi. Shoirning ijodida Yusuf (a.s.) va Zulayho, Muso (a.s.) va Iso (a.s.) haqida ramziy talqinlar ko'plab uchraydi. Talmih san'ati Boborahim Mashrab ijodida payg'ambarlar obrazini yaratishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mashrab. Mehribonim qaydasan? – Toshkent: G'afur G'ulom, 1990. – 416 b.
2. Mashrab. Devon / Nashrga tayyorlovchilar: Vahob Rahmonov va Komiljon Isroilov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – 352 b.
3. Boborahim Mashrab. Alifni dilga jo qilmoqni bismillohdin o'rgandim / Nashrga tayyorlovchi, lug'at va izohlar tuzuvchi: Ismatulloh Abdulloh. – Namangan: Namangan, 1999. – 80 b.
4. Boborahim Mashrab. Mab dai nur / Qo'lyozma manbalardan nashrga tayyorlovchi, tadqiq qiluvchi, lug'at va izohlar tuzuvchi Ismatulloh Abdulloh / Toshkent: Fan, 1994. – 236 b.
5. Hamroyeva D. Boborahim Mashrab g'azallari poetikasi (ma'no, obraz va istiloh misolida): Filol. fan. nomz...diss. – Toshkent, 2004. – 156.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA ADABIYOT NAZARIYASI, ADABIYOT TARIXI VA ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI			
1	H. Jo‘rayev	INSONIY BURCHNING OLIY KO‘RINISHI	3
2	A.Sabirdinov	BOTU IJODIGA BIR NAZAR	5
3	H. Jo‘rayev T. Ro‘ziyev	G‘URBAT VA MA‘RIFAT TIMSOLI	9
4	Z. Qobilova Sh. Payg‘amova	NAVOIY VA AMIRIY G‘AZALLARIDA XALQONA HIKMATNING BADIY TALQINI (BIR MAQOL MISOLIDA)	12
5	X. Sharafiddinov	ERTAKLARNING G‘OYAVIY STRUKTURASI	16
6	H.Jo‘rayev M. Karimova	IJODIY IZDOSHLIK, G‘OYAVIY MUSHTARAKLIK	19
7	S.Usmanova D. Fazliddinova	TARIXIY ROMANLARDA INGLIZ MALIKALARI BILAN BOG‘LIQ TARIXIY HAQIQAT	22
8	A.Qayumov	STRUKTURAL POETIKANING MUAMMOLI MA‘NOLARI	26
9	B. Rajavaliyev	“BOQIRG‘ON KITOBİ –TURKIY TASAVVUF ADABIYOTI NOYOB YODGORLIGI”	29
10	Ch. Abdullayeva	G. PRYAXINNING «MIRAJ» VA X.MURAKAMINING «KAFKA PLYAJDA» ASARLARIDAGI TUSHLARNING MIFOLOGIK VA RAMZIY KODLARI	33
11	M. Hamdamova	O‘ZBEK ADABIYOTIDA “NAY” OBRAZI	36
12	N.Mahmudjonova	SHEKSPIRNING BADIY MAHORATI	40
13	S.Solijonova	BADIY MATNDA FOLKLORIZM HODISASINING IFODALANISHI	42
14	D.Gafurova	BADIY ASAR STRUKTURASIDA SHAMOL DETALINING O‘RNI	45
15	S.Xodjayev D.Abdumalikova	ABDULLA QODIRIYNING "O‘TKAN KUNLAR" ROMANIDA OPA-SINGIL XUSHRO‘Y VA ZAYNAB OBRAZLARI TAHLILI	51

16	T. Ro‘ziyev	ZOKIRJON FURQAT – O‘Z DAVRINING MA’NAVIY ISLOHOTCHISI SIFATIDA	54
17	D.Abdumalikova	BADIIY ASARGA OPA-SINGILLAR OBRAZINING OLIB KIRILISH SABABLARI	58
18	G‘.Abdupattayev	NABIJON BOQIYNING “GULZAMIRA” QISSASIDA OBRAZ VA TASVIRIY VOSITALAR UYG‘UNLIGI	60
19	M.Yusupova	XX ASR SHE’RIYATIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI (NAVOIY OBRAZI MISOLIDA)	66
20	Z.Tojimatova J.Abdullayeva	“QISASI RABG‘UZIY” ASARINING TUZILISHI VA O‘ZIGA XOSLIGI	70
21	M.Parpiyeva	ADABIY QAHRAMON TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI	73
22	M.Hamidova	XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRINING JANR QAMROVI	78
23	M.Tolibova	LUQMON BO‘RIXONNING “SINOV MUDDATI” HIKOYASIDA KOMPOZITSION XUSUSIYATLAR	82
24	M.Alijonova (G.Oripova)	MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATI POETIKASI	85
25	S.Ahmadjonova G.Oripova	ABDULLA QAHHORNING “SAN’ATKOR” HIKOYASI VA UNDAGI BADIIY DETALLARNING AHAMIYATI	89
26	Sh.Sherqo‘ziyev	KONFLIKT HAMDA HAYOT- MAMOT MASALALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT	92
27	S.Sulaymonova	O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI GENEZISI: XALQ DONISHMANDLIGIDA	98
28	M. Abduqahhorova	SHAVKAT RAHMON IJODINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	102
29	G.Hamroaliyeva G.Oripova	O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHİK ORASI” ROMANIDA “QORA AMMA” OBRAZI TASVIRI	105
30	M.Dehqonova	QODIRIYSHUNOSLIKKA DOIR TADQIQOTLAR	107
31	J.Sayidolimov	“SABOT UL-OJIZIN” ASARIDA CHAHORIYORLAR OBRZANING YORITILISHI	111
2-SHO‘BA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMA			

NAZARIYASI			
32	D.Abdurahimova	ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)	116
33	Z.Kurbanova	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EPITETLARNING SINTAKTIK TAHLILI	119
34	U.Orunbayeva	SINXRON TARJIMADA KOGNITIV MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMLARI	123
35	M.Sotvoldiyeva	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HISSIYOTGA OID METAFORALARNING TADQIQI	127
36	M.Bahromova	GENDER STEREOTIPLARI VA “AYOL” OBRAZINING KONSEPTOSFERADAGI AKS ETISHI	130
37	G.Qosimova	YAPON VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISH JARAYONI: TIPOLOGIK O‘XSHASHLIKLAR VA MILLIY XUSUSIYATLAR	136
3-SHO‘BA			
NAZARIY VA AMALIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI			
38	M.Zokirov	O‘ZBEKISTON OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA KO‘PTILLILIK HODISASI XUSUSIDA	142
39	E.Ibragimova	UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR BILAN ALOQADORLIKDA IRONIK MUNOSABATNING YUZAGA CHIQISHI	146
40	Z.Alimova	FORSIY SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING O‘ZBEK TILIDAGI O‘RNI	149
41	Z.Tashtemirova	KONSEPTOSFERADA MA‘NO SHAKLLANISHI VA TUSHUNCHA MUNOSABATI	151
42	G.Umarjonova	NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZELOGIZMLAR TADQIQI	157
43	S.Rajabova	ISHTIXON TUMANI SHEVASIDA UCHROVCHI FORSCHA O‘ZLASHMALARNING XUSUSIYATLARI	161
44	Z.Kurbonova	TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (DEBAT USULI MISOLIDA)	166
45	A.Tursunov	SINTAKTIK SATHDA PLEONAZM	169
46	S.Habibullayeva	ISAJONSULTON HIKOYALARIDA	173

		NOVERBAL VOSITALAR: GEST VA MIMIKANING LINGVOPOETIK FUNKSIYASI	
47	L.Murodjonova	KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA METAFORA VA ARALASH METAFORA	176
48	G.Yoqubova	O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARIDA FONETIK TAKRORLARNING XUSUSIYATLARI	179
49	A.Qutiboyeva	TURKIY TILSHUNOSLIKDA FOLKLORIK FRAZELOGIZMLARNING TUTGAN O‘RNI (QORAQALPOQ VA QOZOQ DOSTONLARI ASOSIDA)	183
50	S.Sherdjanova	TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI	186
51	N.Jo‘rayeva	KONSEPTUAL-SEMANTIK TAHLIL: “SMILE/TABASSUM” LEKSEMALARINING SINONIMIK VA ANTONIMIK PARADIGMASI	190
52	Sh.Rahimova	SHUKRONALIKNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA MADANIY KODLARI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI TAQQOSLASH	194
53	Z.Keldiyorova	NORASMIY MULOQOTNING LINGVOPRAGMATIK JIHATDAN O‘RGANISHNING AHAMIYATI	197
54	J.Axrorova	O‘ZBEK TILIDA METONIMIYANING KOGNITIV TALQINI	202
55	N.Xolmatova	XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINI TAHLIL QILISHDA FILM DIALOGLARIDAN FOYDALANISH	205
56	Z.Ibrohimova	O‘ZBEK LINGVOKULTUROLOGIYASINIG SHAKLLANISHI VA RIVOJI	208
57	N.Akramova	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GLUTTONIK PRAGMATONIMLARNING KELIB CHIQISHI HAMDA XUSUSIYATLARI	211
58	S.Saparova	TABRIK VA ISTAK, QUTLOV MUNOSABATINI AKS ETTIRUVCHI NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING	215

		LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	
59	N.Tursunova	INKOR KATEGORIYASINING MODALLIK VA BAHOLASH KATEGORIYALARI BILAN O'ZARO ALOQALARI	220
60	ShJo'rayeva	RUS TILSHUNOSLIGIDA ASAR NOMLARINING O'RGANILISHI	224
4-5-SHO'BA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI ZAMONAVIY PEDAGOGIKA: INNOVATSIYON YONDASHUVLAR			
61	B.Qurbonova	OLIY TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNING INTEGRATIV MODELII: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	230
62	F.Akbarova	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SAVOD O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	233
63	Sh.Maxkamova	ADABIYOT FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	236
64	D.Sobirova	VIZUAL MATERIALLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI	241
65	N.Xudoyberdiyeva	O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QUVCHILARDA AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH	244
66	Y.Yormatova	TURLI TIZIMGA OID TILLARNING INTONATSION MODELLARI	248
67	S.Xodjayev	FOLKLOR: RAMZLAR VA TIMSOLLAR	252
68	I.To'raqulov	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH	256
69	D.Abduraximova	ERKIN VOHIDOV G'AZALLARIDA YOR OBRAZI	259

70	S.Hasanova	MASHRAB IJODIDA PAYG‘AMBARLAR OBRAZI TASVIRI : AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK	
----	------------	---	--

**“TAHLIL VA TALQIN”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**



To‘plam “O‘zbek tili va adabiyotining o‘qitilish masalalari: tahlil va tadqiq” nomli loyiha doirasida tayyorlandi

To‘plamga kiritilgan maqolarninng mazmuniga va plagiatiga muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi

